O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

BERDIYEVA U.A.

SOLIQ MUNOSABATLARIDA SOLIQ INTIZOMI MUAMMOLARI

DARSLIK

Toshkent
«MAKON ZIYO NURI»
2025

UO‘K: 336.2(075.8)
KBK: 65.261.4 B 55

Taqrizchilar:
B.K. Tuxliev – iqtisod fanlari doktori (DSc), professor;
Amanov A.M. – iqtisod fanlari nomzodi, professor

ISBN: 978-9910-8834-4-6

Berdiyeva U.A. *Solıq munosabatlarıda solıq ıntızomı muammoları. Darslık // – T.: «*MAKON ZIYO NURI*» 2025. – 320 bet.*

Darslikda soliq munosabatlarining tashkil etilishi, iqtisodiy mohiyati, maqsadi va vazifalari, funksiyalari va roli, uning davlat soliq menejmenti tizimida tutgan o‘rni yoritilgan. Soliq munosabatlari qatnashchilari o‘rtasidagi soliqqa oid munosabatlar, ularning vazifalari va funksiyalari, majburiyatlarini o‘rganish orqali soliq to‘lovchilar tomonidan soliq majburiyatini bajarilishi, soliq to‘lamaslik riski darajasi yuqori soliq to‘lovchilar soliq intizomi nazorati, soliq qonunchiligini buzganlik uchun javobgarlik tizimi, shuningdek, soliq intizomiga rioya etish yo‘llari hamda soliq intizomi nazoratiga oid ilg‘or tajriba va metodlar chuqurlashgan tarzda o‘rganilgan.

Darslikning mazmuni amal qilayotgan qonunchilik normalariga asoslanadi va Oliy ta‘limning 70410201– Soliqlar va soliqqa tortish (tarmoqlar va faoliyat turlari bo‘yicha) magistratura mutaxassisligi bo‘yicha Davlat ta’lim standartlari talablariga mos keladi.

Mazkur darslik oliy ta’limning magistratura bosqichi 70410201– Soliqlar va soliqqa tortish (tarmoqlar va faoliyat turlari bo‘yicha) magistratura mutaxassisligi magistrlari uchun mo ‘ljallangan.

© Berdiyeva U.A., 2025.
© «MAKON ZIYO NURI» 2025.

KIRISH

Zamonaviy soliq ma’muriyatchiligi qonuniyligi, raqamli transformatsiyalashganligi, soliq organlari va soliq to‘lovchilar o‘rtasida ishonchli munosabatlarga asoslanganligi bilan ahamiyatli. Xorijiy rivojlangan mamlakatlarda soliq ma’muriyatchiligi inson omilining minimal ishtiroki va korrupsiya holatlarining deyarli uchramasligi bilan asoslanadi. Shu sababli ham O‘zbekistonda soliq ma’muriyatchiligining nazariy asoslarini tadqiq etish, huquqiy asoslarini takomillashtirish va amaliy tajribalarini shaffoflik, inson omilining minimal ishtiroki va adolatlilik tamoyillariga asoslangan holda olib borish uchun soha mutaxassislarining soliq ma’muriyatchiligini mukammal egallash vazifasi dolzarb hisoblanadi.

Soliq munosabatlarini tashkil etilishi soliq tizimini shakllantirishning nazariy va iqtisodiy asoslarini, iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida soliq tizimini samarali tashkil etilishini, Davlat soliq xizmati organlari va soliq to‘lovchilar o‘rtasidagi soliqqa oid munosabatlarni, ularning vazifalari va funksiyalarini, majburiyatlarini o‘rganish asosida davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda soliqlarning hissasini tahlil qilish va moliya tizimi barqarorligiga ta’sir etuvchi omillarini aniqlashni, soliq intizomiga rioya qilinishi bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakani shakllantirishni, soliq nazoratini amalga oshirish metodologiyasini, soliq tekshiruvlarini tashkil etish va o‘tkazish, soliq to‘lovchilarning moliya-xo‘jalik faoliyatini taftish qilish hamda soliqqa oid huquqbuzarlik uchun javobgarlik choralariga oid nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishni talab etadi.

«Soliq munosabatlarida soliq intizomi muammolari» darsligida byudjet tushumlari uzluksizligini ta’minlashdagi soliq munosabatlarida soliq intizomi mohiyati, soliq to‘lovchilar tomonidan soliq majburiyatlarini bajarish tartiblari, soliq to‘lamaslik riski darajasi yuqori soliq to‘lovchilar soliq intizomi nazorati, soliq tekshiruvlari va boshqa soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazish, soliq tekshiruvlarini o‘tkazish tartibi, soliq auditini mazmun-mohiyatini bilish, moliyaviy-iqtisodiy hamda soliq sohasidagi jinoyatlar va boshqa huquqbuzarliklarni aniqlash, shuningdek, aniqlangan soliq huquqbuzarliklari yuzasidan ma’muriy yoki moliyaviy jazo choralarini

qo‘llash, soliq intizomiga rioya etishdagi muammolar, ularni yechishda ilg‘or tajriba va metodlar o‘rganilgan.

«Soliq munosabatlarida soliq intizomi muammolari» fanini puxta o‘rganish va fan uchun asosiy qo‘llanma bo‘lgan darslikdan foydalanish «Soliqlar va soliqqa tortish» magistratura mutaxassisligi magistrlari soliq ma’muriyatchiligi bo‘yicha yetuk mutaxassis bo‘lishida asosiy o‘rin tutadi.

«Soliq munosabatlarida soliq intizomi muammolari» fanidan darslik soliq munosabatlarining nazariy, huquqiy asoslari va amaliy hamda xorijiy mamlakatlar tajribalarini o‘z ichiga olgan o‘n oltita mavzuning mantiqiy ketma-ketligiga asoslangan qo‘llanmadir.

I BOB. SOLIQ MUNOSABATLARINI TARTIBGA SOLISH ASOSLARI

1-MAVZU. SOLIQ MUNOSABATLARINING TASHKIL ETILISHI

1. **Soliq munosabatlari mohiyati va xususiyatlari**
2. **Soliq munosabatlarini tartibga solish asoslari**
3. **Soliq tizimini shakllantirishning nazariy va iqtisodiy asoslari**

1. Soliq munosabatlari mohiyati va xususiyatlari

Soliqlarning paydo bo‘lishi va rivojlanishi davlat moliyasining shakllanishi va rivojlanishi jarayonida soliq to‘lovchilar mol-mulkining bir qismini majburiy ko‘rinishda davlat xazinasiga o‘zlashtirilishi sifatida undirish uzoq davrga borib taqaladi. Soliqlarning qachon paydo bo‘lganligi haqida hech qanday aniq ma’lumot tarixiy kitoblarda uchramasa-da, lekin soliqlarning ilk ko‘rinishi sifatida qurbonlik qilingan noz-ne’matlar e’tirof etiladi. Buning xususiyati shundan iboratki, u majburiy bo‘lmay ixtiyoriy tarzda amalga oshirilgandir. Qilingan qurbonliklar esa, kambag‘allarga, nochorlarga, yetimlarga, muhtojlarga ulashib berilgan.

Keyinchalik joriy etilgan soliqlar esa, bevosita qabila hamda urug‘lar o‘rtasida davom etib turgan urush-janjallarga bog‘liqdir. Bunday soliqlar natura shaklida bo‘lib, bir qabilani bosib olish yoki o‘zini muhofaza qilish uchun safarbar etilgan.

Soliqlar tarixda inson sivilizatsiyasi bilan birga rivojlanib, uning ajralmas qismi hisoblanadi. Soliqlarning iqtisodiy munosabatlarda asosiy o‘ringa chiqishiga avvalambor davlatning shakllanishi, jamoalarning sinflarga bo‘linishi, qadimgi ijtimoiy tuzumning vujudga kelishi, hamda ularning ma’lum moliyaviy manbaga ehtiyoj sezishlari sabab bo‘lgan.

Ingliz iqtisodchisi S. Parkinson so‘zi bilan aytganda: «Soliqlar ko‘hnadir – xuddi dunyodek, uning yuzaga kelishida qachondir bir mahalliy qo‘mondon o‘z hududida joylashgan daryo yoki tog‘dan savdogar hamda sayohatchi o‘tsa, ulardan haq olishi sabab bo‘lgan».

Soliqlar paydo bo‘lishi va rivojlanishi jarayonida ularning shakllari ham o‘zgarib kelmoqda. Agarda bugungi kunga kelib soliqlar asosan pul shaklida undirilayotgan bo‘lsa, ular qadimda bir qancha

ko‘rinishlarda, jumladan, mehnat shaklida, natura shaklida undirilgan. Shu bilan birgalikda jamiyat iqtisodiy taraqqiyoti yuksalishiga mos ravishda soliqlarning pulli shaklda undirilishi ham tobora rivojlanib bordi.

V.Pushkaryova soliqlar rivojlanish tarixini III bosqichga ajratib ko‘rsatadi.Ularning har biri u yoki bu xususiyatlari hamda afzalliklari bilan ajralib turadi.

Birinchi bosqichda soliqlarning rivojlanishi qadimgi va o‘rta asrlar qishloq xo‘jaligi tizimiga xos bo‘lib, tartibsiz hamda asossizligi bilan ajralib turadi. Xuddi, shu davrda soliq undirilish mexanizmi joriy etildi.

Soliqlarning joriy etilishi davlatning paydo bo‘lishi bilan bog‘liq bo‘lib, ularning amal qilishiga davlat apparatining shakllanishi, armiya, sud va ularning moliyaviy manbalar bilan ta’minlash zaruriyati, tovar ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yilishi kabi omillar sabab bo‘lgan.

Ilk soliqlar tizimsiz to‘lovlar ko‘rinishida bo‘lib, ular natura shakliga ega bo‘lgan. Aholi soliqlarni ekinlar hosilidan, savdo-sotiqdan hamda ovlagan hayvonlaridan to‘laganlar. Urush vaqtida esa, qo‘shimcha oziq-ovqat, kiyim-kechak, qurol-aslahalar etkazish, nochor bo‘lsa askar sifatida qo‘shinga jalb etilgan. Rim imperiyasi hamda Afinada tinch-totuv paytlarda soliq olinmagan. Soliqlarni joriy etish va undirish faqat urush davrlariga to‘g‘ri kelgan.

Tovar-pul munosabatlarining rivojlanishi va mustahkamlanishi soliqlarning hozirgidek pul ko‘rinishiga kelishiga olib keldi. Oldin soliqlar, asosan, chegara va qo‘shin ehtiyojlariga, shahar atrofini mustahkamlashga, yo‘l va ibodatxona qurilishlariga yig‘ilgan bo‘lsa, vaqt o‘tishi bilan soliqlar davlat xazinasi daromadining birinchi galdagi manbai bo‘lib qoldi.

Hozirgi davr soliq tizimiga mohiyatan o‘xshash ilk soliq tizimi qadimgi Rimda shakllangan. Bu soliqlar faqat urush xarajatlarini moliyalashtirish uchun zarur bo‘lgan. Rim aholisi o‘zining mol-mulki, turmush darajasi hamda oilaviy ahvolidan kelib chiqqan holda, soliq to‘lashgan. Soliq summalari maxsus shaxslar tomonidan hisob kitob qilingan.

Rimda davlat tashkilotlarining rivojlanishi bevosita imperator Oktavian Avgustin (er.av. 63-14 yillar) tomonidan soliq islohotini amalga oshirishga, oqibatda esa, ilk pul soliqlari joriy bo‘lishiga olib keldi. Soliqlarni joriy etish va uni nazorati bilan shug‘ullanuvchi moliyaviy muassasa shakllandi. Yer solig‘i davlat soliqlarining asosiy

ulushini tashkil etgan. Shu qatori ko‘chmas mulkdan, baliqlardan, chorva va boshqa mollardan soliqlar undirilgan. To‘g‘ri soliqlardan tashqari egri soliqlar ham bo‘lgan. Masalan, oborot solig‘i 1 %, qullar savdosidan oborot solig‘i 4 % va boshqalar. Bu davrga kelib soliqlar nafaqat fiskal, balki u yoki bu iqtisodiy tarmoqlar bo‘yicha tartibga soluvchilik vazifasini ham bajara boshlagan.

Ammo XVII asrgacha Yevropada soliqlar tartibsiz undirilganligi uchun yagona tizimga ega bo‘lmagan. Ularning taqdiri urush natijalariga bog‘liq bo‘lib, goh kamayib, goh ko‘payib ketar, natijada aholining tinka-porasini quritgan edi. Faqatgina XVII asr oxiri XVIII asr boshlariga kelib soliqlar rivojlanishining ikkinchi bosqichi boshlanadi.

Ikkinchi bosqichning o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, unda soliqlar davlat byudjetini shakllantirishning asosiy manbasi sifatida ko‘rilgan. Soliq ob’ektlarini aniqlash va soliqqa tortish qonun qoidalarini tartibga soluvchi ilk soliq tizimi yuzaga kelgan. To‘g‘ri va egri soliqlar ilk bor ajratilib, bu soliqlarning muhim va ahamiyatli jihatlari ochib berilgan. Soliqlar ichida asosiy o‘rinni aksizlar egallagan. Bular qonuniy ravishda shahar darvozalarida mamlakatga kiritiluvchi yoki undan chiqariluvchi tovarlardan undirilib, hamma daromadlar va tushumlar soliqqa tortilgan.

Yevropa mamlakatlarida demokratiyaning rivojlanishi natijasida soliqlarni hisoblash va undirish borasida aholining haq-huquqlarini himoya qilish masalalari o‘rtaga tashlandi.

Fransiyada faqatgina 1791-yil «Ulug‘ Fransuz revolyutsiyasi» dan keyin davlat byudjeti va soliqlari haqida ma’lumot berila boshlandi.

Soliqqa tortish tizimi rivojlanishi bilan bir qatorda soliqqa tortish nazariyasi ham asta-sekin takomillashib bordi. Soliqqa tortish nazariyasining ilk asoschisi shotlandiyalik iqtisodchi Adam Smitdir (1723–1790). U o‘zining «Xalqlar boyligining sabablari va tabiatlari» nomli kitobida (1776) ilk bor soliq tamoyillarini asoslab berdi, soliqlarning davlat moliyasi tizimidagi ahamiyatini soliq to‘lovchilarga tushuntirib, ularni davlatga to‘lash qullik emas, balki erkinlik alomati ekanligini asoslab berdi.

Uchinchi bosqichning o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, unda soliqlarning kamayishi hamda soliqlarni o‘rnatish va undirishga oid qonun-hujjatlarning kuchayishi yaqqol ko‘zga tashlanadi. Jamiyatda moliya ilmining rivojlanishi bilan soliqqa tortish muammolari va

uslubiyatlariga bag‘ishlangan yangi-yangi ilmiy-nazariy qarashlar vujudga keldi. Ammo hech qanday iqtisodiy maktab soliqlarning fiskal funksiyasidan muhimroq qarashni ilgari sura olmadi. XIX asrning ikkinchi yarmida ko‘p mamlakatlar yangi ilmiy nazariyalarni hayotga tatbiq etishga uringanlar, lekin faqatgina birinchi jahon urushidan so‘ng yangi ilmiy qarashlarning samarasi o‘laroq soliq tamoyillari hozirgi mukammal ko‘rinishga ega bo‘lgan. Ayni shu vaqtda zamonaviy soliq tizimining poydevori qurila boshlandi, to‘g‘ri soliqlarning ahamiyati ilmiy jihatdan asoslab berildi hamda byudjet daromadlari ulushining katta qismini to‘ldiruvchi jismoniy shaxslarning daromadiga solinadigan soliqlarni progressiv stavkalari joriy etildi. Shu bilan birga tan olish lozimki, shu vaqtgacha biror-bir davlatda mukammal soliq tizimi amal qilmaydi. Hozirgacha iqtisodiyot ilmi soliqqa oid ko‘pdan-ko‘p savollarga javob topa olmayapti. Ammo rivojlangan mamlakatlarda doimo amalga oshiriladigan islohotlar shundan dalolat beradiki, barcha xatti-harakatlar soliqlarning adolatli, teng taqsimlangan hamda aholini ijtimoiy muhofaza qilish kabi unsurlarning rivojlanishiga katta ahamiyat berilgan.

2. Soliq munosabatlarini tartibga solish asoslari

Mamlakatimiz tarixida miloddan oldingi va miloddan keyingi davrlarda hukmronlik qilgan davlatlarda, davlat boshliqlarining oliy maqsadlari o‘z xazinasini tinmay to‘ldirib borish, keyingi avlodlariga 2–3 barobar ortiq boylik qoldirish bo‘lgan. Yig‘ilgan xazinalarning eng ko‘p qismi unumsiz tadbirlarga tartibsiz sarflanib, hatto isrof bo‘lganligi ayon. Miloddan oldingi birinchi ming yillikning boshlaridayoq Markaziy Osiyo hududlarida ko‘chmanchilik sharoitida, o‘zlari uchun qulay joy izlab yurgan ko‘plab urug‘ va qabilalar, yer maydonlari, suv, o‘tloqlarni egallash maqsadida kurashib kelganlar, ayrim hollarda esa, o‘zlaridan kuchliroq, yirik qabilalarga yer solig‘i, ya’ni, o‘lpon to‘lab turganlar.

Tarixiy manbalar podshoh xazinasining dastlabki asosiy manbai sovg‘a-salom bo‘lganligidan dalolat beradi. Lekin Doro hukmronligi davriga kelganda soliqlar joriy qilinadi. «Doroni Forslar savdogar deyishlariga sabab, u birinchi bo‘lib soliqlarni joriy etganligidadir» deb yozgan edi Gerodot. Doro soliq tizimini faqat o‘z mamlakatida emas, balki zo‘rlik bilan qaram qilib olgan mamlakatlarda ham joriy etdi. Soliq miqdori satin pul birligi talant hisobida aniqlangan. Ahamoniylar

hukmronligi davrida Markaziy Osiyoda yashovchi qabilalardan soliqlar salkam ikki asr mobaynida yillik xiroj va harbiy otryadlar yetkazib berish shaklida undirilgan. Bu davrda soliq turlari ham har xil bo‘lgan. Masalan, sak va kasbiylar kabi qabilalar 250 talant (1 talant 25 kg. 248 gr. sof oltinga teng bo‘lgan), ya’ni, 6312 kg. miqdorida, parfiyaliklar, xorazmiylar, so‘g‘dlar va oriylar 300 talant, ya’ni, 7574,4 kg. miqdorida xiroj to‘lashgan. Qat’iy belgilangan xirojlardan tashqari har xil sabablarni ro‘kach qilib qo‘shimcha soliqlar ham joriy etilar va ular suv yo‘lini to‘sib qo‘yish yoki boshqa xil zo‘ravonlik kabi tahdidlar orqali undirib olinar edi.

Aleksandr Makedonskiy Markaziy Osiyoni bosib olib, uni o‘z saltanati tarkibiga kiritgach, bu yerda istiqomat qiluvchilar soliqlarni yunonlar tamoyili bo‘yicha to‘lay boshlaganlar. Yunonistonda soliqqa tortish Markaziy Osiyodagidan farq qilib, soliqlar daromad solig‘i va ehsonlardan iborat bo‘lgan. Daromad solig‘i daromadning o‘ndan yoki yigirmadan biri miqdorida undirilgan va jamoat manfaatlarini himoya qilish maqsadlari yo‘lida ishlatilgan. Aleksandr Makedonskiy Markaziy Osiyoda asosan Ahamoniylar barpo etgan davlat apparati tuzilmasini saqlab, mahalliy zadagonlar tarkibidan satraplar hokimiyatini tuzgan. Maxsus soliq xizmati joriy qilmagan, soliq undirish vazifasi muayyan kishi zimmasiga yuklatilgan. Ular esa soliq to‘lovchilardan xazina bilan tuzilgan shartnomada belgilangandan ko‘ra ko‘proq soliqlar yig‘ib, o‘z manfaatlari uchun ham qo‘shimcha mablag‘lar to‘plab olishgan.

Eramizdan oldingi 140-yilda Yunon-Makedon mamlakati barham topdi. I asrning oxiridan boshlab to hozirgi eramizning IV asr o‘rtalarigacha Markaziy Osiyoda Kushon podsholigi hukmronlik qildi. Bu davrda soliqlarni hisoblash va undirish tartibi haqida yetarli ma’lumot bo‘lmasa ham, lekin ayrim arxeologik topilmalar, soliqlar oltin bilan hisoblanishini, undagi hujjatlar soliqlarni qabul qiluvchi xazinabon lavozimi bo‘lganligidan darak beradi. Surxondaryoning Denov shahriga yaqin Dalvarzintepa qishlog‘idan topilgan Kushon davlati davrida bunyod etilgan saroy qoldiqlari orasidan 40 kg dan ortiq oltin joylashtirilgan xum topilgan. Ashxobod yaqinidan topilgan bitiklar, yozuvlar esa soliq to‘lash bo‘yicha katta devon bo‘lganligidan darak beradi. Bu hujjatlarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, soliq yig‘ish va mahsulotlarni asrashga ko‘pdan-ko‘p amaldorlar jalb qilingan.

IV–VI asrlardagi turkiy qavmlar tarixiga oid qadimgi manbalarda qabilalar, urug‘lar o‘rtasida sodir bo‘lgan to‘qnashuvlarda

mag‘lubiyatga uchragan tomon aholisi yangi hukmdorlariga mavjud yer yoki chorvalari uchun soliqlar to‘lab turganligi, dehqonchilik yoki chorvachilik bilan shug‘ullanish imkoni bo‘lmagan joylarda esa soliq o‘rniga belgilangan miqdorda konlardan ma’danlar qazib berganliklari kabilar haqida ma’lumotlarni uchratish mumkin.

Arablar istilosigacha Markaziy Osiyoda shakllangan soliqlar tizimining xususiyati shundan iboratki, bu davrda quldorlik va feodal davlat boshqaruvining o‘ziga xos belgilari birlashib ketgan, hatto ayrim hollarda zodagonlar lashkar boshilarga maosh to‘lamasdan, uning o‘rniga ikkitoy tizimi joriy qilingan. Soliqlarni undirishda mahalliy oqsoqollar bilan birga soliq undirishni ijara usuli ham qo‘llanilgan. Soliqlar ko‘pchilik hollarda tumanlar bo‘yicha belgilanib, to‘lovchilarning xususiyatlari e’tiborga olinmagan.

651-yildan boshlab mamlakatimiz hududida arablar hukmronligi o‘rnatildi. Soliqqa tortish tizimi bir muncha murakkablashdi va soliqlarning turli xillari paydo bo‘ldi. Masalan, xayr-ehson ehtiyojlari uchun soliq – zakot (mol-mulkdan 2,5 foiz miqdorida) ijtimoiy keskinlikni yumshatish uchun mo‘ljallangan, kambag‘allar, yetimlar va yo‘lovchilarga xayr-ehson berishda foydalanilgan.

Bundan tashqari, quyidagi soliqlar mavjud edi, vazifa – o‘lpon, juzya – jon solig‘i, xiroj – yer solig‘i.

Xiroj quyidagi shakllarda undirilgan:

- Misaha – ishlov beriladigan maydon birligidan qat’iy stavkalarda;
- Muqota – qat’iy belgilangan summada;
- Muqosama – hosilning muayyan ulushida (1/3 qismi).

Xiroj Navro‘z bayrami arafasida yig‘ib olingan. Juzyani musulmon bo‘lmagan fuqarolar (ozod erkaklar) to‘laganlar. Xotin-qizlar, keksalar, kambag‘allar va qullar bu soliqni to‘lashdan ozod qilingan. Juzyani hisoblashda o‘ziga to‘qlik darajasi hisobga olingan va soliq pul yoki natura shaklida undirilgan. Yuqoridagi soliqlardan tashqari chorvadorlar, hunarmandlar va savdogarlardan soliqlar olingan.

Arablar hukmronlik qilgan davr soliq siyosatida ancha muvaffaqiyatlarga erishilgan bo‘lsa-da, ammo ba’zi kamchiliklar ham mavjud bo‘lgan. Xususan, Noib Ashras olib borgan soliq siyosatida, qisqa vaqt ichida ikki qarama-qarshi yo‘l tutilgan. Oldiniga musulmonlar juzya va xirojdan ozod etilgan. Ammo ko‘p vaqt o‘tmay xazinaga tushumlarning keskin qisqarib ketishi bu farmonni bekor qilishga majbur etgan. Oqibatda So‘g‘d va Buxoroda norozichilik

kuchayib, u qo‘zg‘olonga aylangan. Ashrasning muvaffaqiyatsiz soliq siyosati tufayli arablarga qarshi qudratli harakat avj olib, Movarounnahrning tez orada arablar ixtiyoridan chiqishi bilan yakunlandi.

Ikki asrdan ko‘proq hukmronlik qilgan arablar saltanati tugab, Somoniylar (869–1005 yillar) hukmronligi o‘rnatilgach, ular davlatida o‘nta devon tashkil etildi. Devonlardan uchtasi Devoni mustavfiy (kirim-chiqim ishlarini boshqargan) va Devoni muhtasib (bozorda toshu-tarozi, narx-navo va musulmonlar tomonidan shariat qoidalari bajarilishi ustidan nazorat qilgan), Devoni mushrif (davlat ishlari, xususan kirim-chiqim ishlarini yuritgan) soliqlarni ham nazorat qilgan.

Movarounnahrda IX–X asrlarda yerlarni soliqqa tortish ular kimga tegishli ekanligiga bog‘liq edi. Yerlar uch toifaga bo‘lingan:

Birinchi toifa yerlar – sultonga tegishli bo‘lib (mulki sultoniy), bunday yer ustidan nazorat keyinchalik «Mulki devoniy» deb nomlangan devon (mahkama) amaldorlari tomonidan amalga oshirilib, ushbu toifadagi yerlar haddan tashqari ko‘p edi. Bunday yerlarga asosan dehqonlar yerlari kirgan.

Ikkinchi toifa – yerlar shaxsan hukmron sulolaning ayrim a’zolari, qadimiy dehqon zadagonlar, shunchaki boy dehqonlarga, sayyidlar (Muhammad payg‘ambar xonadoni avlodlari), ayrim ruhoniylar, turk gvardiyasining ayrim rahbarlari, savdogarlarga tegishli bo‘lgan xususiy mulk yerlar.

Uchinchi toifa yerlar – musulmon diniy muassasalariga, ya’ni, masjid, madrasa, xonaqoh maqbaralarga vaqtincha yoki umrbod foydalanish uchun berilgan vaqf yerlar.

Xiroj uchala toifa yerlaridan ham olingan bo‘lib, ular «mulki xiroj» deb atalgan, lekin bunda oliy musulmon ruhoniylarga, avvalo sayyidlarga tegishli yerlar soliqqa tortishdan to‘liq yoki qisman ozod qilingan.

X asr boshlarida Movarounnahrni Qoraxoniylar egalladi, ya’ni, dariyzabon sulolasi o‘rnini turkiyzabon sulolasi egallagach, markazlashtirilgan davlat o‘rniga mamlakatni boshqarishning ulus tizimi o‘rnatilib, barcha yer xon mulki hisoblangan, dehqonchilik yer egaligi instituti sifatida tarix sahnasidan tushishiga sabab bo‘ldi. Bu davrda «iqta» soliq yig‘ishning asosiy manbaiga aylangan. «Iqtadorlar» o‘z navbatida, dehqonlarning oddiy jamoatchiga aylanishiga zamin yaratdi. Yerlar muayyan muddatga «Iqtadorlar» foydasiga muayyan

daromadni to‘liq yoki qisman olish huquqi bilan sovg‘a qilingan. «Iqta» sohiblari dehqonlardan maxsus qaror bilan belgilangan soliqlarnigina olishi mumkin edi. «Iqta»ga nafaqat yerdan, balki soliqqa tortishning boshqa obyektlaridan (tegirmon, hammom, bozordagi do‘konlar) olinadigan soliqlar va daromadlar ham berilishi lozim edi.

1221-yilda O‘rta Osiyoda mo‘g‘ullar hokimiyati o‘rnatildi. Bu hududlarda soliq siyosatini olib borish maqsadida ular tomonidan qurultoyda taklif etilgan tadbirlar hayotga tatbiq etila boshlandi va Mahmud Yalavoch boshchiligida o‘lkadagi xalqlardan turli xildagi soliqlarni undirar edilar. «Kalon» solig‘i dehqonlardan yig‘iladigan asosiy soliq bo‘lib, u hosilning o‘ndan bir qismini tashkil etgan. Chorvadorlardan «ko‘pchur» solig‘i olingan bo‘lib, uning miqdori har yuz bosh qoramoldan birga teng edi. Bundan tashqari «Yaso» qonuni bo‘yicha aholidan davlat foydasiga «shulsi» deb atalgan soliq undirilgan. Ushbu soliq turining miqdori har bir otardan ikki yashar qo‘y va har ming otdan bir biyani (qimiz uchun) tashkil etgan. Shuningdek, mamlakatdagi savdo yo‘llarida joylashgan bekat – «yom» (jom) larning xarajatlari ham aholi zimmasiga yuklatilib, ularning miqdori shu darajada ko‘payib ketar ediki, ba’zi hollarda har bir «yom» uchun 20 ot-ulov, so‘yish uchun qo‘ylar, sog‘ish uchun sog‘uvchisi bilan biyalar, aravalar va boshqa sarf-xarajatlar ajratilgan.

Mo‘g‘ullar istilosi davrida dehqonlar va hunarmandlarning ahvoli yil sayin yomonlashib bordi, chunki yer solig‘ini to‘lashdan tashqari dehqonlar turli xil majburiyatlar va xizmatlarni bajarishardi. Hunarmandlar, ayniqsa, qurol tayyorlab berish kabi majburiyatlarni olgan edi. Feodal va zadogonlarga xonzoda va xon xotinlari yorliq hamda payzalar tarqatgan, bu unvonlar dehqon va hunarmandlardan turli xizmat hamda majburiyatlarni bajarishni talab qilish huquqini bergan. Payza ko‘rsatilganda mahalliy aholi, masalan sayohat qiluvchini ovqatlantirishi va unga xona, otiga yem berishi va boshqa qulayliklar yaratishi shart edi.

Yil sayin aholining yashash sharoiti og‘irlashib borishi mamlakatning ko‘p joylarida qo‘zg‘olonlar ko‘tarilishiga sabab bo‘ldi. Bu qo‘zg‘olonlar zudlik bilan bostirilgan bo‘lsa-da, lekin mo‘g‘ul hukmdori Munnexon Movarounnahrda soliq to‘lovchilar amalga oshirayotgan tartibsizliklar va suistemolliklarga tegishli farmon chiqardi. Unga ko‘ra boy kishi 10 dinor, kambag‘allar esa 1 dinor to‘laydigan bo‘ldi. Chorva solig‘i 100 tuyoqdan bir bosh olinishi

belgilandi. Musulmon, xristian va butparastlar ruhoniylari, shuningdek, keksa va ishlashga noqobil kishilar soliq to‘lamaydigan bo‘ldilar.

Soliq yig‘ishga mas’ul etilgan Mahmud Yalovoch qo‘zg‘olondan so‘ng o‘z lavozimidan bo‘shatildi va Movarounnahrdan haydab yuborildi. Soliq yig‘uvchi va noib etib uning o‘g‘li Mas’udbek tayinlanib, u bu lavozimda 51 yil xizmat qildi. U mo‘g‘ullarga o‘lpon va soliqlarni o‘z vaqtida to‘lab turdi. Natijada mo‘g‘ullar Movarounnahrni boshqarish ishiga aralashmaganlar. Bunday holat Amir Temur hokimiyati o‘rnatilguncha davom etdi.

3. Soliq tizimini shakllantirishning nazariy va iqtisodiy asoslari

Yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar, yig‘imlar, bojlar va boshqa majburiy to‘lovlar hamda ularning tuzilish tamoyillari, usullari, soliq nazoratining yig‘indisi soliq tizimini tashkil etadi. Bu ta’rif soliq tizimini keng ma’noda tushunishdir. Soliq qonunchiligida soliq tizimi tor ma’noda talqin qilinib, bir xil mohiyatga ega bo‘lgan va markazlashgan pul fondini tashkil etadigan soliq, yig‘im, boj va boshqa majburiy to‘lovlarning yig‘indisi soliq tizimi deb ataladi.

Umuman olganda soliq tizimini tarkiban soliqqa tortish tamoyillari, soliq siyosati, soliqqa tortish tizimi, soliq mexanizmi kabilarga ajratish mumkin. Ushbu elementlar bevosita mamlakatda amal qilayotgan soliqlarning tarkibini belgilab beradi.

Mustaqillik yillarida soliq tizimi islohoti rivojlanishini yaqqol ko‘rsatish uchun shu davrni bir necha bosqichga bo‘lib ko‘rsatish mumkin.

Birinchi bosqich 1991–1994-yillar O‘zbekistonning o‘z soliq tizimini tashkil etish va soliqlarning xazinaviy ahamiyatini oshirish bosqichidir.

1991-yil 12-avgustda Vazirlar Mahkamasining «O‘zbekiston SSR Davlat soliq organlari haqida»gi 217-sonli qaror bilan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qoshida Davlat Soliq Boshqarmasi tashkil etildi va Respublika soliq tizimiga asos solindi.

1994-yil Soliq va bojxona faoliyati funksiyalari ajratildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994-yil 18-yanvardagi «O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qoshidagi Davlat soliq boshqarmasini O‘zbekiston Respublikasi Davlat Soliq Qo‘mitasiga aylantirish to‘g‘risida»gi farmoniga muvofiq Davlat Soliq Qo‘mitasi o‘z ish faoliyatini boshlagan. Ushbu farmon O‘zbekiston Respublikasi

Davlat Soliq Qo‘mitasining maqomi, asosiy vazifalari, funksiyalari vakolat doirasi va faoliyatining tashkiliy asoslarini belgilab berdi.

Respublikamizning o‘z soliq tizimini yaratishda 1991-yil 15-fevralda qabul qilingan «Korxonalar, tashkilotlar va birlashmalardan olinadigan soliqlar to‘g‘risida»gi qonun birinchi qonun bo‘ldi. U o‘zida birinchi marta soliq tizimining tuzilishi va ishlashining umumiy asoslarini aniqlab berdi, soliqlarni hisoblash va undirish tartibini o‘rnatdi.

1993-yilda «Korxonalar, tashkilotlar va birlashmalardan olinadigan soliqlar to‘g‘risida»gi qonuniga o‘zgartirishlar kiritildi. Shunga asosan daromad (foyda) solig‘i; qo‘shilgan qiymat solig‘i; aksiz solig‘i; mol-mulk solig‘i; respublikadan tashqariga olib chiqiladigan mahsulotlar va xom-ashyo resurslariga soliq joriy etildi. 1993-yil 7-may kuni «Mahalliy soliqlar va yig‘imlar to‘g‘risida»gi qonun qabul qilindi va ushbu qonunda ularga ta’rif berildi. Jismoniy shaxslar mol-mulkiga solinadigan soliq, yer solig ‘i, kurort zonalaridagi ishlab chiqarish maqsadlaridagi obyektlar qurilishiga solinadigan soliq, reklama solig‘i, avtotransport vositalarini olib sotganlik uchun soliq, ularning egalariga solinadigan soliq-jami 19 turdagi har xil soliqlar va yig‘imlar mahalliy soliqlar guruhiga kiritildi.

Soliq islohotlarining ikkinchi bosqichi soliqlarni bozor iqtisodi talablariga moslashtirish va korxonalarning ishlab chiqarishni rag‘batlantirishga qaratish davridir. Bu davrga 1995–1997 yillar to‘g‘ri keladi.

Bu davr soliqlarning ishlab-chiqarish samaradorligini oshirishga ta’sirini kuchaytirishga bag‘ishlandi. Ularga soliqlardan xilma-xil imtiyozlar berildi. Ayniqsa yuridik shaxslarning foydaga (daromad) solig‘idan imtiyozlar ko‘p edi, 1995-yildan boshlab korxonalar har bir foiz mahsulot ishlab chiqarish hajmini ko‘paytirgani uchun 0,3 %dan foydaga soliq stavkasi kamaytirildi.

1995-yildan boshlab soliq tizimini birxillashtirish boshlandi. Bir qator kam samarali soliqlar: respublika tashqarisiga olib chiqiladigan xom-ashyo resurslari uchun soliq, hisoblab yozilgan amortizatsiyadan byudjetga 30 foiz undirish va boshqalar bekor qilindi. Jamoa xo‘jaligi a’zolari va xalq xo‘jaligining boshqa sohalarida ishlayotganlar uchun soliqqa tortishning yagona tartibi o‘rnatildi. Ya’ni, jamoa xo‘jaligi a’zolari mehnatiga haq to‘lash jamg‘armasini soliqqa tortish bekor qilindi va ularga nisbatan fuqarolar daromad solig‘i to‘g‘risidagi

qonunchilik tatbiq etildi. Fuqarolar daromadiga solinadigan soliq shkalasi o‘zgartirildi.

Ikkinchi bosqichda amalga oshirilgan asosiy vazifalardan biri – soliq tizimining yagona huquqiy asosi O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining qabul qilinishi bo‘ldi.

O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi 1997-yil 24-aprelda qabul qilindi.Ushbu kodeks 135 moddadan iborat edi.

Soliq kodeksining qabul qilinishi soliq qonunchiligini mustahkamlabgina qolmay, soliqlarni mahsulotlar eksportini, import tovarlar o‘rniga mahsulotlar ishlab chiqarishni, ishlab chiqarishda nogironlarning qatnashishini, mehr-muruvvat ishlarini rag‘batlantirish vazifasini kuchaytirdi.

1997-yil 29-avgustda qabul qilingan «Davlat soliq xizmati to‘g‘risida»gi qonun O‘zbekiston Respublikasi soliq organlarining faoliyatini tartibga solishda asosiy me’yoriy-huquqiy hujjat hisoblanadi. Qonun 16 ta moddadan iborat bo‘lib, qonunda Davlat soliq xizmati organlarining tarkibi, ularning vazifalari, huquqlari, majburiyatlari, Davlat soliq xizmati organlarining mansabdor shaxslari, ularni lavozimiga tayinlash, maxsus unvonlar berish va shu kabilar keltirilgan.

Soliq islohotining uchinchi bosqichi 1998-yildan 2007-yilgacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. Bu bosqichni soliq tizimida soliqlarni ixchamlashtirish konsepsiyasining boshlanish davri deb atash mumkin.

Bu bosqichda soliq to‘lovchi yuridik shaxslarga imkoni boricha soddalashgan, ixchamlashgan soliq tizimi joriy etilib, ularning soliq hisoblari, hisobotlarini, soliq to‘lash muddatlari ixchamlashtirildi.

Uchinchi bosqichda yuridik shaxslarga, birinchi navbatda kichik va o‘rta korxonalar uchun soliqqa tortish, hisobga olish va hisobotning soddalashtirilgan tizimi barpo etildi. Kichik tadbirkorlik subyektlari ixtiyoriy asosda umumdavlat va mahalliy soliqlar hamda yig‘imlar jamlanmasi o‘rniga yagona soliq to‘lay boshladilar. Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 15-apreldagi 159-son qarori bilan kichik korxonalar uchun soliqqa tortishning soddalashtirilgan tizimini qo‘llash tartibi tasdiqlandi.

Ixchamlashtirilgan soliq to‘lashga o‘tishning huquqiy asoslari qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilar uchun yagona yer solig‘i O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilar uchun yagona yer solig‘ini joriy etish to‘g‘risida»gi 1998-yil 10-oktyabrdagi PF-2086-son farmoni bilan 1999-yildan

boshlab, kichik korxonalar uchun yagona soliq to‘lash O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Kichik korxonalar uchun ixchamlashtirilgan soliqqa tortish tizimiga o‘tishni qo‘llash to‘g‘risida»gi qarorga asosan (1998-yil 15-aprel 159-son) 1998-yildan boshlab va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Savdo va ijtimoiy ovqatlanish korxonalarini soliqqa tortish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida»gi farmoni (1153-son 10-aprel 1998-yil) bilan savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari 1998-yildan boshlab yalpi daromaddan soliq va mulk solig‘ini to‘laydigan bo‘ldi.

2003-yildan boshlab samarasiz, byudjetga tushushini qiyinlashtiradigan quyidagi soliqlar va to‘lovlar bekor qilindi. Bular: reklama solig‘i, avtotransport vositalarini olib sotish solig‘i, me’yoridan ortiq sotilmagan tayyor mahsulot qoldig‘i uchun 2 foizli haq hamda tabiatni ifloslantiruvchi chiqindilarni joylashtirish uchun haqlardir. 2003-yildan boshlab 2002-yilda joriy etilgan chakana savdo sohasida faoliyat ko‘rsatuvchi mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun belgilangan daromaddan yagona soliq, savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari uchun yalpi tushumdan yagona soliq solish davom ettirildi. Soliq bazalari va stavkalariga ham o‘zgartishlar kiritilgan.

2007-yilga kelib soliq tizimida ko‘pgina o‘zgarishlar va yangilanishlar sodir bo‘ldi. Ko‘pgina yangi qonunlar va qarorlar qabul qilindi. Shularni hisobga olgan holda 2007-yil 25-dekabrda Yangi tahrirdagi soliq kodeksi qabul qilindi. Yangi tahrirdagi Soliq kodeksi Oliy majlis Senatining 2007-yil 30-noyabrdagi o‘n ikkinchi yalpi majlisida ma’qullandi. Ushbu kodeks 2 qism, 21 bo‘lim, 64 bob va 392 moddadan iborat.

2020-yil O‘zbekiston Respublikasi soliq tizimi uchun yangi bosqich bo‘ldi. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 30-dekabrda qabul qilingan O‘RQ–599-sonli qonuni bilan O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Soliq kodeksi tasdiqlandi. Ushbu kodeks 2 qism, 21 bo‘lim, 71 bob va 480 moddadan iborat. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 1-dekabrdagi O‘RQ–652-sonli qonuniga asosan Soliq kodeksiga 72-bob va 481, 482 va 483 moddalar kiritildi.

Mavzu bo‘yicha savollar

1. Soliq munosabatlari mohiyati nimadan iborat?
2. Soliq munosabatlari xususiyatlari qanday?

3. Soliq munosabatlarini tartibga solish asoslari nimalardan iborat?
4. Soliq tizimini shakllantirishning nazariy asoslari nimalardan iborat?
5. Soliq tizimini shakllantirishning iqtisodiy asoslari nimalardan iborat?
6. Mustaqillik yillarida soliq tizimi islohotilari qanday amalga oshirilgan?
7. Soliq islohotining uchinchi bosqichining ahamiyati nimada?
8. Soliq islohotining yangi bosqichida soliq tizimiga qanday o‘zgartirishlar kiritildi?
9. Ixchamlashtirilgan soliq to‘lashga o‘tishning huquqiy asoslarini yoriting.
10. 2020-yil O‘zbekiston Respublikasi soliq tizimi yangi bosqichida qanday islohotlar amalga ochirildi?
11. 1997-yil 29-avgust «Davlat soliq xizmati to‘g‘risida»gi qonunning mazmunini yoriting.

2-MAVZU. DAVLAT SOLIQ XIZMATI ORGANLARI VA SOLIQ TO‘LOVCHILAR O‘RTASIDAGI SOLIQQA OID MUNOSABATLAR

1. **Soliq to‘lovchilarning huquqlari**
2. **Soliq organlarining huquqlari**

1. Soliq to‘lovchilarning huquqlari

Soliq to‘lovchilar quyidagi huquqlarga ega:

- soliq organlaridan va boshqa vakolatli organlardan (ularning vakolatlari doirasida) amaldagi soliqlar to‘g‘risida, soliq to‘g‘risidagi qonunchilikdagi o‘zgarishlar haqida, soliqlarni hisoblab chiqarish va to‘lash tartibi to‘g‘risida axborotni, soliq hisobotining va arizalarning shakllarini, shuningdek, ularni to‘ldirish tartibi haqida tushuntirishlarni bepul olish;
- o‘z soliq majburiyatlarini bajarish yuzasidan soliq organlarida va boshqa vakolatli organlarda mavjud bo‘lgan ma’lumotlarni olish;
- Soliq kodeksida belgilangan asoslar mavjud bo‘lganda va tartibda soliq imtiyozlaridan foydalanish yoxud ulardan foydalanishni rad etish;
- soliqlar, penyalar va jarimalarning ortiqcha to‘langan yoki ortiqcha undirilgan summalarini o‘z vaqtida hisobga o‘tkazish yoki qaytarish;
- Soliq kodeksida belgilangan tartibda va shartlarda soliqlarni to‘lashni kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash;
- soliq solish obyektlarini hisobga olishda, soliqlarni hisoblab chiqarish va to‘lashda o‘zlari yo‘l qo‘ygan xatolarni mustaqil ravishda tuzatish;
- Soliq kodeksiga muvofiq o‘z hududida o‘tkaziladigan sayyor soliq tekshiruvini va soliq auditini o‘tkazish chog‘ida hozir bo‘lish;
- sayyor soliq tekshiruvi va soliq auditi materiallari bilan tanishish, shuningdek, ushbu tekshiruvlarning dalolatnomalarini olish;
- soliq tekshiruvini amalga oshiruvchi soliq organlariga soliq to‘g‘risidagi qonunchilikning ijrosiga taalluqli masalalar bo‘yicha tushuntirishlar berish;

- soliq organlari va boshqa vakolatli organlarning hamda ular mansabdor shaxslarning Soliq kodeksida va (yoki) soliq to‘g‘risidagi boshqa qonunchilik hujjatlariga muvofiq bo‘lmagan talablarini bajarmaslik;
- soliq organlari va boshqa vakolatli organlarning normativ tusga ega bo‘lmagan hujjatlari hamda qarorlari, ular mansabdor shaxslarining harakatlari (harakatsizligi) ustidan belgilangan tartibda shikoyat qilish;
- soliq organlari va boshqa vakolatli organlarning qonunga xilof qarorlari yoki ular mansabdor shaxslarining noqonuniy harakatlari (harakatsizligi) tufayli yetkazilgan zararlarning o‘rni qoplanishini belgilangan tartibda talab qilish;
- Soliq kodeksida nazarda tutilgan hollarda, soliq tekshiruvi materiallarini yoki soliq organlarining boshqa hujjatlarini ko‘rib chiqish jarayonida ishtirok etish;
- soliq munosabatlari masalalariga oid o‘z manfaatlarini shaxsan yoxud soliq maslahatchilari tashkiloti yoki boshqa o‘z vakillari orqali ifodalash;
- soliq siriga rioya etish va uni saqlash.

Soliq to‘lovchilar Soliq kodeksida va soliq to‘g‘risidagi boshqa qonunchilik hujjatlarida belgilangan o‘zga huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

Soliq to‘lovchining soliq munosabatlarida shaxsan ishtirok etishi uni vakilga ega bo‘lish huquqidan mahrum etmaydi, xuddi shuningdek, vakilning ishtirok etishi soliq to‘lovchini bunday munosabatlarda shaxsan ishtirok etish huquqidan mahrum etmaydi.

Soliq to‘lovchilarning huquqlari soliq organlari va boshqa vakolatli organlar mansabdor shaxslarining tegishli majburiyatlari bilan ta’minlanadi.

Soliq to‘lovchilarning huquqlarini ta’minlashga oid majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligida nazarda tutilgan javobgarlikka sabab bo‘ladi.

Soliq kodeksida muvofiq zimmasiga soliqlarni hisoblab chiqarish, soliq to‘lovchidan ushlab qolish va byudjet tizimiga o‘tkazish majburiyati yuklatilgan shaxslar soliq agentlari deb e’tirof etiladi.

Soliq agentlari, agar Soliq kodeksida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, soliq to‘lovchilar kabi huquqlarga ega bo‘ladi.

Soliq to‘lovchi, agar Soliq kodeksida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, soliq munosabatlarida qonuniy yoki vakolatli vakil orqali ishtirok etishga haqli.

Vakilning vakolatlari Soliq kodeksida va boshqa qonunchilikka muvofiq hujjatlar bilan tasdiqlangan bo‘lishi kerak.

Yuridik shaxs bo‘lgan soliq to‘lovchining qonuniy vakili deb ushbu yuridik shaxsga qonun yoki uning ta’sis hujjatlari asosida vakillik qilishga vakolatli shaxslar e’tirof etiladi.

Jismoniy shaxs bo‘lgan soliq to‘lovchining qonuniy vakili deb fuqarolik qonunchilikka muvofiq uning vakillari sifatida faoliyat olib boradigan shaxslar e’tirof etiladi.

Yuridik shaxs qonuniy vakillarining mazkur yuridik shaxsning soliq munosabatlarida ishtirok etishi munosabati bilan sodir etilgan harakatlari (harakatsizligi) ushbu yuridik shaxsning harakati (harakatsizligi) hisoblanadi.

Soliq to‘lovchi tomonidan belgilangan tartibda soliq organlari, bojxona organlari va soliq munosabatlarining boshqa ishtirokchilari bilan munosabatlarda o‘z manfaatlarini ifodalash vakolati berilgan soliq maslahatchilari tashkilotlari yoki boshqa shaxslar soliq to‘lovchining vakolatli vakillari bo‘lishi mumkin.

Yuridik shaxs bo‘lgan soliq to‘lovchining vakolatli vakili, agar Soliq kodeksida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, o‘z vakolatlarini tuzilgan shartnoma yoki fuqarolik qonunchilikda belgilangan tartibda beriladigan ishonchnoma asosida amalga oshiradi.

Jismoniy shaxs bo‘lgan soliq to‘lovchining vakolatli vakili o‘z vakolatlarini fuqarolik qonunchilikka muvofiq notarial tasdiqlangan ishonchnoma asosida amalga oshiradi.

Soliq, moliya, bojxona va boshqa davlat organlarining mansabdor shaxslari soliq to‘lovchining vakolatli vakillari bo‘la olmaydi.

Soliq to‘lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhining mas’ul ishtirokchisi qonun asosida soliq to‘lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhi barcha ishtirokchilarining vakolatli vakili hisoblanadi.

Soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhini tuzish to‘g‘risidagi shartnoma qoidalaridan qat’iy nazar, ushbu guruhning mas’ul ishtirokchisi quyidagilar bilan bog‘liq huquqiy munosabatlarda mazkur konsolidatsiyalashgan guruh ishtirokchilarining manfaatlarini ifodalashga haqli:

- soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhini tuzish to‘g‘risidagi shartnomani soliq organlarida ro‘yxatdan o‘tkazish, shuningdek, ushbu shartnomaga o‘zgartirish kiritish, shartnomaning amal qilish muddatini uzaytirish to‘g‘risidagi qaror va uni tugatish bilan bog‘liq huquqiy munosabatlarda;
- soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi ishtirokchisidan soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi uchun foyda solig‘i bo‘yicha qarzlarni majburiy undirish bilan bog‘liq huquqiy munosabatlarda;
- soliq organining mansabdor shaxsi tomonidan amalga oshirilgan harakatlar (harakatsizlik) xususiyati bo‘yicha ular soliq to‘lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhining ishtirokchisi bo‘lgan yuridik shaxsning huquqlariga bevosita ta’sir qilsa.

Amal qilish muddati tugashi bilan soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhini tuzish to‘g‘risidagi shartnoma muddatidan oldin bekor qilinganda yoki tugatilganda ushbu guruhning mas’ul ishtirokchisi bo‘lgan shaxs Soliq kodeksida nazarda tutilgan vakolatlarini saqlab qoladi.

Soliq to‘lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhining mas’ul ishtirokchisi bo‘lgan shaxslar mazkur guruh ishtirokchilarining manfaatlarini ifodalash bo‘yicha Soliq kodeksi bilan o‘zlariga berilgan vakolatlarni qonunchilikda belgilangan tartibda tuzilgan shartnoma yoki berilgan ishonchnoma asosida uchinchi shaxslarga berishga haqlidir.

Quyidagilar vakolatli organlardir:

- soliq organlari – O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi, Yirik soliq to‘lovchilar bo‘yicha hududlararo davlat soliq inspeksiyasi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat soliq boshqarmalari, shuningdek, tumanlar (shaharlar) davlat soliq inspeksiyalari;
- bojxona organlari – O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasi, Davlat bojxona qo‘mitasining Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri bo‘yicha boshqarmalari, «Toshkent-AERO» maxsus bojxona kompleksi va bojxona postlari;
- yig‘imlarni undirish funksiyasini amalga oshiruvchi davlat organlari va tashkilotlar.

2. Soliq organlarining huquqlari

Soliq organlari quyidagilarga haqli:

- soliq to‘lovchilardan va uchinchi shaxslardan soliqlarni va yig‘imlarni hisoblab chiqarish hamda to‘lash uchun zarur bo‘lgan hujjatlar va ma’lumotlarni (axborotni), shu jumladan elektron tarzda taqdim etishini talab qilish;
- Soliq kodeksida belgilangan tartibda soliq tekshiruvlari va boshqa soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazish;
- hududni, ishlab chiqarish, omborxona, savdo binolarini va boshqa binolarni, shu jumladan soliq to‘lovchi daromad olish uchun foydalanadigan yoki soliq solish obyektlarini saqlash bilan bog‘liq joylarni ko‘zdan kechirish;
- mol-mulkni inventarizatsiya qilish va bajarilgan ishlar, ko‘rsatilgan xizmatlarning nazorat o‘lchovlarini o‘tkazish;
- qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda kassani va tovar-moddiy boyliklar hamda hujjatlar saqlanadigan joylarni ikki kundan ortiq bo‘lmagan muddatga, ikki kundan ortiq muddatga esa, sud qarori bo‘yicha muhrlash;
- soliqlarni va yig‘imlarni hisoblab chiqarish bilan bog‘liq hujjatlarni va elektron axborot jismlarini olib qo‘yish;
- foto va videotasvirga tushirish, tushuntirishlar hamda boshqa ma’lumotlarni olish;
- tarjimonni, ekspertni jalb etish va ekspertiza tayinlash;
- soliq to‘lovchi hisob hujjatlarini yo‘qotgan yoki yo‘q qilgan hollarda soliq to‘lovchi to‘g‘risidagi o‘zida mavjud axborot, shuningdek, boshqa shu kabi soliq to‘lovchilar to‘g‘risidagi ma’lumotlar asosida soliqlar summasini hisob-kitob orqali mustaqil ravishda aniqlash;
- o‘zaro kelishuv asosida soliq monitoringida ishtirok etayotgan soliq to‘lovchi tomonidan soliq to‘g‘risidagi qonunchilikka rioya etilishi, soliqlarni hisoblab chiqarishning to‘g‘riligi, to‘liqligi va o‘z vaqtida to‘lanishi yuzasidan soliq monitoringini o‘tkazish;
- soliq qarzini majburiy undirish choralarini ko‘rish;
- soliqqa oid huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rib chiqish va moliyaviy sanksiyalar qo‘llash;
- soliq huquqbuzarliklarining aniqlangan holatlari bo‘yicha tovar-moddiy boyliklarni belgilangan tartibda davlat daromadiga

o‘tkazish. Yuridik shaxs bo‘lgan soliq to‘lovchilar va yakka tartibdagi tadbirkorlarning tovar-moddiy boyliklarini davlat daromadiga o‘tkazish sud tartibida amalga oshiriladi;

- soliq to‘lovchilarga nisbatan ular tomonidan noqonuniy olingan mablag‘larni davlat daromadiga undirish to‘g‘risida sudlarga da’volar kiritish; hujjatlarning davlat tiliga tarjima qilinishini talab qilish;
- soliq to‘lovchilarni va soliq agentlarini yozma bildirish asosida soliq organlariga ular tomonidan soliqlarni to‘lash (ushlab qolish va o‘tkazish) yuzasidan yoki soliq tekshiruvi bilan bog‘liq ravishda, shuningdek, ular tomonidan soliq to‘g‘risidagi qonunchilikning bajarilishi bilan bog‘liq boshqa hollarda tushuntirishlar berishga chaqirish;
- Soliq kodeksida nazarda tutilgan tartibda soliq to‘lovchining yoki soliq agentining bankdagi hisobvaraqlari bo‘yicha operatsiyalarni to‘xtatib turish va ularning mol-mulkini xatlab qo‘yish;
- soliq to‘lovchilar va ularning vakillaridan, soliq agentlaridan soliq to‘g‘risidagi qonunchilikning aniqlangan buzilishlarini bartaraf etishni talab qilish hamda ushbu talablarning bajarilishini nazorat qilish;
- Soliq kodeksida belgilangan majburiyatlarning banklar tomonidan bajarilishini nazorat qilish.

Soliq organlari qonunga muvofiq boshqa huquqlarni ham amalga oshirishi mumkin.

Mavzu bo‘yicha savollar

1. Davlat soliq xizmati organlari va soliq to‘lovchilar o‘rtasidagi soliqqa oid munosabatlar qanday tashkl etilgan?
2. Soliq to‘lovchilar huquqlari nimalardan iborat?
3. Soliq organlarining huquqlari nimalardan iborat?

II BOB. SOLIQ MAJBURIYATI BAJARISH

3-MAVZU. SOLIQ TO‘LOVCHILARNING SOLIQ MAJBURIYATLARI

1. **Soliq to‘lovchilarning, soliq organlarining hamda soliq angentlarining majburiyatlari**
2. **Soliq qarzlarining vujudga kelish sabablari**
3. **Soliqlarni undirish yuzasidan amalga oshiriladigan tadbirlar**

1. Soliq to‘lovchilarning, soliq organlarining hamda soliq angentlarining majburiyatlari

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida soliq to‘lash majburiyatiga alohida e’tibor berilgan bo‘lib uning 63-moddasida «Fuqarolar qonun bilan belgilangan soliqlar va yig‘imlarni to‘lashi shart»[1], – deb yozib qo‘yilgan.

Soliq kodeksining 8-moddasidagi «Soliq solishning majburiyligi prinsipi» da keltirilishicha, «Har bir shaxs Soliq kodeksida belgilangan soliqlar va unda nazarda tutilgan yig‘imlarni to‘lashi shart. Hech kimga soliqlar va yig‘imlarning barcha alomatlariga ega bo‘lgan, biroq Soliq kodeksida nazarda tutilmagan yoxud uning normalari buzilgan holda belgilangan soliqlar va yig‘imlarni to‘lash majburiyati yuklatilishi mumkin emas»ligi keltirib o‘tilgan[2].

Soliq qonunchiligiga muvofiq zimmasiga soliqlar va yig‘imlarni to‘lash majburiyati yuklatilgan jismoniy shaxslar, yuridik shaxslar va ularning alohida bo‘linmalari soliq to‘lovchilardir.

Soliq kodeksining 22-moddasiga asosan soliq to‘lovchilarga quyidagi majburiyatlar yuklatilgan:

- soliq majburiyatlarini o‘z vaqtida va to‘liq hajmda bajarish;
- qonun hujjatlariga muvofiq buxgalteriya hisobini yuritish, moliyaviy va soliq hisobotini tuzish;hududiy Davlat soliq inspeksiyasiga va boshqa vakolatli organlarga imtiyozlar olish huquqini tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etish;

[1] O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 63-moddasi. – T.: O‘zbekiston, 2023.
[2] O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. Rasmiy nashr. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. – T.: Adolat, 2022. 8-modda

- soliq tekshiruvlari o‘tkazilayotgan vaqtda hududiy Davlat soliq inspeksiyasiga soliqlar va yig‘imlarni hisoblab chiqarish, to‘lash bilan bog‘liq hujjatlar hamda ma’lumotlarni taqdim etish;
- hududiy Davlat soliq inspeksiyasining va boshqa vakolatli organlarning hamda ular mansabdor shaxslarining qonuniy talablarini bajarish, shuningdek, mazkur organlarning, ular mansabdor shaxslarining qonuniy faoliyatiga to‘sqinlik qilmaslik; soliqlar va to‘lovlarni to‘g‘ri va o‘z vaqtida hisoblab chiqarish, hamda byudjetga va davlat maqsadli jamg‘armalariga o‘tkazish, shuningdek, qonun hujjatlariga muvofiq boshqa soliqqa oid majburiyatlar.

Soliq kodeksining 23-moddasida soliq agentlari zimmasiga ham bir qancha majburiyatlar yuklatilgan:

- soliqlarni to‘g‘ri va o‘z vaqtida hisoblab chiqarishi, ushlab qolishi hamda byudjet tizimiga o‘tkazishi;
- soliq organlariga soliqni ushlab qolish imkoniyati yo‘qligi va soliq to‘lovchining soliq qarzi summasi to‘g‘risida bunday holatlar soliq agentiga ma’lum bo‘lgan kundan e’tiboran bir oy ichida yozma ravishda yoki elektron shaklda xabar qilishi;
- hisoblangan va to‘langan daromadlarning, hisoblab chiqarilgan, ushlab qolingan va byudjet tizimiga o‘tkazilgan soliqlarning hisobini har bir soliq to‘lovchi bo‘yicha alohida yuritishi;
- soliqlarning to‘g‘ri hisoblab chiqarilishi, ushlab qolinishi va o‘tkazilishi ustidan nazoratni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan hujjatlarni soliq organlariga taqdim etishi;
- soliq hisobotlarining hamda soliqlarni hisoblab chiqarish, ushlab qolish va o‘tkazish uchun zarur bo‘lgan boshqa hujjatlarning Soliq kodeksning 88-moddasida nazarda tutilgan da’vo muddati mobaynida but saqlanishini ta’minlashi shart.

Soliq agentlarining zimmasida qonunchilikka muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo‘lishi mumkin.

Soliq organlarining majburiyatlari ham Soliq kodeksining 27-moddasida alohida ko‘rsatib o‘tilgan bo‘lib, ular:

- soliq to‘g‘risidagi qonunchilikka rioya etishi;
- soliq to‘g‘risidagi qonunchilikka rioya etilishi, soliqlar va yig‘imlarning to‘g‘ri hisoblab chiqarilishi, to‘liq hamda o‘z vaqtida to‘lanishi ustidan nazoratni amalga oshirishi;

- soliq to‘lovchilar, soliq solish obyektlari va soliq solish bilan bog‘liq obyektlar, hisoblangan va to‘langan soliqlar to‘liq va o‘z vaqtida hisobga olinishini ta’minlashi; soliq tekshiruvlarini o‘tkazishda soliq to‘lovchilarga ularning huquqlari va majburiyatlari to‘g‘risida ma’lumot berishi, shuningdek, o‘tkazilgan tekshirishlar natijalari to‘g‘risida xabardor qilishi;
- soliq to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlarini O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasining rasmiy veb-saytida o‘z vaqtida e’lon qilishi;
- soliq to‘lovchilarga soliq to‘g‘risidagi qonunchilikni ijro etishida yordam berishi, soliq to‘g‘risidagi qonunchilik normalarini va soliq imtiyozlarini qo‘llash tartibini tushuntirishi;
- soliq to‘g‘risidagi qonunchilik buzilganligi faktlarini tahlil qilishi va baholashi, soliqqa oid huquqbuzarliklarga olib keladigan sabablar va sharoitlarni bartaraf etish to‘g‘risidagi takliflarni tegishli davlat organlariga kiritishi;
- huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan birgalikda soliqqa oid huquqbuzarliklarga qarshi kurashishga doir uzoq muddatli va joriy dasturlarni ishlab chiqishi hamda amalga oshirishi;
- soliq to‘g‘risidagi qonunchilik buzilganligi to‘g‘risidagi arizalarni, xabarlarni va boshqa axborotni o‘rganishi;
- davlat daromadiga o‘tkazilgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan pul mablag‘larining to‘liq va o‘z vaqtida tushishini nazorat qilishi;
- masalani hal etish soliq organlari vakolatlari doirasiga kirmaydigan hollarda soliq to‘g‘risidagi qonunchilikning buzilishi faktlari bo‘yicha materiallarni huquqni muhofaza qiluvchi organlarga topshirishi;
- o‘z vakolatlari doirasida valyuta va eksport-import operatsiyalarini amalga oshirishning belgilangan tartibiga rioya etilishi ustidan nazorat qilishi; soliq siriga rioya etishi va uning saqlanishini ta’minlashi;
- soliq to‘lovchining talabiga binoan soliqlarni to‘lash bo‘yicha soliq majburiyatining bajarilishi yuzasidan solishtirma dalolatnoma tuzishi;
- Soliq kodeksiga muvofiq soliq qarzi summasini so‘zsiz undirishi;

- yuridik va jismoniy shaxslarni, shu jumladan O‘zbekiston Respublikasi norezidentlarini hisobga olishi, ularga soliq to‘lovchilarning identifikatsiya raqamini berishi hamda bu haqda statistika va ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organlarga rasmiy ravishda ma’lum qilishi;
- soliq to‘lovchining talabiga binoan uning soliq organlarida hisobga qo‘yilganligini tasdiqlovchi ma’lumotnomani berishi;
- soliq to‘g‘risidagi qonunchilikni qo‘llash masalalari yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining yozma tushuntirishlariga amal qilishi shart.

Shuningdek, soliq tekshiruvlarini o‘tkazishda soliq organlari mansabdor shaxslari quyidagilarga majbur:

- sayyor soliq tekshiruvini o‘tkazishda:
- soliq to‘lovchiga o‘z xizmat guvohnomasini ko‘rsatish;
- soliq to‘lovchini soliq tekshiruvi maqsadi, uning huquqlari va majburiyatlari bilan tanishtirish;
- soliq tekshiruvini tayinlash to‘g‘risidagi buyruqning bir nusxasini soliq to‘lovchiga taqdim etishi;
- o‘tkazilgan soliq tekshiruvi natijalari bo‘yicha soliq tekshiruvi dalolatnomasini tuzish va bir nusxasini soliq to‘lovchiga taqdim etish;
- o‘tkazilgan soliq tekshiruvlarining natijalari tekshiruv tamomlangandan keyin uch kun ichida Tekshiruvlarni elektron ro‘yxatga olish yagona tizimiga kiritilishini ta’minlash;
- soliq auditi boshlangunga qadar:
- soliq to‘lovchini yoki uning vakilini soliq tekshiruvi maqsadi bilan tanishtirish, unga o‘z xizmat guvohnomasini ko‘rsatish;
- soliq tekshiruvini tayinlash to‘g‘risidagi buyruqning bir nusxasini soliq to‘lovchiga taqdim etish;
- soliq to‘lovchining huquq va majburiyatlarini tushuntirish.

Soliq organlari mansabdor shaxslarining zimmasida qonunchilikka muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo‘lishi mumkin.

Soliq to‘g‘risidagi qonunchilik bilan soliq to‘lovchilar zimmasiga yuklatilgan soliqlarni va yig‘imlarni to‘g‘ri hisoblab chiqarish hamda o‘z vaqtida to‘lash majburiyati ularning soliq majburiyatidir. Soliq to‘g‘risidagi qonunchilik bilan soliq agentlarining zimmasiga yuklatilgan, o‘ziga nisbatan ushbu shaxslar soliq agentlari deb e’tirof etiladigan

munosabatlar doirasida soliqlarni to‘g‘ri hisoblab chiqarish, ushlab qolish va o‘z vaqtida o‘tkazish majburiyati soliq majburiyatiga tenglashtiriladi[3].

Soliq to‘lovchi tomonidan o‘zining soliq majburiyati mustaqil ravishlishi kerak bo‘lib, yakka tartibdagi tadbirkor hisoblanmaydigan jismoniy shaxs bo‘lgan soliq to‘lovchining soliq majburiyati o‘zga jismoniy shaxs tomonidan bajarilishi mumkin. Soliq majburiyati soliq to‘g‘risidagi qonunchilikda belgilangan muddatda, ya’ni, ma’lum kalendar sana yoki vaqt davri (yil, chorak, oy, o‘n kunlik va kun) o‘tishi bilan bajarilishi kerak.Soliq to‘lovchi soliq majburiyatini muddatidan oldin bajarishga haqli.

Soliq to‘lovchi tomonidan soliq majburiyati bajarilmagan yoki lozim darajada bajarilmagan taqdirda soliq qarzi paydo bo‘ladi. Soliq organlari majburiyatning majburiy tartibda bajarilishi uchun soliq qarzini undirish choralarni ko‘radilar yoki uning bajarilishini ta’minlash choralarni qo‘llaydilar.

2. Soliq qarzlarining vujudga kelish sabablari

Yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek, «Fuqarolarimiz soliqdan qochish emas, uni vaqtida to‘lashdan manfaatdor bo‘lishi zarur»[4]. Bundan kelib chiqqan holda, soliqlarning o‘z vaqtida byudjet ixtiyoriga o‘tkazilishi, soliqlarning o‘z vaqtida undirilishi bilan bog‘liq bo‘lgan jarayonlarni va soliqlarni undirishning zarurligini alohida-alohida emas, balki bir-biri bilan uzviy bog‘liqlikdagi jarayon sifatida qaramoq lozim.

Soliqlarning byudjetga o‘z vaqtida tushumini ta’minlashning ahamiyati quyidagi yo‘nalishlarda namoyon bo‘ladi.

Birinchidan, soliqlarning byudjetga o‘z vaqtida tushumini ta’minlash byudjetdan qilinadigan ijtimoiy-madaniy tadbir xarajatlarini (maorif, sog‘liqni saqlash va sport, fan, madaniyat, ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy ta’minot va boshqalar) o‘z vaqtida moliyalashtirish imkonini beradi.

Ikkinchidan, aholini ijtimoiy jihatdan himoya qilish xarajatlarining o‘z vaqtida byudjetdan moliyalashtirilishi ham byudjetga soliqlarning o‘z vaqtida tushumini ta’minlashning ahamiyatini ko‘rsatuvchi yana bir

---

[3] O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. Rasmiy nashr. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. T.: Adolat, 2024. 85-modda.

[4] Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. T.: O‘zbekiston, 2019. 55 b.

omildir. Agar aholini ijtimoiy jihatdan himoya qilish bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlarning asosiy qismi so‘nggi yillarda kam ta’minlangan va ko‘p bolali oilalarga mo‘ljallanganligi inobatga olinsa, bu narsa soliqlarning byudjetga o‘z vaqtida tushumini ta’minlashning ahamiyati kattaligini ko‘rsatadi.

Uchinchidan, bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiyot tarmoqlarining mutanosib rivojlanishini ta’minlashdan davlatning o‘zi ham manfaatdor bo‘lganligi uchun byudjetdan ham ma’lum bir xarajatlarning qilinishini taqozo etadi, bu xarajatlarning byudjetdan o‘z vaqtida amalga oshirilishini soliqlarning byudjetga o‘z vaqtida tushumini ta’minlamasdan amalga oshirish mumkin emas.

To‘rtinchidan, yuqorida uchinchi punktda qayd etilgan holat bilan bir vaqtning o‘zida davlat iqtisodiyotning ayrim tarmoqlarini ustuvor rivojlanishini ta’minlash maqsadida byudjetdan markazlashtirilgan investitsiyalarni moliyalashtirish uchun ham kattagina hajmdagi xarajatlarni amalga oshirishga majburdir, bu muammoni ham soliqlarni byudjetga o‘z vaqtida tushumini ta’minlamasdan turib bajarib bo‘lmaydi.

Beshinchidan, soliqlarning byudjetga o‘z vaqtida tushumini ta’minlanmasligi davlat hokimiyati, boshqaruv va sud organlari hamda fuqarolarning o‘z-o‘zini boshqarish organlarini saqlash bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlarning, rezerv fondini shakllantirish bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlarning va byudjetdan qilinadigan boshqa xarajatlarning o‘z vaqtida moliyalashtirilishiga o‘zining salbiy ta’sirini ko‘rsatadi. Bularning barchasi soliqlarning byudjetga o‘z vaqtida tushumini ta’minlashning ahamiyati naqadar katta ekanligini ko‘rsatib turibdi.

Muayyan soliq yoki yig‘im to‘lash majburiyati soliq to‘lovchiga soliqlar va yig‘imlar to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida ushbu soliq yoki yig‘im to‘lanishini nazarda tutuvchi holatlar yuzaga kelgan paytdan boshlab yuklanadi va soliq bilan belgilangan muddatlarda bajarilishi kerak. Bunday majburiuatning bajarilishi soliq organlari tomonidan, zarur hollarda esa boshqa davlat organlari tomonidan amalga oshiriladigan davlat majburlash kuchi bilan ta'minlanadi. Soliqlar va yig‘imlar to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda soliq to‘lash majburiuatini bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmaslik soliq to‘lovchining turli darajadagi byudjetlar va davlat byudjetidan tashqari jamg‘armalari oldidagi qarzini shakllantirishga olib keladi.

Soliq qarzlari sabablarini tahlil qilish – nafaqat to‘lovlarni amalga oshirmaslikning paydo bo‘lishi va o‘sishi sabablarini tasniflashi, balki ularni bartaraf etish bo‘yicha ayrim chora-tadbirlarni belgilash imkonini beradi. Bu chora-tadbirlar, albatta, o‘z-o‘zidan soliq qarzlarini to‘liq bartaraf etishga olib kelmaydi, lekin ma’muriy va iqtisodiy xarakterdagi boshqa harakatlar bilan birgalikda xo‘jalik yurituvchi subyektlarga to‘lovlarni to‘lamaslik darajasini minimallashtirish va keyeinchalik ularni to‘liq bartaraf etishga erishish imkonini beradi.

S.B.Pronin va M.S.Proninlarning qarashlariga asosan, soliq qarzlarining sabablari uch guruhga bo‘linadi:



1-rasm. Soliq qarzlarining sabablari[5]

Ko‘rish mumkinki, iqtisodiy sabablarga – makroiqtisodiy, tarmoq ichidagi va mikroiqtisodiy sabablar kiradi.

Asosiy makroiqtisodiy sabab – bu iqtisodiyotning ayrim tarmoqlari, hududlari va iqtisodiy faoliyat turlarining iqtisodiy rivojlanishi uchun ular oladigan daromadlarining yetarli emasligi.

Mikroiqtisodiy darajaning sabablari tashkilotning o‘z faoliyatiga asoslanadi va birinchi navbatda, qoniqarsiz boshqaruv va zaif moliuaviy nazorat, buxgalteriya hisobi va soliq hisobining sifatsizligi bilan bog‘liq.

Tashkiliy-huquqiy sabablar qarzdorlikni undirish jarayonida ishtirok etuvchi tuzilmalarning yetarli miqdorda va texnik jihozlanishining yo‘qligi, ushbu tuzilmalarning o‘zaro hamkorligidagi hanuz mavjud qiyinchiliklar, shuningdek, hududiy soliq organlari

[5] «Soliq qarzlarining sabablari» S.B.Pronin va M.S.Proninlarning qarashlari https://com-roseltorg.ru/uz/sberbank/prichiny-vozniknoveniya-zadolzhennosti-po-nalogam-i-sboram-onyatie

faoliyatining turlicha, ko‘pincha juda past darajada ekanligidir, bu esa soliq intizomi va soliq yig‘ishga ta'sir qiladi.

Axloqiy-psixologik tabiatning sabablari ichki soliq madaniyatining yo‘qligi, qarzlarni undirishning muqarrarligini anglamaslikdir, bu yerda juda ko‘p korxona va tashkilotlar rahbarlari soliqlarni to‘liq to‘lash, bu muvaffaqiuatli biznes deb hisoblamaydi.

Korxonalar va tashkilotlar rahbarlarining katta qismi soliqlarni to‘liq to‘lash va muvaffaqiyatli biznes – bu bir-biriga mos kelmaydigan tushunchalar degan fikrga amal qiladi. Soliq organlari ularni ma’muriy va jinoiy javobgarlikka tortganda, ular yuzaga kelgan qarzlarni to‘lamaslik uchun barcha sa’y-harakatlarni amalga oshiradilar. Shu bilan birga, amaliyot shuni ko‘rsatadiki, soliq to‘lashdan qochishga bo‘lgan bunday urinishlar huquqiy normalarni bilishga asoslangan bo‘ladi.

Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning barcha darajadagi byudjetlar oldidagi soliq qarzlari paydo bo‘lishining dastlabki sabablari mamlakatdagi umumiy iqtisodiy inqiroz natijasida soliq to‘lovchilarning moliyaviy ahvolining yomonlashuvi bo‘ldi.

To‘lovsizliklarning o‘sishiga sud-huquq tizimi samaradorligining pastligi, soliq to‘lovchi korxonalarning soliq intizomi darajasi va boshqa ijtimoiy-iqtisodiy sabablar ham yordam berdi.

Soliq qarzlarining shakllanishiga ta'sir qiluvchi umumiy iqtisodiy sabablarga qo‘shimcha ravishda, soliq organlari harakatlarining tashkiliy-boshqaruv xususiyatining aniq sabablarini ajratib ko‘rsatish kerak.

Soliq qarzlarining o‘sishiga yordam beradigan o‘ziga xos omillarni uchga bo‘lish mumkin:

- soliq nazorati choralari natijasida hisoblangan qo‘shimcha soliqlar summasi ko‘rinishidagi qarz;
- joriy (avans) to‘lovlarni to‘lamaslik;
- soliq to‘lovchining ro‘yxatdan o‘tgan joyining o‘zgarishi munosabati bilan qabul qilingan qarz.

Soliq qarzlarining o‘sishiga ta'sir etuvchi aniq sabablarning ta'sirini tahlil qilish shuni ko‘rsatdiki, soliq qarzlarining umumiy hajmida asosiy ulush qo‘shimcha soliqlar, penyalar va soliq tekshiruvlari dalolatnomalari bo‘yicha jarimalar hissasiga to‘g‘ri keladi.

Soliq kodeksining 55-moddasida soliq qarziga ta’rif berib o‘tilgan va unga ko‘ra: «hisoblab chiqarilgan (hisoblangan) va belgilangan

muddatlarda to‘lanmagan soliqlarning, shu jumladan ular bo‘yicha bo‘nak va joriy to‘lovlarning summalari, shuningdek, Soliq kodeksida belgilangan muddatda to‘lanmagan moliyaviy sanksiyalar va penyalar soliq qarzi, deb e’tirof etiladi»[6].



2-rasm. Soliq qarzlarini vujudga kelishiga ta’sir ko‘rsatuvchi muhim omillar[7]

Rus iqtisodchi olimi O.S. Kalacheva o‘z tadqiqotlarida soliq qarzdorligi vujudga kelishiga ta’sir etuvchi omillar sifatida soliq madaniyatining pastligi, normativ hujjatlarning beqaror va o‘zgaruvchanligi, targ‘ibot ishlarining sustligi, davlat organlariga nisbatan ishonchsizlikning yuqoriligini misol sifatida keltirib o‘tgan[8].

Soliq qarzi vujudga kelishiga quyidagi bir necha sabablarni misol qilib keltirish mumkin:

- Soliq to‘lovchi o‘z majburiyatlarini bilmasligi;

---

[6] O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. Rasmiy nashr. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. – T.: Adolat,
2022. 55-modda.

[7] A. Tangriqulov, A. Xomma, Sh. Toshmatov, I. Norqo‘ziyev, N. Roziqov. Soliq qarzi va uni undirish. Yangi asr avlodi, 2010. 51 b.

[8] Калачева О.С. Получение налоговой культуры населения как способ борьбы с налоговыми правонарушениями в России // Вестник Волгоградского института бизнеса. 2016. Ноябрь № 4 (37). С. 34–37.

- Soliq to‘lovchi hisob raqamida mablag‘larni yo‘qligi yoki yetarli miqdorda yo‘qligi;
- Qasddan soliq to‘lamaslik;
- Soliq to‘lovchining sog‘ligining yomonlashuvi;
- Soliq to‘lovchi uzoqroq safarda bo‘lishi;
- Boshqa sabablar[9].

Soliq to‘lovchi o‘z majburiyatlarini bilmasligi, ya’ni, soliq to‘lash muddatlarini bilmaslik yoki to‘lanishi kerak bo‘lgan soliq summasini bilmaslik holatlari bo‘lishi mumkin. Xuddi shuningdek, soliq to‘lovchilarning soliq yig‘imlarni to‘lash majburiyatini bajarish muddati kelganda xo‘jalik yurituvchi subyektda moliyaviy muammolarning mavjudligi, ya’ni, bankdagi hisob raqamlarida pul mablag‘larining mavjud emasligi yoki yetarli darajada mavjud emasligi holatlari ham amaliyotda uchrab turadi.

Soliq to‘lovchi qasddan, ya’ni, o‘z majburiyatlarini bila turib soliq to‘lamaslik holatlari ham bo‘lishi mumkin. Bunday holatlar yuzasidan Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi Kodeksning 174-moddasiga muvofiq javobgarlik belgilangan. Mazkur moddaga muvofiq: «Soliq olinadigan foydani (daromadni) yoki boshqa obyektlarni qasddan yashirish (kamaytirib ko‘rsatish) yoxud soliqlar va yig‘imlar to‘lashdan qasddan bo‘yin tovlash – fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining o‘n baravari, mansabdor shaxslarga esa – o‘n besh baravari miqdorida jarima solishga sabab bo‘ladi. Xuddi shunday huquqbuzarlik ancha miqdorda sodir etilgan bo‘lsa, – fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining yigirma baravari miqdorida, mansabdor shaxslarga esa – o‘ttiz baravari miqdorida jarima solishga sabab bo‘ladi»[10].

Shu o‘rinda shuni ta’kidlab o‘tishimiz lozimki, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida ham soliqlar yoki yig‘imlarni to‘lashdan bo‘yin tovlash uchun javobgarlik choralari belgilangan. Jinoyat kodeksining 184-moddasiga muvofiq: «Foyda (daromad) yoki soliq solinadigan boshqa obyektlarni qasddan yashirishni, kamaytirib ko‘rsatishni, shuningdek, davlat tomonidan belgilangan soliqlarni yoki yig‘imlarni to‘lashdan qasddan bo‘yin tovlashni ancha miqdorda sodir etish, shunday qilmish uchun ma’muriy jazo qo‘llanilganidan keyin ro‘y bergan bo‘lsa – bazaviy hisoblash miqdorining bir yuz ellik

[9] A. Tangriqulov, A. Xomma, Sh. Toshmatov, I. Norqo‘ziyev, N. Roziqov. Soliq qarzi va uni undirish. Yangi asr avlodi, 2010. 9 b.

[10] O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘ridagi Kodeksi. Rasmiy nashr. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. T.: Adolat, 2022. 174-modda

baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

Soliqlar yoki yig‘imlarni to‘lashdan bo‘yin tovlash:

a) takroran;

b) ko‘p miqdorda sodir etilgan bo‘lsa:

bazaviy hisoblash miqdorining bir yuz ellik baravaridan uch yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yildan uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Soliqlar yoki yig‘imlarni to‘lashdan bo‘yin tovlash juda ko‘p miqdorda sodir etilgan bo‘lsa:

bazaviy hisoblash miqdorining uch yuz baravaridan olti yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Qasddan yashirilgan, kamaytirib ko‘rsatilgan foyda (daromad) bo‘yicha soliqlar va yig‘imlar to‘liq to‘langan taqdirda, ozodlikni cheklash va ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo qo‘llanilmaydi.

Birinchi marta jinoyat sodir etgan shaxs, agar u soliq tekshiruvi materiallarini ko‘rib chiqish natijalari bo‘yicha davlat soliq xizmati organining qarorini yoki O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamentining sodir etilgan jinoyat haqidagi xabarini olgan kundan e’tiboran o‘ttiz kun ichida soliqlar va yig‘imlar, shu jumladan, penyalar va boshqa moliyaviy sanksiyalar tarzida davlatga yetkazilgan zararning o‘rnini to‘liq qoplasa, javobgarlikdan ozod qilinadi»[11].

Davlat soliq organlari soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan to‘lovlarni to‘liq davlat byudjetiga o‘tkazilishini nazorat qilishda albatta soliq qarzlarini sodir bo‘lishiga sababchi bo‘ladigan holatlarni chuqur tahlil qilib lozim bo‘lgan hollarda tegishli mansabdor shaxslarga ular haqida amaliy tavsiyalar berishlari bu tavsiyalarga soliq to‘lovchining munosabatini nazorat qilib borishlari odatda ijobiy natija beradigan omillardan hisoblanadi.

Soliq qarzining vujudga kelishi soliq munosabatlarida sodir bo‘ladigan o‘ziga xos huquqbuzarlik yoki soliq to‘lovchining bevosita faoliyatiga tegishli moliyaviy munosabatlar oqibatida sodir bo‘ladi va

---

[11] O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat Kodeksi. Rasmiy nashr. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. T.: Adolat,2022. 184-modda.

davlat byudjeti daromadlariga sezilarli darajada zarar keltiradi. Soliq to‘lovchilar tomonidan soliq qonunchiligiga rioya etmaslikning har qanday alomatlari soliq qarzini keltirib chiqarishi mumkin. Qonunbuzarlikning bosh omili hisob-kitobni to‘g‘ri yuritmaslikdan boshlanadi. Shu tufayli hisob-kitob, ayniqsa buxgalteriya hisobini to‘g‘ri yuritish bo‘yicha qattiq talabni korxona rahbari va bosh buxgalter zimmasiga yuklashni yanada kuchaytirish, javobgarlikni oshirish hozirgi kun davr talabi bo‘lib hisoblanadi. Agar davlat soliq xizmati organlari tomonidan o‘tkazilgan tekshirishlar yoki o‘tkazilgan soliq nazorati shakllari tahliliga nazar tashlaydigan bo‘lsak, soliq to‘lovchilar tomonidan soliqlarni hisoblab chiqarishda qo‘pol xatolarga yo‘l qo‘yilishi va buning natijasida ular katta miqdorda moliyaviy jarima to‘lab, iqtisodiy qiyinchiliklarga duch kelishini ko‘pgina mamlakatlar soliq amaliyotida uchratishimiz mumkin.

Soliq qarzi summalari paydo bo‘lishi holatlarining oldini olishda quyidagi mezonlarga e’tibor berilishi lozim:

1. Xo‘jalik subyektlari tomonidan belgilangan muddatlarda byudjet va byudjetdan tashqari davlat maqsadli jamg‘armalariga to‘lovlarni amalga oshirmasdan mablag‘larini boshqa maqsadlarga yo‘naltirish.
2. Soliq organlari tomonidan vaqtida inkasso topshiriqnomalarini soliq to‘lovchining banklardagi hisobraqamlariga qo‘ymaslik.
3. Yirik soliq to‘lovchilar tomonidan banklardagi hisob raqamlari bo‘lganligi munosabati bilan qoshida sho‘ba korxonalari ochib, asosiy oborotini ular orqali amalga oshirish.
4. Asosiy hisob raqamidan tashqari boshqa banklarda ikkilamchi hisob raqamlari ochib, asosiy pul aylanmalarini ular orqali amalga oshirish.
5. Banklar ishtirokisiz hisob-kitoblarni amalga oshirish (tovar ayirboshlash, qarzini uchinchi shaxs foydasiga kechish) holatlari hisobiga sodir etilishi mumkin.

Soliq qarzlarini kelib chiqish sabablarining xilma-xilligi, ularni bartaraf etishga kompleks yondashuvni, shu jumladan soliq qonunchiligiga o‘zgartirishlar kiritishni talab qiladi. Shu bilan birga, davlat turli mexanizmlardan foydalangan holda, mamlakat iqtisodiy rivojlanishini ta’minlash uchun soliq qarzlari miqdorini kamaytirish choralarini ko‘rishi kerak. Soliq qarzlari sabablarini tahlil qilish nafaqat

to‘lovlarni amalga oshirmaslikning paydo bo‘lishi va o‘sishi sabablarini tasniflash, balki ularni bartaraf etish bo‘yicha ayrim chora-tadbirlarni belgilash imkonini beradi.

Soliq ma’muriyatchiligi samaradorligini va soliq organlarining soliq qarzlarini tartibga solish va undirish yuzasidan ishlari sifatini oshirish – byudjet daromadlarini ko‘paytirishning muhim omilidir. Shu munosabat bilan soliq qarzlarini tartibga solish masalalari o‘z yechimini bir tomondan, soliq organlarining nazorat va servis funksiyalari, boshqa tomondan esa, xo‘jalik subyektlari ijtimoiy-iqtisodiy funksiyalari balansini ta’minlashga qaratilgan kompleks yondashuvda topishi mumkin.

Xo‘jalik subyektlarining soliqdan qarzlarining mavjudligi O‘zbekiston Respublikasi byudjet tizimi va uning hududlari moliyaviy imkoniyatlarini cheklovchi muhim omillardan biri sifatida izohlanishi mumkin.

Hozirgi sharoitda soliq organlari oldiga soliq qarzlarining o‘sishiga yo`l qo‘ymaslik va uni undirish va tartibga solishning turli samarali usullarini qidirib topish vazifasi qo‘yilgan.

3. Soliqlarni undirish yuzasidan amalga oshiriladigan tadbirlar

Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning byudjet oldidagi soliq qarzlarini quyidagi turlarga bo‘lib o‘rganishimiz mumkin:

- joriy soliq qarz summasi;
- majburiy undiruvga qaratilgan qarz summasi;
- muddati uzaytirilgan qarz summasi;
- soliq tekshiruvi yoki soliq nazorati o‘tkazilishi natijasida aniqlangan soliq qarzi summasi;
- umidsiz qarz summasi.

Joriy soliq qarz summasi – bunday soliq qarzlari asosan xo‘jalik yurituvchi subyektlarining kelgusi davr uchun to‘lanishi lozim bo‘lgan soliqlari bo‘yicha bo‘nak to‘lovlari hisoblanishi yoki to‘lovlarni qisqa muddatlarga kechikishi natijasida vujudga keladi.

Majburiy undiruvga qaratilgan qarz summasi – bu o‘z vaqtida belgilangan muddatlarda to‘lovlar amalga oshirilmaganligi sababli xo‘jalik yurituvchi subyektlarning byudjet oldidagi soliq qarzlarini to‘lash imkoni bo‘lmagan hollarda paydo bo‘ladi. Mahsulot jo‘natgan, xizmat ko‘rsatgan yoki boshqa ishlarni amalga oshirgan xo‘jalik yurituvchi subyektlarning debitor qarzlari paydo bo‘ladi. Xo‘jalik

yurituvchi subyektning bankdagi hisob raqamiga mablag‘lar kelib tushmaganligi sababli korxona byudjetga to‘lovlarni amalga oshira olmaydi. Ammo, amaldagi soliq qonunchiligiga muvofiq xo‘jalik yurituvchi subyektlar uchun to‘lov amalga oshirilishiga qarab emas, balki jo‘natilgan mahsulotlar, bajarilgan ishlar, ko‘rsatilgan xizmatlarga qarab soliq turlari bo‘yicha soliqlar hisoblanadi hamda korxona tomonidan hisob-kitoblar belgilangan muddatlarda soliq organlariga taqdim etiladi. Bu hisob-kitoblar davlat soliq organlarida ularning shaxsiy varaqalariga kiritiladi. O‘z vaqtida to‘lovlar amalga oshirilmaganligi sababli, korxonalarning davlat byudjeti oldida soliq qarzlari vujudga keladi va to‘lov muddati o‘tkazib yuborilgan har bir kun uchun O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 110-moddasiga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining shu davrda amalda bo‘lgan qayta moliyalash stavkasining uch yuzdan biriga teng penya hisoblanishi natijasida soliq qarzi va jarima summalari ortib boradi. Davlat soliq xizmati organlari tomonidan mazkur soliq qarzini undirish bo‘yicha qonunda belgilangan tartibda majburiy undiruv choralarini amalga oshiradilar.

Amaldagi Soliq kodeksining 120-moddasiga muvofiq soliq qarzini undirish choralariga quyidagilar kiradi:

- soliq qarzini soliq to‘lovchining bankdagi hisobvaraqlaridan so‘zsiz undirish;
- soliq qarzini boshqa mol-mulk hisobidan undirish.

O‘zbekiston Respublikasining 29-avgust 1997-yildagi «Davlat soliq xizmati to‘g‘risida»gi qonuni bilan belgilangan Davlat soliq xizmati organlarining huquqlaridan biri, soliq to‘lovchiga majburiuatini bajarishi zarurligi haqida hamda soliq qarzini majburiy undirish yuzasidan ko‘riladigan choralar to‘g‘risida talabnoma yuborish vakolati hisoblanadi.

Soliq qarzini majburiy undiruv bilan bog‘liq bo‘lgan eng asosiy hamda ahamiyatli hujjat Soliq kodeksi bo‘lib, unda soliq qarzini majburiy undirishning barcha jarayonlari o‘z aksini topgan.

Soliq qarzi belgilangan muddatda to‘lanmagan yoki to‘liq to‘lanmagan taqdirda, soliq qarzini undirish – undiruvni bank hisobvaraqlaridagi pul mablag‘lariga (shu jumladan, korporativ

kartalardagi pul mablag‘lariga) qaratish yo‘li bilan majburiy tartibda amalga oshiriladi[12].

Soliq qarzi summasini undirish soliq organi tomonidan majburiyatga ega shaxsning hisobvarag‘i ochilgan bankka inkasso topshiriqnomasini elektron shaklda yuborish yo‘li bilan ushbu shaxsning hisobvaraqlaridan zarur pul mablag‘larini hisobdan chiqarish va byudjetga o‘tkazish orqali amalga oshiriladi.

Bank tomonidan hisobvaraqlaridan pul mablag‘larini hisobdan chiqarish va byudjet tizimiga o‘tkazishga doir inkasso topshiriqnomani fuqarolik to‘g‘risidagi qonunchiligida belgilangan to‘lovlar navbatini hisobga olgan holda so‘zsiz bajarishi shart.

Soliq qarzini undirish milliy valyutadagi talab qilib olguncha depozit hisobvaraqlaridan, bunday hisobvaraqlarda mablag‘lar yetarli bo‘lmagan taqdirda esa – majburiyatga ega shaxsning chet el valyutasidagi talab qilib olguncha depozit hisobvaraqlaridan amalga oshirilishi mumkin. Majburiyatga ega shaxsning valyuta hisobvaraqlaridan soliq qarzini undirish O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining valyuta sotiladigan sanada belgilangan kursi bo‘yicha milliy valyutada undiriladigan summaga ekvivalent summada amalga oshiriladi.

Soliq qarzini undirish muddatli depozitlarga joylashtirilgan mablag‘lar hisobidan, ularning amal qilish muddati tugagunga qadar amalga oshirilmaydi.

Valyuta hisobvaraqlarida turgan mablag‘larni undirish chog‘ida soliq organining rahbari (rahbar o‘rinbosari) inkasso topshiriqnomasi bilan bir vaqtning o‘zida bankka majburiyatga ega shaxsning valyutasini sotish uchun topshiriqnoma yuboradi. Mazkur topshiriqnoma bank tomonidan u olingan kundan keyingi operatsiya kunidan kechiktirmay bajariladi. Chet el valyutasini sotish bilan bog‘liq xarajatlar shu majburiyatga ega shaxsning hisobidan amalga oshiriladi.

Soliq organining majburiyatga ega shaxsning bankdagi hisobvaraqlaridan pul mablag‘larini hisobdan chiqarish va byudjet tizimiga o‘tkazishga doir inkasso topshiriqnomasi bank tomonidan inkasso topshiriqnomasi olingan kundan keyingi bir operatsiya kunidan kechiktirmay, valyuta hisobvaraqlaridan undirishda esa – ikki operatsiya kunidan kechiktirmay bajariladi.

---

[12] O’zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining 121-moddasi 3-bandi https://lex.uz/docs/4674902 sayti ma’lumotlari.

Agar bank tomonidan soliq organining inkasso topshiriqnomasi olingan kunda majburiyatga ega shaxsning hisobvaraqlarida uni bajarish uchun pul mablag‘lari yetarli bo‘lmasa, inkasso topshiriqnomasi shu hisobvaraqlarga pul mablag‘lari kelib tushishiga qarab, har bir bunday tushum kunidan keyingi bir yoki ikki operatsiya kunidan kechiktirmay, hisobvaraq valyutasiga bog‘liq holda bajariladi. Mazkur inkasso topshiriqnomasi bank tomonidan fuqarolik to‘g‘risidagi qonunchiligida belgilangan to‘lovlar navbatini hisobga olgan holda bank tomonidan bajariladi.

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2012-yil 15-martda 2342-son bilan ro‘yxatga olingan O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Davlat soliq qo‘mitasining 2011-yil 12-dekabrdagi 35/4, 82, 2011-41-son qarori bilan tasdiqlangan «Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning bank hisobvaraqlaridan pul mablag‘larini hisobdan chiqarish tartibi to‘g‘risida»gi Yo‘riqnomaning 1-ilovasida undiruv qaratilmaydigan bank hisobvaraqlar ro‘yxati berilgan. Ular quyidagi bank hisobvaraqlari hisoblanadi:

1. Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning asosiy hisobvarag‘i ochilgan balans hisobvarag‘ida «888» tartib raqam bilan ochilgan hisobvaraq.
2. 22604 – Mijozlarning boshqa depozitlari – Jamg‘arma – Maqsadli (Hukumat qarorlari asosida ajratilgan mablag‘lar).
3. 22626 – Korxona va tashkilotlarning maqsadli mablag‘lari (Hukumat qarorlari asosida ajratilgan mablag‘lar).
4. 23202 – Kliring tranzaksiyalar.
5. 23204 – Bir martalik o‘zaro hisob-kitoblar uchun byudjet mablag‘lari.
6. 23208 – Iqtisodiyot va moliya vazirligi fondlari bilan bo‘ladigan kliring tranzaksiyalari.
7. 23210 – Iqtisodiyot va moliya vazirligi fondlaridan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari uchun

ajratilgan maqsadli mablag‘lar.

8. 23218 – Iqtisodiyot va moliya vazirligi fondidan ajratilgan maqsadli mablag‘lar.
9. 23220 – Iqtisodiyot va moliya vazirligi fondidan olingan maqsadli mablag‘lar.

10. 23222 – Iqtisodiyot va moliya vazirligi fondining maqsadli mablag‘lari.

11. 23224 – Xo‘jalik yurituvchi subyektlar o‘rtasidagi o‘zaro bir martalik hisob- kitoblar uchun byudjet mablag‘lari.

12. 23226 – Respublika byudjetining eksportchi-korxonalar bilan bo‘ladigan maqsadli hisob-kitoblar uchun mablag‘lari.

13. 23228 – Respublika byudjetining pudratchi tashkilotlar bilan bo‘ladigan maqsadli hisob-kitoblar uchun mablag‘lari.

14. 20412 – Nodavlat notijorat tashkilotlarining jamg‘arma depozitlari.

15. Maqsadli mablag‘lar taqsimoti bo‘yicha alohida tartiblarda ishtirok etadigan «O‘zbekneftegaz» MXK, «O‘zdonmahsulot» AK, «O‘zbekiston temir yo‘llari» DATK tarkibidagi tashkilotlarga «O‘zbekneftegaz» MXK korxonalari va tashkilotlari hisobvaraqlaridan to‘lovlarni amalga oshirish va ularga «O‘zkommunxizmat» agentligining hududiy gaz ta’minoti korxonalaridan tushadigan to‘lovlari to‘g‘risidagi nizomga (ro‘yxat raqami 1441, 2005-yil 14-yanvar), «O‘zbekiston temir yo‘llari» DATK korxonalari hisob raqamlaridan to‘lovlarni amalga oshirish to‘g‘risida nizomga (ro‘yxat raqami 1088, 2001-yil 27-noyabr), Davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining hisob-kitob jamg‘armasi mablag‘lari hisobiga topshirilgan g‘alla va sholi uchun yakuniy hisob-kitoblar qilishda to‘lovlarni amalga oshirish tartibiga (ro‘yxat raqami 657, 1999-yil 1-mart) muvofiq ochilgan hisobvaraqlar (asosiy talab qilib olinguncha depozit hisobvarag‘idan tashqari).

16. 22630 – Mahalliy byudjetlardan moliyalashtiriladigan fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari tomonidan tayinlanadigan ijtimoiy nafaqalar bo‘yicha mablag‘lar (Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 15-fevraldagi 44-sonli qarori bilan tasdiqlangan Kam ta’minlangan oilalarga ijtimoiy nafaqalar va moddiy yordam tayinlash va to‘lash tartibi to‘g‘risidagi nizomga asosan ochilgan maxsus hisobvaraq).

17. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 30- oktyabrdagi 306-son «Suv ta’minoti va kanalizatsiya tashkilotlarini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qaroriga muvofiq «Suvoqova» davlat unitar korxonalari tomonidan ularning shahar va tuman filiallari ta’minoti hamda joriy xarajatlarini (ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, mahalliy

soliqlar, xizmat safari xarajatlari, suv, gaz, elektr energiyasi, telefon va boshqa kommunal to‘lovlar, ijara haqi, avtotransport xarajatlari) qoplash maqsadida ajratiladigan mablag‘lar uchun ochilgan 22622 – «Yuridik shaxslarning o‘z vakolatxonalari va filiallari ta’minoti uchun ajratgan mablag‘lari» hisobvarag‘i.

18. 22634 – Tabiiy gazdan tushadigan pul mablag‘larini jamlaydigan yagona maxsus hisobvaraq.

19. 22636 – Elektr energiyasidan tushadigan pul mablag‘larini jamlaydigan yagona maxsus hisobvaraq.

Soliqlar va yig‘imlarning byudjetga o‘z vaqtida va to‘liq tushishini ta’minlash, soliq va to‘lov intizomini mustahkamlash, xo‘jalik yurituvchi subyektlarning byudjet oldidagi o‘z majburiyatlarini bajarishlari uchun mas’uliuatini oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Byudjet bilan hisob-kitoblar uchun xo‘jalik yurituvchi subyektlarning mas’uliyatni oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» PF–1504-son farmoni qabul qilindi.

Mazkur farmonga muvofiq, Davlat soliq qo‘mitasiga soliqlar va byudjetga to‘lovlar bo‘yicha qarzdorlarni korxonaning mulki hisobidan undirib olish huquqi berildi.

Soliq kodeksining 123-moddasiga muofiq soliq qarzini bank hisobvaraqlaridagi pul mablag‘lari hisobidan undirish mumkin bo‘lmasa, soliq organi soliq qarzini soliq qarziga ega shaxsning boshqa mol-mulki, shu jumladan naqd pul mablag‘lari hisobidan undirishga haqli bo‘ladi.

Yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlardan soliq qarzini undirish soliq qarzini uzish to‘g‘risidagi talabnomada ko‘rsatilgan summalar nisbatan amalga oshiriladi.

Soliq qarzi bo‘yicha majburiyatga ega shaxsning mol-mulki hisobidan soliq qarzdorligini undirish sud tartibida amalga oshiriladi. Soliq to‘lovchi tomonidan soliq qarzdorligi tan olinsa, soliq organi rahbarining (rahbar o‘rinbosarining) qaroriga binoan soliq qarzi bo‘yicha majburiyatga ega shaxsning mulki hisobidan soliq qarzdorligi undirilishi mumkin[13].

Muddati uzaytirilgan qarz summasi – bunday soliq qarzi xo‘jalik yurituvchi subyektlarning soliqlar va yig‘imlarni ayrim uzrli sabablarga

[13] O’zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining 123-moddasi 6-bandi https://lex.uz/docs/4674902 sayti ma’lumotlari.

ko‘ra to‘lash imkoni bo‘lmagan hollarda paydo bo‘ladi. Bunday soliq qarzi summasi asosan strategik ahamiyatga ega bo‘lgan yirik davlat korxonalari va byudjet tashkilotlari uchun yuqori davlat organlarining ko‘rsatmalariga muvofiq, oldindan to‘lov amalga oshirilmasdan mahsulot jo‘natgan, xizmat ko‘rsatgan yoki boshqa ishlarni amalga oshirgan xo‘jalik yurituvchi subyektlarga tegishli bo‘ladi. O‘z vaqtida to‘lovlar amalga oshirilmaganligi sababli, mahsulot jo‘natgan, xizmat ko‘rsatgan yoki boshqa ishlarni amalga oshirgan xo‘jalik yurituvchi subyektlarning debitor qarzlari paydo bo‘ladi.

Iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlari xo‘jalik yurituvchi subyektlarining o‘zaro pullik majburiyatlari bo‘yicha qarzlarini to‘lash muddatini kechiktirish va ularni bo‘lib-bo‘lib to‘lash masalasini O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tegishli komplekslar rahbarlari bilan kelishgan holda ko‘rib chiqiladi.

Davlat soliq xizmati organlari tomonidan soliq to‘lovchilar tomonidan soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi hamda ularni bajarilishi yuzasidan **soliq tekshiruvlari o‘tkazilishi** mumkin. Bundan tashqari soliq va to‘lovlarni byudjetga o‘z vaqtida tushishini ta’minlash maqsadida soliq nazoratining boshqa shakllari o‘tkaziladi. Mazkur har ikki holatda ham qonun buzilishi holatlari aniqlanishi mumkin va bunday hollarda qo‘shimcha soliq hamda penya hisoblanishi, jarima qo‘llanilishi mumkin. Yuqorida keltirib o‘tilgan hollarda soliq to‘lovchilarning davlat oldida qarzdorligi vujudga keladi. Soliq kodeksiga muvofiq: «Soliq qarzini to‘lash, shu jumladan, uni soliq organlari tomonidan undirish chog‘ida to‘lash quyidagi tartibdagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi:

1) soliqlar summasi;
2) hisoblangan penyalar;
3) jarimalar»[14].

Ayrim soliq to‘lovchilar va soliq agentlari zimmasida turgan soliqlarning to‘lanishi va (yoki) undirilishi quyidagi hollarda undirish imkoni bo‘lmay qolgan **umidsiz soliq qarzi**, deb e’tirof etiladi va ularga:

1) yuridik shaxs tugatilganda – yuridik shaxsning mol-mulki yetarli emasligi va (yoki) shu yuridik shaxsning muassislari (ishtirokchilari) tomonidan qonun hujjatlarida belgilangan miqdorda va

[14] O’zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining 55-moddasi. https://lex.uz/docs/4674902 sayti ma’lumotlari.

tartibda uning soliq qarzini uzish imkoni bo‘lmaganligi sababli uning Soliq kodeksida nazarda tutilgan tartibda uzilmay qolgan qismi bo‘yicha;

2) yakka tartibdagi tadbirkor bankrot, deb e’tirof etilganda – qarzdorning mol-mulki yetarli emasligi sababli soliq qarzining uzilmay qolgan qismi bo‘yicha;

3) jismoniy shaxs vafot etganda yoki jismoniy shaxs vafot etgan, deb e’lon qilinganda – uning mol-mulki yetarli emasligi sababli, shu jumladan, meros davlat mulkiga o‘tgan taqdirda, uning soliq qarzining Soliq kodeksida nazarda tutilgan tartibda uzilmay qolgan qismi bo‘yicha;

4) sud tomonidan hujjat qabul qilinib, unga muvofiq soliq organi soliq qarzini undirishning belgilangan muddati o‘tishi munosabati bilan uni undirish imkoniyatini yo‘qotganda, shu jumladan, sud tomonidan soliq qarzini undirish to‘g‘risida ariza berishning o‘tkazib yuborilgan muddatini tiklashni rad etish haqida ajrim chiqarilganda;

5) chet el yuridik shaxsi soliq organidan hisobdan chiqarilganda – doimiy muassasaning mol-mulki yetarli emasligi va qonunchilikda belgilangan miqdor va tartibda O‘zbekiston Respublikasining norezidenti bo‘lgan yuridik shaxs tomonidan to‘lash imkonsizligi sababli to‘lanmagan soliq qarzi bo‘yicha undirilishi umidsiz, deb e’tirof etilgan mazkur soliq qarzi shu chet el yuridik shaxsi Soliq kodeksida nazarda tutilgan asoslarga ko‘ra soliq organida qaytadan hisobga qo‘yilganda tiklanishi lozim.

Mavzu bo‘yicha savollar

1. Soliq majburiyati deganda nima tushuniladi?
2. Soliq qarzini vujudga kelish sabablari nimalardan iborat?
3. Soliq qarzlarini vujudga kelishiga qanday omillar ta’sir ko‘rsatadi?
4. Soliq qarzi va penya tushunchalariga ta’rif bering.
5. Soliq to‘lovchilarga soliq qarzi haqidagi ma’lumotnomalar taqdim etish tartibini tushuntirib bering.
6. Majburiy undiruvga qaratilgan qarz summasi to‘g‘risida nimalarni bilasiz?
7. Muddati uzaytirilgan qarz summasi tushunchasiga ta’rif bering.
8. Umidsiz soliq qarz deganda nimani tushunasiz?

9. Soliq qarzini to‘lash qanday ketma-ketlikda amalga oshiriladi?

10. Soliq kodeksining 120-moddasiga muvofiq soliq qarzini undirish choralariga nimalar kiradi?

11. Soliq madaniyatini shakllantirish jarayoniga ta’sir etuvchi omillarni ko‘rsating.

12. Soliqlarning byudjetga o‘z vaqtida tushumini ta’minlashning ahamiyati nimada?

4-MAVZU. ORTIQCHA TO‘LANGAN YOKI UNDIRILGAN SUMMALARNI HISOBGA OLISH, QAYTARISH

1. **Soliqlar va yig‘imlarning ortiqcha to‘langan yoki undirilgan summalarni aniqlash**
2. **Soliqlar va yig‘imlarning ortiqcha to‘langan yoki undirilgan summalarini hisobga olish**
3. **Soliqlar va yig‘imlarning ortiqcha to‘langan yoki undirilgan summalarini qaytarish**
4. **Muddatida qaytarilmagan ortiqcha to‘langan yoki ortiqcha undirilgan soliq summasiga foiz hisoblash va to‘lab berish**

1. Soliqlar va yig‘imlarning ortiqcha to‘langan yoki undirilgan summalarni aniqlash

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-iyuldagi «Soliq ma’muriyatchiligini tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning yig‘iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF–5116-son farmoniga asosan 2018-yil 1-yanvardan ortiqcha to‘langan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni qaytarish yoki hisobga olish soliq to‘lovchi vakolatli organlarga murojaat etgan sanadan boshlab 30 kun o‘rniga 15 ish kuni ichida amalga oshirilishi ko‘rsatib o‘tilgan.

Soliqning (penyaning, jarimaning) ortiqcha to‘langan summasi u ilgari hisobga olingan va (yoki) soliq to‘lovchiga qaytarilgan summalarni, shuningdek, soliq bo‘yicha kelgusi to‘lovlar hisobiga o‘tkaziladigan summalarni hisobga olgan holda uni hisob-kitob qilish sanasida aniqlanadi.

Ortiqcha undirilgan soliq summasi soliq to‘lovchining soliq organlari tomonidan undan g‘ayriqonuniy xatti-harakatlari natijasida ortiqcha soliqlar undirilganligi to‘g‘risidagi murojaati hamda soliq organlarining tegishli xulosasi asosida aniqlanadi.

Xatolik bilan to‘langan soliq (penya, jarima) summasi qaysi soliqqa (penyaga, jarimaga) nisbatan uni to‘lagan shaxs soliq to‘lovchi deb hisoblanmaydigan shaxsdan yoki to‘lanishi lozim bo‘lgan byudjetdan boshqa byudjetga kelib tushgan soliq (penya, jarima) summasi sifatida soliq to‘lovchining murojaati asosida aniqlanadi. Ortiqcha to‘langan yoki undirilgan soliq summasi soliq organi va soliq to‘lovchi tomonidan u to‘lagan soliqlarni birgalikda o‘zaro solishtirish o‘tkazish (solishtirish dalolatnomasi imzolash) orqali aniqlanishi mumkin.

Ortiqcha to‘langan soliq summasini hisobga olish yoki qaytarish to‘g‘risidagi ariza, agar soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, ko‘rsatilgan summa to‘langan kundan e’tiboran besh yil ichida berilishi mumkin.

Ortiqcha undirilgan soliq summalarini hisobga olish yoki qaytarish to‘g‘risida soliq organiga ariza soliq to‘lovchi tomonidan undan soliq ortiqcha undirilgani fakti o‘ziga ma’lum bo‘lgan kundan yoki sud qarori qonuniy kuchga kirgan kundan e’tiboran besh yil ichida berilishi mumkin.

Soliqlar va yig‘imlarning ortiqcha to‘langan summalarini hamda hisoblangan foizlarini hisobga olish yoki qaytarish milliy valyutada amalga oshiriladi.

Qo‘shilgan qiymat solig‘ining salbiy farq summasini qoplash (qaytarish) yoki boshqa soliqlar bo‘yicha qarzdorlikni uzish hisobiga qoplash Soliq kodeksida va Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 14-avgustdagi 489-son qarori bilan tasdiqlangan «Qo‘shilgan qiymat solig‘i summasi o‘rnini qoplash tartibi to‘g‘risida» gi nizomga muvofiq amalga oshiriladi.

2. Soliqlar va yig‘imlarning ortiqcha to‘langan yoki undirilgan summalarini hisobga olish

Soliqlar va yig‘imlarning ortiqcha to‘langan yoki undirilgan summalarini hisobga olish Soliq kodeksining 103–105-moddalarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Soliq kodeksining 103-moddasiga asosan soliq to‘lovchida soliq qarzi mavjud bo‘lgan taqdirda, ortiqcha to‘langan yoki ortiqcha undirilgan soliq summasi ushbu qarzni uzish hisobiga quyidagi ketma-ketlikda hisobga olinishi lozim[15]:

1) mazkur soliq turining penyasi bo‘yicha qarz hisobiga;

2) boshqa soliqlar va ularning penyalari bo‘yicha qarzni uzish hisobiga;

3) soliqqa oid huquqbuzarliklar uchun jarimalarni to‘lash hisobiga.

Hisobga olish soliq organlari tomonidan mustaqil ravishda amalga oshirilishi mumkin.

Soliqlar va yig‘imlarning ortiqcha to‘langani yoki undirilgan ehtimolidan dalolat beruvchi faktlar aniqdangan taqdirda, soliq organining

[15] O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksining103-moddasi.

yoki soliq to‘lovchining taklifiga ko‘ra soliqlar, penyalar va jarimalar bo‘yicha hisob-kitoblarni birgalikda o‘zaro solishtirish o‘tkaziladi.

Soliqlar va yig‘imlarning ortiqcha to‘langan yoki undirilgan summalarini boshqa soliq to‘lovi bo‘yicha kelgusi to‘lovlar uchun (agar soliq to‘lovchida qarzdorlik mavjud bo‘lmasa) hamda boshqa soliq to‘lovchilarning soliqlar va yig‘imlar bo‘yicha qarzlarini (penyalarni, jarimalarni) uzish hisobiga hisobga olish mumkin emas.

Muayyan ma’muriy-hududiy birlik hududidagi davlat soliq xizmati organida hisobi yuritilayotgan soliq majburiyati bo‘yicha ortiqcha to‘langan soliqlar va yig‘imlar to‘lovlar, boshqa ma’muriy-hududiy birlik hududidagi davlat soliq xizmati organida hisobi yuritilayotgan soliq majburiyatini bajarish hisobiga hisobga olish mumkin emas.

Soliq organi ortiqcha to‘langan yoki undirilgan soliq summasini hisobga olishni rad etish to‘g‘risidagi qabul qilingan qaror haqida soliq to‘lovchiga bunday qaror qabul qilingan kundan e’tiboran uch kun ichida xabar qilishi shart.

Soliqlar va yig‘imlarning ortiqcha to‘langan yoki undirilgan summasini soliq qarzini qoplash hisobiga hisobga olish to‘g‘risidagi qaror soliq organi tomonidan soliqlar va yig‘imlarning ortiqcha to‘langanligi fakti aniqlagan kundan e’tiboran yoki agar soliq organi va soliq to‘lovchi tomonidan u to‘lagan soliqlarni birgalikda o‘zaro solishtirish o‘tkazilgan bo‘lsa, bunday birgalikdagi solishtirish dalolatnomasi soliq organi va soliq to‘lovchi tomonidan imzolangan kundan e’tiboran yoxud sudning tegishli qarori qonuniy kuchga kirgan kundan e’tiboran o‘n kun ichida qabul qilinadi.

Soliqlar va yig‘imlarning ortiqcha to‘langan yoki undirilgansummalarini hisobga olish (qaytarish) yoki rad etish to‘g‘risida

QAROR

20__-yil «___»-son (shahar) tuman

(viloyat yoki shahdr) davlat soliq inspeksiyasi (yoki DSB) boshlig‘i (o‘rinbosari) (F.I.Sh.) Uzbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 104 (105)-moddasiga asosan, soliq to‘lovchi «___» (STIR) rahbari tomonidan «___» 20__-yil kuni yo‘llangan ___-sonli murojaati bo‘yicha (soliq kodi_)ga ortiqcha to‘langan yoki undirilgan so‘m soliq summasini hisobga olish va (yoki) qaytarib berish to‘g‘risidagi arizasini ko‘rib chiqib, quyidagilar

ANIQLANDI:

Davlat soliq xizmati organining ma’lumotlar bazasida soliq to‘lovchining « __» 20__-yil holatiga (soliq kodi) dan so‘m ortiqcha to‘langan yoki undirilgan summasi mavjudligi va boshqa soliq turlaridan soliq qarzi mavjud emasligi (so‘m soliq qarzi mavjudligi). Davlat soliq inspeksiya (DSB)ning bo‘limining «___» 20__-yilda taqdim qilgan topshiriqnomada so‘m ortiqcha to‘langan soliq summasi mavjudligi (mavjud emasligi).

Soliq to‘lovchining shaxsiy hisobvarag‘ida 20__-yil holatiga (soliq kodi) soliq turidan so‘m ortiqcha to‘langan yoki undirilgan soliq summasi vujudga kelganligi va soliq summalarini hisobga olish yoki qaytarish bo‘yicha da’vo qilish muddati buzilmaganligi (buzilganligi).

Soliq kodeksning 104 (105)-moddasida ortiqcha to‘langan yoki undirilgan soliq summalari to‘g‘risida soliq to‘lovchining yozma arizasi soliq organiga kelib tushgan kundan e’tiboran o‘n besh kun ichida hisobga olinishi yoki soliq to‘lovchining bank hisobraqamiga qaytarilishi lozimligi yoki rad etishligi belgilangan.

Bayon etilganlarga ko‘ra, Uzbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 104 (105)-moddasiga asoslanib (shahar) tuman davlat soliq inspeksiyasi (DSB),

QAROR QILADI:

Soliq to‘lovchi «___»ning shaxsiy hisobvarag‘ida (soliq kodi) soliq turidan mavjud ortiqcha to‘langan yoki undirilgan so‘m mablag‘larni qaytarish, (soliq kodi) soliq turidan mavjud qarzi hisobiga hisobga olish) yuzasidan tuman (shahar) g‘aznachilik bo‘limiga bir ish kunida topshiriqnomalar tayyorlanib, ijro uchun yuborilsin (Rad etilsin).

Ushbu qaror imzolangan kundan e’tiboran qonuniy kuchga kiradi. tuman (shahar), YSTBH DSI, viloyat DSB boshlig‘i.

Soliq to‘lovchilar o‘zi soliqlar va yig‘imlarning ortiqcha to‘lagan yoki undirilgan summasini uning soliq qarzini qoplash hisobiga hisobga olish to‘g‘risida soliq organiga yozma ariza taqdim etishga haqli.

Davlat soliq xizmatining kodi | | | | | |

_____

(davlat soliq xizmatining nomi)

_____dan

(yuridik yoki jismoniy shaxsning nomi)

STIR | | | | | | | | | | | | |

Pochta adresi: (Indeks)

_____

Tel. (mob.): _____

E.mail: _____

ARIZA

Soliq kodeksining bandi qismi moddasiga asosan hisobga olish uchun

Soliq kodi Soliq nomi

_____

Shaxsiy g‘azna hisobvarag‘idan]

												so’m		

Summada tiyin tiyin

												so’m		

Keraklisining tagiga chizilsin (mazkur soliq turi bo‘yicha penyalar va jarimalar), (boshqa soliq turlari bo‘yicha qarzdorlik), (boshqa soliq turlari bo‘yicha penyalar va jarimalar), (mazkur soliq bo‘yicha kelgusi to‘lovlar), (boshqa soliq turlari bo‘yicha kelgusi to‘lovlar)

_____

(Tashkilot rahbari F.I.Sh.) yoki (jismoniy shaxsning F.I.Sh.)

(Pasport seriyasi va raqami)

_____

(Bosh buxgalter F.I.Sh.)

(Pasport seriyasi va raqami)

20__-yil «___».

Bunday ariza mavjud bo‘lgan taqdirda soliq organining ortiqcha to‘langan soliq summasini soliq qarzini uzish hisobiga hisobga olish to‘g‘risidagi qarori soliq to‘lovchining arizasi olingan kundan e’tiboran yoki, agar birgalikda o‘zaro solishtirish o‘tkazilgan bo‘lsa, soliq organi soliq to‘lovchi bilan u to‘lagan soliqlarni birgalikda o‘zaro solishtirish dalolatnomasini imzolagan kundan e’tiboran o‘n kun ichida qabul qilinadi.

Soliq organi tomonidan soliqlar va yig‘imlarning ortiqcha to‘langan yoki undirilgan summasini soliq qarzini qoplash hisobiga hisobga olish to‘grisidagi qarori qabul qilingan kundan boshlab, bir ish kun muddatida elektron topshiriqnoma tayyorlaydi va elektron raqamli

imzo bilan tasdiqlash orqali «O‘RMV» ATga elektron tarzda yuboriladi.

Elektron topshiriqnomada quyidagilar majburiy tarzda ko‘rsatiladi:

- topshiriqnoma raqami;
- topshiriqnoma taqdim etuvchi davlat soliq xizmati organining nomi;
- to‘lovchi yuridik shaxsning – nomi, STIR yoki to‘lovchi jismoniy shaxsning – F.I.Sh., STIR (JShShIR);
- ortiqcha to‘langan soliq yoki to‘lov turi; summasi;
- to‘lovchining mablag‘larni qaytarish to‘g‘risidagi arizasiga havola qilingan holda, qaytarish yoki hisobga olishning aniq sabablari;
- daromad shaxsiy g‘azna hisobvarag‘i;
- oluvchining bank rekvizitlari;
- elektron raqamli imzo bilan tasdiqlagan mas’ul shaxs to‘g‘risidagi ma’lumotlar.

Ortiqcha to‘langan (ortiqcha undirilgan) yoki xatolik bilan to‘langan soliq (penya, jarima) summalarini hisobga olish summasi bazaviy hisoblash miqdorining 20 barobaridan oshmagan hollarda, elektron topshiriqnomalar davlat soliq xizmati organlarining axborot tizimi orqali avtomatik shakllantirilishi va elektron raqamli imzo bilan tasdiqlanmasdan «O‘RMV» ATga elektron tarzda yuborilishi mumkin.

Elektron topshiriqnoma tayyorlash imkoniyati mavjud bo‘lmagan hollarda, topshiriqnomalar soliq organining yozma murojaatiga asosan tegishli g‘aznachilik bo‘linmalariga qog‘oz shaklida yuborilishi mumkin.

Soliq qarziga, boshqa turdagi soliqlar bo‘yicha penya va jarimalar uchun hisobga olinayotgan summa soliqlar va yig‘imlarning ortiqcha to‘langan yoki undirilgan summasidan oshib ketishi mumkin emas.

TOPSHIRIQNOMA № ___

(topshiriqnoma taqdim etuvchi soliq organining nomi)

arizasiga asosan (STIR _____)

(to‘lovchi yuridik shaxsning – nomi, STIR yoki to‘lovchi jismoniy shaxsning – F.I.Sh., STIR) ortiqcha to‘langan yoki undirilgan soliq summasini qaytarish (hisobiga olish) to‘g‘risida

_____

(soliq yoki yig‘im nomi) (sonda va yozuvda)

Summada hisobvarag‘iga (sonda va yozuvda) quyidagi daromad shaxsiy g‘azna

_____

Mablag‘lar manbai
STIR tasnif kodi
Valyuta kodi
Nazorat kaliti
Hududiy tasnif kodi
Daromad turi
Tashkiliy
Mablag‘ oluvchi jismoniy yoki yuridik shaxsning nomi
Bank xisob raqami
Mablag‘ oluvchining bank nomi Bank kodi (MFO)
Summa
summa yozuvda
To‘lov maqsadi
Rahbar
Bosh buxgalter (buxgalter, mutaxassis) 20__-yil «____»

Soliqlar va yig‘imlarning ortiqcha to‘langan yoki undirilgan summasini hisobga olish bo‘yicha soliq organining qarori va topshiriqnomasi soliq organining Hisobga olish va byudjet daromadlarini prognozlashtirish bo‘limi (sho‘basi) tomonidan tayyorlanadi.

Bunda, quyidagilarga alohida e’tibor qaratiladi:

- alohida rejimda bajarilgan (bir martalik yozuvlar) amallar natijasida hosil bo‘lgan ortiqcha to‘langan soliq summasi bo‘yicha soliq organi rahbarining munosabat belgisi qo‘yilgan hujjatlarning mavjudligini o‘rganish;
- shaxsiy hisobvaraqlaridagi qoldiq summalarini (ortiqcha to‘lov va qarz) yildan-yilga to‘g‘ri o‘tkazilganligini ko‘rib chiqish;
- penya hisoblash;
- ortiqcha to‘langan soliq summasi bo‘yicha moliya organlarida ijroda turgan topshiriqnomalarning qoldiq summasiga aniqlik kiritish hamda ortiqcha to‘lovlarni qaytarish yuzasidan oldin chiqarilgan qarorlar ijrosi hisobvaraqlarda aks etganligi;
- Soliq to‘lovchining qabul qilinmasdan turgan soliqlar bo‘yicha hisobotlarini o‘rganish;
- o‘tkazilgan soliq tekshiruvlari natijasi yuzasidan qo‘shimcha yoki kamaytirishga hisoblangan hamda qo‘llanilgan moliyaviy jarima summasini shaxsiy hisobvaraqlarga kiritilganligini o‘rganish.

Quyidagi to‘lovlar bo‘yicha ortiqcha to‘langan yoki undirilgan summalar boshqa soliq turlariga hisobga olinmaydi:

- davlat bojlari;
- ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlarni ko‘rsatish huquqi uchun yig‘imlar;
- fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya badali uchun to‘lov;
- O‘zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to‘g‘risi»da Qonunining 12, 14, 15-moddasiga muvofiq to‘langan to‘lovlar.

Soliqlar va yig‘imlarning ortiqcha to‘langan yoki undirilgan summasini hisobga olish bo‘yicha Moliya organlariga yuborilgan topshiriqnomalar quyidagi hollarda qisman yoki to‘liq ijrosiz qaytarib olinishi mumkin:

- soliqlar va yig‘imlarning ortiqcha to‘langan yoki undirilgan summasi hisobga olinayotgan soliq qarzi (penyalar, jarimalar) to‘lab berilganda;

- yuridik shaxs tugatilganda (davlat reestridan chiqarilganda);
- qayta hisob-kitoblar, to‘lov muddatlarni o‘zgartirilishi va aniqlashtirilgan soliq hisobotlarini taqdim etilishi natijasida ortiqcha to‘lov yoki qarz summasi o‘zgarganda (o‘zgargan summa miqdorida);
- jismoniy shaxsning vafot etishi munosabati bilan soliq majburiyatlari tugatilganda.

3. Soliqlar va yig‘imlarning ortiqcha to‘langan yoki undirilgan summalarini qaytarish

Soliq to‘lovchi tomonidan ortiqcha to‘langan yoki undan ortiqcha undirilgan soliq summasi soliq to‘lovchining qarzi bo‘lmagan taqdirda shu soliq to‘lovchiga qaytarilishi yoxud ushbu soliq bo‘yicha kelgusi to‘lovlar hisobiga hisobga olinishi lozim.

Soliqlar va yig‘imlarning ortiqcha to‘langan yoki undirilgan summasi soliq to‘lovchining arizasiga ko‘ra soliq to‘lovchiga to‘liq yoki qisman qaytarilishi mumkin. Soliqlar va yig‘imlarning ortiqcha to‘langan yoki undirilgan summasi, Soliq kodeksining 103-moddasi qoidalarini inobatga olgan holda, soliq to‘lovchiga uning yozma arizasiga binoan soliq organi tomonidan bunday ariza olingan kundan e’tiboran o‘n besh kun ichida qaytarilishi lozim.

Yanglishib to‘langan soliq summalari, shuningdek, penyalar va (yoki) jarimalar soliq to‘lovchiga uning yoxud bankning yoki O‘zbekiston Respublikasi G‘aznachiligining yozma murojaati asosida, agar xatolik ular tomonidan yo‘l qo‘yilgan bo‘lsa, qaytariladi.

Soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi bo‘yicha foyda solig‘ining ortiqcha to‘langan summalari shu konsolidatsiyalashgan guruhning mas’ul ishtirokchisiga Soliq kodeksining 105-moddasida belgilangan tartibda hisobga olinishi (qaytarilishi) lozim.

Soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhini tuzish to‘g‘risidagi shartnomaning amal qilishi tugatilgan taqdirda ushbu konsolidatsiyalashgan guruh bo‘yicha mavjud bo‘lgan soliq qarzi hisobiga hisobga olinishi lozim bo‘lmagan va (yoki) hisobga olinmagan soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi bo‘yicha foyda solig‘ining ortiqcha undirilgan summalari soliq to‘lovchilar ushbu konsolidatsiyalashgan guruhining mas’ul ishtirokchisi bo‘lgan yuridik shaxsga uning yozma arizasi asosida hisobga olinishi yoki qaytarilishi lozim.

Byudjet tashkilotlarining joriy moliya yilida byudjet yoki byudjetdan tashqari mablag‘lari hisobiga ortiqcha yoki xatolik bilan to‘langan summasi byudjet tashkilotining to‘lov amalga oshirilgan shaxsiy g‘azna hisobvarag‘iga qaytariladi. Soliqlar va yig‘imlarning ortiqcha to‘langan yoki undirilgan summalari boshqa soliq to‘lovchilarga qaytarilishi mumkin emas. Yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarning soliqlar va yig‘imlar bo‘yicha ortiqcha to‘langan yoki undirilgan yoki xatolik bilan to‘langan summalarini naqd pul ko‘rinishida qaytarib berish mumkin emas.

Ortiqcha yoki xato to‘langan soliq summasi jismoniy shaxs tomonidan naqd pul mablag‘lari orqali amalga oshirilgan bo‘lsa, mablag‘lar jismoniy shaxsning xohishiga ko‘ra «20206 – jismoniy shaxslarning talab qilib olinguncha depozitlari» hisobvarag‘iga yoki jismoniy shaxsning plastik kartalariga qaytariladi.

Soliqlar va yig‘imlarning ortiqcha to‘langan yoki undirilgan summasi Soliq kodeksning 103-moddasida nazarda tutilgan tartibda hisobga olish amalga oshirilganidan keyin qolgan summasi yuridik shaxs va yakka tartibdagi tadbirkorlarning to‘lov amalga oshirilgan tegishli bank hisob raqamiga qaytarib beriladi. Soliqlar va yig‘imlarning ortiqcha to‘langan yoki undirilgan summasini bank hisob raqamlariga qaytarib berish bo‘yicha tayyorlangan qaror va topshiriqnoma summasi shaxsiy hisobvaraqlarda hamda soliq to‘lovchining arizasida ko‘rsatilgan summadan oshib ketishi mumkin emas. Fuqarolarning shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga to‘lanadigan badallar bo‘yicha ortiqcha yoki xatolik bilan to‘langan summasi to‘lov amalga oshirilgan Xalq bankining tuman (shahar) filiallari tomonidan qaytariladi.

Ortiqcha yoki xatolik bilan to‘langan yig‘imlar bo‘yicha mablag‘larni, yig‘imlarni undirishga vakolatli organlar tomonidan qaytariladi. Soliq organi ortiqcha to‘langan yoki undirilgan soliq summasini qaytarishni rad etish to‘g‘risidagi qabul qilingan qaror haqida soliq to‘lovchiga bunday qaror qabul qilingan kundan e’tiboran uch kun ichida xabar qilishi shart.

Soliqlar va yig‘imlarning ortiqcha to‘langan yoki undirilgan summasini qaytarish yuridik shaxs rahbarining (ishonchli vakilining) hamda jismoniy shaxs yoki yakka tartibdagi tadbirkorning o‘zining (ishonchli vakili yoki merosxo‘rlarining) yozma (elektron) arizasiga asosan amalga oshiriladi.

ARIZA

Soliq qarzdorligi yo‘qligini va (yoki) o‘tkazilgan hisobga olishni inobatga olib, tegishli moliya organlariga Soliq kodeksida nazarda tutilgan tartibda xulosa berishingizni so‘raymiz Soliq kodeksining moddasi

1. Soliq kodi Soliq nomi

_____

Shaxsiy g‘azna hisobvarag‘idan

												so’m		

Summada tiyin

_____

(Summa yozuvda)

_____

(Vujudga kelgan ortiqcha (noto‘g‘ri) to‘langan summaning sababi va sanasi)

ortiqcha (noto‘g‘ri) to‘langan summani qolgan summasini quyida ko‘rsatilgan bank hisobvarag‘iga qaytarish

2. Bankning MFO Bank nomi

_____

(Soliq to‘lovchisiga xizmat ko‘rsatuvchi bank rekvizitlari)

Soliq to‘lovchining

bank hisob

_____

(Tashkilot rahbari F.I.Sh.) yoki (jismoniy shaxsning F.I.Sh.)
(Pasport seriyasi va raqami)

_____

(Bosh buxgalter F.I.Sh.) (Pasport seriyasi va raqami)

20__-yil «___».

Soliqlar va yig‘imlarning ortiqcha to‘langan yoki undirilgan summasini qaytarish to‘g‘risidagi qaror soliq organi tomonidan soliq to‘lovchining tegishli arizasi olingan kundan e’tiboran yoki, agar birgalikda o‘zaro solishtirish o‘tkazilgan bo‘lsa, soliq organi soliq to‘lovchi bilan u to‘lagan soliqlarning birgalikdagi o‘zaro solishtirish dalolatnomasini imzolagan kundan e’tiboran o‘n kun ichida qabul qilinadi.

Soliqlar va yig‘imlarning ortiqcha to‘langan yoki undirilgan summasini qaytarish to‘g‘risidagi qarori qabul qilingan kunda elektron topshiriqnoma tayyorlaydi va elektron raqamli imzo bilan tasdiqlash orqali «O‘RMV» ATga g‘aznachilikka elektron tarzda yuboriladi.

Elektron topshiriqnoma tuzishning imkoniyati mavjud bo‘lmagan hollarda, xulosalar davlat soliq xizmati organining yozma murojaatiga asosan tegishli g‘aznachilik bo‘linmalariga qog‘oz shaklida yuborilishi mumkin.

Soliqlar va yig‘imlarning ortiqcha to‘langan yoki undirilgan summasini qaytarish bo‘yicha qarori va topshiriqnoma tayyorlashdan oldin soliq organlarining Yuridik shaxslarga xizmat ko‘rsatish bo‘limi (sho‘basi) yoki Jismoniy shaxslarga xizmat ko‘rsatish bo‘limi (sho‘basi) (murojaatdan kelib chiqib) tomonidan aylanma varaqasi shakllantirilib, imzolangan aylanma varaqani Hisobga olish va byudjet daromadlarini prognozlashtirish bo‘limi (sho‘’basi)ga taqdim etiladi.

Soliqlar va yig‘imlarning ortiqcha to‘langan yoki undirilgan summalarini qaytarish bo‘yicha
AYLANMA VARAQA

20__-yil «___»-son (shahar) tuman

so‘mda

T/r	Viloyat kodi	Tuman kodi	STIR	Korhona nomi	Ortiqcha tulangan soliq to‘g‘risida		Hisobga olinayotgan soliq		Qayta-rilayotgan	*Izoh
					soliq	soliq	soliq	soliq		
I	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11

* Qisqacha izoh yoziladi

DSB(DSI) «Yuridik (Jismoniy) shaxslyarga xizmat ko‘rsatish» bo‘limi (sho‘basi) boshlig‘i

(«___» 202__-yil)

DSB(DSI) «Soliq qarzini undirishni tashkil qilish» bo‘limi (sho‘basi) boshlig‘i Imzo F.I.SH.

(«___» 202__-yil)

DSB(DSI) «Soliq audit» bo‘limi boshlig‘i Imzo F.I.SH.

DSB(DSI) «Hisobmi yuritish va byudjet daromadlarini prognozlashtirish»

bo‘limi (sho‘basi) boshlig‘i Imzo F.I.SH.

(«___» 202__-yil)

Aylanma varaqani tasdiqlamaslik sababi:

(Aylanma varaqni tasdiqlamaslik sababini qisqacha mazmunini keltirgan holda tuzilma mas’ul xodimi imzo qo‘yish shart)

1. _____

2. _____

(«___» 202__-yil)

Bunda, quyidagilarga alohida e’tibor qaratiladi:

- soliq hisobotlari to‘liq taqdim etilganligini ko‘rib chiqish;
- soliqlar va yig‘imlarning ortiqcha to‘langan yoki undirilgan summasi aniqlashtirilgan soliq hisobotlari natijasida hosil bo‘lgan taqdirda, lozim hollarda mazkur soliq turi bo‘yicha soliq to‘lovchini xabardor qilgan holda soliq hisobotlarini kameral soliq tekshiruvidan o‘tkazish;
- alohida rejimda bajarilgan (bir martalik yozuvlar) amallar natijasida hosil bo‘lgan ortiqcha to‘langan soliq summasi bo‘yicha soliq organi rahbarining munosabat belgisi qo‘yilgan hujjatlarning mavjudligini o‘rganish;
- shaxsiy hisobvaraqlaridagi qoldiq summalarini (ortiqcha to‘lov va qarz) yildan-yilga to‘g‘ri o‘tkazilganligini ko‘rib chiqish;
- penya hisoblash;
- ortiqcha to‘langan soliq summasi bo‘yicha moliya organlarida ijroda turgan topshiriqnomalarning qoldiq summasiga aniqlik kiritish hamda ortiqcha to‘lovlarni qaytarish yuzasidan oldin chiqarilgan qarorlar ijrosi hisobvaraqlarda aks etganligi;
- o‘tkazilgan soliq tekshiruvlari natijasi yuzasidan qo‘shimcha yoki kamaytirishga hisoblangan hamda qo‘llanilgan moliyaviy jarima summasini shaxsiy hisobvaraqlarga to‘liq kiritilganligini o‘rganish.

Hisobga olish va byudjet daromadlarini prognozlashtirish bo‘limi aylanma varaqa asosida bir ish kunida ortiqcha to‘langan yoki ortiqcha undirilgan summani qaytarish yuzasidan soliq organining qarori va topshiriqnomasini elektron ko‘rinishda tayyorlab, vakolatli rahbarga imzo uchun kiritadi.

Soliq to‘lovchilarning ortiqcha to‘langan yoki undirilgan soliq summalarini qaytarish bo‘yicha moliya organlariga taqdim etilgan topshiriqnomalar quyidagi hollarda qisman yoki to‘liq ijrosiz qaytarib olinadi:

- soliq to‘lovchilarning rahbari (ishonchli vakili) ning yoki jismoniy shaxs va yakka tartibdagi tadbirkorlarning o‘zi (ishonchli vakili yoki merosxo‘rlari)ning yozma (elektron) arizasiga asosan;
- yuridik shaxs va yakka tartibdagi tadbirkor bankrotlik asosida tugatilganda (davlat reestridan chiqarilganda).

- jismoniy shaxsning vafot etishi munosabati bilan soliq majburiyatlari tugatilganda.

Soliq kodeksining 104-105-moddalariga muvofiq soliqlar va yig‘imlarning ortiqcha to‘langan yoki undirilgan summasini qaytarish tartibi xatolik bilan to‘langan soliq (penya, jarima) summasini qaytarishga ham tatbiq etiladi.

Davlat soliq xizmati organi axborot tizimidan «O‘RMV» ATga elektron tarzda yuborilgan mablag‘larni qaytarish yoki hisobga olish to‘g‘risida elektron topshiriqnoma tegishli tuman (shahar) g‘aznachilik bo‘linmasi tomonidan bir ish kuni mobaynida ko‘rib chiqilib qonunchilik hujjatlariga muvofiq topshiriqnomada ko‘rsatilgan mablag‘larni qaytarish yoki hisobga olishga e’tirozlari bo‘lmaganida «O‘RMV» ATda topshiriqnomani tasdiqlaydi, e’tirozlar bo‘lganida esa, sababini ko‘rsatgan holda qaytariladi.

Zarur hollarda, tegishli tuman (shahar) g‘aznachilik bo‘linmalari davlat soliq xizmati organidan qaytarish yoki hisobga olish to‘g‘risida elektron topshiriqnomani maqsadga muvofiqligini tekshirish uchun:

- ortiqcha to‘langan yoki ortiqcha undirilgan soliqlar va yig‘imlar summalari bo‘yicha davlat soliq xizmati organi va soliq to‘lovchi o‘rtasida tuzilgan elektron solishtirish dalolatnomasini;
- soliqlar va yig‘imlarni ortiqcha to‘lagan jismoniy shaxs bo‘yicha davlat soliq organi xizmatining mazkur shaxsning soliq qarzi holati to‘g‘risidagi elektron ma’lumotnomalarini talab qilib olishlari mumkin.

4. Muddatida qaytarilmagan ortiqcha to‘langan yoki ortiqcha undirilgan soliq summasiga foiz hisoblash va to‘lab berish

Ortiqcha to‘langan soliq summasini soliq to‘lovchiga qaytarish O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksida belgilangan muddat buzilgan holda amalga oshirilsa, belgilangan muddatda qaytarilmagan summa uchun soliq to‘lovchiga qaytarish muddati buzilgan har bir kalendar kun uchun foizlar hisoblanadi.

Ortiqcha undirilgan soliq summasiga foizlar soliq to‘lovchi undan soliq ortiqcha undirilgani fakti o‘ziga ma’lum bo‘lgan kundan yoki sudning qarori qonuniy kuchga kirgan kundan e’tiboran o‘ttiz kun ichida murojaat etgan taqdirda hisoblanadi.

Foizlar undirilgan kundan keyingi kundan e’tiboran haqiqiy hisobga olingan (qaytarilgan) kunga qadar hisoblanadi.

Foiz stavkasi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining shu davrda amalda bo‘lgan qayta moliyalashtirish stavkasiga teng etib qabul qilinadi.

Quyidagi hollarda foizlar hisoblanmaydi:

- soliq to‘lovchining ortiqcha to‘langan yoki undirilgan soliq summasini qaytarish to‘g‘risida arizasi mavjud bo‘lmaganda;
- soliq to‘lovchi tomonidan undan soliq ortiqcha undirilganligi fakti o‘ziga ma’lum bo‘lgan kundan yoki sudning qarori qonuniy kuchga kirgan kundan e’tiboran o‘ttiz kun ichida murojaat kelib tushmasa;
- ortiqcha to‘langan yoki ortiqcha undirilgan soliq summasini hisobga olishni (qaytarishni) rad etish to‘g‘risida davlat soliq xizmati organining qarori qabul qilinganda;
- kameral soliq tekshiruvida soliq to‘lovchi tomonidan tegishli hujjatlar taqdim etilmaganligi oqibatida qo‘shimcha soliqlar hisoblanib undirib olinganda;
- ortiqcha to‘langan soliq summasi qo‘shilgan qiymat solig‘idan manfiy va nol darajali stavka bo‘yicha hisobotlar natijasida hosil bo‘lganda;
- xatolik bilan to‘langan soliq (penya, jarima) summasiga.

Muddatida qaytarilmagan ortiqcha to‘langan yoki ortiqcha undirilgan soliq summasi soliq to‘lovchiga to‘liq qaytarilgan kundan e’tiboran 3 kun ichida qaytarish muddati buzilgan summaga nisbatan foizlar hisoblash va to‘lab berish to‘g‘risida davlat soliq xizmati organining qarori qabul qilinadi.

Muddatida qaytarilmagan ortiqcha to‘langan (undirilgan) soliq summasiga foizlar hisoblash va to‘lab berish to‘g‘risida
Q A R O R

20__-yil «___»-son (shahar) tuman

_(shahar) tuman davlat soliq inspeksiyasi (davlat soliq boshqarmasi) boshlig‘ining (o‘rinbosari) 20__-yil ___ qarorida soliq to‘lovchi «___»ning (yuridik shaxs bo‘lsa STIR, to‘lovchi jismoniy shaxs bo‘lsa – JShShIR)_bo‘yicha (soliq kodi) ortiqcha to‘langan (undirilgan) ___ so‘m soliq summasini o‘z vaqtida qaytarilmaganligi sabablarini ko‘rib chiqib, qo‘idagilar

ANIQLANDI:

Soliq to‘lovchi «_« (yuridik shaxs bo‘lsa STIR, to‘lovchi jismoniy shaxs bo‘lsa – JShShIR) 20__-yil «___» ortiqcha to‘langan (undirilgan) soliq summalarini hisob raqamiga qaytarib berish to‘g‘risida ariza bilan murojaat qilgan.

Mazkur murojaatga asosan ortiqcha to‘langan (undirilgan) soliq summasi 20__-yil «___» kuni soliq to‘lovchining hisob raqamiga to‘liq qaytarib berilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 104-moddasida ortiqcha to‘langan (undirilgan) soliq summasini soliq to‘lovchiga qaytarish muddati buzilgan holda amalga oshirilsa, belgilangan muddatda qaytarilmagan summa uchun soliq to‘lovchiga qaytarish muddati buzilgan har bir kalendar kun uchun foizlar hisoblash belgilangan.

(O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 105-moddasida ortiqcha undirilgan soliq summasiga foizlar soliq to‘lovchi undan soliq ortiqcha undirilgani fakti o‘ziga ma’lum bo‘lgan kundan yoki sudning qarori qonuniy kuchga kirgan kundan e’tiboran o‘ttiz kun ichida murojaat etgan taqdirda hisoblanishi belgilangan. Bunda foizlar undirilgan kundan keyingi kundan e’tiboran haqiqiy hisobga olingan (qaytarilgan) kunga qadar hisoblanadi.).

Bayon etilganlarga hamda O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 104 (105)-moddasiga asosan ____ (shahar) tuman davlat soliq inspeksiyasi (davlat soliq boshqarmasi)

QAROR QILADI:

Soliq to‘lovchi «__» (yuridik shaxs bo‘lsa STIR, to‘lovchi jismoniy shaxs bo‘lsa – JShShIR) tomonidan 20__-yil «___» ____ ortiqcha to‘langan (undirilgan) soliq summasini qaytarish (hisobga olish) muddati kunga buzilganligi sababli, O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 104-moddasiga asosan kechikkan har bir kalendar kun uchun O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining shu davrda amalda bo‘lgan qayta moliyalash stavkasining uch yuz oltmish beshdan biriga teng miqdorda milliy valyutada foizlar hisoblansin.

Hisoblangan foiz summasi tegishli byudjetdan soliq to‘lovchining bank hisob raqamiga to‘lab berish to‘g‘risida 1 kun muddatda topshiriq tayorlanib, tuman (shahar) g‘aznachilik bo‘limiga ijro uchun yuborilsin.

Ushbu qaror imzolangan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

_____ tuman (shahar) DSI (DSB) boshlig‘i
(imzo)

Muddatida qaytarilmagan ortiqcha to‘langan soliq summasiga foizlar quyidagi formula asosida hisoblanadi[16]:

To‘lanadigan foiz summasi =

Bunda:

n **–** qaytarilishi talab qilingan ortiqcha to‘langan soliqning qaytarish muddati kechiktirilgan kunlar soni;

i **–** qaytarilishi talab qilingan ortiqcha to‘langan soliqning qaytarish muddatidan keyingi kunlarning tartib raqami;

Qi **–** *i*-kundagi qaytarilishi talab qilingan ortiqcha to‘langan soliqning qaytarilmagan qismi;

MBQMSi **–** *i*-kundagi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining qayta moliyalashtirish stavkasi, foizda.

[16] O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Davlat soliq qo’mitasi va Davlat bojxona qo’mitasining 2016-yil 24-martdagi 20, 2016-14, 01-02/8-10-sonli qarori «Byudjet tizimi byudjetlari daromadlarining kassa ijrosi to’g’risida»gi yo’riqnomasiga ilova.

Muddatida qaytarilmagan ortiqcha undirilgan soliq summasiga foizlar quyidagi formula asosida hisoblanadi[17]:

To‘lanadigan foiz summasi =

Bunda:

n **–** qaytarilishi talab qilingan ortiqcha undirilgan soliqning qaytarish muddati kechiktirilgan kunlar soni;

i **–** qaytarilishi talab qilingan ortiqcha undirilgan soliqning qaytarish muddatidan keyingi kunlarning tartib raqami;

OUi **–** *i*-kundagi qaytarilishi talab qilingan ortiqcha undirilgan soliqning qaytarilmagan qismi;

MBQMSi **–** *i*-kundagi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining qayta moliyalashtirish stavkasi, foizda.

Mavzu bo‘yicha savollar

1. Soliqlar va yig‘imlarning ortiqcha to‘langan summalari qangay aniqlanadi?
2. Soliqlar va yig‘imlarning ortiqcha undirilgan summalari qangay aniqlanadi?
3. Soliqlar va yig‘imlarning ortiqcha to‘langan summalarini hisobga olish tartibini tushuntiring.
4. Soliqlar va yig‘imlarning ortiqcha undirilgan summalarini hisobga olish tartibini yoriting.
5. Soliqlar va yig‘imlarning ortiqcha to‘langan summalarini qaytarish tartibi qanday?
6. Soliqlar va yig‘imlarning ortiqcha undirilgan summalarini qaytarish amaliyoti qanday?
7. Muddatida qaytarilmagan ortiqcha to‘langan soliq summasiga foiz hisoblash va to‘lab berish qanday amalga oshiriladi?
8. Muddatida qaytarilmagan ortiqcha undirilgan soliq summasiga foiz hisoblash va to‘lab berish tartibini yoriting.

[17] O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Davlat soliq qo’mitasi va Davlat bojxona qo’mitasining 2016-yil 24 martdagi 20, 2016-14, 01-02/8-10-sonli qarori «Byudjet tizimi byudjetlari daromadlarining kassa ijrosi to’g’risida»gi yo’riqnomasiga ilova.

III BOB. SOLIQ TO‘LOVCHILAR SOLIQ INTIZOMI NAZORATI

5-MAVZU. SOLIQ RISKINI BOSHQARISH, SOLIQ RISKI MAVJUD SOLIQ TO‘LOVCHILARNI ANIQLASH TARTIBI

1. **Soliq riskini tahlil qilish tartibi**
2. **Soliq riski darajasini aniqlash mezonlari va soliq to‘lovchilarni toifalarga ajratish tartibi**
3. **Riskni tahlil qilish va soliq to‘lovchilarni segmentlash**

1. Soliq riskini tahlil qilish tartibi

Soliq riskining tahlili O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Soliq riskini boshqarish, soliq riski mavjud soliq to‘lovchilarni (soliq agentlarini) aniqlash va soliq tekshiruvlarini tashkil etish va o‘tkazish to‘g‘risida» 2021-yil 7-yanvardagi 1-son qarori bilan tasdiqlangan «Soliq riskini boshqarish, soliq riski mavjud soliq to‘lovchilarni (soliq agentlarini) aniqlash va ularni soliq riski darajasi bo‘yicha toifalash tartibi to‘g‘risida» nizomga muvofiq amalga oshiriladi.

Soliq riskini boshqarish tizimi strategiyasi va taktikasini, axborot yig‘ish va uni qayta ishlash, soliq riskini tahlil qilish va baholash, soliq riskini boshqarishga doir chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan belgilanadi.

Soliq riskini boshqarish tizimi – xavfning oldini olish, bartaraf etish va ularni imkon qadar kamaytirish, ularning qo‘llanilish samaradorligini baholash, shuningdek, soliq to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari bajarilishi ustidan nazorat qilish bo‘yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalda bajarishni, soliq organlarida mavjud axborot uzluksiz yangilanishini, tahlil etilishini va qayta ko‘rib chiqilishini nazarda tutuvchi tizim hisoblanadi.

Soliqlarni to‘lamaslik riskini baholash va soliq to‘lovchilarni insoflilik mezonlari asosida segmentlash tizimini joriy qilish tartibi belgilangan bo‘lib soliqlarni to‘lamaslik riskini boshqarishning asosiy vazifalari quyidagilar:

- soliq to‘lovchilarni soliq qonunchiligiga ixtiyoriy ravishda rioya etishi bo‘yicha motivatsiyasini oshirish;

- soliq majburiyatlarini ixtiyoriy va to‘liq bajaradigan soliq to‘lovchilar sonini ko‘paytirish;
- yashirin iqtisodiyot sohasida faoliyat yuritadigan soliq to‘lovchilarga qarshi kurashish;
- soliq huquqbuzarligi sodir etish riski darajasidan kelib chiqib, soliqlarni to‘lamaslik riski tahlilining natijalari asosida tadbirkorlik subyektlariga nisbatan soliq tekshiruvi tashabbusi bilan chiqish;
- soliq auditini rejalashtirishning yagona tizimini yaratish;
- soliq organlarining mavjud resurslaridan kelib chiqib soliq nazoratini soliqlarni to‘lamaslik riski yuqori bo‘lgan soliq to‘lovchilar va ustuvor iqtisodiy faoliyat sohalariga qaratish;
- soliqlarni to‘lamaslik riskini baholashning zamonaviy usullarini joriy qilish va iqtisodiy faoliyat sohasida xufiyona aylanma hamda nazorat qilinmaydigan daromadlar ko‘lamini o‘rganish;
- soliqqa oid huquqbuzarliklarni o‘z vaqtida aniqlash hisoblanadi.

Soliqlarni to‘lamaslik riski tahlilining asosiy manbalari:

- soliq to‘lovchilarning davlat soliq xizmati organlariga taqdim etgan soliq va moliyaviy hisobotlari;
- davlat organlari, tashkilot va muassasalar tomonidan taqdim etiladigan soliq to‘lovchilar to‘g‘risidagi ma’lumotlar tahlili;
- Chet el davlatlarining vakolatli organlari bilan ma’lumot almashish to‘g‘risidagi bitimlar doirasida taqdim etiladigan ma’lumotlar;
- o‘tkazilgan soliq nazorati natijalari;
- sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlarning soliq huquqbuzarliklari bo‘yicha kiritgan tahliliy ma’lumotlari (xususiy ajrim va taqdimnomalar);
- jismoniy va yuridik shaxslarning sodir etilgan soliq huquqbuzarliklari to‘g‘risidagi murojaatlari;
- soliq organlari xodimlaridan yig‘iladigan birlamchi ma’lumotlar;
- veb saytlar, ijtimoiy tarmoqlar, axborot-narx agentliklari ma’lumotlari va qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalardan olingan ma’lumotlar va shunga o‘xshash bir qancha manbaalar hisoblanadi.

Soliq tekshirishlarini rejalashtirish tizimining asosiy prinsiplari:

- soliq tekshiruvlari uchun obyektlarni tanlashning yagona, asosli, ochiq va shaffof tizimini yaratish;

- insofli soliq to‘lovchilarni qo‘llab quvvatlash va ularning faoliyatiga asossiz aralashishni cheklash;
- soliq qonunchiligini buzgan soliq to‘lovchilarga nisbatan javobgarlik muqarrarligini ta’minlash;
- soliq tekshiruvlarini o‘tkazish uchun obyektlarni tanlashning har bir bosqichida soliq organiga taqdim etiladigan barcha ma’lumotlarni har tomonlama tahlil qilish orqali amalga oshirilishini ta’minlashdir.
- Soliq riskini tahlil qilish va natijalarini baholash dasturiy mahsulotni qo‘llash orqali amalga oshiriladi.

Soliq riski quyidagi manbalardan olingan ma’lumotlar asosida tahlil qilinadi: soliq to‘lovchilar tomonidan taqdim etilgan soliq va moliyaviy hisobotlar, shuningdek, soliq to‘lovchilarning shaxsiy kartochkalarida aks ettirilgan ma’lumotlar; O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va soliq organlari faoliyati samaradorligini oshirish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida» 2020-yil 30-oktyabrdagi PF–6098-son Farmoni hamda «O‘zbekiston Respublikasi davlat soliq xizmati idoralari axborot-kommunikatsiya tizimi faoliyati samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 2012-yil 30-oktyabrdagi PQ–1843-son qaroriga asosan davlat organlari, muassasalar va tashkilotlar tomonidan soliq organlariga taqdim etilgan ma’lumotlar:

- xorijiy mamlakatlarning vakolatli organlari tomonidan o‘zaro axborot almashish borasida tuzilgan bitimlar doirasida taqdim etilgan ma’lumotlar;
- ommaviy axborot vositalaridan olingan ma’lumotlar;
- o‘tkazilgan soliq tekshiruvlari materiallaridagi ma’lumotlar;
- sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan soliqqa oid huquqbuzarliklar bo‘yicha aniqlangan ma’lumotlar (hukm, qaror, ajrim, hal qiluv qarori va boshqa hujjatlar);
- soliqqa oid huquqbuzarlik faktlari to‘g‘risida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari;
- statistika organlaridan olingan ma’lumotlar;
- qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalardan olingan ma’lumotlar.

Yirik soliq to‘lovchilarning soliqlarni to‘lamaslik riskini tahlil qilish, uni qo‘llash strategiyasi va taktikasini belgilash, ma’lumot yig‘ish va

qayta ishlash, baholash, shuningdek, soliqlarni to‘lamaslik riskini tahlil qilishga oid boshqa chora-tadbirlar ishlab chiqish va ijrosini ta’minlash Hududlararo inspeksiya tomonidan amalga oshiriladi.

Soliq tekshiruvlari uchun soliq to‘lovchilarni tanlash maqsadida ularning moliyaviy-iqtisodiy faoliyati ko‘rsatkichlari tahlili bir necha bosqichlarni o‘z ichiga oladi, shu jumladan:

- soliq to‘lovlarining miqdori, ularning dinamikasini hamda yuzaga kelgan majburiyatlarining ijrosini tahlil qilish;
- soliq to‘lovchilarning oldingi va joriy davrlardagi soliq va moliyaviy hisoboti ko‘rsatkichlarining farqlanishi (o‘sishi yoki kamayishi) tahlili;
- soliq to‘lovchining moliyaviy holatini baholash;
- soliq imtiyozlaridan to‘g‘ri foydalanishni tekshirish;
- soliq to‘lovchilar tomonidan taqdim etilgan hisobotlardagi ma’lumotlar bilan soliq organida mavjud bo‘lgan ma’lumotlar o‘rtasidagi nomuvofiqliklarni aniqlash kabi bosqichlardan iboratdir.

Soliq riskini tahlil qilish maqsadida sanab o‘tilgan manbalardan olingan ma’lumotlar asosida quyidagi ko‘rsatkichlardan foydalaniladi:

- xarajatlar va daromadlar miqdori, ularning dinamikasi, soliq majburiyatlari o‘z vaqtida bajarilishi, joriy soliq davrida hisoblangan soliqlarning avvalgi soliq davrlarida hisoblangan soliqlar miqdoriga muvofiqligi (kamayishi, ko‘payishi);
- davlat organlari va tashkilotlar tomonidan soliq organlariga taqdim etilgan ma’lumotlardagi ko‘rsatkichlarning soliq to‘lovchilarning soliq va moliyaviy hisobotlaridagi ko‘rsatkichlariga muvofiqligi;
- foydalanilgan soliq imtiyozlarining soliq to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlariga muvofiqligi;
- sof foydaning sof tushumga (tovarlar va xizmatlar realizatsiya qilishda olingan daromad aksiz va qo‘shilgan qiymat solig‘isiz hisoblangan summa) nisbati sifatida aniqlanadigan rentabellik ko‘rsatkichi hamda sof foydaning xarajatlarga nisbati kabi rentabellik ko‘rsatkichi.

2. Soliq riski darajasini aniqlash mezonlari va soliq to‘lovchilarni toifalarga ajratish tartibi

Soliq to‘lovchilar soliq riski darajasiga qarab past, o‘rta va yuqori riskli toifalarga ajratiladi.

Soliqlarni to‘lamaslik riski darajasini aniqlash, quyidagi yo‘nalishlarda risk mezonlarini ballik tizimda baholash asosida amalga oshiriladi:

1) Mulkchilik shakli va holati
2) Faoliyat turining hajmi, masshtabi va murakkabligi
3) Soliq ma’murchiligiga rioya etish darajasi
4) Moliyaviy ko‘rsatkichlar tahlili
5) Soliq imtiyozlaridan foydalanish darajasi.

O‘z navbatida yo‘nalishlar quyidagi mezonlardan iborat:

1) soliq yuki;
2) ilgari taqdim etilgan soliq hisobotlariga bir necha bor (bir hisobot davri uchun uch va undan ortiq marta) o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilishi;
3) soliq hisobotida bir necha soliq davridagi (ikki va undan ortiq) zararlar aks ettirilishi;
4) soliq davri davomida soliq to‘lovchining joylashgan joyi bir necha bor (ikki va undan ortiq marta) o‘zgartirilishi va keyinchalik qayta ro‘yxatdan o‘tkazilishi;
5) qo‘shilgan qiymat solig‘i bo‘yicha guvohnomasi bekor qilingan (ro‘yxatdan chiqarilib tashlangan), shuningdek, tugatilgan, faoliyatini amalga oshirmayotgan, bankrot deb topilgan shaxslar bilan amalga oshirilgan bitimlar (operatsiyalar);
6) sof foydaning xarajatlarga nisbati sifatida aniqlanadigan rentabellik ko‘rsatkichi past darajada bo‘lishi;
7) soliq to‘lovchi tomonidan taqdim etilgan qo‘shilgan qiymat solig‘i bo‘yicha soliq hisobotidagi operatsiyalar to‘g‘risidagi ma’lumotlarning, ushbu operatsiyalar bo‘yicha boshqa soliq to‘lovchi tomonidan taqdim etilgan soliq hisobotidagi ma’lumotlarga mos kelmasligi;
8) Soliq kodeksiga asosan maxsus soliq rejimlarini qo‘llash huquqini beradigan oborotlarini bir necha yil davomida bir milliard so‘mdan past miqdorda soliq hisobotlarini taqdim etishi;
9) Soliq hisobotlarini kech taqdim qilish;
10) Soliqlar bo‘yicha to‘lovlarni kech amalga oshirish;

11) Berilayotgan soliq imtiyozlaridan noto‘g‘ri foydalanish;

12) Xo‘jalik yurituvchi subyekt soliq yukining, u faoliyat olib borayotgan tarmoqning o‘rtacha soliq yukidan kamroq ekanligi;

13) Xo‘jalik yurituvchi subyekt rahbari va bosh buxgalterining tez-tez o‘zgarib turishi;

14) QQSga oid amaliyotlarni amalga oshirishda lozim darajada ehtiyotkorlikka yo‘l qo‘ymaslik darajasi;

15) Xo‘jalik yurituvchi subyekt to‘layotgan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i miqdori va xodimlar soni dinamikasining muvofiqligi;

16) Xo‘jalik yurituvchi subyekt rentabelligining hisobot davrlarida asossiz ketma-ket pasayib borishi;

17) Mahsulot (tovar, xizmat) larni sotishdan sof tushumning, sotilgan mahsulot (tovar, xizmat) lar tannarxi bilan o‘zaro mutanosibligi;

18) Xo‘jalik yurituvchi subyekt ta’sis etgan boshqa korxonalarning soliq qonunchiligiga rioya etmasligi;

19) Xo‘jalik yurituvchi subyekt xodimlarining korxonada amalga oshiradigan vazifalarining aniq aks ettirilganligi;

20) Soliq to‘lovchi olgan kredit stavkalarining asossiz daraja past yoki baland ekani;

21) Imtiyozli soliq rejimi belgilangan va (yoki) moliyaviy operatsiyalar amalga oshirilganda oshkor etish va axborot berish nazarda tutilmaydigan davlat va hududlar bilan o‘zaro aloqalarning mavjudligi;

22) Xo‘jalik yurituvchi subyekt tomonidan eksport-import amaliyotlarini amalga oshirishda valyuta tushumi kelib tushishi va (yoki) «erkin muomala uchun chiqarish» rejimida tovarlarni respublikaga olib kirish muddatlarining kechiktirilishi;

23) Samarali va belgilangan soliq stavkalarining orasida asossiz farq yuzaga kelishi.

Har bir soliqlarni to‘lamaslik riski mezoniga umumiy baholashga ta’sir etish vazni belgilanib, tahlil davomida mezonlarning xavf darajalarini jamlash orqali soliq to‘lovchining xavf darajasi baholanadi hamda eng yuqori riskga ega soliq to‘lovchilar ro‘yxat shaklida saralanadi.

Soliq yuki, quyidagi tartibda aniqlanadi:

B = T x 100% / In

Bunda:

B – soliq yuki;

T – soliq davri davomida to‘lanishi lozim bo‘lgan soliqlar summasi;

In – soliq davrida tovarlarni (xizmatlarni) sotishdan tushgan daromad.

Soliq yuki ko‘rsatkichi iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha aniqlanadi. Iqtisodiy

faoliyat turlari bo‘yicha o‘rtacha soliq yuki ko‘rsatkichi Davlat soliq qo‘mitasining rasmiy veb-saytida har yili e’lon qilinib borilishi shart.

Qurilish sohasida faoliyat yuritadigan soliq to‘lovchilarning xavf darajasi quyidagi mezonlar asosida baholanadi:

- qurilish ishlarini amalga oshirish uchun lozim darajada xodimlar, ombor, transport va uskunalar bilan ta’minlanmaganligi;
- ishlarni bajarish uchun soliq hisobotlarida zarur xarajatlarning aks etmasligi;
- bitta obyektda, qurilish ishlarini olib boruvchi shaxslarning o‘zaro bog‘liqligi;
- qurilish ishlarini amalga oshiruvchi yangi tashkil etilgan soliq to‘lovchining
- bankdagi hisobvarag‘iga yirik miqdordagi mablag‘ kelib tushushi;
- xom ashyo va materiallarni sotib olish uchun ajratilgan mablag‘larning qurilish
- hajmiga nisbatan nomutanosibligi;
- tugallangan qurilish obyektlarining tannarxiga yaqin narxlarda sotilishi;
- markazlashtirilgan manbalar hisobidan moliyalashtiriladigan qurilish obyektlarida xarajatlarning to‘laqonli aks ettirilmaganligi.

Soliq riski darajasi soliq riski mezonlari asosida aniqlanadi, ularga 1 dan 100 gacha bo‘lgan ballar beriladi. Bunda har bir mezon bo‘yicha ball berish Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan soliq to‘lovchilarning iqtisodiy faoliyat turi bo‘yicha segmentlanishi va soliq davri uchun olingan daromad miqdoriga qarab belgilanadi.

Soliq riski darajasiga qarab soliq to‘lovchilar Dastur orqali soliq riski darajasini aniqlash mezoniga belgilangan ballar va potensial soliq riski asosida baholanadi hamda toifalarga ajratiladi.



3-rasm. Soliq riski darajasini aniqlash mezonlari va soliq to‘lovchilarni toifalarga ajratish tartibi[18]

Soliq riski darajasi quyidagi formula asosida hisoblanadi:

R = Sr / Sp x 100%

Bunda:

R – xavf darajasi (foizda);

Sr – soliq to‘lovchiga berilgan xavf ballari yig‘indisi;

Sp – xavf darajasini aniqlashda qo‘llangan potensial soliq riski ballari yig‘indisi.

Bunda soliq riski darajalarini baholash natijalari yuqoridan amayishibida,baholash natijalari teng bo‘lganda esa – to‘lanmagan soliq summasi ehtimoli asosida quyidagicha toifalanadi:

81 foizdan 100 foizgacha – yuqori risk;

30 foizdan 80 foizgacha – o‘rta risk;

1 foizdan 29 foizgacha – past risk.

Soliqlarni to‘lamaslik riski darajasi yuqori bo‘lgan tadbirkorlik subyektlari (qizil yo‘lak, 81 foizdan 100 foizgacha – yuqori risk).

[18] Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 7-yanvardagi 1-son qaroriga 1-ilova «Soliq riskini boshqarish, soliq riski mavjud soliq to‘lovchilarni (soliq agentlarini) aniqlash va ularni soliq riski darajasi bo‘yicha toifalash tartibi to‘g‘risida»gi Nizom asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

Eng yuqori risk darajasiga ega soliq to‘lovchilar ro‘yxati, soliq auditi o‘tkazish maqsadida Soliq nazorati bo‘limiga taqdim etiladi hamda soliq auditi o‘tkazishga vakolatli xodimlar sonidan kelib chiqib, soliq auditi o‘tkazish uchun aniq soliq to‘lovchilar tanlab olinadi.

Mazkur ro‘yxatda soliq auditi o‘tkazish uchun tanlab olingan oxirgi soliq to‘lovchi tomonidan to‘plagan ball ushbu davr uchun soliq auditi tayinlash chegaraviy bali sifatida belgilanadi.

Soliqlarni to‘lamaslik riski darajasi o‘rtacha bo‘lgan soliq to‘lovchilar (sariq yo‘lak, 30 foizdan 80 foizgacha – o‘rta risk).

Soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etish riski o‘rtacha bo‘lgan soliq to‘lovchilarda Soliq kodeksida belgilangan tartibda kameral tekshiruv o‘tkaziladi.

Kameral tekshiruvi avvalgi shakllangan ro‘yxat bo‘yicha soliq auditi tayinlashning chegaraviy ko‘rsatkichidan keyingi tartib raqamda joylashgan soliq to‘lovchilarga nisbatan soliq organlarining kameral tekshiruvi o‘tkazish vakolatiga ega kadr resurslaridan kelib chiqib tayinlanadi. Mazkur ro‘yxatda kameral tekshiruvi o‘tkazish uchun tanlab olingan oxirgi soliq to‘lovchi tomonidan to‘plagan ball ushbu davr uchun kameral tekshiruvi tayinlash chegaraviy bali sifatida belgilanadi.

Kameral tekshiruv natijalari bo‘yicha Soliq kodeksining 138-moddasiga asosan aniqlangan tafovutlarni bartaraf etish yuzasidan soliq to‘lovchilar tomonidan aniqlashtirilgan qayta hisobotlar yoxud asoslantiruvchi hujjatlar taqdim etilmaganda davlat soliq xizmati organlari mazkur soliq to‘lovchilarga nisbatan soliq auditi o‘tkazish to‘g‘risida qaror qabul qilishi mumkin.

Soliqlarni to‘lamaslik riski past bo‘lgan soliq to‘lovchilarga soddalashtirilgan **«yashil yo‘lak»** (1 foizdan 29 foizgacha – past risk) tartibida xizmat ko‘rsatiladi va soliq tekshiruvlari tayinlanmaydi.

Xo‘jalik yurituvchi subyektlarda o‘tkazilgan soliq auditi yoki kameral tekshiruvi natijasiga ko‘ra, asoslantiruvchi hujjatlar taqdim etib, soliq organlari tomonidan inobatga olinganda yoki aniqlangan soliq huquqbuzarliklarini bartaraf etish yuzasidan qayta hisobot topshirilganda, kelgusi davr uchun o‘tkazilgan tahlil natijasida mazkur tadbirkorlik subyektlari qayta baholanadi va to‘plagan bali bo‘yicha qizil, sariq yoki yashil yo‘lakka mansubligi aniqlanadi.

Xizmat doirasiga mansub soliqlarni to‘lamaslik riski darajasini aniqlash mezonlari doimiy tarzda yangilanib, takomillashtirilib boriladi va oshkor etilmaydi.



4-rasm. Soliq riski darajasini aniqlash davriyligi[19]

Soliq to‘lovchining soliq riski darajasi soliq riskini boshqarish tizimi asosida olti oyda bir marta aniqlanadi.

Soliq xavf darajasi yuqori bo‘lmagan soliq to‘lovchilar tomonidan o‘ttiz kalendar kundan ortiq soliq qarzdorligi to‘lanmagan taqdirda soliq riski darajasi har chorakda bir marta aniqlanishi shart.

Soliq riskini boshqarish tizimida maxfiy bo‘lmagan mezonlar orqali aniqlangan soliq riski darajasi mezonlari haqidagi ma’lumotlar Davlat soliq qo‘mitasining rasmiy veb-saytida joylashtiriladi. Soliq to‘lovchilar zarur hollarda soliq to‘lovchining shaxsiy kabineti orqali soliq organlariga soliq riski darajasi mezonlari bo‘yicha tushuntirishlar yuborishga haqli.

3. Riskni tahlil qilish va soliq to‘lovchilarni segmentlash

Davlat soliq qo‘mitasi tasarrufida «Riskni tahlil qilish va soliq to‘lovchilarni segmentlash» boshqarmasi tashkil etilgan bo‘lib boshqarma qo‘mitasi markaziy apparatining tarkibiy tuzilmasi hisoblanadi.

---

[19] Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 7-yanvardagi 1-son qaroriga 1-ilova «Soliq riskini boshqarish, soliq riski mavjud soliq to‘lovchilarni (soliq agentlarini) aniqlash va ularni soliq riski darajasi bo‘yicha toifalash tartibi to‘g‘risida»gi Nizom asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga, O‘zbekiston Respublikasi «Davlat soliq xizmati to‘g‘risida»gi qonuniga, «O‘zbekiston Respublikasi davlat soliq xizmati organlarida xizmatni o‘tash to‘g‘risida»gi nizom va boshqa qonun hujjatlariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlariga, qarorlari va farmoyishlariga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, farmoyishlariga, Qo‘mitaning ichki normativ hujjatlariga amal qilagan holda boshqarma o‘z ish faoliyatini olib boradi.

«Riskni tahlil qilish va soliq to‘lovchilarni segmentlash» boshqarmasi:

1) Tashqi manbani shakllantirish va ma’lumotlarni qayta ishlash bo‘limi;

2) Tahlil va segmentlash bo‘limidan iborat.

O‘z vazifalarini bajarish jarayonida boshqarma soliq tekshirishlarini amalga oshirish uchun nomzodlarni aniqlash yagona avtomatlashtirilgan tizimini yaratilib, soliq organlarining mavjud kadrlar resursidan kelib chiqib soliq nazoratini soliq riski yuqori bo‘lgan soliq to‘lovchilar va ustuvor iqtisodiy faoliyat sohalari kesimida o‘tkazilishini ta’minlaydi.

Soliq riskini baholashning zamonaviy usullarini joriy qilish va iqtisodiy faoliyat sohasida xufiyona aylanma hamda nazorat qilinmaydigan daromadlar ko‘lamini qisqartirish bo‘yicha va soliqqa oid huquqbuzarliklarni aniqlash ularning oldini olish bo‘yicha takliflar ishlab chiqib, soliq to‘lovchilar tomonidan soliq majburiyatlarining bajarilishini nazorat qilish uchun davlat soliq xizmati organlarining tegishli tuzilmalarini ma’lumotlar bilan ta’minlaydi. Davlat soliq siyosatini amalga oshirishda ishtirok etadi.

«Riskni tahlil qilish va soliq to‘lovchilarni segmentlash» boshqarmasi o‘ziga yuklatilgan vazifalarni Qo‘mita markaziy apparatining tarkibiy bo‘linmalari, hududiy davlat soliq xizmati organlari, Yirik soliq to‘lovchilar bo‘yicha hududlararo davlat soliq inspeksiyasi, Qo‘mita tarkibidagi davlat unitar korxonalari va ta’lim muassasalari, shuningdek, davlat boshqaruvining boshqa organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, tijorat banklari va boshqa tashkilotlar bilan o‘zaro hamkorlikda bajaradi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 133-moddasida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 30-oktyabrdagi PQ–1843-sonli qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-iyuldagi PF–5116-sonli farmonida qayd etilgan organlar va tashkilotlardan olingan ma’lumotlarni belgilangan tartibda Qo‘mitaning yagona integratsiyalashtirilgan axborot resurs bazasida shakllanishini ta’minlab boradi.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 138–140-moddalari talablaridan kelib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-iyuldagi «Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF–5490-son Farmoni hamda 2019-yil 10-iyuldagi «Soliq ma’muriyatchiligini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PQ–4389-son qaroriga muvofiq, davlat soliq xizmati organlarida soliq riskini baholash va soliq to‘lovchilarni insoflilik mezonlari asosida segmentlash tizimini joriy qilish bo‘yicha ishlarni amalga oshiradi.

Qo‘mita hamda soliq to‘lovchilarning majburiyatlari paydo bo‘lishi (tugatilishi) to‘g‘risida ma’lumot taqdim etadigan idora va tashkilotlar o‘rtasida tuzilgan bitimlarda ko‘rsatilgan muddatlarda belgilangan ma’lumotlarni elektron tarzda to‘liq olinishini, dasturiy mahsulotlar asosida tashqi manba ma’lumotlarini qayta ishlanishini ta’minlab boradi.

Davlat soliq xizmati organlariga ma’lumot taqdim etadigan vakolatli organlar, shuningdek, vazirlik va idoralar tarkibini, olinadigan ma’lumotlar turlarini yanada kengaytirish yuzasidan tegishli tadbirlarni belgilangan tartibda amalga oshirib borib, tashqi manba ma’lumotlaridan foydalangan holda soliq solinadigan bazani kengaytirish uchun qo‘shimcha manbalarni aniqlab, soliq to‘lovchilarning qo‘shilgan qiymat solig‘i manfiy summasini qaytarishda soliq risklarni avtomatlashtirilgan nazoratdan o‘tkazadi.

Soliq tekshiruvlarini o‘tkazish uchun subyektlarni tanlashda, mulkchilik shaklidan va soliq majburiyatlari miqdoridan qat’iy nazar, har bir subyekt to‘g‘risida soliq organlarida mavjud bo‘lgan barcha ma’lumotlar avtomatlashtirilgan tizim orqali tahlil qilinib, tahlil natijalariga ko‘ra ma’lum bir mezonlar asosida soliq to‘lashdan bo‘yin tovlash riski yuqori bo‘lgan subyektlarga nisbatan zarur va eng samarali choralarni amalga oshiradi. Davlat byudjetining yo‘qotishlariga sabab

bo‘lishi riski yuqori bo‘lgan soliq to‘lovchilarni aniqlash va soliq nazorati tadbirlarini mazkur subyektlarga qaratish yuzasidan Davlat soliq qo‘mitasi raisi buyrug‘iga asosan kameral va sayyor soliq tekshiruvlarini o‘tkazadi.

Soliq majburiyatlarini o‘z vaqtida va to‘liq bajarib keladigan insofli soliq to‘lovchilarni aniqlab va hisobini yuritadi hamda ularga soliq solishning joriy masalalarini hal qilishda har tomonlama ko‘maklashib boradi.

O‘z faoliyatida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda uni amaliyotga joriy etish yuzasidan xorijiy davlatlar tajribalarini o‘rganib borib, soliq to‘lovchilarning majburiyatlari yuzaga kelganligi to‘g‘risidagi axborotlarni avtomatlashtirilgan tarzda hisobga olish bo‘yicha dasturiy mahsulotlarga tegishli o‘zgartirishlar kiritadi, davlat soliq xizmati organlariga yuklatilgan vazifalardan kelib chiqib, tashqi manba ma’lumotlarini Qo‘mitaning yagona axborot bazasidagi ma’lumotlar bilan taqqoslagan holda, yuzaga kelgan tafovutlarni bartaraf etish bo‘yicha nazoratni amalga oshiradi.

Riskni tahlil qilish va soliq to‘lovchilarni segmentlash orqali soliq solish qismida iqtisodiyotning xufiyona sektorini legallashtirishga qaratilgan, soliqqa oid qonun hujjatlarini yanada takomillashtirish, soliqlarni va to‘lovlarni unifikatsiya qilish, soliq yukini qisqartirish, soliq ma’muriyatchiligini takomillashtirish, xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini rag‘batlantirish, ularga zarur imtiyozlar va preferensiyalar berish bo‘yicha takliflar tayyorlashda qatnashib, hududlarning soliq salohiyatini tizimli tahlil qilish orqali soliqlarning yig‘iluvchanligini oshirilishini ta’minlashda faol qatnashadi. Belgilangan tartibda O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda boshqa vazirliklar va idoralar bilan birgalikda soliq qonunchiligiga muvofiq soliq solish masalalari bo‘yicha idoraviy normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqilishida ishtirok etib,soliqqa oid huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirishda boshqa organlar va tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi.

Mavzu bo‘yicha savollar

1. Soliq riskini tahlil qilish tartibini yoriting.

2. Soliq majburiyatlarini bajarmaslik yoki to‘liq bajarmaslik xavf darajasiga qarab soliq to‘lovchilarni muayyan toifalarga ajratish tartibi qanday?

3. Soliq majburiyatlarini bajarmaslik yoki to‘liq bajarmaslik riskini baholash va keyinchalik soliq to‘lovchilarni (soliq agentlarini) xavf darajasiga qarab toifalarga ajratish imkonini beruvchi mezonlar majmuini yoritib bering.

4. Soliq riski qaysi manbalardan olingan ma’lumotlar asosida tahlil qilinadi?

5. Soliq to‘lovchilar soliq riski darajasiga qarab qanday xavfli toifalarga ajratiladi?

6. Soliq riski darajasi mezonlari qanday axborot hisoblanadi?

7. Soliq riski darajasi qanday mezonlar asosida aniqlanadi?

8. Soliq riski darajasi soliq riski mezonlari asosida qanday ballar beriladi?

9. Soliq riski darajalarini baholash natijalari qanday tartibda baholanadi?

10. Soliq riski darajasini aniqlash davriyligi qanday aniqlanadi?

11. Riskni tahlil qilish va soliq to‘lovchilarni segmentlash amaliyotining yuritilish tartibini yoriting.

6-MAVZU. SOLIQ TO‘LAMASLIK RISKI DARAJASI YUQORI SOLIQ TO‘LOVCHILAR SOLIQ INTIZOMI NAZORATI

1. Soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etish riski o‘rtacha bo‘lgan soliq to‘lovchilarda soliq tekshiruvini tashkil etish va o‘tkazish

2. O‘rtacha darajadagi risk toifasiga mansub soliq to‘lovchilarda soliq tekshiruvida aniqlangan soliqqa oid huquqbuzarliklar bo‘yicha ish yuritish

3. Yuqori darajadagi riskka mansub soliq to‘lovchiga soliq auditini tayinlash va o‘tkazish tartibi

4. Yuqori darajadagi risk toifasiga mansub soliq to‘lovchilarda soliqqa oid huquqbuzarliklar to‘g‘risida ish yuritish

1. Soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etish riski o‘rtacha bo‘lgan soliq to‘lovchilarda soliq tekshiruvini tashkil etish va o‘tkazish

O‘zbekiston Respublikasining 2007-yil 25-dekabrda qabul qilingan O‘RQ–136-sonli qonuni bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritilib, 2019-yil 30-dekabrda qabul qilingan O‘RQ-599-sonli O‘zbekiston Respublikasining qonuni bilan uning yangi tahriri tasdiqlandi.

Yangi tahrirdagi Soliq kodeksiga asosan soliq organlari soliq nazoratini:

1) soliq tekshiruvlari;
2) soliq monitoringi shaklida amalga oshiradi.



5-rasm. Soliq nazoratini shakllari[20]

[20] Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 7-yanvardagi 1-son qaroriga 2-ilova «Soliq tekshiruvlarini o‘tkazish tartibi to‘g‘risida»gi nizom asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

Soliq organlari soliq tekshiruvlarining quyidagi turlarini o‘tkazadi:

- kameral soliq tekshiruvi;
- sayyor soliq tekshiruvi;
- soliq auditi.



6-rasm. Soliq tekshiruvlarining turlari[21]

Kameral soliq tekshiruvi – soliq to‘lovchilar (soliq agentlari) tomonidan soliqlar va yig‘imlar to‘g‘ri hisoblanishini, o‘z vaqtida va to‘liq byudjet tizimiga to‘lanishini tekshirish maqsadida soliq to‘lovchi, soliq agentlari tomonidan taqdim etilgan soliq hisobotlarini va (yoki) soliq organida mavjud bo‘lgan soliq to‘lovchining faoliyati to‘g‘risidagi boshqa ma’lumotlarni o‘rganish va tahlil qilish asosida soliq organi tomonidan o‘tkaziladigan tekshiruv hisoblanadi.



7-rasm. Kameral soliq tekshiruvini tashkil etish[22]

[21] Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 7-yanvardagi 1-son qaroriga 2-ilova «Soliq tekshiruvlarini o‘tkazish tartibi to‘g‘risida»gi nizom asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

[22] Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 7-yanvardagi 1-son qaroriga 2-ilova «Soliq tekshiruvlarini o‘tkazish tartibi to‘g‘risida»gi nizom asosida muallif tomonidan tayyorlandgan.

Kameral soliq tekshiruvi quyidagi hollarda o‘tkaziladi:

- soliq riskini boshqarish tizimi asosida aniqlangan soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlari buzilishi sodir etilganligi riski mavjudligida;
- soliq to‘lovchi tomonidan taqdim etilgan soliq hisobotida tafovutlar yoki xatolar aniqlanganda.

Soliq organlari quyidagi hollarda ham kameral soliq tekshiruvini o‘tkazishga haqli:

- soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlari talablarining buzilishi holatlari haqida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari soliq organiga tushganda;
- soliq to‘lovchi tomonidan oldin taqdim etilgan soliq hisobotiga nisbatan to‘lanishi lozim bo‘lgan soliq summasini kamaytiradigan yoki ko‘rilgan zarar summasini ko‘paytiradigan aniqlashtirilgan soliq hisoboti taqdim etilganda.

Kameral soliq tekshiruvi soliq organi joylashgan joyda amalga oshiriladi.

Agar soliq to‘lovchi tomonidan avval hisoblangan soliq summasi o‘zgartirilib, kameral soliq tekshiruvi tugagunga qadar besh kun oldin aniqlashtirilgan soliq hisoboti taqdim etilsa, kameral soliq tekshiruvi ushbu taqdim etilgan aniqlashtirilgan soliq hisobotini hisobga olgan holda o‘tkaziladi.

Soliq organlari kameral soliq tekshiruvi o‘tkazilishi boshlanguniga qadar tekshiruvdan oldingi tahlilni o‘tkazishi mumkin.

Tekshiruvdan oldingi tahlil – taqdim etilgan soliq hisobotini va soliq to‘lovchining faoliyati to‘g‘risidagi boshqa axborotni soliq organlari tomonidan axborot tizimlaridan foydalangan holda, soliq to‘lovchining ishtirokisiz o‘tkaziladigan avtomatlashtirilgan tahlildir.

Tekshiruvdan oldingi tahlil soliq organi rahbarining (rahbar o‘rinbosarining) buyrug‘isiz amalga oshiriladi.

Agar tekshiruvdan oldingi tahlil chog‘ida soliq organi tomonidan taqdim etilgan soliq hisobotida soliq organida mavjud bo‘lgan ma’lumotlar bilan tafovutlar va (yoki) xatolar aniqlansa, soliq to‘lovchiga soliq to‘lovchining shaxsiy kabineti orqali soliq hisobotiga tegishli tuzatishlar kiritish to‘g‘risidagi xabarnoma yuboriladi.

Soliq to‘lovchi tegishli tuzatishlar kiritish to‘g‘risidagi xabarnoma olingan kundan e’tiboran o‘n kunlik muddatda aniqlashtirilgan soliq hisobotini yoki aniqlangan tafovutlarning asosnomasini taqdim etishi

shart. Bunday majburiyatning bajarilmaganligi soliq organi tomonidan soliq to‘lovchida kameral soliq tekshiruvini tayinlash uchun asos bo‘ladi.

Tekshiruvdan oldingi tahlil aniqlashtirilgan soliq hisoboti yoki aniqlangan tafovutlar asosnomasi soliq to‘lovchi tomonidan taqdim etilgan yoxud kameral soliq tekshiruvi tayinlagan sanadan e’tiboran yakunlangan hisoblanadi.

Kameral soliq tekshiruvi soliq organi rahbarining (rahbari o‘rinbosarining) buyrug‘i asosida o‘tkaziladi. Buyruqda soliq to‘lovchining nomi va identifikatsiya raqami, tekshiruvchi shaxslarning familiyasi, ismi, otasining ismi va lavozimi, tekshiruvni o‘tkazish muddatlari, tekshirilayotgan davr, tekshirilayotgan soliqlar va yig‘imlarning turlari ko‘rsatiladi.

Kameral soliq tekshiruvi Soliq kodeksining 88-moddasida belgilangan da’vo muddati o‘tmagan soliq davrlariga nisbatan o‘tkazilishi mumkin. Bunda soliq organi yoki boshqa vakolatli organ soliq tekshiruvini o‘tkazishga, tekshiruv natijalari bo‘yicha soliq to‘lovchiga soliq qarzini uzish to‘g‘risida talabnoma yuborishga yoki soliq to‘g‘risidagi qonunchilikka muvofiq to‘lanishi lozim bo‘lgan soliqlar miqdorini qayta ko‘rib chiqishga haqli bo‘lgan muddat soliq majburiyati bo‘yicha da’vo qilish muddati hisoblanadi. Agar Soliq kodeksida boshqacha qoida belgilanmagan bo‘lsa, soliq majburiyati bo‘yicha da’vo qilish muddati, natijalariga ko‘ra soliq majburiyati aniqlanadigan soliq davri tugaganidan keyin uch yilni tashkil etadi. Agar soliq majburiyatining yuzaga kelishi muayyan voqea yoki harakat bilan bog‘liq bo‘lsa, agar Soliq kodeksida boshqacha qoida belgilanmagan bo‘lsa, soliq majburiyati bo‘yicha da’vo qilish muddati shu voqea yoki harakat sodir bo‘lgan paytdan e’tiboran uch yilni tashkil etadi.

Agar o‘tkazilgan kameral soliq tekshiruvi yakuni bilan taqdim etilgan soliq hisobotida tafovutlar va (yoki) xatolar aniqlangan bo‘lsa, soliq organi soliq to‘lovchiga Soliq kodeksida belgilangan tartibda soliq hisobotlariga tuzatishlar kiritish talabnomasini yuboradi. Soliq hisobotiga tuzatishlar kiritish haqida talabnoma yuborilgan sana kameral soliq tekshiruvi tugatilgan sana hisoblanadi. Agar o‘rganish va tahlil qilish yakunlariga ko‘ra tafovutlar va (yoki) xatolar aniqlanmagan bo‘lsa ham kameral soliq tekshiruvi yakunlangan hisoblanadi.

Soliq to‘lovchi tuzatishlar kiritish to‘g‘risidagi talabnoma olingan kundan e’tiboran besh kun ichida tegishli soliqlar va yig‘imlar bo‘yicha

aniqlashtirilgan soliq hisobotini yoxud tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etgan holda aniqlangan tafovutlarning asosnomasini Soliq kodeksida belgilangan tartibda taqdim etishi shart. Soliq to‘lovchi soliq organining tegishli talabnomasida ko‘rsatilgan, aniqlangan tafovutlarning asosnomasi sifatida soliq maslahatchilari tashkilotining xulosasini taqdim etishga haqli. Soliq to‘lovchining nomidan bunday asosnomani soliq maslahatchilari tashkiloti soliq to‘lovchi bilan tuzilgan shartnoma asosida mustaqil ravishda taqdim etishi mumkin. Soliq to‘lovchining taqdim etgan asosnomasi tegishli hujjatlar (asosnomalar) olingan kundan e’tiboran o‘n besh kun ichida soliq organining rahbari (rahbari o‘rinbosari) tomonidan ko‘rib chiqiladi. Aniqlangan tafovutlar bo‘yicha taqdim etilgan asosnomalariga to‘liq yoki qisman rozilik berilgan taqdirda, soliq organi ilgari yuborilgan talabnoma bekor qilinganligi to‘g‘risidagi bildirish xatini yoxud soliq hisobotiga tuzatishlar kiritish to‘g‘risidagi aniqlashtirilgan talabnomani soliq to‘lovchiga yuboradi.

Agar soliq to‘lovchi aniqlashtirilgan soliq hisobotini taqdim etmasa (shu jumladan aniqlashtirilgan talabnomadan keyin), yoxud aniqlangan tafovutlar bo‘yicha asosnomalarni taqdim etmasa, yoki u taqdim etgan asosnomalar yetarli emas deb topilsa, soliq organi soliq to‘lovchiga soliq auditini tayinlashga haqli.

Agar soliq (hisobot) davri uchun soliq monitoringi o‘tkazilayotgan bo‘lsa, bunday davr uchun kameral soliq tekshiruvi o‘tkazilmaydi. Mazkur qoida soliq monitoringi muddatidan oldin tugatilganda qo‘llanilmaydi.

Qo‘shilgan qiymat solig‘i summasi o‘rnini qoplashga nisbatan kameral soliq tekshiruvi soliq to‘lovchi tomonidan soliq davri uchun soliq hisoboti taqdim etish chog‘ida soliq organlari qo‘shilgan qiymat solig‘ining salbiy summasi o‘rnini qoplash (qaytarish) to‘g‘risida xabardor qilingan kundan e’tiboran o‘ttiz kun ichida soliq organining buyrug‘isiz, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Qo‘shilgan qiymat solig‘i summasi o‘rnini qoplashga nisbatan kameral soliq tekshiruvi natijalariga ko‘ra soliq hisobotiga o‘zgartishlar kiritish haqidagi talabnoma yozib berilmaydi.

2. O‘rtacha darajadagi risk toifasiga mansub soliq to‘lovchilarda soliq tekshiruvida aniqlangan soliqqa oid huquqbuzarliklar bo‘yicha ish yuritish

Agar kameral soliq tekshiruvi paytida soliq to‘lovchi tomonidan Soliq kodeksining 28-bobiga muvofiq javobgarlik belgilangan soliqqa oid huquqbuzarlikning sodir etilganligi holati aniqlansa, kameral soliq tekshiruvini o‘tkazgan mansabdor shaxs soliq to‘g‘risidagi qonunchilik buzilganligi holatlarini qayd etuvchi dalolatnomani tuzadi.

Dalolatnoma soliqqa oid huquqbuzarlik holati aniqlangan kundan e’tiboran o‘n kun ichida, biroq kameral soliq tekshiruvi muddati tugashi kunidan kechiktirmay tuziladi. Dalolatnoma xulosa tuzilishidan oldin tuzilishi kerak.

Dalolatnoma kameral soliq tekshiruvini o‘tkazgan mansabdor shaxs va soliq to‘lovchi tomonidan imzolanadi.

Kameral soliq tekshiruvini o‘tkazgan soliq organi rahbari (rahbar o‘rinbosari) dalolatnomani va kameral soliq tekshiruvining boshqa materiallarini ushbu dalolatnoma tuzilgan kundan e’tiboran o‘n kun o‘tgach, biroq o‘n besh kundan kechiktirmasdan ko‘rib chiqadi.

Soliq organi mansabdor shaxsi tomonidan soliq tekshiruvida olingan fotosuratlar, videoyozuvlar va tekshirishda olingan boshqa materiallar xulosaga yoki soliqqa oid huquqbuzarlik dalolatnomasiga ilova qilinadi.

Soliqqa oid huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishlar Soliq kodeksining 165- moddasi yettinchi-o‘n to‘qqizinchi qismlarida nazarda tutilgan tartibda ko‘rib chiqiladi va ko‘rib chiqish natijalari bo‘yicha qaror Soliq kodeksining 166-moddasida nazarda tutilgan tartibda qabul qilinadi.

Soliqqa oid huquqbuzarlik to‘g‘risidagi dalolatnoma va kameral soliq tekshiruvining boshqa materiallari ko‘rib chiqilganidan keyin natijalari bo‘yicha besh kun ichida soliq organi rahbari (rahbar o‘rinbosari) qo‘shimcha soliqlar va penya hisoblash yoki ularni rad etishni nazarda tutuvchi qaror qabul qiladi.

Soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etganlik uchun soliq to‘lovchiga nisbatan qo‘shimcha soliqlarni va penyani hisoblash to‘g‘risidagi qaror, u qabul qilingan kundan keyin ikki kun ichida yuboriladi.

Soliq organining qarorining bajarilishi soliq organi va soliq to‘lovchi tomonidan soliq organining qarori olingan sanadan boshlab bir oy muddat o‘tgach amalga oshiriladi.

Soliq to‘lovchi kameral soliq tekshiruvi natijalari bo‘yicha qabul qilingan qarorni ixtiyoriy bajarmagan taqdirda, soliq qarzini undirish Soliq kodeksining 120–124-moddalarida nazarda tutilgan tartibda soliq organi tomonidan mustaqil ravishda amalga oshiriladi.

Soliq organlari tomonidan o‘tkazilgan kameral soliq tekshiruvi natijasida undirilgan soliqlar va penyalar summalarining 80 foizi davlat byudjetiga, 20 foizi Soliq qo‘mitasining Moddiy yordam, ijtimoiy himoya, soliq organlarini rivojlantirish va ko‘zda tutilmagan xarajatlar maxsus jamg‘armasiga yo‘naltiriladi.

Agar kameral soliq tekshiruvi O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti tomonidan berilgan ma’lumotlar asosida o‘tkazilgan bo‘lsa, kameral soliq tekshiruvi natijasida ko‘p va juda ko‘p miqdorda soliqlar va yig‘imlarni to‘lashdan bo‘yin tovlash holatlari bo‘yicha undirilgan soliqlar va penyalar summalarining 10 foizi Davlat soliq qo‘mitasining Moddiy yordam, ijtimoiy himoya, soliq organlarini rivojlantirish va ko‘zda tutilmagan xarajatlar maxsus jamg‘armasi hamda 10 foizi Departamentning maxsus byudjetdan tashqari jamg‘armasiga yo‘naltiriladi.

Bunda, sodir etilgan soliqqa oid huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni taqdim etish va undirilgan mablag‘larni taqsimlash tartibi O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bilan kelishgan holda tasdiqlanadi.

Soliq organining kameral soliq tekshiruvi natijalari bo‘yicha qabul qilgan qarori ustidan yuqori turuvchi soliq organiga yoki sudga shikoyat qilish mumkin. Davlat soliq qo‘mitasining qarori ustidan sudga shikoyat qilish mumkin.

3. Yuqori darajadagi riskka mansub soliq to‘lovchiga soliq auditini tayinlash va o‘tkazish tartibi

Soliq auditi soliq organlari tomonidan soliq to‘lovchining muayyan davr uchun soliqlar va yig‘imlarning hisoblanishi hamda to‘lanishining to‘g‘riligini tekshirish maqsadida, uning buxgalteriya, moliya, statistika, bank hamda boshqa hujjatlarini o‘rganish va taqqoslash yo‘li bilan o‘tkaziladi.

Soliq auditi soliq to‘lovchilarning (soliq agentlarining) yuqori darajadagi risk toifasiga mansub soliq to‘lovchiga (soliq agentiga) nisbatan o‘tkaziladi.

Soliq auditi quyidagi soliq to‘lovchilarda o‘tkaziladi:



8-rasm. Soliq auditi o‘tkaziladigan yuridik shaxslar [23]

Soliq auditini asosiy bosqichlari qilib quyidagicha shakllantirish mumkin:



9-rasm. Soliq auditini o‘tkazishni asosiy bosqichlari[24]

[23] Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 7-yanvardagi 1-son qaroriga 2-ilova «Soliq tekshiruvlarini o‘tkazish tartibi to‘g‘risida»gi nizom asosida muallif tomonidan tayyorlandgan.

Soliq organi soliq auditi boshlanishidan kamida o‘ttiz kalendar kun oldin soliq to‘lovchiga soliq auditi o‘tkazilishi to‘g‘risida xabarnoma yuboradi.

Xabarnomada soliq auditining boshlanish sanasi, tekshirilishi lozim bo‘lgan masalalarning ro‘yxati, zarur hujjatlarning dastlabki ro‘yxati, shuningdek, soliq auditini o‘tkazish uchun zarur bo‘lgan boshqa ma’lumotlar ko‘rsatiladi.

Soliq to‘lovchi soliq auditi boshlangunga qadar xabarnomada ko‘rsatilgan hujjatlar va ma’lumotlarni tayyorlab qo‘yishi lozim.

Soliq to‘lovchiga soliq auditi o‘tkazilishi to‘g‘risidagi xabarnoma soliq to‘lovchining shaxsiy kabineti yoki buyurtma xat qilib pochta orqali yuboriladi.

Soliqlarni to‘lashdan bo‘yin tovlash belgilari mavjud bo‘lgan, ixtiyoriy ravishda tugatilayotgan hamda jinoyat ishi doirasida taftish o‘tkaziladigan soliq to‘lovchilarga xabarnoma yuborilmaydi.

Agar soliqlarni to‘lashdan bo‘yin tovlashning quyidagi:

- tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan tushum summasini hisobga olish registrlarida aks ettirmaslik;
- yuklarni tovar-kuzatuv hujjatlarini rasmiylashtirmasdan yoxud soxta hujjatlar bo‘yicha tashish;
- hisobda realizatsiya qilinmagan, deb ko‘rsatilgan tovarlarning omborda yoki realizatsiya qilish joyida mavjud emasligi;
- rasmiylashtirilmagan (kirim qilinmagan) tovarlarni saqlash, ulardan foydalanish va realizatsiya qilish;
- tovarlar (xizmatlar) realizatsiya qilinganligidan dalolat beruvchi hujjatlarni almashtirish, soxtalashtirish yoki yo‘q qilish;
- qalbaki birlamchi buxgalteriya hujjatlaridan foydalanish;
- nazorat-kassa texnikasining fiskal xotirasi xizmati dasturiga noqonuniy ravishda o‘zgartirish kiritish;
- foydalanilmagan moddiy xarajatlarni foydalanilgan deb, ishlab chiqarish hisobotiga qo‘shish;

[24] Berdiyeva U. Soliq ma’murchiligi. Elektron darslik. – T. TMI 2021-y.

- tovarlarni sotishdan (xizmat ko‘rsatishdan) olingan tushumni hisobot davridan keyingi davrga o‘tkazish (sotish hajmini va daromadni (foydani) qasddan kamaytirish);
- moddiy, yoqilg‘i-energetika resurslari xarajatlarini (limitlarni) va amortizatsiya (eskirish) normasini sun’iy ravishda oshirish yoki normativlarni noto‘g‘ri qo‘llash;
- ish beruvchi bilan mehnat munosabatlarida bo‘lgan xodimlarning haqiqiy ish haqi summasi soliq hisobotida aks ettirilmaganligi;
- mehnat faoliyatini amalga oshiruvchi xodimlarning soliq hisobotida aks ettirilmaganligi;
- realizatsiya qilingan tovarlar qiymatini hisob hujjatlarida haqiqatda realizatsiya qilingan qiymatidan pasaytirilgan narxlar bo‘yicha aks ettirish kabi belgilari mavjud bo‘lsa, Yirik soliq to‘lovchilar bo‘yicha hududlararo davlat soliq inspeksiyasi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat soliq boshqarmalari O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi bilan kelishgan holda soliq to‘lovchini oldindan xabardor qilmasdan soliq auditini boshlaydi.

Soliq auditini o‘tkazish uchun soliq organi rahbarining (rahbar o‘rinbosarining) buyrug‘i soliq to‘lovchi tomonidan taqdim etilgan soliq hisobotlarini va (yoki) soliq to‘lovchining faoliyati to‘g‘risida soliq organida mavjud boshqa ma’lumotlarni o‘rganish va tahlil qilish asosida soliq auditi dasturi tayyorlangandan keyin chiqariladi.

Soliq organi rahbarining (rahbari o‘rinbosarining) soliq auditini o‘tkazish to‘g‘risidagi buyrug‘i bilan uni o‘tkazish dasturi ham tasdiqlanadi.

Soliq auditini o‘tkazish dasturini tuzishda quyidagi ma‘lumotlardan foydalaniladi:



10-rasm. Soliq auditini o‘tkazish dasturi tuzilishi[25]

- Soliq auditini o‘tkazish to‘g‘risidagi buyruqda quyidagilar ko‘rsatilishi lozim: soliq auditi o‘tkazish uchun asoslar;
- soliq to‘lovchining nomi va identifikatsiya raqami;
- soliq auditini o‘tkazuvchi shaxslarning familiyasi, ismi, otasining ismi va lavozimi;
- soliq auditini o‘tkazish muddati;
- soliq auditining maqsadi (tekshiriladigan soliq davrida barcha soliqlar va yig‘imlar yoki ayrim soliq turi).

Jinoyat ishi yuzasidan o‘tkaziladigan soliq auditi uchun buyruq taftish o‘tkazish to‘g‘risida qabul qilingan qaror yoki ajrim soliq organiga kelib tushgan kundan boshlab ikki ish kuni mobaynida chiqariladi.

Soliq auditini:

- Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat soliq boshqarmalari tomonidan o‘z hududida soliq to‘lovchi sifatida ro‘yxatdan o‘tgan soliq to‘lovchilarda;

[25] Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 7-yanvardagi 1-son qaroriga 2-ilova «Soliq tekshiruvlarini o‘tkazish tartibi to‘g‘risida»gi nizom asosida muallif tomonidan tayyorlandgan.

- yirik soliq to‘lovchilar bo‘yicha hududlararo davlat soliq inspeksiyasi tomonidan yirik soliq to‘lovchilarda;
- Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan yuqori darajadagi risk (soliq riski) toifasiga mansub bo‘lgan soliq to‘lovchilarda o‘tkazadi.

Soliq auditida ishtirok etish uchun boshqa soliq organlarining mansabdor shaxslari jalb etilishi mumkin.

Soliq auditi o‘tkazilayotgan davrda tekshirilayotgan davrning soliq hisobotiga soliq to‘lovchi tomonidan o‘zgartishlar va qo‘shimchalar kiritilishiga yo‘l qo‘yilmaydi. Bunda soliq to‘lovchi tomonidan tekshirilayotgan davrning aynan tekshirilayotgan soliq hisobotlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritilishi yuzasidan jo‘natilgan qayta hisobotlari qabul qilinmaydi (qaytariladi) va soliq auditi jarayonida soliqlar hisoblanishida hisobga olinmaydi.

Soliq auditida ikki va undan ortiq soliq auditini o‘tkazuvchi shaxslar qatnashganda, tekshirish jarayonini boshqarish va natijalarini umumlashtirish maqsadida buyruqda birinchi ko‘rsatilgan tekshiruvchi guruh rahbari hisoblanadi.

Soliq auditi faqat da’vo qilish muddati o‘tmagan oxirgi soliq auditidan keyingi davrni qamrab olishi mumkin.

Soliq organlari soliq to‘lovchining aynan bitta davr uchun aynan bir xil soliqlar bo‘yicha bir martadan ortiq soliq auditini o‘tkazishga haqli emas.

Soliq auditini o‘tkazish chog‘ida soliq organiga ma’lum bo‘lmagan yangi holatlar aniqlangan holda bir martadan ortiq soliq auditini o‘tkazishga haqli. Yangi holatlar aniqlangan taqdirda soliq organi takroriy soliq auditini tayinlaydi.

Soliq auditini o‘tkazish chog‘ida soliq organiga ma’lum bo‘lmagan yangi holatlarga soliq to‘lashdan bo‘yin tovlash hamda soliq to‘lovchi tomonidan soliq auditi o‘tkazilgan davrlar uchun soliqlar va yig‘imlar summasining kamayishini nazarda tutuvchi aniqlashtirilgan soliq hisobotlarini taqdim qilinishi kiradi.

Soliq to‘lovchi ixtiyoriy ravishda tugatilayotganda soliq auditi, soliq to‘lovchining bevosita soliq auditi o‘tkazilayotgan yildan oldingi uch yildan ko‘p bo‘lmagan faoliyatini qamrab olishi mumkin.

Soliq auditini o‘tkazish muddati o‘ttiz ish kunini tashkil qiladi, soliq auditini o‘tkazish muddati ikki oygacha, alohida hollarda esa – uch oygacha uzaytirilishi mumkin.

Soliq auditini o‘tkazish muddati o‘tkazilishi quyidagilar uchun ham uzaytirilishi mumkin:

- talab qilingan hujjatlar (axborotlar) besh ish kuni ichida taqdim qilinmaganda (uzaytirish hujjatlar talab qilinayotgan har bir shaxs bo‘yicha ko‘pi bilan bir marta yo‘l qo‘yiladi);
- chet el davlat organlaridan O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari doirasida axborot olishda;
- ekspertizalar o‘tkazishda;
- chet tilida taqdim etilgan hujjatlarni tarjima qilishda (hujjatlar davlat tiliga tarjima qilingan asl nusxalari shaklida yoki notarial tarzda tasdiqlangan shaklda bo‘lishi mumkin);
- soliq auditi jarayonida o‘rganilishi lozim bo‘lgan hujjatlar hajmining ko‘pligi sababli soliq auditini o‘tkazish uchun buyruqda ko‘rsatilgan muddatning yetarli emasligida;
- yaroqsiz holga kelgan hujjatlarning hamda soliqlar va yig‘imlarni hisoblab chiqarish bilan bog‘liq elektron axborot jismlarni qayta tiklanishida;
- mutaxassis fikri olinishida;
- ekspert jalb qilinganda.

Soliq auditini o‘tkazishning umumiy muddati olti oydan oshishi mumkin emas. Soliq auditining muddatini uzaytirish soliq auditini o‘tkazuvchi shaxsning asoslantirilgan iltimosnomasiga asosan yuqori turuvchi soliq organining ruxsati bilan amalga oshiriladi. Bunda asoslantirilgan iltimosnoma soliq auditining muddati tugashidan besh ish kuni hisobida oldin berilishi kerak.

Soliq auditining muddati uzaytirilganda oldingi buyruqning ro‘yxatga olish raqami va sanasi ko‘rsatilgan holda soliq organi rahbari (rahbar o‘rinbosari) tomonidan qo‘shimcha buyruq chiqariladi.

Soliq auditini o‘tkazish muddati soliq to‘lovchiga (soliq agentiga) soliq auditini tayinlash to‘g‘risidagi buyruq topshirilgan kunda boshlanadi.

Hujjatlar taqdim etish to‘g‘risidagi talabnoma tekshirilayotgan shaxsga (uning qonuniy yoki vakolatli vakiliga) shaxsan imzo qo‘ydirgan holda topshiriladi. Agar hujjatlarni taqdim etish to‘g‘risidagi talabnomani mazkur usulda topshirish imkoni bo‘lmasa, soliq organlari, Soliq kodeksda nazarda tutilgan hollarda, hujjatlarni elektron hujjat tarzida soliq to‘lovchining shaxsiy kabinetiga yuboradi. Yuborilgan hujjatlar soliq to‘lovchi tomonidan o‘qib chiqilganidan keyin, lekin

ushbu hujjat jo‘natilgan sanadan e’tiboran uch kundan kechiktirmay olingan deb hisoblanadi. Agar soliq to‘lovchida soliq to‘lovchining shaxsiy kabineti mavjud bo‘lmasa, hujjatlar buyurtma xat qilib pochta orqali yuboriladi va ular jo‘natilganidan so‘ng besh kundan keyin olingan deb hisoblanadi. Soliq kodeksida nazarda tutilgan hujjatlarning, elektron hujjat aylanishini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan hujjatlarning shakllari, mazkur hujjatlarning shakllarini to‘ldirish tartibi, bunday hujjatlarni qog‘ozda yoki telekommunikatsiya kanallari orqali elektron shaklda yoxud soliq to‘lovchining shaxsiy kabineti orqali yuborish hamda olish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan tasdiqlanadi.

Hujjatlarni qog‘ozda taqdim etish tekshirilayotgan shaxs tomonidan tasdiqlangan ko‘chirma nusxalar shaklida amalga oshiriladi. Agar qonunchilikda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, soliq organiga (mansabdor shaxsga) taqdim etiladigan hujjatlarning ko‘chirma nusxalarini notarial tarzda tasdiqlashni talab qilishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Hisobga olish hujjatlari elektron shaklda tuzilgan taqdirda soliq to‘lovchi (soliq agenti) soliq tekshiruvi chog‘ida soliq organlari mansabdor shaxslarining talabiga ko‘ra bunday hujjatlarning qog‘ozdagi ko‘chirma nusxalarini taqdim etishi shart, bundan elektron hisobvaraq-fakturalarning axborot tizimida ro‘yxatga olingan hisobvaraq-fakturalar mustasno.

Soliq tekshiruvi davomida talab qilib olingan hujjatlar tegishli talabnoma olingan kundan e’tiboran besh ish kun ichida taqdim etiladi. Agar tekshirilayotgan shaxs talab qilinayotgan hujjatlarni belgilangan muddat ichida taqdim etish imkoniga ega bo‘lmasa, u tekshiruvchi mansabdor shaxslarni bu haqda yozma ravishda xabardor qiladi. Soliq to‘lovchi talab qilinadigan hujjatlarni ko‘rsatilgan muddatlarda taqdim etishning imkoni yo‘qligi to‘g‘risidagi, talab qilib olinayotgan hujjatlarni taqdim etish imkoni bo‘lmagan sabablar ko‘rsatilgan yozma shakldagi xabarnomani hujjatlar taqdim etish haqidagi talabnoma olingan kundan keyingi kun davomida yuborishi kerak. Xabarnomada soliq to‘lovchi talab qilingan hujjatlarni taqdim eta olishi mumkin bo‘lgan muddatlar ko‘rsatilishi lozim.

Soliq organining rahbari (rahbar o‘rinbosari) soliq to‘lovchidan xabarnomani olgan kundan e’tiboran ikki kun ichida ushbu xabarnoma

asosida hujjatlarni taqdim etish muddatlarini uzaytirish yoki muddatlarni uzaytirishni rad etishga haqli bo‘lib, bu haqda alohida qaror chiqaradi.

Tekshirilayotgan shaxsning talab qilinayotgan hujjatlarni taqdim etishni rad etganligi soliq organining mansabdor shaxsi tomonidan tuziladigan bayonnomada qayd etiladi. Bayonnoma soliq organining mansabdor shaxsi va tekshirilayotgan shaxs tomonidan imzolanadi. Tekshirilayotgan shaxs bayonnomani imzolashni rad etgan taqdirda bu haqda tegishli qayd kiritiladi. Ko‘rsatilgan hujjatlarni taqdim etish soliq to‘lovchi tomonidan rad etilganligi yoki belgilangan muddatlarda taqdim etilmaganligi ushbu hujjatlarni Soliq kodeksning 148-moddasida nazarda tutilgan tartibda olib qo‘yish uchun asos bo‘ladi.

Soliq tekshiruvi va soliq nazoratining boshqa tadbirlari jarayonida soliq organlari tekshirilayotgan shaxsning kameral yoki sayyor soliq tekshiruvlari o‘tkazilganda soliq organlariga ilgari taqdim etilgan hujjatlarni, shuningdek, soliq monitoringini o‘tkazish jarayonida tasdiqlangan ko‘chirma nusxalar shaklida taqdim etilgan hujjatlarni tekshirilayotgan shaxsdan talab qilib olishga haqli emas. Agar hujjatlar ilgari soliq organiga asl nusxalar tarzida taqdim etilib, keyinchalik tekshirilayotgan shaxsga qaytarilgan bo‘lsa, shuningdek, soliq organiga taqdim etilib, bartaraf etib bo‘lmaydigan kuch holatlari oqibatida yo‘qotilgan taqdirda, hujjatlar tekshirilayotgan shaxsdan qayta talab qilib olinishi mumkin. Soliq organining soliq tekshiruvini o‘tkazayotgan mansabdor shaxsi tekshirilayotgan soliq to‘lovchining faoliyatiga taalluqli hujjatlarga (axborotga) ega bo‘lgan kontragentdan yoki boshqa shaxslardan ushbu hujjatlarni (axborotni) talab qilib olishga haqli.

Tekshirilayotgan soliq to‘lovchining (soliq agentining) faoliyatiga taalluqli hujjatlarni (axborotni) talab qilib olish soliq organi rahbarining (rahbari o‘rinbosarining) soliq nazoratining qo‘shimcha tadbirlarini tayinlash to‘g‘risidagi qarori asosida soliq tekshiruvi materiallarini ko‘rib chiqish chog‘ida ham amalga oshirilishi mumkin.

Soliq tekshiruvlarini yoki soliq nazoratining boshqa tadbirlarini amalga oshiruvchi soliq organi tekshirilayotgan soliq to‘lovchining faoliyatiga taalluqli hujjatlarni (axborotni) talab qilib olish to‘g‘risidagi topshiriqnomani mazkur hujjatlar (axborot) talab qilib olinishi kerak bo‘lgan shaxsning hisobda turgan joyidagi soliq organiga yuboradi. Bunda topshiriqnomada soliq nazoratining qaysi tadbirini o‘tkazish

chog‘ida hujjatlar (axborot) taqdim etish zarurati yuzaga kelganligi ko‘rsatiladi, muayyan bitimga taalluqli axborot talab qilib olinayotganda esa ushbu bitimni identifikatsiyalash imkonini beruvchi ma’lumotlar ko‘rsatiladi.

Topshiriqnoma olingan kundan e’tiboran uch ish kun ichida hujjatlar (axborot) qaysi shaxsdan talab qilib olinayotgan bo‘lsa, o‘sha shaxsning hisobda turgan joyidagi soliq organi ushbu shaxsga hujjatlarni (axborotni) taqdim etish to‘g‘risida talabnoma yuboradi.

Talabnomaga hujjatlarni (axborotni) talab qilib olish to‘g‘risidagi topshiriqnomaning ko‘chirma nusxasi ilova qilinadi.

Hujjatlarni (axborotni) taqdim etish to‘g‘risidagi talabnomani olgan shaxs talabnoma olingan kundan e’tiboran besh kun ichida uni bajaradi yoki talab qilib olinayotgan hujjatlarga (axborotga) ega emasligini o‘sha muddatda xabar qiladi. Agar talab etiladigan hujjatlarni (axborotni) mazkur muddatda taqdim etish imkoni bo‘lmasa, soliq organi hujjatlar qaysi shaxsdan talab qilib olingan bo‘lsa o‘sha shaxsning iltimosnomasiga ko‘ra ushbu hujjatlarni (axborotni) taqdim etish muddatini uzaytirishga haqli.

Hujjatlarni (axborotni) talab qilib olishning Soliq kodeksida nazarda tutilgan tartibi soliq to‘lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhining ishtirokchilariga taalluqli hujjatlarni (axborotni) talab qilib olishda ham qo‘llaniladi.

Hujjatlarni (axborotni) talab qilib olishning Soliq kodeksida nazarda tutilgan tartibi soliq agentlariga tegishli bo‘lgan hujjatlar va axborotni talab qilib olishda ham qo‘llaniladi.

Hujjatlarni (axborotni) taqdim etish to‘g‘risidagi talabnomani olgan shaxs Soliq kodeksida qoidalariga muvofiq bo‘lmagan talabnoma bo‘yicha hujjatlarni (axborotni) taqdim etishni rad etishga haqli.

Hujjatlar va buyumlarni olib qo‘yish soliq organining soliq tekshiruvini o‘tkazayotgan mansabdor shaxsining asoslantirilgan qarori asosida amalga oshiriladi.

Hujjatlar va buyumlarni tungi paytda olib qo‘yishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Hujjatlar va buyumlarni olib qo‘yish xolislar hamda hujjatlari va buyumlarini olib qo‘yish amalga oshirilayotgan shaxslar ishtirokida o‘tkaziladi. Zarur bo‘lgan hollarda, olib qo‘yishni amalga oshirishda ishtirok etish uchun mutaxassis taklif etiladi. Olib qo‘yish boshlanguniga qadar soliq organining mansabdor shaxsi olib qo‘yishni

amalga oshirish to‘g‘risidagi qarorni taqdim etadi hamda hozir bo‘lgan shaxslarga ularning huquq va majburiyatlarini tushuntiradi.

Soliq organining mansabdor shaxsi hujjatlar va buyumlarini olib qo‘yish amalga oshirilayotgan shaxsga ularni o‘z ixtiyori bilan topshirishni taklif etadi, taklif rad etilgan taqdirda esa olib qo‘yishni majburiy tarzda amalga oshiradi.

O‘ziga nisbatan olib qo‘yish amalga oshirilayotgan shaxs olib qo‘yilishi lozim bo‘lgan hujjatlar va buyumlar saqlanishi mumkin bo‘lgan binolarni yoki boshqa joylarni ochishdan bosh tortganda, soliq organining mansabdor shaxsi tambalarga, eshiklarga va boshqa buyumlarga zarurat sababli yuzaga kelmagan shikast yetkazishdan qochib olib qo‘yishni mustaqil tarzda bajarishga haqli.

Soliq tekshiruvi predmetiga aloqasi bo‘lmagan hujjatlar va buyumlar olib qo‘yilmaydi. Hujjatlar va buyumlarni olib qo‘yishni amalga oshirish to‘g‘risida Soliq kodeksning 154-moddasida tutilgan talablarga rioya etgan holda bayonnoma tuziladi.

Olib qo‘yilgan hujjatlar va buyumlar olib qo‘yish bayonnomasida yoki unga ilova qilinadigan ro‘yxatlarda aniq nomi, soni, o‘ziga xos xususiyatlari va imkon qadar buyumlarning qiymati ko‘rsatilgan holda sanab o‘tiladi hamda ro‘yxatga olinadi.

Agar soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazish uchun tekshirilayotgan shaxs hujjatlarining ko‘chirma nusxalari yetarli bo‘lmasa hamda soliq organlarida hujjatlarning asl nusxalari yo‘q qilinishi, yashirilishi, o‘zgartirilishi yoki almashtirib qo‘yilishi mumkinligi to‘g‘risida taxmin qilish uchun yetarlicha asoslar mavjud bo‘lsa, soliq organining mansabdor shaxsi hujjatlarning aslini ushbu moddada nazarda tutilgan tartibda olib qo‘yishga haqli. Bunday hujjatlar olib qo‘yilayotganda ulardan soliq organining mansabdor shaxsi tomonidan tasdiqlanadigan ko‘chirma nusxalar olinadi va hujjatlar olib qo‘yilayotgan shaxsga topshiriladi.

Hujjatlarni olib qo‘yish bilan bir vaqtning o‘zida ko‘chirma nusxalarni tayyorlash yoki topshirish imkoni bo‘lmagan taqdirda, soliq organi ko‘chirma nusxalarni hujjatlari olib qo‘yilgan shaxsga hujjatlar olib qo‘yilganidan keyin besh kun ichida topshiradi.

Barcha olib qo‘yiladigan hujjatlar va buyumlar xolislarga hamda olib qo‘yishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarga ko‘rsatiladi va zarur bo‘lgan taqdirda olib qo‘yilgan joyda o‘raladi.

Olib qo‘yilgan hujjatlar raqamlanishi, tikilishi va olib qo‘yilayotgan shaxsning muhri yoki imzosi bilan tasdiqlangan bo‘lishi kerak. Ushbu shaxs olib qo‘yilayotgan hujjatlarni muhr yoki imzo bilan tasdiqlashdan bosh tortgan taqdirda, olib qo‘yish to‘g‘risidagi bayonnomaga bu haqda maxsus belgi qo‘yiladi.

Hujjatlar va buyumlarni olib qo‘yish to‘g‘risidagi bayonnomaning ko‘chirma nusxasi ular qaysi shaxsdan olib qo‘yilgan bo‘lsa, o‘sha shaxsga imzo qo‘ydirib topshiriladi yoki yuboriladi.

Soliq nazoratini amalga oshirish uchun ahamiyatga ega biror-bir holatlar o‘ziga ma’lum bo‘lgan har qanday voyaga yetgan jismoniy shaxs ko‘rsatmalar berish uchun guvoh sifatida chaqirilishi mumkin.

Guvohning ko‘rsatmalari bayonnomaga kiritiladi.

Guvoh sifatida quyidagi shaxslar jalb etilishi mumkin emas:

1) o‘zining jismoniy yoki ruhiy nuqsonlari sababli soliq nazoratini amalga oshirish uchun ahamiyatga ega bo‘lgan holatlarni to‘g‘ri idrok etishga qodir bo‘lmagan shaxslar;

2) o‘z kasbiy majburiyatlarini bajarishi munosabati bilan soliq nazoratini o‘tkazish uchun zarur bo‘lgan va ushbu shaxslarning kasbiy siriga taalluqli bo‘lgan axborotni olgan shaxslar. Chunonchi, bunday shaxslar jumlasiga – advokat, auditor, soliq maslahatchisi kiradi.

Guvohning ko‘rsatmalari, agar u kasalligi, keksaligi, nogironligi tufayli soliq organiga kela olmasa, u turgan joyda olinishi mumkin.

Ko‘rsatmalar olishdan avval soliq organining mansabdor shaxsi guvohni ko‘rsatmalar berishni rad etganlik yoki bundan bosh tortganlik yoxud bila turib yolg‘on ko‘rsatmalar berganlik uchun javobgarlik to‘g‘risida ogohlantiradi, bu haqda bayonnomaga guvohning imzosi bilan tasdiqlanadigan belgi kiritiladi. Soliq organiga guvoh sifatida chaqirilgan xodimlar uchun soliq organiga kelganligi sababli ishda bo‘lmagan vaqt uchun asosiy ish joyidagi oylik ish haqi saqlanib qoladi.

Zarur bo‘lgan hollarda, soliq nazoratini amalga oshirishga doir aniq harakatlarni o‘tkazishda ishtirok etish uchun ekspert jalb etilishi mumkin. Shaxsni ekspert sifatida jalb etish soliq organi va ekspert o‘rtasidagi shartnoma asosida amalga oshiriladi.

Agar yuzaga keladigan masalalarni tushuntirish uchun ilm-fan, san’at, texnika yoki hunarmandchilik sohasidagi maxsus bilimlar talab etilsa, ekspertiza tayinlanadi. Soliq organining soliq nazoratini amalga oshiruvchi mansabdor shaxsida bunday bilimlarga egaligi ekspertiza

tayinlash zaruratidan ozod etmaydi. Ekspert oldida qo‘yilgan masalalar va uning xulosasi ekspertning maxsus bilimlari doirasidan chiqishi mumkin emas.

Ekspertiza tayinlash to‘g‘risidagi qarorni soliq tekshiruvini o‘tkazayotgan mansabdor shaxsning iltimosnomasi asosida soliq organining rahbari (rahbar o‘rinbosari) qabul qiladi. Qarorda ekspertizani tayinlash uchun asoslar, ekspertiza o‘tkazishi kerak bo‘lgan tashkilotning nomi yoki ekspertning familiyasi, ismi,otasining ismi, ekspertning oldiga qo‘yiladigan masalalar va uning ixtiyoriga beriladigan materiallar ko‘rsatiladi. Ekspert ekspertiza predmetiga taalluqli tekshiruv materiallari bilan tanishishga, o‘ziga qo‘shimcha materiallar taqdim etilishi to‘g‘risida iltimosnomalar berishga haqli. Ekspert xulosani o‘z nomidan yozma shaklda beradi. Ekspert xulosasida o‘zi o‘tkazgan tekshirishlar, ular asosida qilingan xulosalar hamda qo‘yilgan masalalarga asoslantirilgan javoblar bayon etiladi. Agar ekspertga berilgan materiallar yetarli bo‘lmasa yoki u ekspertiza o‘tkazish uchun zarur bilimlarga ega bo‘lmasa, ekspert xulosa berishni rad etishi mumkin. Soliq tekshiruvini o‘tkazayotgan soliq organining mansabdor shaxsi tekshirilayotgan shaxsni ekspertiza tayinlanganligi to‘g‘risidagi qaror bilan tanishtirishi va uning huquqlarini tushuntirishi shart bo‘lib, bu haqda bayonnoma tuziladi. Ekspertiza tayinlash va o‘tkazish jarayonida tekshirilayotgan shaxs:

1) ekspertni rad etish;

2) ekspertni o‘zi ko‘rsatgan shaxslar orasidan tayinlash to‘g‘risida iltimos qilish;

3) qo‘shimcha savollarni taqdim etib, ular yuzasidan ekspert xulosasini olish;

4) soliq organi mansabdor shaxsining ruxsati bilan ekspertiza o‘tkazishda

ishtirok etish va ekspertga tushuntirishlar berish;

5) ekspertning xulosasi bilan tanishish;

6) ekspertning xulosasi yuzasidan asoslantirilgan fikr taqdim etish huquqiga ega. Zarur bo‘lgan hollarda, soliq nazoratini amalga oshirishga doir harakatlarda ishtirok etish uchun soliq organi tomonidan maxsus bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lgan hamda ishning natijasidan manfaatdor bo‘lmagan mutaxassis jalb etilishi mumkin. Shaxsning mutaxassis sifatida jalb qilinishi soliq organi va mutaxassis o‘rtasidagi shartnoma asosida amalga oshiriladi. Shaxsning mutaxassis sifatida

ishtirok etishi uning guvoh sifatida aynan shu holatlar yuzasidan so‘roq qilinishi imkoniyatini istisno etmaydi.

Zarur bo‘lgan hollarda, soliq nazoratini amalga oshirishga doir harakatlarda ishtirok etish uchun tarjimon jalb etilishi mumkin.

Ishning natijasidan manfaatdor bo‘lmagan, tarjima qilish uchun zarur darajada til biladigan yoki kar yoxud soqov jismoniy shaxsning imo-ishoralarini tushunadigan shaxs tarjimonlik qilishi mumkin.

Shaxsning tarjimon sifatida jalb qilinishi soliq organi va tarjimon o‘rtasidagi shartnoma asosida amalga oshiriladi.

Tarjimon soliq organi mansabdor shaxsining chaqiruviga binoan kelishi va o‘ziga topshirilgan tarjimani aniq bajarishi shart.

Soliq nazoratini amalga oshirishga doir harakatlarning xolisligi videotasvirga olish qurilmalaridan foydalanish vositasida amalga oshiriladi, bunday imkoniyat mavjud bo‘lmaganda esa – xolislar ishtirokida amalga oshiriladi.

Videotasvirni yozib olish to‘xtovsiz va izchil ravishda olib boriladi. Videotasvir materiallarining ko‘chirma nusxasi soliq to‘lovchiga yoki uning vakiliga soliq nazoratiga oid tadbir tugagach taqdim etiladi.

Soliq nazoratini amalga oshirishga doir harakatlarda videotasvirga olish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan belgilanadi.

Qonunchilikda videoyozuv taqiqlangan hollarda yoki videoyozuvga olish imkoniyati mavjud bo‘lmaganda xolislar soliq nazoratini amalga oshirish bilan bog‘liq harakatlarga majburiy tartibda jalb etiladi.

Soliq nazorati harakatlarini o‘tkazish chog‘ida bayonnoma tuziladi.

Bayonnomada quyidagilar ko‘rsatiladi:

1) tekshirish o‘tkazishning asoslari, turi va davri;

2) amalga oshiriladigan aniq harakatning joyi va sanasi;

3) harakatning boshlanish va tugash vaqti;

4) bayonnomani tuzgan shaxsning lavozimi, familiyasi, ismi, otasining ismi;

5) harakatda ishtirok etgan yoki uni o‘tkazishda hozir bo‘lgan har bir shaxsning familiyasi, ismi, otasining ismi, zarur bo‘lgan hollarda esa – uning manzili;

6) harakatning mazmuni, uni amalga oshirish ketma-ketligi;

7) harakatni bajarish chog‘ida aniqlangan, ish uchun ahamiyatga ega bo‘lgan faktlar va holatlar.

Bayonnoma harakatlarni amalga oshirishda ishtirok etgan yoki uni o‘tkazishda hozir bo‘lgan barcha shaxslar tomonidan o‘qib chiqiladi. Mazkur shaxslar bayonnomaga kiritilishi yoki materiallarga qo‘shib qo‘yilishi lozim bo‘lgan fikr-mulohazalarini bildirishga haqli.

Bayonnoma soliq organining uni tuzgan mansabdor shaxsi, shuningdek, harakatni amalga oshirishda ishtirok etgan yoki uni o‘tkazishda hozir bo‘lgan barcha shaxslar tomonidan imzolanadi.

Bayonnomaga fotosuratlar, videoyozuvlar va harakatni amalga oshirish chog‘ida bajarilgan boshqa materiallar ilova qilinadi.

Soliq tekshiruvini o‘tkazish chog‘ida tekshirilayotgan shaxslarga yoki ularning egaligida, foydalanishida yoxud tasarrufida bo‘lgan mol-mulkka g‘ayriqonuniy harakatlar orqali zarar yetkazilishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Soliq tekshiruvini o‘tkazish chog‘ida soliq organlarining g‘ayriqonuniy qarorlari yoki ular mansabdor shaxslarining harakatlari orqali yetkazilgan zararning o‘rni to‘liq hajmda qoplanishi lozim.

Soliq organlarining g‘ayriqonuniy qarorlari orqali tekshirilayotgan shaxslarga yetkazilgan zarar uchun ularning mansabdor shaxslari qonunda nazarda tutilgan tartibda javobgar bo‘ladi.

Soliq organlari mansabdor shaxslarining qonuniy harakatlari orqali tekshirilayotgan shaxslarga yoki ularning vakillariga yetkazilgan zararning o‘rni qoplanmaydi, bundan qonunchilikda nazarda tutilgan hollar mustasno.

Soliq auditini o‘tkazish muddati o‘tkazilgan soliq auditi to‘g‘risida dalolatnoma tuzilgan (imzolangan) kunda tugaydi.

Soliq auditi natijasiga ko‘ra soliq auditini o‘tkazuvchi shaxs tomonidan uch nusxada soliq auditi dalolatnomasi tuziladi.Soliq auditi dalolatnomasiga tekshirish davomida aniqlangan soliq to‘g‘risidagi qonunchilikning buzilishlari holatlarini tasdiqlovchi hujjatlar ilova qilinadi.Agar soliq auditi natijasida soliq to‘g‘risidagi qonunchilikning buzilishlari aniqlanmagan bo‘lsa, bu haqida soliq auditi dalolatnomasida qayd etiladi.Soliq auditi dalolatnomasining barcha nusxalari soliq auditini o‘tkazuvchi shaxslar tomonidan imzolanadi. Soliq auditi dalolatnomasining bir nusxasi soliq to‘lovchiga soliq auditi tugaganidan keyin uch ish kun ichida topshiriladi. Soliq to‘lovchining soliq auditi dalolatnomasidagi imzosi uning soliq auditi natijalariga roziligini bildirmaydi. Soliq to‘lovchi soliq auditi dalolatnomasini olishdan bosh tortgan taqdirda, soliq auditini o‘tkazuvchi shaxs bu

haqda soliq auditi dalolatnomasiga tegishli yozuvni kiritadi.Bunday holda soliq auditi dalolatnomasining bir nusxasi soliq to‘lovchiga pochta orqali buyurtma xat bilan yuboriladi.

Soliq auditi o‘tkazilgan shaxs (uning vakili) soliq tekshiruvi dalolatnomasida bayon etilgan holatlarga va (yoki) tekshiruvchilarning xulosalari hamda takliflariga rozi bo‘lmagan taqdirda, soliq auditi dalolatnomasini olgan kundan e’tiboran o‘n kun ichida tegishli soliq organiga mazkur dalolatnoma bo‘yicha umuman yoki uning ayrim holatlari yuzasidan yozma e’tirozlarini taqdim etishga haqli.

Soliq to‘lovchi o‘z e’tirozlarining asoslanganligini tasdiqlovchi hujjatlarni (ularning tasdiqlangan ko‘chirma nusxalarini) yozma e’tirozlarga ilova qilishga yoki kelishilgan muddatda soliq organiga topshirishga haqli.

Soliq auditi materiallari soliq to‘lovchi hisobda turgan joydagi soliq organiga yuboriladi hamda soliq auditi tugagan kundan keyingi ish kunidan kechiktirmay ro‘yxatdan o‘tkaziladi. Soliq auditi natijasi bo‘yicha ma’lumotlar soliq tekshiruvlari hisobini yuritish axborot tizimiga kiritiladi. Soliq auditi materiallarini ko‘rib chiqish va natijasi bo‘yicha qaror qabul qilish Soliq kodeksida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Jinoiy ish doirasida o‘tkazilgan soliq tekshiruvi materiallarini ko‘rib chiqish va natijasi bo‘yicha qaror qabul qilish uchun soliq to‘lovchi ro‘yxatdan o‘tgan soliq organiga yuboriladi.

4. Yuqori darajadagi risk toifasiga mansub soliq to‘lovchilarda soliqqa oid huquqbuzarliklar to‘g‘risida ish yuritish

Soliq soliq tekshiruvi va (yoki) soliq nazoratining boshqa tadbirlari natijasida aniqlangan soliqqa oid huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlar aniqlangan taqdirda, soliq organining soliqqa oid huquqbuzarlik faktini aniqlagan mansabdor shaxsi ushbu mansabdor shaxs va huquqbuzarlik sodir etgan shaxs tomonidan imzolanishi lozim bo‘lgan dalolatnomani tuzadi.

Dalolatnoma belgilangan shaklda soliqqa oid huquqbuzarlik aniqlangan kundan e’tiboran o‘n kun davomida tuziladi.

Dalolatnomada soliq to‘g‘risidagi qonunchilik buzilishlarining hujjatlar bilan tasdiqlangan faktlari, shuningdek, ushbu faktlarni aniqlagan mansabdor shaxsning aniqlangan qoidabuzarlikni bartaraf etishga doir xulosa va takliflari ko‘rsatilishi kerak. Dalolatnoma soliqqa

oid huquqbuzarlik sodir etgan shaxsga imzo qo‘ydirib beriladi yoki u olingan sana to‘g‘risida dalolat beruvchi boshqa usulda topshiriladi. Agar mazkur shaxs dalolatnomani olishdan bosh tortsa, soliq organining mansabdor shaxsi dalolatnomaga tegishli belgi qo‘yadi. Bunday holda dalolatnoma ushbu shaxsga pochta orqali buyurtma xat bilan yuboriladi. Mazkur dalolatnoma buyurtma xat bilan yuborilgan sanadan boshlab hisoblaganda beshinchi kun u topshirilgan sana deb hisoblanadi.

Soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etgan shaxs dalolatnomada bayon etilgan holatlarga va (yoki) soliqqa oid huquqbuzarlikni aniqlagan mansabdor shaxsning xulosalari hamda takliflariga rozi bo‘lmagan taqdirda, dalolatnoma olingan kundan e’tiboran o‘n kun ichida dalolatnoma bo‘yicha umuman yoki uning ayrim qoidalari yuzasidan yozma e’tirozlarini tegishli soliq organiga taqdim etishga haqlidir. Bunda mazkur shaxs e’tirozlarining asoslanganligini tasdiqlovchi hujjatlarni (ularning tasdiqlangan ko‘chirma nusxalarini) yozma e’tirozlariga ilova qilishga yoki kelishilgan muddatda soliq organiga topshirishga haqli.

O‘n kun o‘tganidan keyin soliq organining rahbari (rahbar o‘rinbosari) soliq to‘g‘risidagi qonunchilik buzilishlari faktlari qayd etilgan dalolatnomani, shuningdek, soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etgan shaxs tomonidan taqdim etilgan hujjatlar va materiallarni ko‘rib chiqadi.

Dalolatnoma javobgarlikka tortilayotgan shaxs yoki uning vakili ishtirokida ko‘rib chiqiladi.

Soliq organi tekshiruv dalolatnomasi ko‘rib chiqiladigan sana, vaqt va joy to‘g‘risida soliq to‘lovchini ko‘rib chiqish boshlanadigan kunga qadar kamida ikki ish kuni oldin xabardor qiladi.

Agar soliq to‘lovchi soliq organini uzrli sabablarga ko‘ra dalolatnomaning ko‘rib chiqilishiga kelolmasligi to‘g‘risida xabardor qilgan bo‘lsa, soliq organining rahbari (rahbar o‘rinbosari) dalolatnomaning ko‘rib chiqilishini ko‘pi bilan uch kun muddatga qoldirish to‘g‘risida qaror qabul qilib, soliq to‘lovchi bu haqda xabardor qilinadi.

Soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etganlik uchun javobgarlikka tortilayotgan, tegishli tarzda xabardor qilingan shaxsning yoki uning vakilining kelmaganligi soliq organi rahbarini (rahbar o‘rinbosarini)

dalolatnomani ushbu shaxsning yo‘qligida ko‘rib chiqish imkonidan mahrum etmaydi.

Dalolatnomani ko‘rib chiqish chog‘ida tuzilgan dalolatnoma, soliq nazorati tadbirlarining boshqa materiallari, shuningdek, soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etganlik uchun javobgarlikka tortilayotgan shaxsning yozma e’tirozlari o‘qib eshittirilishi mumkin. Yozma e’tirozlarning mavjud emasligi ushbu shaxsni dalolatnomani ko‘rib chiqish bosqichida o‘z tushuntirishlarini berish huquqidan mahrum etmaydi.

Dalolatnoma ko‘rib chiqilayotganda javobgarlikka tortilayotgan shaxsning tushuntirishlari eshitiladi, boshqa dalillar o‘rganib chiqiladi.

Soliq kodeksi talablarini buzgan holda olingan dalillardan foydalanishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Javobgarlikka tortilayotgan shaxs tomonidan taqdim etilgan hujjatlar (axborot), hatto ular soliq organiga Soliq kodeksida belgilangan muddatlarni buzgan holda taqdim etilgan bo‘lsa ham ko‘rib chiqilishi mumkin.

Dalolatnomani ko‘rib chiqish chog‘ida bayonnoma yuritiladi.

Dalolatnomani va soliq nazorati tadbirlarining boshqa materiallarini ko‘rib chiqish jarayonida, zarur bo‘lgan taqdirda, ushbu ko‘rib chiqishda ishtirok etish uchun guvohni, ekspertni, mutaxassisni jalb etish to‘g‘risida qaror qabul qilinishi mumkin.

Dalolatnomani va boshqa materiallarni ko‘rib chiqish davomida soliq organining rahbari (rahbar o‘rinbosari):

1) o‘ziga nisbatan dalolatnoma tuzilgan shaxs soliq to‘g‘risidagi qonunchilik buzilishlarini sodir etgan-etmaganligini;

2) aniqlangan qoidabuzarliklar Soliq kodeksidagi soliqqa oid huquqbuzarliklar tarkibini tashkil etish-etmasligini;

3) o‘ziga nisbatan dalolatnoma tuzilgan shaxsni soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etganlik uchun javobgarlikka tortish uchun asoslar mavjud-mavjud emasligini belgilaydi.

Soliqqa oid huquqbuzarlik alomati mavjud bo‘lgan taqdirda soliq organining rahbari (rahbar o‘rinbosari) shaxsning soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etganlikdagi aybini istisno etuvchi holatlarni yoxud soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etganlik uchun javobgarlikni yumshatuvchi yoki og‘irlashtiruvchi holatlarni aniqlaydi.

Soliq organining rahbari (rahbar o‘rinbosari) dalolatnomani hamda unga ilova qilingan hujjatlar va materiallarni ko‘rib chiqish natijalariga ko‘ra quyidagilarni nazarda tutuvchi qarorni qabul qiladi:

1) soliqlar va penyalarni qo‘shib hisoblashni yoki buni rad etishni;

2) soliq to‘lovchini soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etganlik uchun javobgarlikka tortishni yoki buni rad etishni.

Qaror dalolatnoma ko‘rib chiqilganidan keyin besh kun ichida qabul qilinadi.

Shaxsni soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etganlik uchun javobgarlikka tortish to‘g‘risidagi qarorda sodir etilgan huquqbuzarlik holatlari bayon etiladi, mazkur holatlarni, javobgarlikka tortilayotgan shaxs tomonidan o‘z himoyasi uchun keltirilayotgan vajlarni tasdiqlovchi hujjatlar va boshqa ma’lumotlar hamda ushbu vajlarni tekshirish natijalari ko‘rsatiladi. Shuningdek qarorda Soliq kodeksining shu qoidabuzarliklarni nazarda tutuvchi moddalari va qo‘llaniladigan javobgarlik choralari ko‘rsatiladi.

Shaxsni soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etganlik uchun javobgarlikka tortish to‘g‘risidagi qarorda o‘ziga nisbatan qaror chiqarilgan shaxs shu qaror ustidan qaysi muddat ichida shikoyat qilishga haqli bo‘lsa, o‘sha muddat va qaror ustidan yuqori turuvchi soliq organiga shikoyat qilish tartibi ko‘rsatiladi.

Soliq to‘g‘risidagi qonunchilikning qaysi aniqlangan buzilishlari uchun shaxslar ma’muriy javobgarlikka tortilishi lozim bo‘lsa, o‘sha qoidabuzarliklar bo‘yicha soliq organining vakolatli mansabdor shaxsi ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risida bayonnoma tuzadi. Ushbu huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rib chiqish va ularni sodir etganlikda aybdor shaxslarga nisbatan ma’muriy jazoni qo‘llash soliq organlari tomonidan ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi qonunchilikka muvofiq amalga oshiriladi.

Yakka tartibdagi tadbirkor bo‘lmagan jismoniy shaxsni soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etganlik uchun javobgarlikka tortish to‘g‘risidagi qaror chiqarilganidan keyin tegishli soliq organi mazkur shaxsga nisbatan Soliq kodeksida belgilangan moliyaviy sanksiya qo‘llash haqidagi ariza bilan sudga murojaat qiladi. Moliyaviy sanksiyalarni undirishning suddan tashqari tartibiga yo‘l qo‘yilmaydigan hollarda moliyaviy sanksiya qo‘llashning xuddi shunday tartibidan foydalaniladi.

Sudga murojaat qilingunga qadar soliq organi soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etganlik uchun javobgarlikka tortilayotgan shaxsga moliyaviy sanksiyaning tegishli summasini o‘z ixtiyori bilan to‘lashni yozma shaklda taklif qilishi shart.

Zarur bo‘lgan hollarda, soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etganlik uchun javobgarlikka tortilayotgan shaxsdan moliyaviy sanksiya undirish to‘g‘risida ariza berish bilan bir vaqtda soliq organi qonunchilikda belgilangan tartibda talabnomani ta’minlash haqidagi iltimosnomani sudga yuborishi mumkin.

Mavzu bo‘yicha savollar

1. Soliq nazorati haqida tushuncha bering.
2. Soliq nazoratining ahamiyati nimadan iborat?
3. Soliq nazoratining qanday shakllari mavjud?
4. Soliq nazoratining amalga oshirish tartibi qanday?
5. Soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etish riski o‘rtacha bo‘lgan soliq to‘lovchilarda soliq tekshiruvini tashkil etish tartibini yoriting.
6. Soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etish riski o‘rtacha bo‘lgan soliq to‘lovchilarda soliq tekshiruvini o‘tkazish tartibi qanday?
7. Kameral soliq tekshiruvi qanday tashkil etiladi?
8. Soliq riskini tahlil qilish qay tartibda olib boriladi?
9. Soliq riski darajasini aniqlash mezonlari nimalardan iborat?
10. Soliq riski darajasini aniqlashda soliq to‘lovchilarni toifalarga ajratish tartibi qanday?
11. Soliq auditini o‘tkazish dasturini tuzish tartibini yoriting.
12. Soliq auditini o‘tkazishni asosiy bosqichlarini tushuntirib bering.
13. Yuqori darajadagi riskka mansub soliq to‘lovchiga auditini tayinlash tartibi qanday?
14. Yuqori darajadagi riskka mansub soliq to‘lovchiga auditini o‘tkazish tartibini yoriting.

IV BOB. SOLIQ MUNOSABATLARIDA SOLIQ INTIZOMI

7-MAVZU. SOLIQQA OID HUQUQBUZARLIKLAR

1. Soliq huquqbuzarliklari tushunchasi va turlari

2. Soliqqa oid javobgarlikning iqtisodiy mazmuni va huquqiy tabiati

3. Soliq tizimiga qarshi yo‘naltirilgan soliq huquqbuzarliklari, soliq jinoyatlari va ma’muriy huquqbuzarliklarni farqlash

1. Soliq huquqbuzarliklari tushunchasi va turlari

Soliq huquqbuzarligi – bu soliq to‘lovchining, soliq agentining va O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga muvofiq javobgarlik belgilangan boshqa shaxslarning qonunga xilof ravishda sodir etilgan (soliqlar va yig‘mlar to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzgan holda) qilmishi (harakati va harakatsizligi).

Ushbu ta'rif soliq huquqiy munosabatlarining eng muhim huquqiy xususiyatlarining quyidagi yig‘indisini o‘z ichiga oladi.

Birinchidan, noqonuniy xatti-harakatlar – soliq huquqbuzarligi – bu soliqlar va yig‘imlar to‘g‘risidagi qonun hujjatlari normalarini buzadigan xatti-harakatlardir. Soliq huquqbuzarligi faqat soliqlar va yig‘imlar to‘g‘risida nazarda tutilgan harakatlarga ta’liqli hisoblanadi.

Noqonuniy xatti-harakatlar harakat shaklida (masalan, soliq organlariga zarur ma’lumotlarni taqdim etishdan bosh tortish va boshqalar) yoki harakatsizlik (masalan, soliq organlariga hisobotlarni taqdim etmaslik va boshqalar) shaklida amalga oshirilishi mumkin.

Ikkinchidan, soliq huquqbuzarligi qasddan yoki beparvolik bilan sodir etiladi. Aybdorlik shakli soliq huquqbuzarligining majburiy belgisidir, chunki uning u yoki bu turi har doim O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining huquqbuzarliklar tarkibini belgilaydigan normalarida mavjud. Shaxsning harakatlarida aybning yo‘qligi, hatto bu harakatlar noqonuniy bo‘lsa ham, sanksiyalarni qo‘llashni istisno qiladi. Masalan, soliq to‘lovchining og‘ir kasalligi natijasida qonun hujjatlarida belgilangan muddatda soliq deklaratsiyasini taqdim etmaslik jarimani undirishga olib kelmaydi, chunki soliq to‘lovchi normativ hujjat talablarini buzganlikda aybdor emas.

Uchinchidan, zararli oqibatlarga olib keladigan harakat (huquqlarning buzilishi, zarar yetkazish va boshqalar) ya’ni, harakat va zararli oqibatlar o‘rtasida sababli bog‘liqlik bo‘lishi kerak. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 224-moddasini qo‘llash uchun soliqni to‘lamaslik (natija) soliq bazasining kam ko‘rsatilganligi yoki boshqa noqonuniy xatti-harakatlar (sabab) tufayli yuzaga kelganligi aniqlanishi kerak.

To‘rtinchidan, jazolanadigan harakat, ya’ni soliq huquqbuzarligini sodir etish, huquqbuzarga soliq sanksiyalari ko‘rinishidagi salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradi. Jazolanish rasmiy belgi bo‘lib, soliq huquqbuzarligi fiskal majburiyatli shaxslarning noqonuniy xatti-harakati deb tan olinadi. Buning uchun javobgarlik O‘zbekiston Respublikasi soliq kodeksida nazarda tutilgan.

Ushbu belgilar soliq qonunchiligining barcha huquqbuzarliklariga xosdir. Biroq, har bir aniq qoidabuzarlikning o‘ziga xos tarkibiga ega bo‘lgan qonuniy javobgarligi mavzud.

Tabiati va yo‘nalishi bo‘yicha barcha soliq huquqbuzarliklari shartli ravishda to‘rtta alohida guruhga bo‘linishi mumkin:

1. Soliq organlarida hisobga turish bilan bog‘liq majburiyatlarni bajarmaslik bilan bog‘liq qoidabuzarliklar;
2. Soliq solish obyektlari, daromadlar va xarajatlar hisobini yuritish tartibiga rioya qilmaslik hamda soliq organlariga soliq hisobotlarini taqdim etish bilan bog‘liq qoidabuzarliklar;
3. Soliqlar va yig‘imlarni to‘lash, ushlab qolish yoki o‘tkazish bo‘ yicha majburiyatlarni bajarmaslik bilan bog‘liq qoidabuzarliklar;
4. Soliq organlarining qonuniy faoliyatiga to‘sqinlik qilish bilan bog‘liq qoidabuzarliklar.

Obyektga qarab, soliq huquqbuzarliklarining ikkita asosiy turini ajratish mumkin:

a) soliq undirishni to‘g‘ridan-to‘g‘ri amalga oshirish bilan bog‘liq soliq munosabatlariga tajovuz qiladigan va davlatning moliyaviy yo‘qotishlariga bevosita olib keladigan huquqbuzarliklar;

b) soliqqa tortish sohasida boshqaruvning belgilangan tartibiga rioya etilishini ta’minlaydigan munosabatlarga tajovuz qiladigan huquqbuzarliklar.

Soliq huquqbuzarliklari tarkibining bevosita ob'ekti bo‘yicha quyidagi huquqbuzarliklarni ajratish mumkin:

- davlatning moddiy fiskal huquqlari, ya'ni soliq qonunchiligi bilan tartibga solinadigan soliqni to‘lash yoki majburiy undirishni ta'minlash kabi ijtimoiy munosabatlarni buzish;
- davlatning prosessual fiskal huquqlari, ya'ni soliq qonunchiligida tartibga solinadigan, soliq to‘lovchilarning hisobini yuritish, soliq nazoratini amalga oshirish, soliq huquqbuzarliklari bo‘yicha ishlarni amalga oshirishni ta'minlaydigan jamoat munosabatlarini buzish.
- Soliqlar va yigimlar to‘ g 'risidagi qonun hujjatlarini buzish tizimini belgilash orqali qilmishlarning yo‘ nalishiga qarab quyidagilarni ajratib ko‘ rsatish mumkin:
- soliqlar tizimiga qarshi huquqbuzarliklar;
- soliq to‘lovchilarning huquqlari va erkinliklariga qarshi huquqbuzarliklar;
- soliq organlarining nazorat funksiyalariga qarshi huquqbuzarliklar;
- soliq to‘lovchining majburiyatlarini bajarish kafolatlari tizimiga qarshi huquqbuzarliklar;
- byudjetlarning daromad qismini bajarishga qarshi huquqbuzarliklar;
- buxgalteriya hisobini yuritish, buxgalteriya hisoboti va soliq hisobotini tuzish va taqdim etish tartibiga qarshi huquqbuzarliklar;
- soliqlarni to‘lash majburiyati bajarishga qarshi huquqbuzarliklar.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 26–27-bobi faqat soliq munosabatlarining majburiy ishtirokchilariga nisbatan, u yoki bu tarzda, lekin oxir- oqibat davlatning byudjet tizimi oldida majburiyatlarga ega bo‘lgan shaxslarga nisbatan javobgarlik choralarini belgilaydi. Bular soliq to‘lovchilar, soliq agentlari, shuningdek, boshqa majburiy shaxslardir. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida davlat vakillariga nisbatan maxsus javobgarlik choralari belgilanmagan. Shu sababli, soliq huquqbuzarliklari turlarini tahlil qilish O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 26–27-bobi doirasida amalga oshiriladi.

Mustaqil soliq munosabatlarining olti turi soliqlar va yig‘imlar to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini huquqiy tartibga solish predmeti hisoblanadi:

- soliqlar va yig‘imlarni belgilash munosabatlari;
- soliqlar va yig‘imlarni joriy etish munosabatlari;
- soliq va yig‘imlarni undirish munosabatlari;

- soliq nazoratini amalga oshirish jarayonida yuzaga keladigan munosabatlar;
- soliq organlarining aktlari, ularning mansabdor shaxslarining harakatlari (harakatsizligi) ustidan shikoyat qilish jarayonida yuzaga keladigan munosabatlar;
- soliq huquqbuzarligi uchun javobgarlikka tortish jarayonida yuzaga keladigan munosabatlar.

Soliqlar va yig‘imlar to‘g‘risidagi qonun hujjatlari normalari bilan shakllantirilgan rejimlar mavjud bo‘lib, ular birgalikda soliq tizimining normal va samarali ishlashi zarurati bilan belgilanadi.

Birinchidan, bu soliqlar va yig‘imlarni undirish (hisoblash va to‘lash) ni bevosita tartibga soluvchi umumiy tartibga soluvchi me'yorlardan iborat umumiy tartibga solish rejimi.

Ikkinchidan, bu soliq nazorati va soliq hisoboti bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga soluvchi xavfsizlik va xavfsizlik normalaridan iborat xavfsizlik rejimi.

Uchinchidan, bu soliq sohasida davlat-huquqiy majburlash choralarini qo‘llashni tartibga soluvchi majburiy himoya normalaridan iborat majburiy himoya rejimi.

Shubhasiz, soliq qonunchiligining umumiy tartibga solish va xavfsizlik va himoya normalarining harakati obyektiv ravishda majburiy himoya rejimiga tegishli normalarsiz amalga oshirilmaydi. Ushbu normalar ularning xilma-xilligi, birligi va o‘zaro ta'sirida davlat-huquqiy majburlash choralarining ma’lum bir tizimini tashkil etadi. Bundan tashqari, bu shunchaki ma’lum sanksiyalar to‘plami yoki yig‘ndisii emas, balki tizimdir.

Soliq sohasida davlat-huquqiy majburlash choralari tizimida soliq undirish choralari (soliq sohasidagi javobgarlik choralari) alohida o‘rin tutadi.

Soliq huquqbuzarliklari tizimining maqsadi mansabdor shaxslar tomonidan o‘zlariga yuklatilgan majburiyatlarning to‘g‘ri bajarilishini ta'minlashdan iborat, ya'ni qonunda nazarda tutilgan har bir soliq huquqbuzarligi turi va uni sodir etganlik uchun javobgarlikning tegishli miqdori mansabdor shaxsning u yoki bu majburiyatini ta’minlashi shart. Aks holda, qonun hujjatlarida ma’lum bir majburiyat ko‘zda tutilgan va uni bajarmaganlik uchun javobgarlikni ta’minlash choralari ko‘zda tutilmagan vaziyat yuzaga kelishi mumkin, bu muqarrar ravishda mavjud qonun va tartib uchun salbiy oqibatlarga olib keladi.

Soliq huquqbuzarliklarini tasniflash turli mezonlarga muvofiq amalga oshiriladi: obyekt, obyektiv tomon, subyekt va subyektiv tomon.

Huquq nazariyasining g‘oyalariga muvofiq, huquqbuzarlik obyekti bu nimaga qaratilgan, ya’ni zarar yetkazilgan foyda va qiymatliklar hisoblanadi. Avvalo, bu, albatta, qonun bilan tartibga solinadigan va himoyalangan ijtimoiy munosabatlardir.

Soliq huquqbuzarligi obyektiga qarab, byudjet tizimining daromad qismini shakllantirish uchun to‘g‘ridan-to‘g‘ri zarar yetkazadigan, soliqlarni yig‘ish (to‘lash, o‘tkazish) munosabatlar tizimiga qarshi qaratilgan soliq huquqbuzarliklariga ajratish mumkin, ya’ni soliqlarni to‘lamaslik yoki to‘liq to‘lamaslik, soliq agenti soliqlarni ushlab qolish va (yoki) o‘tkazish majburiyatlarini bajarmaganligi.

Ushbu turdagi soliq huquqbuzarliklarining obyekti davlatning moddiy fiskal huquqlariga tajovuz qilishdir.

– soliq nazorati munosabatlaridagi soliq huquqbuzarliklari tashkiliy zararning bir turini keltirib chiqaradi, chunki ularni amalga oshirish natijasida soliq organlari o‘zlarining nazorat funksiyalarini to‘liq bajara olmaydilar, ya’ni ro‘yxatdan o‘tish muddatini buzish, soliq organida ro‘yxatdan o‘tishdan qochish, banklarda hisob ochish va yopish to‘g‘risidagi ma’lumotlarni taqdim etish muddatini buzish, soliq hisobotini taqdim etmaslik, daromadlar va xarajatlar va soliq solish obyektlarini hisobga olish qoidalarini qo‘pol ravishda buzish, hisobga olingan mol-mulkka egalik qilish, undan foydalanish va (yoki) tasarruf etish tartibiga rioya qilmaslik, soliq nazoratini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarni soliq organiga taqdim etmaslik, guvohning javobgarligi, ekspert, tarjimon yoki mutaxassisning soliq tekshiruvini o‘tkazishda ishtirok etishdan bosh tortishi, bila turib yolg‘on xulosa berish yoki bila turib yolg‘on pul o‘tkazishni amalga oshirish, ma’lumotlarni soliq organiga qonunga xilof ravishda yetkazmaslik.

Huquqbuzarlik subyekti huquqbuzarlik sodir etgan va jazolanadigan shaxsdir.

Soliq huquqbuzarligi subyekti javobgarlik choralarini qo‘llashga imkon beradigan xususiyatlar bilan tavsiflanadi. Ushbu xususiyatlar jismoniy va yuridik shaxslar uchun farq qiladi.

Soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlikka tortish qonun bilan belgilangan yoshdagi va aql-idrokli

mansabdor shaxs maqomiga ega bo‘lgan va mansabdor shaxs maqomiga ega bo‘lmagan jismoniy shaxslar jalb qilinishi mumkin.

Xulosa qilish mumkinki, soliq qonunchiligini buzganlik uchun javobgarlik subyekti 16 yoshga to`lgan aqli raso shaxs hisoblanadi.

Yuridik shaxslar soliq qonunchiligini buzganlik uchun javobgarlik subyektlari hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 32-moddasiga asosan yuridik shaxslarga O‘zbekiston Respublikasining yuridik shaxslari, chet davlatlarning qonunchiligiga muvofiq tashkil etilgan, fuqarolik huquqiy layoqatiga ega bo‘lgan chet el yuridik shaxslari (shu jumladan kompaniyalar va boshqa korporativ tuzilmalar, xalqaro tashkilotlar, ularning filiallari va vakolatxonalari kiradi.

Yuridik shaxslar nafaqat soliq to‘lovchilar yoki soliq agentlari sifatida javobgarlik subyektlari sifatida harakat qilishlari mumkin. Qoidabuzarlik uchun javobgarlik soliqlar va yig‘imlar to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan majburiyatlarni bajarishda byudjetga kassa xizmati ko‘ rsatuvchi banklar zimmasiga ham yuklatiladi. Soliq huquqbuzarliklarining subyektiv tarkibi quyidagi turlarga bo‘linishi mumkin:

- faqat jismoniy shaxslar tomonidan sodir etilgan soliq huquqbuzarliklari: guvohning javobgarligi, ekspert, tarjimon yoki mutaxassisning soliq tekshiruvini o‘tkazishda ishtirok etishdan bosh tortishi, bila turib yolg‘on xulosa berish yoki bila turib yolg‘on tarjima qilish;
- faqat yuridik shaxslar tomonidan sodir etilgan soliq huquqbuzarliklari: daromadlar va xarajatlarni hisobga olish qoidalari va soliq solish ob`ektlarini qo‘pol ravishda buzish;
- jismoniy shaxslar va yuridik shaxslar tomonidan sodir etilgan soliq huquqbuzarliklari: ro‘yxatdan o‘tish muddatini buzish, soliq organida ro‘yxatdan o‘tishdan qochish, bankda hisob raqamini ochish va yopish to‘g‘risidagi ma’lumotlarni taqdim etish muddatini buzish, soliq hisobotini taqdim etmaslik, soliq nazoratini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarni soliq organiga taqdim etmaslik, soliq organiga noqonuniy ravishda xabar bermaslik.

Soliq huquqbuzarligini sodir etgan sub'ektning maqomiga qarab quyidagilarni ajratish mumkin:

- faqat soliq to‘lovchilar tomonidan sodir etilgan soliq huquqbuzarliklari: hisobga qo‘yish muddatini buzish, soliq

organida hisobga qo‘yishdan bosh tortish, bankda hisob raqamini ochish va yopish to‘g‘risidagi ma’lumotlarni taqdim etish muddatini buzish, soliq hisobotini taqdim etmaslik, daromadlar va xarajatlar hamda soliq solish obyektlarini hisobga olish qoidalarini qo‘pol ravishda buzish;

- faqat soliq agentlari tomonidan sodir etilgan soliq huquqbuzarliklari: soliq agenti soliqlarni ushlab qolish va (yoki) o‘tkazish majburiyatlarini bajarmaganligi;
- boshqa majburiy shaxslar tomonidan sodir etilgan soliq huquqbuzarliklari: soliq nazoratini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarni soliq organiga taqdim etmaslik, guvohning javobgarligi, ekspert, tarjimon yoki mutaxassisning soliq tekshiruvini o‘tkazishda ishtirok etishdan bosh tortishi, bila turib yolg‘on xulosa berish yoki bila turib yolg‘on tarjima qilish, soliq organiga noqonuniy ravishda xabar bermaslik.

Noqonuniy xatti-harakatning tashqi ifodasiga qarab, ya'ni soliq huquqbuzarligining obyektiv tomonida harakatlar yoki harakatsizlik mavjudligiga qarab quyidagilarni ajratish mumkin:

- harakat natijasida sodir etilgan soliq huquqbuzarliklari;
- harakatsizlik natijasida sodir etilgan soliq huquqbuzarliklari;
- harakatlar va harakatsizlik natijasida sodir etilgan soliq huquqbuzarliklari.

Muayyan shaxsning soliqlar va yig‘imlar to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlikka tortish, u sodir etgan huquqbuzarlik oqibatlari hisobga olinishiga qarab, moddiy tarkibi bo‘lgan soliq huquqbuzarlik bo`lishi mumkin.

Moddiy tarkibi bo‘lgan soliq huquqbuzarliklari uchun javobgarlik faqat huquqbuzarning qilmishi natijasida yuzaga keladigan salbiy oqibatlar mavjud bo‘lganda yuzaga kelishi mumkin. Shuning uchun soliq huquqbuzarligini moddiy tarkib bilan malakalashda, harakat va salbiy ijtimoiy zararli oqibatlarning boshlanishi o‘rtasida sababiy bog‘liqlikni o‘rnatish kerak. Harakat va oqibatlar o‘rtasida sababiy bog‘liqlik bo‘lmasa, shaxsni javobgarlikka tortish mumkin emas.

Moddiy tarkibga ega bo‘lgan soliq huquqbuzarliklari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- soliq organida ro‘yxatdan o‘tishdan qochish;

- soliq hisobotini taqdim etmaslik; daromadlar va xarajatlar va soliq solish obyektlarini hisobga olish qoidalarini qo‘pol ravishda buzish, bu soliq bazasining kam baholanishiga olib keldi;
- soliq summalarini to‘lamaslik yoki to‘liq to‘lamaslik;
- soliq agenti soliqlarni ushlab qolish va (yoki) o‘tkazish majburiyatini bajarmaganligi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, faqat soliqlar va yig‘imlar to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan harakatlar soliq huquqbuzarligi deb hisoblanadi, boshqa hech qanday qilmish soliq huquqbuzarligi deb tan olinmaydi degan xulosaga kelishimiz mumkin.

Soliqlar va yig‘imlar to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlikka tortish asoslari qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

- soliq huquqbuzarliklari;
- soliqlar va yig‘imlar to‘g‘risidagi ma‘muriy huquqbuzarlik belgilarini (soliq huquqbuzarliklari) o‘z ichiga olgan qonun hujjatlarining buzilishi;
- soliqlar va yig‘mlar to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzish bilan bog‘liq huquqbuzarliklar.

2. Soliqqa oid javobgarlikning iqtisodiy mazmuni va huquqiy tabiati

Soliq munosabatlarini amalga oshirish tartibini buzganlik uchun javobgarlikni huquqiy tartibga solish soliqlar va yig‘imlar to‘g‘risidagi qonun hujjatlarining obyektlariga taalluqli bo‘lib, soliq huquqi institutini tashkil etadi. Soliqqa oid javobgarlik tushunchasi soliq huquqining asosiy kategoriyalaridan biri hisoblanadi: uning tuzilishi ko‘p jihatdan soliq munosabatlarini huquqiy tartibga solishning huquq tizimidagi o‘rni va rolini belgilaydi. Soliqlar va yig‘imlar to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlikning huquqiy tabiati moliyaviy-huquqiy javobgarlik va uning yuridik javobgarlik tizimidagi o‘rni bilan uzviy bog‘liqdir. Soliqlar va yig‘imlar to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik moliyaviy va huquqiy javobgarlikka xos bo‘lgan barcha xususiyatlar bilan tavsiflanadi.

Soliq huquqi normalari boshqa huquq normalari kabi o‘ziga xos ijtimoiy normalar bo‘lganligi sababli soliqqa oid javobgarlikni amalga oshirishning ikki shakliga ega: ijobiy (ixtiyoriy, faol) va salbiy (davlat tomonidan majburiy, retrospektiv). Ijobiy javobgarlik uchun rasmiy

(normal) asos yetarli bo‘lib, u soliq huquqi subyektining o‘z majburiyatlarini ixtiyoriy ravishda bajarishi natijasida yuzaga keladi.

Davlat soliq faoliyatining eng muhim shartlaridan biri soliq to‘lovchilar, soliq agentlari va boshqa fiskal javobgar shaxslar tomonidan ularga berilgan huquqlarga ixtiyoriy rioya qilishlari va yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan majburiyatlarni amalga oshirishlaridir.

Soliq qonunchiligida ijobiy javobgarlik ixtiyoriy tadbirkorlik faoliyati va ijtimoiy adolat tamoyillariga asoslanadi, afsuski, ko‘pchilik soliq to‘lovchilarning huquqiy madaniyati past bo‘lib, soliq va yig‘imlar to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya qilish ular uchun odatiy xulq-atvor qoidasi bo‘lib hisoblanmaydi. Soliq qonunchiligi normalarini buzish salbiy soliqqa oid javobgarlik mavjudligiga sabab bo‘lib, bularni:

birinchidan, davlatning soliqlar va yig‘imlar to‘g‘risidagi qonun hujjatlarining buzilishiga munosabati, aybdor shaxsning javobgarligi, jazo choralari, mulkdan mahrum qilish tarzidagi qilmish sodir etganlik uchun davlat-majburiy ta’sir ko‘rsatishi;

ikkinchidan, soliqqa oid huquqbuzarlik uchun javobgarlik davlat tomonidan majburiyatni bajarishni ta’minlashga majburlash sifatida belgilash mumkin.

Shunday qilib, salbiy soliqqa oid javobgarlik ikki shaklda mavjud: jazolovchi (jarima) va tiklash huquqi (kompensatsiya).

Himoyaviy soliq huquqiy munosabatlariga ta’sir etuvchi yuridik fakt soliqlar va yig‘imlar to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzish hisoblanadi.

Soliqqa oid javobgarlik deganda ularning mavjudligi javobgarlik mavjud hisoblangan holatlar va ularning yo‘qligi uni istisno qiladigan hollatlar tushuniladi.

Salbiy soliqqa oid huquqbuzarlik uchun javobgarlik uchta asosga ega:

- normativ, ya’ni, uni tartibga soluvchi normalar tizimi;
- haqiqiy, ya’ni, muayyan subyektning javobgarlik choralari bilan himoyalanadigan huquqiy normalarni buzganlik (soliq huquqbuzarliklari);
- prosessual, ya’ni, vakolatli organning muayyan soliqqa oid huquqbuzarlik uchun ma’lum jazo qo‘llash to‘g‘risidagi ko‘rsatmasi.

Salbiy soliqqa oid huquqbuzarlik uchun javobgarlikning boshlanishi faqatgina sanab o‘tilgan barcha asoslar mavjud bo‘lganda

va qat’iy belgilangan ketma-ketlikda bo‘ladi: qonun ustuvorligi – soliq huquqbuzarligi – sanksiyani qo‘llash.

Binobarin, himoya munosabatlariga ularning ishtirokchilari tomonidan soliqlar va yig`imlar to‘g‘risidagi qonun hujjatlari buzilishi, shuningdek, aybdorni javobgarlikka tortish bilan bog‘liq holda yuzaga keladigan barcha huquqiy munosabatlar kiradi.

Soliqqa oid javobgarlik soliq O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining maqsad va vazifalaridan kelib chiqadigan ayrim maqsadlarni amalga oshiradi.

Soliqqa oid javobgarlik yuridik shaxslar va jismoniy shaxslarni soliq sohasidagi noqonuniy xatti-harakatlardan ogohlantirishi, quyidagi ikkita maqsadni ko‘zlaydi:

- jamiyatni davlat mulkiy manfaatlarini buzish bilan bog‘liq noxush vaziyatlardan himoya qilish;
- rag‘batlantiruvchi, bu orqali soliq huquqi subyektlarining qonuniy xulq-atvori rag‘batlantiriladi.

Soliqqa oid javobgarlik maqsadlari quyidagi funksiyalarda amalga oshiriladi:

– Huquqiy funksiya ikki jihatdan namoyon bo‘ladi: tiklash (kompensatsion) va jarima (jazolash).

– Soliqqa oid javobgarlik ijtimoiy funksiyasi soliq huquqi subyektlarini soliq huquqi normalariga rioya qilishni rag‘batlantirish orqali soliq huquqbuzarliklarining oldini olishda ifodalanadi.

Demak, soliqqa oid javobgarlik – soliqqa oid huquqbuzarlikda aybdor shaxsning O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining moddalarida nazarda tutilgan, mulkiy xarakterdagi qo‘shimcha huquqiy majburiyatlarni yuklashdan iborat bo‘lgan va vakolatli organlar tomonidan belgilangan prosessual tartibda qo‘llaniladigan davlat tomonidan majburlov choralarini qo‘llash majburiyatidir.

Ushbu ta’rifga asoslanib soliqqa oid javobgarlikning quyidagi belgilari ajratiladi:

- moddiy, soliqqa oid javobgarlik soliq munosabatlarini himoyachisi sifatida tavsiflovchi.

Soliqqa oid javobgarlik moddiy belgilari ikki jihatni o‘z ichiga oladi:

- soliqqa oid huquqbuzarliklar elementlarini belgilash va ularni sodir etganlik uchun sanksiyalar;

- himoya soliq huquqiy munosabatlari orqali davlat-hukumat majburlash turi va chorasini belgilash.

Soliqlar va yig‘imlar to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun sanksiyalar tabaqalashtirilib, mulkiy xususiyatga ega bo‘lib, pul shaklida ifodalanadi va sud tartibida belgilanadi:

- O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi normalariga muvofiq vakolatli organlar tomonidan amalga oshiriladigan soliqqa oid huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ish yuritish orqali moddiy himoya soliq huquqiy munosabatlarini amalga oshirish mexanizmini tavsiflovchi prosessual;
- soliqqa oid huquqbuzarlik uchun javobgarlikning mavjudligi va qo‘llanilishining maqsadliligini aks ettiruvchi funksional.

Soliqqa oid javobgarlikning tamoyillari – uning mohiyati, tabiati va maqsadini aks ettiruvchi dastlabki g‘oyalar bo‘lib, ularga muvofiq qonun chiqaruvchining faoliyati va ijro etuvchining soliq huquqiy munosabatlari amalga oshiriladi.

Soliqqa tortish tamoyillarini soliq huquqining alohida institutlarini tavsiflovchi umumiy, yaxlit soliq tizimini tartibga soluvchi va maxsusga bo‘lish mumkin. Ulardan prosessual tamoyillarni, soliq javobgarligining prinsiplarini, soliq hisobini yuritish va hokazolarni ajratib ko‘rsatish mumkin. Shu bilan birga, soliqqa tortishning umumiy tamoyillari konstitutsiyaviy tuzum asoslarini amalga oshirish va ularga rioya etilishini ta’minlaydigan asosiy kafolatlar, inson va fuqaroning asosiy huquq va erkinliklari sirasiga kiradi.

3. Soliq tizimiga qarshi yo‘naltirilgan soliq huquq-buzarliklari, soliq jinoyatlari va ma’muriy huquqbuzarliklarni farqlash

Jamiyatda sodir etiladigan huquqbuzarliklar tabiatan bir xil emas, ammo, jamoat xavflilik darajasi va huquqiy rasmiylashtirishga ko‘ra, huquq nazariyasi ularni ikki guruhga birlashtiradi: jinoyatlar va huquqbuzarliklar.

Soliq huquqiy munosabatlari sohasida ijtimoiy xavflilik darajasiga ko‘ra barcha huquqbuzarliklar soliq jinoyatlari (jinoyat qonunchiligida javobgarlik choralari nazarda tutilgan) va soliq jinoyati xususiyatiga ega bo‘lmagan jinoyatlarga bo‘linishi mumkin.

Soliqlar va to‘lovlar to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlikka tortish uchun asoslar qatoriga quyidagilar kiradi:

- soliqqa oid huquqbuzarliklar;
- ma’muriy huquqbuzarlik belgilarini o‘z ichiga olgan soliqlar va to‘lovlar to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzish (soliq huquqbuzarliklari);
- soliqlar va to‘lovlar to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzish bilan bog‘liq jinoyatlar (soliq jinoyatlari).

«Soliq huquqbuzarligi» atamasi ikki ma’noda – «keng» va «tor» ma’noda qo‘llanilishi va tushunilishi mumkin.

«Keng» ma’noda soliqqa oid huquqbuzarlik – bu qonun hujjatlarining qaysi sohasi normalari belgilanishidan qat’iy nazar, soliqlar va yig‘imlar to‘g‘risidagi qonun hujjatlari va umuman soliq qonunchiligi normalarini buzish bilan ifodalangan soliq sohasida sodir etilgan har qanday aybli, jazolanadigan noqonuniy harakat hamda bunday noqonuniy harakatni sodir etganlik uchun aniq javobgarlik.

Soliq sohasida soliq huquqbuzarliklarining uch turini ajratish mumkin:

1) javobgarligi O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksida belgilangan soliq huquqbuzarliklari;

2) soliqqa tortish sohasidagi ma’muriy huquqbuzarliklar;

3) soliq sohasidagi jinoiy huquqbuzarliklar (jinoyatlar uchun javobgarligi

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida belgilangan soliq jinoyatlari).

Shunday qilib, soliq, ma’muriy va jinoiy huquqbuzarliklarni farqlashning asosiy mezoni – bunday huquqbuzarlikni sodir etganlik uchun qanday huquqiy hujjat – soliq, ma’muriy yoki jinoiy huquqbuzarlik uchun javobgarlik belgilanishi.

Soliq jinoyatlarining ijtimoiy xavflilik darajasi va xususiyatining asosiy ko‘rsatkichlaridan biri barcha fuqarolarning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilangan soliqlarni to‘lash majburiyatiga tajovuz qilishdir (63-modda). O‘zbekiston Respublikasining jinoyat qonunchiligida soliq va yig‘imlarni to‘lashdan bo‘yin tovlash bilan bog‘liq soliq jinoyatlarining uch turi belgilangan:

- yuridik shaxslar yoki jismoniy shaxslardan undiriladigan bojxona to‘lovlarini to‘lashdan bo‘yin tovlash;
- jismoniy shaxslarning soliq va yig‘imlarni to‘lashdan bo‘yin tovlash;
- yuridik shaxslarning soliq va yig‘imlarni to‘lashdan bo‘yin tovlash.

Soliq jinoyatlarining ijtimoiy xavfliligi jamiyatning iqtisodiy faoliyatida soliqlarning yuqori ahamiyati bilan belgilanadi.

Soliq jinoyatlari, soliq huquqbuzarliklaridan farqli o‘laroq, davlatning byudjet tizimiga nafaqat zarar keltiradi, balki umuman uning mavjudligiga tahdid soladi.

Demak, soliq jinoyatlari hisoblanmaydigan soliqqa oid huquqbuzarliklar unchalik katta bo‘lmagan jamoat riskini ko‘rsatadi va O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida emas, balki huquqning boshqa sohalari bilan belgilanadi. Bundan tashqari, ular jazoni (jinoyat kabi) emas, balki jarimalarnini nazarda tutadi.

Soliq jinoyatlari va boshqa soliq huquqbuzarliklarini sodir etganlik uchun javobgarlikka tortish tartibida jiddiy farqlar mavjud, chunki jinoyat belgilarini o‘z ichiga olgan soliqlar va yig‘imlar to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzganlik to‘g‘risidagi ish yuritish jinoyat-prosessual qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Fuqarolik javobgarligi yuridik jihatdan teng huquqli tomonlarning munosabatlari uchun xos bo‘lib, agar munosabatlarga kirishayotgan subyektlari teng bo‘lmasa, hech qanday javobgarlik fuqarolik-huquqiy xususiyatga ega bo‘la olmaydi. Shunday qilib, soliq huquqiy munosabatlari sohasida sodir etilgan huquqbuzarliklarni jamoat xavflilik darajasi va boshqa mezonlarga ko‘ra, jinoyat-huquqiy xususiyatga ega bo‘lgan soliq huquqbuzarliklariga va bunday huquqbuzarliklarga ega bo‘lmagan soliq huquqbuzarliklariga, ya’ni, soliq jinoyatlari va boshqa soliq huquqbuzarliklariga ajratish mumkin.

Shu munosabat bilan shuni ta’kidlash kerakki, huquqiy tabiatning o‘zaro bog‘liqligi, shuningdek, ushbu jinoiy bo‘lmagan soliq huquqbuzarliklarini uyg‘un va izchil tasniflash ilmiy adabiyotlarda hali aniqlanmagan.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri soliq majburiyatlari tarkibiga quyidagilar kiradi:

- haqiqiy (mualliflar tomonidan ta’kidlangan) soliq huquqbuzarliklarini sodir etganlik uchun javobgarlik;
- bojxona chegarasi orqali tovarlar olib o‘tilishi munosabati bilan soliqlar va yig‘imlar to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik;
- banklar tomonidan soliqlar va yig‘imlar to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan majburiyatlarni buzganlik uchun javobgarlik.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri soliqqa oid huquqbuzarliklar faqat O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi 28-29-bobining tegishli moddalarida javobgarlik belgilangan huquqbuzarliklar hisoblanadi.

Soliq huquqbuzarligining «tor» ma’nodagi asosiy farqi huquqiy manba omili bo‘lib, unda bunday g‘ayriqonuniy qilmish uchun ko‘zda tutilgan davlat choralarini qo‘llash tartibi qonuniy belgilab qo‘yilgan – boshqacha qilib aytganda, «huquqiy tabiat omili», mas’uliyat.

Tor ma’noda soliq huquqbuzarligi soliq to‘lovchining, soliq agentining va ularning vakillarining soliq sohasida sodir etilgan noqonuniy (ya’ni soliqlar va yig‘imlar to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzgan holda) harakati (harakati yoki harakatsizligi) dir. Javobgarlik soliqlar va yig‘imlar to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida (O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi) belgilanadi.

Bunday holda, yuqoridagi soliq huquqbuzarliklari, o‘z navbatida, quyidagilarga bo‘linadi:

a) umumiy soliq huquqbuzarliklari (soliq to‘lovchilar, soliq agentlari, ekspertlar, tarjimonlar, mutaxassislarning soliqqa oid huquqbuzarliklari)

b) maxsus soliqqa oid huquqbuzarliklar (banklarning soliqqa oid huquqbuzarliklari).

Soliqlar va yig‘imlar to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlikning mohiyatini tahlil qilib, shuni aytish mumkinki, «O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksida nazarda tutilgan javobgarlikning huquqiy tabiatining xilma-xilligi» qonun chiqaruvchining o‘zi tomonidan ikki turdagi javobgarlikni ajratishga olib keldi. Soliq qonunchiligiga muvofiq javobgarlik:

- soliq huquqbuzarliklari uchun javobgarlik;
- soliq qonunchiligida nazarda tutilgan boshqa huquqbuzarliklar uchun javobgarlik.

Soliq to‘lovlarini to‘lamaslik (o‘tkazmaslik) bilan bog‘liq davlatning mulkiy manfaatlariga putur yetkazuvchi huquqbuzarliklar soliqqa oid huquqbuzarliklar deb tushuniladi. O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksida nazarda tutilgan boshqa barcha soliq huquqbuzarliklari sof ma’muriy huquqbuzarlik bilan tavsiflanadi.

Soliq huquqbuzarliklari deganda faqat «soliq tizimiga bevosita taalluqli» huquqbuzarliklar tushuniladi.

Tashkilotlar, tadbirkorlar va soliq munosabatlarida soliq to‘lovchi, soliq agenti va boshqa javobgar shaxslar tomonidan sodir etilgan jinoiy

bo‘lmagan soliq huquqbuzarliklari O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining normalari bilan tartibga solinadi va soliqqa oid huquqbuzarliklar deb ataladi.

Bu holat umumiy soliq huquqbuzarliklari toifasiga ham, xususan, soliqqa oid huquqbuzarliklar toifasiga ham noaniq yondashishga sabab bo‘ladi.

Birinchidan, ma’muriy va soliq huquqbuzarliklarining bir xilligini ko‘rsatadigan asosiy belgilardan biri bu huquqiy tartibga solishning umumiy ko‘lami, normal va samarali faoliyat ko‘rsatishi uchun ushbu javobgarlik choralari ko‘zda tutilgan ijtimoiy munosabatlarning bir xilligidir.

Ikkinchidan, ma’muriy huquq nazariyasida ma’muriy huquqbuzarlikning majburiy belgilari jamoat uchun xavflilik, huquqbuzarlik, aybdorlik, jazoga loyiqlikdir. Xuddi shu xususiyatlar soliqqa oid huquqbuzarliklar uchun xosdir.

Agar biz qiyosiy tahlil qilsak, shunday xulosaga kelishimiz mumkin:

Ma’muriy huquqbuzarlik – bu ijtimoiy munosabatlarga tajovuz qiluvchi, zararli oqibatlarga olib kelgan yoki olib kelishi mumkin bo‘lgan g‘ayriijtimoiy xatti-harakatdir.

Harakat, bu holda, jismoniy va aqliy birlik bo‘lib, ong nazorati ostidagi harakat yoki harakatsizlikda ifodalangan ongli, ixtiyoriy xatti-harakatidir. U harakatning maqsadi, vositalari, natijasi va jarayonini, shuningdek, motivlar, qadriyat yo‘nalishlari, harakatga psixologik munosabat kabi shaxsiy toifalarni o‘z ichiga qamrab oladi.

Harakat – majburiyat yoki qonuniy talabni bajarmaslik; muayyan taqiqni, qoidani, me’yorni, standartni buzish.

Harakatsizlik – bu shaxsning o‘z majburiyatlari bo‘yicha bajarishi kerak bo‘lgan va bajarishi mumkin bo‘lgan harakatlarni bajarmaslikda ifodalangan passiv xatti-harakati.

Ma’muriy huquqbuzarlikning mohiyati uning ijtimoiy xavfliligidan iborat bo‘lib, har qanday ma’muriy huquqbuzarlik belgilangan tartibga tajovuz qilib, unga zarar yetkazib, boshqaruv munosabatlarining tartibliligini, izchilligini, uyg‘unligini buzadi. Shu bilan birga, istalmagan natija haqiqiy zararda ham, zararning boshlanishi uchun sharoit yaratishda ham o‘zini namoyon qilishi mumkin.

Shuningdek, soliqqa oid huquqbuzarlik – bu harakat yoki harakatsizlikda ifodalangan xatti-harakatlar (harakatsizlik bu yerda

soliq qonunchiligida ularni sodir etish belgilangan bo‘lsa, harakatlardan bosh tortish tushuniladi).

Soliq kodeksida soliqqa oid huquqbuzarlik ijtimoiy xavfli qilmish sifatida belgilanmagan, ammo bu ijtimoiy xavflilik belgisi soliqqa oid huquqbuzarliklarga xos emas degani emas. Soliq huquqbuzarliklarining ijtimoiy munosabatlarning muayyan guruhiga nisbatan yo‘nalishi ularda shunday belgi borligini ko‘rsatadi. Soliqlar va yig‘imlar to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzgan holda sodir etilgan qilmish ushbu qonun hujjatlari bilan tartibga solinadigan munosabatlar, ya’ni, soliqlar va yig‘imlarni hisoblash va to‘lash sohasidagi vakolat munosabatlari, shuningdek, soliq nazoratini amalga oshirish jarayonida yuzaga keladigan munosabatlarga tajovuz qilish obyekti bo‘ladi.

Soliq huquqbuzarligi soliqlar va yig‘imlar to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzgan holda sodir etilgan hisoblanadi, agar u:

- O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksida va boshqa qonun hujjatlarida nazarda tutilgan majburiyatlarni bajarmaganlikda (masalan, soliq to‘lovchining byudjetga soliq to‘lovlarini to‘lash majburiyatini bajarmaganligida, soliq agenti soliq to‘lovlarini to‘lash majburiyatini bajarmaganligida);
- soliqlarni ushlab qolish va (yoki) o‘tkazish majburiyatini bajarish;
- belgilangan taqiqlar yoki qoidalarni buzgan holda (masalan, olib qo‘yilgan mol-mulkka egalik qilish, undan foydalanish va (yoki) tasarruf etish tartibiga rioya qilmaslik).

Mavzu bo‘yicha savollar

1. Soliq huquqbuzarliklari tushunchasiga t‘arif bering.
2. Soliq huquqbuzarliklari turlarini ko‘rsating.
3. Soliqqa oid javobgarlikning iqtisodiy mazmuni nimadan iborat?
4. Soliqqa oid javobgarlikning huquqiy tabiatini tushuntiring.
5. Soliq tizimiga qarshi yo‘naltirilgan soliq huquqbuzarliklari to‘g‘risida nimalarni bilasiz?
6. Soliqda jinoyatlar qanday hollarda sodir etilgan hisoblanadi?
7. Ma’muriy huquqbuzarliklarni tushuntiring.
8. Soliq tizimiga qarshi yo‘naltirilgan soliq huquqbuzarliklari, soliq jinoyatlari va ma’muriy huquqbuzarliklarni farqlari nimada?

8-MAVZU. SOLIQ HUQUQBUZARLIKLARI VA UNI SODIR ETGANLIK UCHUN JAVOBGARLIK CHORALARI

1. Soliq huquqbuzarligini sodir etishda shaxsning aybini istisno qiladigan, ularning javobgarligini yengillashtiradigan va og‘irlashtiradigan holatlar va ozod qilish tartibi

2. Soliq huquqbuzarliklari va uni sodir etganlik uchun javobgarlik choralari

1. Soliq huquqbuzarligini sodir etishda shaxsning aybini istisno qiladigan, ularning javobgarligini engillashtiradigan va og‘irlashtiradigan holatlar va ozod qilish tartibi

«Soliq to‘lovshining, soliq agentining yoki boshqa shaxsning Soliq kodeksida javobgarlik belgilangan g‘ayriqonuniy aybli qilmishi (harakati yoki harakatsizligi) soliqqa oid huquqbuzarlik deb e’tirof etiladi»[26]. Jismoniy shaxs soliqqa oid huquqbuzarliklar sodir etganlik ushun o‘n olti yoshdan boshlab javobgarlikka tortilishi mumkin.

G‘ayrihuquqiy xatti-harakatni (harakat va harakatsizlik) qasddan yoki ehtiyotsizlik oqibatida sodir etgan shaxs soliqqa oid huquqbuzarlikni sodir etganlikda aybdor deb e’tirof etiladi.

Agar soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etgan shaxs o‘z harakati (harakatsizligi) g‘ayriqonuniy ekanligini bilgan bo‘lsa, bunday harakatning (harakatsizlikning) zararli oqibatlari yuzaga kelishini istagan yoxud ularning yuzaga kelishiga ongli ravishda yo‘l qo‘ygan bo‘lsa, bunday huquqbuzarlik qasddan sodir etilgan deb topiladi.

Agar soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etgan shaxs o‘z harakatlari (harakatsizligi) g‘ayriqonuniy ekanligini yoxud bunday harakatlar (harakatsizlik) natijasida yuzaga keladigan oqibatlarning zararli ekanligini garshand ularni oldindan ko‘rishi lozim va mumkin bo‘lgani holda bilmagan bo‘lsa, bunday huquqbuzarlik ehtiyotsizlik tufayli sodir etilgan deb e’tirof etiladi.

Yuridik shaxsning soliqqa oid huquqbuzarlikni sodir etganlikda aybdorligi uning mansabdor shaxslarining yoki vakillarining harakatlari (harakatsizligi) ushbu soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etilishini keltirib shiqargan aybiga qarab aniqlanadi.

---

[26] O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Soliq Kodeksi, VIII bo‘lim 27-bob 210-modda.

Hech kim soliqqa oid huquqbuzarlikni sodir etganlik uchun Soliq kodeksida nazarda tutilganidan boshqa asoslar bo‘yicha va tartibda javobgarlikka tortilishi mumkin emas.

Hech kim soliqqa oid sodir etilgan ayni bir huquqbuzarlik uchun takroran javobgarlikka tortilishi mumkin emas.

Yuridik shaxsning soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzganligi uchun javobgarlikka tortilishiga mazkur huquqbuzarlik sodir etilganligi fakti soliq organining kuchga kirgan qarorida aniqlanganligi asos bo‘ladi.

Yuridik shaxsning soliqqa oid huquqbuzarlikni sodir etganlik uchun javobgarlikka tortilishi tegishli asoslar mavjud bo‘lgan taqdirda uning mansabdor shaxslarini ma’muriy, jinoiy yoki qonunda nazarda tutilgan boshqa javobgarlikdan ozod etmaydi.

Shaxsning soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etganlik uchun javobgarlikka tortilishi uni to‘lanishi kerak bo‘lgan soliqlar (yig‘imlar) va penyalarning summalarini to‘lash (o‘tkazish) majburiyatidan ozod etmaydi.

Shaxsning aybi qonunda belgilangan tartibda isbotlanmaguniga qadar u soliqqa oid huquqbuzarlikni sodir etishda aybdor, deb hisoblanmaydi. Javobgarlikka tortilayotgan shaxs o‘zining soliqqa oid huquqbuzarlikni sodir etganlikda aybdor emasligini isbotlashi shart emas.

Soliqqa oid huquqbuzarlik fakti va shaxsning uni sodir etishda aybdorligi to‘g‘risida dalolat beruvchi holatlarni isbotlash majburiyati soliq organlarining zimmasiga yuklatiladi.

Shaxs soliqqa oid huquqbuzarlikni sodir etganlik uchun quyidagi holatlardan hech bo‘lmaganda bittasi mavjud bo‘lgan taqdirda javobgarlikka tortilishi mumkin emas:

1) soliqqa oid huquqbuzarlik holatining mavjud emasligi;

2) soliqqa oid huquqbuzarlikni sodir etishda shaxsning aybi mavjud emasligi;

3) soliqqa oid huquqbuzarlikni sodir etganlik uchun javobgarlikka tortish muddatlari o‘tib ketganligi.

Shaxsning soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etganlikdagi aybini istisno qiladigan holatlar, deb quyidagilar e’tirof etiladi:

1) soliqqa oid huquqbuzarlik belgilari bo‘lgan qilmishning tabiiy ofat yoki boshqa favqulodda va bartaraf etib bo‘lmaydigan holatlar oqibatida sodir etilganligi. Mazkur holatlar hammaga ma’lum

faktlarning mavjudligi, ommaviy axborot vositalarida e’lon qilingan ma’lumotlar va isbotlash uchun maxsus vositalar talab etilmaydigan boshqa usullar bilan aniqlanadi;

2) soliqqa oid huquqbuzarlik alomatlari bo‘lgan qilmish bunday qilmish sodir etilgan paytda kasallik oqibatida o‘z harakatlarini o‘zi idora etolmaydigan yoki boshqara olmaydigan holatda bo‘lgan soliq to‘lovchi – jismoniy shaxs tomonidan sodir etilganda. Mazkur holatlar mazmuni, mohiyati va sanasi bo‘yicha soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etilgan o‘sha soliq davriga taalluqli bo‘lgan hujjatlarni soliq organiga taqdim etish orqali isbotlanadi;

3) soliq organining yoki boshqa vakolatli organning (ushbu organ mansabdor shaxsining) soliqni (yig‘imni) hisoblab chiqarish, to‘lash tartibi to‘g‘risida yoki soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlari qo‘llanilishining boshqa masalalari bo‘yicha o‘z vakolatlari doirasida soliq to‘lovchiga (yig‘im to‘lovchiga, soliq agentiga) yoxud noma’lum doiradagi shaxslarga bergan yozma tushuntirishlari soliq to‘lovchi (yig‘im to‘lovchi, soliq agenti) tomonidan bajarilganda. Mazkur holatlar ushbu organning tegishli hujjati mavjud bo‘lgan taqdirda belgilanadi, ushbu hujjat ma’nosi va mazmuniga ko‘ra, bunday hujjat qabul qilingan sanadan qat’iy nazar, soliqqa oid huquqbuzarlik yuz bergan soliq davriga taalluqli bo‘ladi;

4) soliq monitoringini o‘tkazish davrida soliq organining soliq to‘lovchiga (yig‘im to‘lovchiga, soliq agentiga) yuborilgan asoslantirilgan fikri soliq to‘lovchi (yig‘im to‘lovchi, soliq agenti) tomonidan bajarilganda.

Soliqqa oid huquqbuzarlik uchun javobgarlikni yengillashtiruvchi holatlar, deb quyidagilar e’tirof etiladi:

1) shaxsiy yoki oilaviy sharoitlar og‘ir kechishi oqibatida soliqqa oid huquqbuzarlikni sodir etish;

2) tahdid yoki majburlash ta’sirida yoxud moddiy, xizmat yoki boshqa jihatdan qaramlik sababli soliqqa oid huquqbuzarlikni sodir etish;

3) sud yoki ishni ko‘rayotgan soliq organi tomonidan javobgarlikni yengillashtiruvchi, deb topilishi mumkin bo‘lgan boshqa holatlar.

Soliqqa oid huquqbuzarlikning ilgari xuddi shunday huquqbuzarlik uchun javobgarlikka tortilgan shaxs tomonidan sodir etilganligi javobgarlikni og‘irlashtiruvchi holat, deb e’tirof etiladi. Agar soliqqa

oid huquqbuzarlikni sodir etganlik uchun o‘ziga nisbatan javobgarlik choralari qo‘llanilgan shaxs bu choralar qo‘llanilgan kundan e’tiboran bir yil ichida bunday huquqbuzarlikni qayta sodir etmagan bo‘lsa, u javobgarlikka tortilmagan, deb hisoblanadi.

Soliqqa oid huquqbuzarlik uchun javobgarlikni yengillashtiruvchi yoki og‘irlashtiruvchi holatlar sud yoki ishni ko‘rayotgan soliq organi tomonidan belgilanadi va moliyaviy sanksiyalar qo‘llanilganda inobatga olinadi.

Moliyaviy sanksiyalar soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etganlik uchun javobgarlik chorasidir.

Moliyaviy sanksiyalar Soliq kodeksida nazarda tutilgan miqdorda belgilanadi va pul undirish (jarimalar) tarzida qo‘llaniladi.

Javobgarlikni yengillashtiruvchi hech bo‘lmaganda bitta holat mavjud bo‘lgan taqdirda, jarima miqdori Soliq kodeksining tegishli moddasida belgilangan miqdorga nisbatan ikki marta kamaytiriladi.

Aniqlangan soliqqa oid huquqbuzarliklardagi aybga iqror bo‘linganda va soliq organining soliqqa oid huquqbuzarlik uchun javobgarlikka tortish to‘g‘risidagi qarori olingan kundan e’tiboran o‘n kunlik muddatda moliyaviy sanksiyalar summasi ixtiyoriy ravishda to‘langanda jarima miqdori Soliq kodeksining tegishli moddalarida belgilangan miqdorga nisbatan ikki baravarga kamaytiriladi.

Javobgarlikni og‘irlashtiruvchi holatlar mavjud bo‘lgan taqdirda, jarima miqdori ikki barobar oshiriladi.

Bir shaxs tomonidan ikki va undan ortiq soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etilgan taqdirda, moliyaviy sanksiyalar har bir huquqbuzarlik uchun alohida tarzda undiriladi.

2. Soliq huquqbuzarliklari va uni sodir etganlik uchun javobgarlik choralari

Soliq to‘lovchini javobgarlikka tortishning asosiy shartlari va tamoyillarini sanab o‘tamiz:

- soliq qonunchiligi hujjatlarining tuzatib bo‘lmaydigan barcha qarama- qarshiliklari va noaniqliklari soliq to‘lovchi foydasiga talqin etiladi (Soliq kodeksining 13-moddasi);
- soliqqa oid huquqbuzarlikni sodir etganlik uchun javobgarlikka tortish faqat qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ko‘rib chiqiladi. Shu bilan birga, bir xil soliq huquqbuzarligi uchun takroran javobgarlikka tortishni istisno qiladi;

- shaxsning aybi isbotlanmaguncha soliqqa oid huquqbuzarlikni sodir etishda aybsiz deb hisoblanadi. Shaxs soliqqa oid huquqbuzarlikni sodir etishda aybsizligini isbotlashga majbur emas – soliq va boshqa organlar buni isbotlashlari shart;
- Soliq to‘lovchini javobgarlikka tortish uni va uning mansabdor shaxslarini (tegishli asoslar mavjud bo‘lsa) ma'muriy, jinoiy yoki boshqa javobgarlikdan, shuningdek, soliqlar (yig‘imlar) va penyalarning tegishli summalarini to‘lash majburiyatidan ozod qilmaydi;
- soliqqa oid huquqbuzarlikni sodir etishda aybdor – qasddan yoki ehtiyotsizlik tufayli qonunga xilof harakat (yoki harakatsizlik) sodir etgan shaxs. Bunda shaxsning aybini istisno qiluvchi holatlar ham, javobgarlikni yengillashtiruvchi va og‘irlashtiruvchi holatlar ham hisobga olinadi (Soliq kodeksining 214–216-moddalari);
- soliqqa oid huquqbuzarliklar uchun javobgarlikka tortishning da'vo muddati – uch yil (Soliq kodeksining 217-moddasi);
- har bir shaxs soliq organlarining normativ bo‘lmagan hujjatlari, ularning mansabdor shaxslarining harakatlari (harakatsizligi) ustidan yuqori turuvchi soliq organiga yoki sudga shikoyat qilish huquqiga ega. Shu bilan birga, soliq organlarining joylarda tekshirish va tekshirish natijalari bo‘yicha qabul qilingan qarorlari ustidan yuqori turuvchi soliq organiga shikoyat qilinganidan keyingina sudga shikoyat qilinishi mumkin (Soliq kodeksining 30-bobi).

Soliq organlari quyidagi holatlar natijasida aniqlangan soliq huquqbuzarliklarini ko‘rib chiqadilar:

- soliq auditi;
- sayyor soliq soliq tekshiruvlari va (yoki) soliq nazoratining boshqa choralari (Soliq kodeksining 157, 165 va 166-moddalari).

Soliq nazorati chora-tadbirlari natijalariga ko‘ra soliq organlari o‘z vakolatlari doirasida:

a) moliyaviy va ma'muriy jazo choralarini qo‘llash;

b) bozorlarda, savdo majmualarida va ularga tutashgan transport vositalarini vaqtincha saqlash joylarida aniqlangan faktlar yuzasidan

tergovga qadar tekshiruvlar o‘tkazish, ular bo‘yicha huquqni muhofaza qiluvchi organlarga o‘tkazgan holda jinoiy ish qo‘zg‘atish[27];

v) masalani hal etish soliq organlarining vakolatiga kirmaydigan hollarda huquqbuzarlik faktlari to‘g‘risidagi materiallarni prokuraturaga, Ichki ishlar vazirligiga, Davlat xavfsizlik xizmatiga va sudlarga topshirish («Davlat soliq xizmati to‘g‘risida»gi qonunning 6-moddasi);

Soliq huquqbuzarliklarining asosiy turlari va ularni sodir etganlik uchun javobgarlik choralari quyidagilardan iborat:

1) Soliq organida hisobga qo‘yish tartibini buzish

Solig kodeksining 220-moddasiga asosan qo‘shilgan qiymat solig‘ining soliq to‘lovchisi sifatida soliq organlarida hisobga qo‘yishning belgilangan tartibi soliq to‘lovchi tomonidan buzilganda,

– soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hisobga qo‘yish sanasidan haqiqatda hisobga qo‘yilgan sanagacha bo‘lgan davrda olgan daromadining besh foizi miqdorida, lekin besh million so‘mdan kam bo‘lmagan miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.

Soliq solish obyekti bo‘yicha soliq organlarida hisobga qo‘yish muddatlari buzilganda, agar hisobga qo‘yishning belgilangan muddatidan o‘tishi:

- o‘ttiz kundan ko‘p bo‘lmaganda, – bir million so‘m miqdorida jarima solishga sabab bo‘ladi;
- o‘ttiz kundan ko‘p bo‘lganda, – ikki million so‘m miqdorida jarima solishga sabab bo‘ladi.

Chet el yuridik shaxsi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi hududida doimiy muassasasini tashkil etishga olib keluvchi faoliyatning soliq organida hisobga qo‘ymasdan amalga oshirilishi – bunday faoliyatni amalga oshirish boshlangandan haqiqatda hisobga qo‘yilgan sanagacha bo‘lgan davrda olingan daromaddan o‘n foiz miqdorida, lekin o‘n million so‘mdan kam bo‘lmagan miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.

Jismoniy shaxs tomonidan tadbirkorlik faoliyatini yakka tartibdagi tadbirkor sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tmasdan amalga oshirish – bunday faoliyatdan olingan daromadlarning o‘n foizi miqdorida, lekin bir million so‘mdan kam bo‘lmagan miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.

[27] https://www.norma.uz/nashi_obzori/chto_nujno_znat_o_sankciyah_za_narushenie_nalogovogo_zakonodatelstva

2) Soliq hisobotini taqdim etish tartibini buzish

O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 29-dekabrdagi O‘RQ–741-son Qonuniga asosan 2022-yil 1-yanvardan Soliq kodeksining 220-moddasiga o`zgartirish kiritildi. Unga asosan, soliq hisobotini o‘z vaqtida taqdim etmaganlik uchun soliq to‘lovchi bo‘lgan yuridik shaxsning mansabdor shaxsi yoki soliq to‘lovchi bo‘lgan jismoniy shaxs ma’muriy javobgarlikka tortiladi.

3) Nazorat-kassa texnikasini va hisob-kitob terminallarini qo‘llash tartibini buzish

Solig kodeksining 221-moddasiga asosan nazorat-kassa texnikasining va (yoki) hisob-kitob terminallarining qo‘llanilishi majburiy bo‘lgani holda, ularni qo‘llamasdan savdoni amalga oshirganlik va xizmatlar ko‘rsatganlik, xuddi shuningdek, sotib oluvchiga kvitansiyalar yozib berish, talonlarni, cheklarni yoki ularga tenglashtirilgan hujjatlarni berish majburiy bo‘lgani holda bunday hujjatlarni bermasdan tovarlarni realizatsiya qilganlik va xizmatlar ko‘rsatganlik, shuningdek, hisob-kitob terminallari orqali to‘lovlarni qabul qilishni rad etganlik – besh million so‘m miqdorida jarima solishga sabab bo‘ladi.

Soliq organlarida ro‘yxatga olinmagan nazorat-kassa texnikasini qo‘llagan yoki sotib oluvchiga kvitansiyalar, talonlar, cheklar yoki ularga tenglashtirilgan hujjatlarni bergan holda savdoni amalga oshirganlik va (yoki) xizmatlar ko‘rsatganlik – yetti million so‘m miqdorida jarima solishga sabab bo‘ladi.

Boshqa shaxslar nomiga rasmiylashtirilgan hisob-kitob terminallaridan soliq to‘lovchi tomonidan foydalanilishi – yigirma million so‘m miqdorida jarima solishga sabab bo‘ladi.

Texnik talablarga muvofiq bo‘lmagan yoki xizmat ko‘rsatish dasturi buzilgan nazorat-kassa texnikalaridan foydalanganlik – yigirma million so‘m miqdorida jarima solishga sabab bo‘ladi.

Yakka tartibdagi tadbirkor tomonidan daromadlar va (yoki) xarajatlarni hisobga olish (daromadlar va xarajatlar hisobini yuritish kitobi) qoidalarini buzish besh yuz ming so‘m miqdorida jarima solishga sabab bo‘ladi.

4) Daromadlar va (yoki) xarajatlarni hisobga olish qoidalarini buzish

Solig kodeksining 222-moddasiga asosan yakka tartibdagi tadbirkor tomonidan daromadlar va (yoki) xarajatlarni hisobga olish

(daromadlar va xarajatlar hisobini yuritish kitobi) qoidalarini buzish – besh yuz ming so‘m miqdorida jarima solishga sabab bo‘ladi.

5) Soliq bazasini yashirish (kamaytirib ko‘rsatish)

Solig kodeksining 223-moddasiga asosan soliq bazasini yashirish (kamaytirib ko‘rsatish) – yashirilgan (kamaytirib ko‘rsatilgan) soliq bazasi summasining yigirma foizi miqdorida jarima solishga sabab bo‘ladi.

Yashirilgan (kamaytirib ko‘rsatilgan) soliq bazasi summasidan Soliq kodeksiga muvofiq soliqlarni hisoblash amalga oshiriladi.

Soliq bazasini yashirish (kamaytirib ko‘rsatish), deb quyidagilar e’tirof etiladi: tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan tushum summasini hisobga olish registrlarida aks ettirmaslik;

- yuklarni tovar-kuzatuv hujjatlarini rasmiylashtirmasdan yoxud soxta hujjatlar bo‘yicha tashish;
- hisobda realizatsiya qilinmagan, deb ko‘rsatilgan tovarlarning omborda yoki realizatsiya qilish joyida mavjud emasligi;
- rasmiylashtirilmagan (kirim qilinmagan) tovarlarni saqlash, ulardan foydalanish va realizatsiya qilish;
- tovarlar (xizmatlar) realizatsiya qilinganligidan dalolat beruvchi hujjatlarni almashtirish, soxtalashtirish yoki yo‘q qilish;
- qalbaki birlamchi buxgalteriya hujjatlaridan foydalanish;
- nazorat-kassa texnikasining fiskal xotirasi xizmati dasturiga noqonuniy ravishda o‘zgartirish kiritish;
- foydalanilmagan moddiy xarajatlarni foydalanilgan, deb ishlab chiqarish hisobotiga qo‘shish;
- tovarlarni sotishdan (xizmat ko‘rsatishdan) olingan tushumni hisobot davridan keyingi davrga o‘tkazish (sotish hajmini va daromadni (foydani) qasddan kamaytirish); moddiy, yoqilg‘i-energetika resurslari xarajatlarini (limitlarni) va amortizatsiya (eskirish) normasini sun’iy ravishda oshirish yoki normativlarni noto‘g‘ri qo‘llash;
- ish beruvchi bilan mehnat munosabatlarida bo‘lgan xodimlarning haqiqiy ish haqi summasi soliq hisobotida aks ettirilmaganligi;
- mehnat faoliyatini amalga oshiruvchi xodimlarning soliq hisobotida aks ettirilmaganligi;

- realizatsiya qilingan tovarlar qiymatini hisob hujjatlarida haqiqatda realizatsiya qilingan qiymatidan pasaytirilgan narxlar bo‘yicha aks ettirish.

6) Soliqni (yig‘imni) to‘lamaslik yoki to‘liq to‘lamaslik

Solig kodeksining 224-moddasiga asosan soliqni (yig‘imni) noto‘g‘ri hisoblab chiqarish yoki boshqa g‘ayriqonuniy harakatlar (harakatsizlik) natijasida soliq (yig‘im) summasini to‘lamaslik yoki to‘liq to‘lamaslik – to‘lanmagan soliq (yig‘im) summasining yigirma foizi miqdorida jarima solishga sabab bo‘ladi.

7) Hisobvaraq-fakturalarni rasmiylashtirish tartibini buzish

Solig kodeksining 225-moddasiga asosan qo‘shilgan qiymat solig‘idan ozod qilingan tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishda, shuningdek, qo‘shilgan qiymat solig‘ini to‘lovchilar bo‘lmagan mahsulot yetkazib beruvchilar tomonidan tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishda qo‘shilgan qiymat solig‘ini hisobvaraq-fakturada aks ettirganlik – mahsulot yetkazib beruvchilarga hisobvaraq-fakturada ko‘rsatilgan qo‘shilgan qiymat solig‘i summasining yigirma foizi miqdorida jarima solishga sabab bo‘ladi. Bunda mahsulot yetkazib beruvchi hisobvaraq-fakturada ko‘rsatilgan soliq summasini byudjetga to‘lashi shart.

8) Transfert narxni belgilashda soliqlarni to‘lamaslik yoki to‘liq to‘lamaslik

Solig kodeksining 226-moddasiga asosan nazorat qilinadigan bitimlarda soliq solish maqsadida mustaqil shaxslar o‘rtasidagi bitimlarning tijorat va (yoki) moliyaviy shartlari bilan solishtirib bo‘lmaydigan tijorat va (yoki) moliyaviy shartlar qo‘llanilishi natijasida soliq summalarini soliq to‘lovchi tomonidan to‘lamaganlik yoki to‘liq to‘lamaganlik – to‘lanmagan soliq summasining qirq foizi miqdorida jarima solishga sabab bo‘ladi.

9) Nazorat qilinadigan chet el kompaniyasining foyda ulushi soliq bazasiga kiritilmaganligi natijasida soliqni to‘lamaslik yoki to‘liq to‘lamaslik

Solig kodeksining 227-moddasiga asosan nazorat qilinadigan chet el kompaniyasining yuridik yoki jismoniy shaxs bo‘lgan nazorat qiluvchi shaxslari tomonidan mazkur kompaniya foydasining ulushi soliq bazasiga kiritilmaganligi natijasida soliq summalarini to‘lamaganlik yoki to‘liq to‘lamaganlik – nazorat qilinadigan chet el kompaniyasining soliq bazasiga kiritilishi lozim bo‘lgan foydasiga

nisbatan tegishincha foyda solig‘i bo‘yicha yoki jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i bo‘yicha to‘lanmagan soliq summasining yigirma foizi miqdorida, lekin o‘n million so‘mdan kam bo‘lmagan miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.

10) Fiskal belgilarni aks ettirish yoxud avtomatlashtirilgan hisobga olish o‘lchov vositalari bilan jihozlash yoki soliq organlarining axborot tizimlari bilan integratsiya qilinishini ta’minlash bo‘yicha qonunchilikda belgilangan talablarni yoki tartibni, shuningdek, tovarlarni (mahsulotlarni) identifikatsiya vositalari orqali majburiy raqamli markirovkalash qoidalarini buzish

O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 11-mart «Soliq ma’muriyatchiligi takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida»gi O‘RQ–758-sonli qonuniga asosan Soliq kodeksiga 227^1-modda kiritildi. Unga asosan, fiskal belgilarni aks ettirish yoxud avtomatlashtirilgan hisobga olish o‘lchov vositalari bilan jihozlash yoki soliq organlarining axborot tizimlari bilan integratsiya qilinishini ta’minlash bo‘yicha qonunchilikda belgilangan talablarni yoki tartibni buzish, shuningdek, tovarlarni (mahsulotlarni) ishlab chiqaruvchilar, import qiluvchilar va sotuvchilar tomonidan identifikatsiya vositalari orqali majburiy raqamli markirovkalash qoidalarini buzish – realizatsiya amalga oshirilgan oxirgi hisobot choragida olingan sof tushum miqdorida jarima solishga sabab bo‘ladi.

11) Soliq (yig‘im), bo‘nak to‘lovi, penyalar va jarimalarni o‘tkazish to‘g‘**risidagi topshiriqnomalarni bajarish muddatlarini buzish**

Solig kodeksining 228-moddasiga asosan bank tomonidan soliq (yig‘im), bo‘nak to‘lovi, penya va jarima summasini o‘tkazish to‘g‘risidagi soliq to‘lovchining topshiriqnomasini, soliq organining inkasso topshiriqnomasini bajarmaslik (bajarilishini kechiktirish) – O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki qayta moliyalashtirish stavkasining bir yuz ellikdan bir qismi miqdorida, lekin kechiktirilgan har bir kalendar kun uchun o‘tkazilmagan summa bir foizining beshdan bir qismidan ko‘p bo‘lmagan miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.

12) Banklar tomonidan bank hisobvaraqlari va operatsiyalar bo‘yicha ma’lumotnomalarni (ko‘chirmalarni) soliq organiga taqdim etmaslik

Solig kodeksining 229-moddasiga asosan bank tomonidan:

1) mijozning bankda hisobvaraqlari va omonatlari (depozitlari) mavjudligi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni;

2) mijozning hisobvaraqlari va omonatlaridagi (depozitlaridagi) pul mablag‘larining qoldiqlari haqidagi ma’lumotlarni;

3) mijozning hisobvaraqlaridagi operatsiyalarga hamda omonatlariga (depozitlariga) doir ko‘chirmalarni;

4) soliq to‘lovchining soliq majburiyatlarini bajarishi bilan bog‘liq boshqa ma’lumotlarni soliq organiga taqdim etmaslik, shuningdek, ma’lumotnomalarni (ko‘chirmalarni) belgilangan muddatni buzgan holda yoki noto‘g‘ri ma’lumotlar bo‘lgan ma’lumotnomalarni (ko‘chirmalarni) taqdim etish ikki million so‘m miqdorida jarima solishga sabab bo‘ladi.

Mavzu bo‘yicha savollar

1. Shaxsning soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etganlikdagi aybini istisno qiladigan holatlarni keltirib o‘ting..
2. Soliqqa oid huquqbuzarlik uchun javobgarlikni yengil-lashtiruvchi holatlarni keltirib o‘ting.
3. Soliqqa oid huquqbuzarlikning qanday turlari mavjud?
4. Nazorat-kassa texnikasini va hisob-kitob terminallarini qo‘llash tartibini buzganlik uchun qanday oqibatlarga olib keladi?
5. Daromadlar va (yoki) xarajatlarni hisobga olish qoidalarini buzganlik uchun qanday jazo qo‘llaniladi?
6. Soliq organida hisobga qo‘yish tartibini buzganlik uchun qanday oqibatlarga olib keladi?
7. Soliq hisobotini taqdim etish tartibini buzganlik uchun qanday jazo qo‘llaniladi?
8. Daromadlar va (yoki) xarajatlarni hisobga olish qoidalarini buzish qanday oqibatlarga olib keladi?
9. Fiskal belgilarni aks ettirish yoxud avtomatlashtirilgan hisobga olish o‘lchov vositalari bilan jihozlash yoki soliq organlarining axborot tizimlari bilan integratsiya qilinishini ta’minlash bo‘yicha qonunchilikda belgilangan talablarni yoki tartibni, shuningdek, tovarlarni (mahsulotlarni) identifikatsiya vositalari orqali majburiy raqamli markirovkalash qoidalarini buzganlik uchun qanday jazo qo‘llaniladi?

10. Soliqni (yig‘imni) to‘lamaslik yoki to‘liq to‘lamaslik qanday oqibatlarga olib keladi?

11. Hisobvaraq-fakturalarni rasmiylashtirish tartibini buzish buzganlik uchun qanday jazo qollaniladi?

12. Banklar tomonidan bank hisobvaraqlari va operatsiyalar bo‘yicha ma’lumotnomalarni (ko‘chirmalarni) soliq organiga taqdim etmaslik buzganlik qanday oqibatlarga olib keladi?

9-MAVZU. SOLIQLAR VA YIG‘IMLARNI TO‘LASHDAN BO‘YIN TOVLAGANLIK UCHUN JAVOBGARLIK

1. Soliqlar va yig‘imlarni to‘lashdan bo‘yin tovlaganlik uchun javobgarlik

2. Soliqqa oid huquqbuzarlik uchun ma’muriy va jinoiy javobgarlikka tortilishni istisno qiladigan holatlar

3. Javobgarlikka tortiladigan huquqbuzarlikning subyektlariga belgilangan javobgarlik choralari

1. Soliqlar va yig‘imlarni to‘lashdan bo‘yin tovlaganlik uchun javobgarlik

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga asosan qonunda belgilangan soliqlar va mahalliy yig‘imlarni to‘lash har bir fuqaroning konstitutsiyaviy burchi hisoblanadi. Qonunda belgilangan soliqlar va yig‘imlarni to‘lashdan bo‘yin tovlashning ijtimoiy xavfliligi soliq to‘lovchilar tomonidan soliqlar va yig‘imlarni o‘z vaqtida va to‘liq hajmda to‘lashga oid majburiyatni qasddan bajarmaslikdan iborat bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjetiga pul mablag‘lari tushmay qolishiga olib keladi.

O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi Kodeksning 174-moddasi birinchi qismi, ya’ni soliq olinadigan foydani (daromadni) yoki boshqa obyektlarni qasddan yashirish (kamaytirib ko‘rsatish) yoxud soliqlar va yig‘imlar to‘lashdan qasddan bo‘yin tovlash, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksi 184-moddasining birinchi qismi, ya’ni foyda (daromad) yoki soliq solinadigan boshqa obyektlarni qasddan yashirishni, kamaytirib ko‘rsatishni, shuningdek, davlat tomonidan belgilangan soliqlarni yoki yig‘imlarni to‘lashdan qasddan bo‘yin tovlashni ancha miqdorda sodir etish, shunday qilmish uchun ma’muriy jazo qo‘llanilganidan keyin ro‘y bergan bo‘lsa dispozitsiyasiga muvofiq soliqlar va yig‘imlarni to‘lashdan bo‘yin tovlash deganda, foydani (daromadni) yoki soliq solinadigan boshqa obyektlarni qasddan yashirish, kamaytirib ko‘rsatish, shuningdek, soliqlar va yig‘imlarni to‘lashdan boshqa tarzda qasddan bo‘yin tovlash tushunilishi lozim.

Foydani (daromadni) yoki soliq solinadigan boshqa obyektlarni qasddan yashirish – bu davlat soliq xizmati organlariga taqdim etiladigan tegishli soliq hisoboti hujjatlarida foyda (daromad) olinganligi

to‘g‘risidagi ma’lumotlarni qasddan ko‘rsatmaslik, shuningdek, ular mavjudligi to‘g‘risidagi axborotni yashirish maqsadida foyda (daromad) kelib tushishini hisobga olish tartibini buzish.

Foydani (daromadni) yoki soliq solinadigan boshqa obyektlarni kamaytirib ko‘rsatish davlat soliq xizmati organlariga taqdim etiladigan soliq hisoboti hujjatlarida soliq solinadigan obyekt miqdoriga oid axborotni bila turib pasaytirish (kamaytirish) tomoniga o‘zgartirishda ifodalanadi.

Soliqlar va yig‘imlarni to‘lashdan boshqa tarzda qasddan bo‘yin tovlash soliq to‘lovchining davlat soliq xizmati organlariga soliq hisoboti hujjatlarini yoki soliq qonunchiligiga muvofiq taqdim etilishi shart bo‘lgan boshqa hujjatlarni qasddan taqdim etmaslik yoki soliq hisoboti taqdim etilganidan so‘ng sodir etilgan, soliqlar va yig‘imlarni to‘lashdan bo‘yin tovlash maqsadida to‘lov qobiliyatsizligi holatini sun’iy ravishda vujudga keltirishga qaratilgan qilmishlarda ifodalanadi.

Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi 174-moddasining birinchi qismi, Jinoyat kodeksi 184-moddasining birinchi qismi dispozitsiyasi blanket (havolaki) bo‘lib, shu sababli «daromadlar», «foyda», «soliq solinadigan obyektlar», «soliqlar», «yig‘imlar» kabi tushunchalar mazmunini aniqlash uchun qilmish sodir etilgan paytda amalda bo‘lgan Soliq kodeksi normalaridan kelib chiqish lozim.

Soliq kodeksi 17-moddasining birinchi qismiga muvofiq, quyidagi soliqlar belgilanadi:

1) qo‘shilgan qiymat solig‘i;
2) aksiz solig‘i;
3) foyda solig‘i;
4) jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;
5) yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq;
5^{1}) foydali qazilmalarni qazib olganlik uchun maxsus renta solig‘i;
6) suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;
7) mol-mulk solig‘i;
8) er solig‘i;
9) ijtimoiy soliq.

O‘zbekiston Respublikasi hududida byudjet tizimiga majburiy to‘lanadigan yig‘imlar ham belgilanishi mumkin. Yig‘imlarni joriy etish, hisoblab chiqarish va to‘lash tartibi Soliq kodeksi hamda boshqa qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Avtotransport yig‘imini hisoblab chiqarish va to‘lash tartibi Soliq kodeksi bilan tartibga solinadi.

Bundan tashqari alkogolli mahsulotlarni, shu jumladan, umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan alkogolli mahsulotlarni sotish uchun yig‘im, zargarlik buyumlarini chakana savdosi uchun yig‘im kabi boshqa yig‘imlar qonun va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solingan (masalan, O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 9-dekabrdagi «2020-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida»gi O‘RQ–589-sonli Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 18-maydagi «O‘zbekiston Respublikasida zargarlik tarmog‘ini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF–5721-sonli Farmoni).

Qonunda soliqlar va yig‘imlarni to‘lashdan ancha miqdorni tashkil qilmagan (bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravarigacha bo‘lgan) miqdorda qasddan bo‘yin tovlash yoki birinchi marta ancha (bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravaridan uch yuz baravarigacha bo‘lgan) miqdorda sodir etilganligi uchun Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi 174-moddasining birinchi qismi bo‘yicha:

– fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining o‘n baravari, mansabdor shaxslarga esa – o‘n besh baravari miqdorida jarima solishga sabab bo‘ladi.

Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi 174-moddasining ikkinchi qismi bo‘yicha:

– fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining yigirma baravari miqdorida, mansabdor shaxslarga esa o‘ttiz baravari miqdorida jarima solishga sabab bo‘ladigan ma’muriy javobgarlik belgilangan.

Agar shaxs soliqlarni to‘lashdan bo‘yin tovlaganlik uchun Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi 174-moddasining ikkinchi qismi bo‘yicha ya’ni fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining yigirma baravari miqdorida, mansabdor shaxslarga esa o‘ttiz baravari miqdorida jarima miqdoridagi ma’muriy jazo qo‘llanilganidan so‘ng bir yil davomida shunday qilmishni yana ancha miqdorda sodir etsa, Jinoyat kodeksi 184-moddasining birinchi qismi bo‘yicha bazaviy hisoblash miqdorining bir yuz ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanish kabi jinoiy javobgarlik kelib chiqadi.

Shuni nazarda tutish lozimki, agar soliqlarni to‘lashdan qasddan bo‘yin tovlaganlik natijasida ko‘p yoki juda ko‘p miqdorda zarar

yetkazilgan bo‘lsa, jinoiy javobgarlik ma’muriy preyuditsiyaga rioya qilinmagan holda (ya’ni shaxsning muqaddam soliqlarni to‘lashdan bo‘yin tovlaganlik uchun ma’muriy javobgarlikka tortilishi talab etilmaydi), tegishlicha, Jinoyat kodeksi 184-moddasi ikkinchi qismining «b» bandi bo‘yicha, ya’ni, bazaviy hisoblash miqdorining bir yuz ellik baravaridan uch yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yildan uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi yoki uchinchi qismi bo‘yicha,ya’ni bazaviy hisoblash miqdorining uch yuz baravaridan olti yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Soliqlar to‘lanmaganligi oqibatida yetkazilgan moddiy zarar miqdorini aniqlashda Jinoyat kodeksining 184-moddasi mazmuniga ko‘ra, shaxs tomonidan yashirilgan yoki kamaytirib ko‘rsatilgan soliq solinadigan obyektning kattaligi (qiymati) emas, balki faqat to‘lanishi lozim bo‘lgan soliqlar summasi (soliqqa oid huquqbuzarlik uchun qo‘llanilgan moliyaviy sanksiya (jarima va penya) summalarini qo‘shmagan holda) tushunilishi lozim.

Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 174-moddasi va Jinoyat kodeksining 184-moddasi bo‘yicha javobgarlik kelib chiqishining zarur sharti – soliq yoki boshqa to‘lovlarni to‘lashdan bo‘yin tovlashga nisbatan qasdning mavjudligi bo‘lib, u harakatda ham, harakatsizlikda ham namoyon bo‘lishi mumkin.

Foydani (daromadni) yoki soliq solinadigan boshqa obyektlarni qasddan yashirish, kamaytirib ko‘rsatish belgilari, jumladan, quyidagilar:

- tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan tushgan tushum summasini hisobga olish registrlarida aks ettirilmaslik;
- tovarlar (ishlar, xizmatlar) realizatsiya qilinganligidan dalolat beruvchi hujjatlarni almashtirish, soxtalashtirish yoki yo‘q qilish yoxud ularni tekshirish uchun taqdim etishni rad etish;
- qalbaki boshlang‘ich buxgalteriya hujjatlaridan foydalanish;
- buxgalteriya hujjatlarida realizatsiya qilinmagan deb ko‘rsatilgan tovarlarning omborda yoki realizatsiya qilish joyida mavjud emasligi;
- buxgalteriya hujjatlari va boshqa hujjatlar bilan tegishli ravishda rasmiylashtirilmagan (kirim qilinmagan) tovarlarni saqlash;

- nazorat-kassa mashinalarining fiskal xotirasi xizmati dasturiga noqonuniy ravishda o‘zgartirish kiritish;
- foydalanilmagan moddiy xarajatlarni foydalanilgan deb, ishlab chiqarish hisobotiga qo‘shish;
- tovarlar sotish (xizmat ko‘rsatish) dan olingan tushumni hisobot davridan keyingi davrga o‘tkazish (sotish hajmini va daromad (foyda) ni qasddan kamaytirish);
- moddiy, yoqilg‘i-energetika resurslari xarajatlarini va amortizatsiya (eskirish) normasini sun’iy ravishda oshirish yoki normativ (limit)larni noto‘g‘ri qo‘llash va h.k. Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 174-moddasi va Jinoyat kodeksining 184-moddasida nazarda tutilgan huquqbuzarliklarga doir ishlar bo‘yicha yuqorida qayd etilgan yoki boshqa biror-bir belgisi aniqlanishidan tashqari, shaxsning qilmishida soliqlarni to‘lashdan bo‘yin tovlashga nisbatan to‘g‘ri qasd mavjudligi isbotlangan bo‘lishi shart,ya’ni Jinoyat kodeksining 21-moddasiga asosan «agar shaxs o‘z qilmishining ijtimoiy xavfli xususiyatini anglagan, uning ijtimoiy xavfli oqibatlariga ko‘zi yetgan va ularning yuz berishini istagan bo‘lsa, bunday jinoyat to‘g‘ri qasddan sodir etilgan deb topiladi».

2. Soliqqa oid huquqbuzarlik uchun ma’muriy va jinoiy javobgarlikka tortilishni istisno qiladigan holatlar

Soliq kodeksining 213-moddasiga ko‘ra, shaxs quyidagi holatlardan hech bo‘lmaganda bittasi mavjud bo‘lgan taqdirda soliqqa oid huquqbuzarlik uchun ma’muriy va jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin emas:

- soliqqa oid huquqbuzarlik holatining mavjud emasligi;
- soliqqa oid huquqbuzarlikni sodir etishda shaxsning aybi mavjud emasligi;
- soliqqa oid huquqbuzarlikni sodir etganlik uchun javobgarlikka tortish muddatlari o‘tib ketganligi;
- soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etilganligi faktining mavjud emasligi (masalan, agar bir turdagi soliqlar uchun to‘langan pul summasi boshqa turdagi soliqlar uchun to‘lanmagan summalar o‘rnini to‘liq qoplasa (Soliq kodeksining 103–105-moddalari);
- Soliq kodeksining 215-moddasida nazarda tutilgan soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etilishida shaxsning aybi mavjud emasligi

(masalan, qilmishning tabiiy ofat yoki boshqa favqulodda va bartaraf etib bo‘lmaydigan holatlar oqibatida, shaxs tomonidan o‘z harakatlarini o‘zi idora etolmaydigan yoki boshqara olmaydigan kasallik holatida sodir etilgan bo‘lsa);

- soliq organining yoki boshqa vakolatli organning soliqni hisoblab chiqarish, to‘lash tartibi to‘g‘risida yoki soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlari qo‘llanilishining boshqa masalalari bo‘yicha o‘z vakolatlari doirasida soliq to‘lovchiga bergan yozma tushuntirishlari soliq to‘lovchi tomonidan bajarilganligi;
- soliq monitoringini o‘tkazish davrida soliq organining soliq to‘lovchiga yuborilgan asoslantirilgan fikri soliq to‘lovchi tomonidan bajarilganligi.

Soliq kodeksining 103–105-moddalaria ko‘ra, agar bir turdagi soliqlar uchun to‘langan pul summasi boshqa turdagi to‘lovlar uchun qasddan to‘lanmagan summalar o‘rnini to‘liq qoplasa, shaxs javobgarlikka tortilmaydi. Agar bir turdagi soliqlar uchun ortiqcha to‘langan summaning miqdori boshqa turdagi to‘lovlar uchun qasddan to‘lanmagan summaning miqdorini qisman qoplasa, shaxsning aybdorlik masalasi to‘langan va to‘lanmagan summalar orasidagi farq miqdoridan kelib chiqqan xolda hal etiladi.

Soliq kodeksining 83-moddasiga asosan o‘zi ilgari taqdim etgan soliq hisobotida hisoblab chiqarilgan soliq summasi kamayishiga (o‘zgarishiga) olib kelgan noto‘g‘ri yoki to‘liq bo‘lmagan ma’lumotlarni va (yoki) xatolarni aniqlagan soliq to‘lovchi ushbu soliq hisobotiga zarur tuzatishlarni kiritishi va soliq organiga aniqlashtirilgan soliq hisobotini taqdim etishi shart. Agar aniqlashtirilgan soliq hisoboti soliq organiga soliqni to‘lash muddati o‘tgandan keyin taqdim etilgan bo‘lsa va bunda ushbu hisobot soliq to‘lovchi tomonidan soliq summasi kamayishiga (o‘zgarishiga) olib kelgan holatlar soliq organi tomonidan aniqlanganligini yoki soliq auditi tayinlanganligini bilgan paytga qadar taqdim etilgan bo‘lsa va ushbu hisobot taqdim etilgunga qadar u etishmayotgan soliq summasini va unga tegishli penyalarni to‘lagan bo‘lsa, soliq to‘lovchi javobgarlikdan ozod qilinadi.

Soliq kodeksining 103–105-moddalarida nazarda tutilgan soliqlarning ortiqcha to‘langan summalarini hisobga olish imkoniyati yoki Soliq kodeksining 213-moddasida ko‘rsatilgan soliqqa oid huquqbuzarlik uchun shaxsning javobgarligini istisno etuvchi holatlar mavjud bo‘lsa, soliqlarni to‘lashdan bo‘yin tovlash tariqasidagi jinoyat

tegishli soliq davri uchun soliq qonunchiligida belgilangan muddatlarda soliq to‘lanmasligi holati kelib chiqqan paytdan boshlab tugallangan hisoblanadi.

3. Javobgarlikka tortiladigan huquqbuzarlikning subyektlariga belgilangan javobgarlik choralari

Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 174-moddasi va Jinoyat kodeksining 184-moddasida nazarda tutilgan huquqbuzarlikning subyekti 16 yoshga to‘lgan, soliq solinadigan daromad (foyda)ga ega bo‘lgan va qonunga muvofiq davlat soliq organlariga daromadlari haqida deklaratsiya taqdim etishga majbur bo‘lgan jismoniy shaxs (O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi, chet el fuqarosi, fuqaroligi bo‘lmagan shaxs) hisoblanadi.

Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 174-moddasi va Jinoyat kodeksining 184-moddasida belgilangan javobgarlikka soliq to‘lovchi-yuridik shaxs rahbari va bosh (katta) buxgalteri yoki boshliq va bosh buxgalter vazifalarini amalda bajarayotgan xodimlari, shuningdek, buxgalteriya, bank-moliya hujjatlarini tuzish,imzolash huquqiga ega bo‘lgan va buxgalteriya hujjatlariga daromad yoki xarajatlar to‘g‘risida soxta ma’lumotlar kiritgan yoxud soliq solinadigan boshqa obyektlarni yashirgan o‘zga xizmatchilari tortilishlari mumkin.

Jinoyat kodeksining 184-moddasida nazarda tutilgan jinoyatga rahbarlik qilgan yoki ushbu jinoyatni sodir etishga soliq to‘lovchi tashkilot boshlig‘i, bosh (katta) buxgalteri, boshqa xizmatchilarini undagan yoxud o‘zining maslahatlari, ko‘rsatmalari bilan jinoyatni sodir etishga ko‘maklashgan shaxslar tashkilotchi, dalolatchi yoki yordamchi sifatida Jinoyat kodeksining 28-moddasi va 184- moddasining tegishli qismi bo‘yicha javobgarlikka tortiladilar.

Nazorat-kassa mashinalari fiskal xotirasi xizmati dasturiga noqonuniy o‘zgartirish kiritish yo‘li bilan daromad (foyda)ni yashirishda soliq to‘lovchiga ko‘maklashgan shaxslar ham soliqlarni to‘lashdan qasddan bo‘yin tovlashda ishtirokchi sifatida javobgarlikka tortiladilar.

Davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, nodavlat tijorat yoki boshqa nodavlat tashkilotlar mansabdor shaxslarining soliqlarni to‘lashdan bo‘yin tovlashda qasddan ko‘maklashishga qaratilgan harakatlari jinoyatda ishtirokchilik sifatida Jinoyat kodeksining

28-moddasi hamda Jinoyat kodeksi 184-moddasining tegishli qismi bo‘yicha kvalifikatsiya qilinadi, agar ayni paytda ular g‘araz yoki boshqa shaxsiy manfaatlarni ko‘zlagan yoki shu maqsadlarda jinoyatlarni yashirishda ko‘maklashgan bo‘lsalar, davlat hokimiyati va boshqaruv organlari mansabdor shaxslarining harakatlari, shuningdek, Jinoyat kodeksining boshqaruv tartibiga qarshi jinoyatlar uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi tegishli moddalari (Jinoyat kodeksining 205, 209, 210-moddalari) bilan, nodavlat tijorat yoki boshqa nodavlat tashkilotlar mansabdor shaxslarining harakatlari esa, Jinoyat kodeksining tadbirkorlik faoliyatiga to‘sqinlik qilish, qonunga xilof ravishda aralashish bilan bog‘liq jinoyatlar hamda xo‘jalik yurituvchi subyektlarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga tajovuz qilish uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi moddalari Jinoyat kodeksining 192–9, 192–11, 228-moddalari) bilan ham kvalifikatsiya qilinadi.

Jinoyat kodeksining 184-moddasida nazarda tutilgan huquqbuzarliklarni ikki va undan ortiq marotaba yagona qasd bilan qamrab olmagan holda sodir etgan shaxsning harakati soliq to‘lashdan takroran bo‘yin tovlash sifatida kvalifikatsiya qilinishi lozim. Bunda shaxs jinoyatni bajaruvchi yoki uning ishtirokchisi ekanligining, muqaddam sodir etilgan qilmish tugallangan jinoyat yoki jinoyatga suiqasd bo‘lganligining ahamiyati yo‘q.

Shaxsning harakatlarida soliqlarni to‘lashdan takroran bo‘yin tovlash belgisi mavjudligi masalasini hal etishda Jinoyat kodeksining 32-moddasida ko‘rsatilgan talablardan kelib chiqish lozim.

Qilmishni soliqlarni to‘lashdan bo‘yin tovlash sifatida Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 174-moddasi va Jinoyat kodeksining 184-moddasining tegishli qismi bo‘yicha kvalifikatsiya qilish uchun asos bo‘lgan soliq miqdorini pul summasida belgilashda, huquqbuzarlik tugallangan vaqtda amalda bo‘lgan bazaviy hisoblash miqdoridan kelib chiqish lozim.

Bunda Soliq kodeksining 4-moddasida ko‘rsatilgan «soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlikni bekor qiladigan yoki engillashtiradigan soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlari orqaga qaytish kuchiga ega»ligiga, Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 9-moddasiga ko‘ra «Ma’muriy huquqbuzarlik uchun javobgarlikni engillashtiruvchi yoki bekor qiluvchi hujjatlar orqaga qaytish kuchiga egadir, ya’ni, ushbu hujjatlar chiqqunga qadar sodir etilgan huquqbuzarlik hollariga ham taalluqlidir. Ma’muriy

huquqbuzarlik uchun javobgarlikni belgilovchi yoki javobgarlikni kuchaytiruvchi hujjatlar esa orqaga qaytish kuchiga ega bo‘lmaydi» kabi va Jinoyat kodeksining 13-moddasiga asosan «Qilmishning jinoiyligini bekor qiladigan, jazoni engillashtiradigan yoki shaxsning ahvolini boshqacha tarzda yaxshilaydigan qonun orqaga qaytish kuchiga ega, ya’ni, ushbu qonun kuchga kirgunga qadar tegishli jinoiy qilmish sodir etgan shaxslarga, shu jumladan, jazoni o‘tayotgan yoki o‘tab bo‘lgan shaxslarga nisbatan, agar ular hali sudlangan hisoblansalar, tatbiq etiladi.

Qilmishni jinoyat deb hisoblaydigan, jazoni kuchaytiradigan yoki shaxsning holatini boshqacha tarzda yomonlashtiradigan qonun orqaga qaytish kuchiga ega emas» talablariga rioya etilishi shart.

Soliq kodeksining 13-moddasiga asosan Soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlaridagi barcha bartaraf etib bo‘lmaydigan qarama-qarshiliklar va noaniqliklar soliq to‘lovchining foydasiga talqin etiladi.

Jinoyat kodeksi 184-moddasi beshinchi qismiga ko‘ra, birinchi marta jinoyat sodir etgan shaxs, agar u soliq tekshiruvi materiallarini ko‘rib chiqish natijalari bo‘yicha davlat soliq xizmati organining qarorini yoki O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamentining sodir etilgan jinoyat haqidagi xabarini olgan kundan e’tiboran o‘ttiz kun ichida soliqlar va yig‘imlar, shu jumladan, penyalar va boshqa moliyaviy sanksiyalar tarzida davlatga yetkazilgan zararning o‘rnini to‘liq qoplasa, javobgarlikdan ozod qilinishi lozim.

Jinoyat kodeksining 184-moddasida nazarda tutilgan jinoyatni birinchi marotaba sodir etgan, shu jumladan, mazkur modda bo‘yicha sudlanganligi tugallangan yoki olib tashlangan shaxs ushbu asoslarga ko‘ra javobgarlikdan ozod etilishi lozim.

Jinoyat kodeksi 184-moddasi beshinchi qismiga asosan jinoyat ishini tugatish masalasini muhokama qilishda, o‘ttiz kunlik muddat ichida yetkazilgan zararni qoplash masalasiga (Soliq kodeksining 86-moddasi), shuningdek, uning to‘liq qoplanganligi faktini tasdiqlovchi dalillar (to‘lov topshiriqnomalari, chiptalar va shu kabilar) mavjudligiga alohida e’tibor qaratiladi.

Soliqlarni to‘lashdan bo‘yin tovlash shaxs tomonidan soliqqa oid qonunchilikning muayyan normasi talablarini bajarmaslik bilan bog‘liq. Shu tufayli, Jinoyat kodeksining 184-moddasida nazarda tutilgan jinoyatlarga oid ishlar bo‘yicha surishtiruv, tergov organlari va

sudlarning e’tibori shaxsni ayblanuvchi tariqasida javobgarlikka tortish haqidagi qarorda, ayblov dalolatnomasida, ayblov xulosasi va ayblov hukmida ayblanuvchi yoki sudlanuvchi tomonidan soliqqa oid qonunchilikning jinoyat sodir etilgan vaqtda amalda bo‘lgan aynan qaysi normasi talablari buzilganligi ko‘rsatilishi shartligiga qaratiladi.

Soliqlarni to‘lashdan bo‘yin tovlash uchun javobgarlik to‘g‘risidagi qonunlarni qo‘llash bilan bog‘liq ishlarni ko‘rishda, sudlanuvchining harakatlarida jinoyat tarkibi bor-yo‘qligi bilan bog‘liq holatlar boshqa dalillar bilan bir qatorda ekspert xulosasi, soliq tekshiruvi dalolatnomasi, davlat soliq xizmati organining soliq tekshiruvi materiallarini ko‘rib chiqish natijalari bo‘yicha qarorlari asosida ham aniqlanishi mumkin. Sudlar, zarurat tug‘ilganda, sud majlisiga soliq solish sohasi bo‘yicha mutaxassislarni jalb qilishlari lozim.

Shaxsning aybdorligiga oid barcha shubhalar, basharti ularni bartaraf etish imkoniyati tugagan bo‘lsa, Jinoyat-prosessual kodeksining 23-moddasiga asosan soliq to‘lovchining foydasiga hal qilinadi.

Sudlar soliqlarni to‘lashdan bo‘yin tovlashga oid har bir jinoyat ishi bo‘yicha surishtiruv va dastlabki tergov organlari tomonidan jinoyat-prosessual qonunining dalillar maqbulligini tartibga soluvchi normalariga rioya etilganligini sinchkovlik bilan aniqlashlari shart. Bunda shuni nazarda tutish lozimki, dalillarini to‘plash uchun belgilangan tartibni buzgan holda olingan hujjatlar yoki boshqa ma’lumotlar shaxsni jinoiy javobgarlikka tortish uchun asos bo‘la olmaydi.

Sudlar mazkur toifadagi ishlar bo‘yicha hukm chiqarishda fuqarolik da’vosini hal etishlari zarur.

Sud fuqarolik da’vosini qanoatlantirish to‘g‘risida xulosaga kelganda, o‘z hukmida mahkumdan undirilishi lozim bo‘lgan pul summasi miqdorini (penya va shtraf summasini qo‘shgan holda), to‘lanmagan soliqlar turiga qarab, tegishli davlat byudjeti (respublika, mahalliy), byudjetdan tashqari maqsadli jamg‘arma, shuningdek, soliq to‘lovchi hisobga olingan joydagi davlat soliq xizmati organi nomini ko‘rsatishi kerak.

Soliqlarni to‘lashdan qasddan bo‘yin tovlash bilan bog‘liq jinoyat ishlari Jinoyat-prosessual kodeksining 84-moddasiga, ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ish Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 271-moddasining 5 va 7-bandlariga muvofiq tugatilgan

taqdirda, mazkur to‘lovlar to‘lanmaganligi oqibatida yetkazilgan zararni undirish masalasi fuqarolik sudlov ishlarini yuritish tartibida hal qilinadi.

Mavzu bo‘yicha savollar

1. Soliqlar va yig‘imlarni to‘lashdan bo‘yin tovlaganda qanday jazo qo‘llaniladi?
2. Soliqqa oid huquqbuzarlik uchun ma’muriy javobgarlikka tortilishni istisno qiladigan holatlarni sanab bering.
3. Soliqqa oid huquqbuzarlik jinoiy javobgarlikka tortilishni istisno qiladigan holatlarni ko‘rsating.
4. Javobgarlikka tortiladigan huquqbuzarlikning subyektlariga belgilangan qanday javobgarlik choralari mavjud?

10-MAVZU. SOLIQQA OID HUQUQBUZARLIKLARNING OLDINI OLISH CHORALARI

1. **Soliqqa oid huquqbuzarliklarning oldini olish choralari**
2. **Soliqqa oid huquqbuzarliklar aniqlangan holatlar haqida jismoniy shaxslar tomonidan soliq organlarini xabardor qilish**

1. Soliqqa oid huquqbuzarliklarning oldini olish choralari

Soliq to‘lovchilar tomonidan yo‘l qo‘yilgan soliqqa oid huquqbuzarliklar uchun nafaqat jazolash, balki soliq qonunchiligini ular tomonidan buzilish sabablarini o‘rganish hamda shu orqali kelib shiqishi mumkin bo‘lgan huquqbuzarliklarning oldini olish mumkin.

«Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 15-moddasiga muvofiq davlat soliq xizmati organlari huquqbuzarliklarning oldini olish sohasida quyidagi vakolatlarga ega:

- huquqbuzarlikning oldini olish bo‘yisha davlat dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etish;
- soliq huquqbuzarlikning oldini olish dasturlarini ishlab chiqish, tasdiqlash va amalga oshirish;
- soliqqa oid huquqbuzarliklarning oldini olish, shu jumladan ushbu huquqbuzarliklarning sabablari va ularga sabab bo‘lgan shart-sharoitlarni aniqlash, bartaraf etish;
- soliq qonunshiligiga rioya etilishini, hisob-kitoblarning aniqligi, savdo va xizmat ko‘rsatish sohasidagi soliqlar va to‘lovlarning to‘liq va o‘z vaqtida to‘lanishini nazorat qilish;
- savdo va xizmat ko‘rsatish sohasida soliq sohasidagi huquqbuzarliklarni sodir etgan jismoniy va yuridik shaxslarning hisobini yuritish, ushbu ma’lumotlarni tahlil qilish;
- jinoyatshilikning oldini olishda bevosita ishtirok etuvshi va ishtirok etadigan boshqa organlar va muassasalar bilan o‘zaro hamkorlik qilish.

Huquqbuzarliklarning oldini olish maqsadida davlat soliq xizmati organlari soliq to‘lovchilarning huquqiy madaniyatini oshirish bo‘yicha ishlarni amalga oshirish, soliqqa oid huquqbuzarliklarning profilaktikasi, ularni aniqlash va bartaraf etish bo‘yicha kompleks tadbirlarni bajarish sohasida quyidagi ishlarni amalga oshiradi:

- soliq to‘lovchilarga soliq majburiyatlarini bajarishda har tomonlama ko‘maklashadi;
- soliqlar va yig‘imlarning o‘z vaqtida va to‘liq to‘lanishini ta’minlash uchun soliq to‘lovchilarga xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish bo‘yicha choralarni amalga oshiradi;
- qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ayrim turdagi soliqlarni hisoblash tarzida soliq to‘lovchilarga servis xizmatlari ko‘rsatadi;
- yuridik va jismoniy shaxslarning soliq sohasidagi huquqlari va qonun bilan muhofaza qilinadigan manfaatlari himoyalanishini ta’minlaydi;
- soliq solish masalalariga daxldor normativ-huquqiy hujjatlarni soliq to‘lovchilarga va aholiga o‘z vaqtida tanishtirish va yetkazish ishlarini tashkil etadi;
- soliq to‘lovchilarga soliq majburiyatlarini bajarishda har tomonlama ko‘maklashishadi;
- soliqlarning ixtiyoriy ravishda to‘lanishini ta’minlashga qaratilgan, soliq to‘lovchilarning huquqiy madaniyatini oshirish bo‘yicha ishlarni takomillashtirishtiradi;
- soliq sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyati to‘g‘risida joylarda va ommaviy axborot vositalari orqali keng tushuntirish ishlarini olib boradi;
- soliqqa doir qonun hujjatlarini nashr etish, ko‘paytirish va davlat soliq xizmatining hududiy organlariga yetkazish, maslahat xizmatlari ko‘rsatish, soliq to‘lovchilarni soliqlarni to‘g‘ri va o‘z vaqtida hisoblab chiqarishga, soliq hisobotlarini va soliqlar hamda yig‘imlarni hisoblab chiqish, to‘lash bilan bog‘liq bo‘lgan boshqa hujjatlarni taqdim etishga o‘qitish uchun servis-markazlar tashkil qiladi;
- soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlari bo‘yicha normativ-huquqiy hujjatlar to‘plamlarini nashr etadi, davlat soliq xizmati organlarini qonun hujjatlari bilan ta’minlash choralarini ko‘radi;
- jismoniy va yuridik shaxslarning soliq solish va soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlari buzilishi masalalari bo‘yicha murojaatlarini belgilangan tartibda ko‘rib chiqadi.

Soliq to‘lovchilar, soliq solish obyektlari hamda soliq solish bilan bog‘liq obyektlar to‘liq va o‘z vaqtida hisobga olinishini ta’minlash

maqsadida davlat soliq xizmati organlarida uchastka soliq inspektorlari lavozimi tashkil etilgan.

Uchastka soliq inspektorlari o‘zlariga biriktirilgan uchastkada mol-mulk solig‘i va yer solig‘i to‘lovchi jismoniy shaxslarni, shuningdek, tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanayotgan jismoniy shaxslarni hisobga olish yuzasidan tegishli ishlarni bajaradilar hamda ular tegishli soliqlarni o‘z vaqtida to‘lashlarini nazorat qiladilar. Uchastka soliq inspektorlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasidagi ro‘li katta bo‘lib, ular avvalo soliq to‘lovchilarga soliq haqidagi huquqiy ongini oshirish va soliq majburiyatini bajarilishini ta’minlashda asosiy targ‘ibotshi hisoblanadi.

2. Soliqqa oid huquqbuzarliklar aniqlangan holatlar haqida jismoniy shaxslar tomonidan soliq organlarini xabardor qilish

Soliq sohasidagi jamoat munosabatlarini rivojlantirish hozirgi vaqtda muhum yo`nalishlardan biri hisoblanadi. Davlat soliq xizmati organlari soliqqa oid huquqbuzarliklarning oldini olish maqsadida jamoatchilik bilan hamkorlikda soliq nazoratini amalga oshiradi.

Vazirlar Mahkamasining «Savdo va xizmat ko‘rsatish sohasida jamoatchilik nazorati samaradorligini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi 2022-yil 12-maydagi 255-son qarori qabul qilindi.

Hujjat bilan maxsus dastur orqali soliqqa oid huquqbuzarliklar aniqlanganligi holatlari bo‘yisha soliq organlarini xabardor qilgan jismoniy shaxslarga mukofot to‘lash to‘g‘risidagi nizom tasdiqlandi.

Jismoniy shaxslar tomonidan aniqlangan soliqqa oid huquqbuzarliklar holatlari bo‘yisha soliq organlarini xabardor qilish soliq organlarining «Soliq hamkor» maxsus axborot tizimi orqali amalga oshiriladi. Aniqlangan soliqqa oid huquqbuzarliklar holatlari soliq organlarini maxsus dastur orqali xabardor qilgan jismoniy shaxslar ushun bir martalik pul mukofoti shaklidagi rag‘batlantirish belgilanadi. Jismoniy shaxslarga aniqlangan soliqqa oid huquqbuzarliklar holatlari ushun bir martalik pul mukofotini to‘lash O‘zbekiston milliy valyutasida amalga oshiriladi.

Jismoniy shaxslarga bir martalik pul mukofoti:

- onlayn nazorat-kassa texnikasi va hisob-kitob terminallarini qo‘llash tartibi buzilganligi;

- naqd pul mablag ‘lari yoki plastik kartochkalar bo‘yicha to‘lov shakliga qarab narxlar sun’iy ravishda oshirilganligi yoki pasaytirilganligi;
- tadbirkorlik faoliyati davlat ro‘yxatidan o‘tmasdan amalga oshirilganligi;
- identifikatsiya vositalari orqali majburiy raqamli markirovkalash nazarda tutilgan mahsulotlarda qalbaki markirovka qo‘llanilganligi yoki markirovka mavjud emasligi, shuningdek, savdo va xizmatlar ko‘rsatish qoidalarining buzilishi hollari aniqlangan boshqa holatlar to‘g‘risida soliq organlarini xabardor qilganlik uchun to‘lanadi.

Aniqlangan soliqqa oid huquqbuzarliklar holatlari ushun bir martalik pul mukofoti tarzidagi rag‘batlantirish Soliq kodeksining 221-moddasi birinshi qismida nazarda tutilgan soliq huquqbuzarliklari ushun belgilangan jarimalarning yigirma foizi miqdorida belgilanadi.

Maxsus dastur orqali aniqlangan soliq huquqbuzarliklari faktlari to‘g‘risida soliq organlarini xabardor qilgan jismoniy shaxsga to‘lov aybdor shaxs tomonidan qonun hujjatlarida belgilangan jarima to‘liq to‘langanidan keyin amalga oshiriladi.

Mukofotlarni moliyalashtirish aybdor shaxsdan undirilgan jarimalari hisobiga quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

- u
  ndirilgan jarimaning 20 foizi jismoniy shaxsga to‘lab beriladi;
- u
  ndirilgan summaning 80 foizi qonunshilikda belgilangan tartibda davlat byudjeti va Soliq qo‘mitasining moddiy yordam, ijtimoiy himoya, soliq organlarini rivojlantirish va ko‘zda tutilmagan xarajatlar maxsus jamg‘armasi o‘rtasida taqsimlanadi.

Mukofotlash quyidagi shartlarga bir vaqtda amal qilgan holatda amalga oshiriladi:

- a
  garda jismoniy shaxs tomonidan taqdim etilgan ma’lumotlar haqiqatga to‘g‘ri keladigan bo‘lsa va aybdor shaxsga nisbatan soliq organi yoki sudning javobgarlikka tortish to‘g‘risidagi qarori qonuniy kuchga kirgan bo‘lsa;
- a
  ybdor shaxs tomonidan qonunshilikda ko‘zda tutilgan jarimani to‘lash to‘liq amalga oshirilgan bo‘lsa.

Soliq organlari aniqlangan soliqqa oid huquqbuzarliklar holatlari haqida soliq organlarining maxsus dasturi orqali quyidagi ma’lumotlar ko‘rsatilgan holda xabardor qilinadi:

- sodir etilgan soliqqa oid huquqbuzarlik turi;
- soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etgan xo‘jalik yurituvchi subyekt joylashgan joy.

Aniqlangan soliqqa oid huquqbuzarliklar holatlari haqida soliq organlarini xabardor qilishda, jismoniy shaxs soliq organlarining maxsus dasturida quyidagi ma’lumotlarni ko‘rsatadi:

- mobil telefon raqami;
- bank kartasi raqami.

Soliq organlarini soliqqa oid huquqbuzarliklar aniqlangan holatlar haqida xabardor qilgan va bir martalik pul mukofoti to‘lanishi kerak bo‘lgan jismoniy shaxsni aniqlash va hisobga jismoniy shaxsning mobil telefon raqamiga kelib tushgan havola orqali soliq organlarining maxsus dasturida ro‘yxatga olish kodini kiritish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

Bir martalik pul mukofotini olish uchun soliqqa oid huquqbuzarliklar aniqlangan holatlar haqida soliq organlariga xabar bergan shaxsni aniqlash maqsadida soliq organlari ulardan maxsus mobil ilova orqali jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqamini ko‘rsatishni talab qiladilar.

Sodir etilgan soliqqa oid huquqbuzarlik turi, soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etgan xo‘jalik yurituvchi subyekt joylashgan joy, mobil telefon raqami,bank kartasi raqami tutilgan ma’lumotlar to‘liq taqdim etilmaganda, jismoniy shaxsning aniqlangan soliqqa oid huquqbuzarliklar holatlari haqida xabarnomasini soliq organlari ko‘rib chiqmaydi.

Bitta xo‘jalik yurituvchi subyekt bo‘yicha sodir etilgan soliqqa oid huquqbuzarliklar haqidagi xabarlar bir nechta jismoniy shaxslardan olingan taqdirda, xabarlarni ko‘rib chiqish va bir martalik pul mukofotini to‘lash soliq organlari tomonidan har bir tadbirkorlik subyekti bo‘yicha alohida va faqat soliq organlarining axborot tizimida birinchi navbatda tan olingan va aniqlangan jismoniy shaxsning xabarnomasiga ko‘ra amalga oshiriladi.

Xabarlarning qolgan qismi bo‘yicha, shuningdek, soliq organlarining axborot tizimida ilgari tan olingan va aniqlashtirilgan jismoniy shaxsning xabarnomasi asosida soliq organlari tomonidan sayyor soliq tekshiruvi o‘tkazish va aybdor shaxsni javobgarlikka tortish to‘g‘risida tegishli qaror qabul qilish jarayonida kelib tushgan

xabarlar soliq organlari tomonidan ko‘rib chiqilmaydi va bir martalik pul mukofoti ham to‘lanmaydi.

Davlat soliq qo‘mitasi soliq organlarining maxsus dasturi orqali bunday shaxslarga ilgari soliq organiga boshqa jismoniy shaxs tomonidan murojaat kelib tushganligi, shu asosda joylarda soliq tekshiruvi boshlanganligi yoki o‘tkazilayotganligi yoki o‘tkazilgan sayyor soliq tekshiruvi materiallarini ko‘rib chiqish natijalari asosida qaror qabul qilinayotganligi to‘g‘risida xabar beradi.

Bosqichlar	Subyektlar	Chora-tadbirlar	Muddatlar
I. Aniqlangan soliq huquqbuzarliklari to‘g‘risida soliq organlariga xabar berish			
1-bosqich	**Ariza beruvchi**	**Soliq organlarining maxsus dasturi orqali soliqqa oid huquqbuzarliklarning aniqlangan faktlari to‘g‘risida soliq organlariga xabar beradi.**	**Soliq qonunchiligi buzilishi holatlari aniqlanganda**
2-bosqich	**Davlat soliq qo‘mitasi**	**Qabul qilingan ariza asosida sayyor soliq tekshiruvini o‘tkazadi.**	**O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan muddatda *(o‘n kun davomida)***
II. Pul mukofotini to‘lash			
3-bosqich	**Davlat soliq qo‘mitasi**	**Jismoniy shaxslarga bir martalik pul mukofoti sifatida to‘lanishi lozim bo‘lgan summani vakolatli bankda ochilgan hisobvarag‘iga o‘tkazib beradi.**	**Jarima to‘langan kundan keyin uch kundan kechiktirmasdan**
4-bosqich	**Bank**	**Aniqlangan soliqqa oid huquqbuzarliklarto‘g‘risida soliq organlarining maxsus dasturi orqali xabardor qilinganlik uchun bir martalik pul mukofoti olish huquqiga ega bo‘lgan jismoniy shaxslarning bank kartalariga pulmablag‘larini o‘tkazadi.**	**To‘lov topshiriqnomasiga asosan qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda**

11-rasm. Soliq organlariga soliq huquqbuzarliklari to‘g‘risida xabar berganlik uchun jismoniy shaxslarga pul mukofotini to‘lash tartibi[28]

[28] Maxsus dastur orqali soliqqa oid huquqbuzarliklar aniqlangan holatlar haqida soliq organlarini xabardor qilgan jismoniy shaxslarga pul mukofotini to‘lash to‘g‘risida nizomga ilova.

Soliqqa oid huquqbuzarliklar aniqlangan holatlar haqida soliq organlarini maxsus dastur orqali xabardor qilgan jismoniy shaxslar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni oshkor qilishga yo‘l qo‘yilmaydi, qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

Mukofot olish maqsadida soliqqa oid huquqbuzarliklar haqida xabardor qilgan jismoniy shaxs tomonidan haqiqatda xaridlar amalga oshirilganligini tovarning surati, to‘lov terminalining cheki va boshqa usullar bilan tasdiqlashini talab qilishga, shuningdek, haqiqatda xaridlar amalga oshirilganligiga shubha tug‘ilsa, soliq organlari undan kelib tushgan murojaatni ko‘rib chiqish uchun asoslar yetarli emasligi to‘g‘risida qaror qabul qilishga haqli.

Mavzu bo‘yicha savollar

1. Soliqqa oid huquqbuzarliklarning oldini olish shoralarini sanab o‘ting.
2. Soliqqa oid huquqbuzarliklar aniqlangan holatlar haqida jismoniy shaxslar tomonidan soliq organlarini xabardor qilish tatibi qanday?
3. Soliqqa oid huquqbuzarliklar aniqlangan holatlar haqida jismoniy shaxslar tomonidan soliq organlarini xabardor qilinganda jismoniy shaxslarga tolanadigan bir martalik pul mukofoti to‘g‘risida ma’lumot bering.
4. Soliq organlari aniqlangan soliqqa oid huquqbuzarliklar holatlari haqida soliq organlarining maxsus dasturi orqali qanday ma’lumotlar ko‘rsatilgan holda xabardor qilinadi?

V BOB. SOLIQ MUNOSABATLARIDA SOLIQ XAVF-XATARLARI

11-MAVZU. SOLIQ MUNOSABATLARIDA SOLIQ TAVAKALCHILIGI VA UNI BOSHQARISH

1. **Soliq munosabatlarida soliq risklari**
2. **Soliq risklarini boshqarish**

1. Soliq munosabatlarida soliq risklari

Tadbirkorlik faoliyati muqarrar ravishda riskni o‘z ichiga oladi. Risk deganda ma’lum tabiat hodisalari va insonning noto‘g‘ri xatti-harakatlarining o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqadigan yo‘qotishlar, rejalashtirilgan daromadga, foydaga erishmaslik ehtimoli tushuniladi. Tadbirkorlik riski (xatar)lari orasida nafaqat moliyaviy risklarga, balki moliyaviy bo‘lmagan riskilarga ham (jinoiy javobgarlik bilan bog‘liq) tegishli bo‘lgan soliq risklarini ajratish mumkin.

«Soliq riski» tushunchasini shakllantirishda uning salbiy xususiyatini nazarda tutish kerak. Bundan tashqari, soliq riskining salbiy xususiyati nafaqat soliq to‘lovchilar, balki O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 3-bobiga muvofiq shunday deb e’tirof etilgan soliq huquqiy munosabatlarining barcha subyektlari uchun ham ma’lum shakllarda namoyon bo‘lishi mumkin.

Soliq riski – bu qo‘shimcha moliyaviy yo‘qotishlarga (soliqlar va yig‘imlarni qo‘shimcha hisoblash, penyalar, jarimalar) va natijada soliq yukining oshishiga, shuningdek, sud xarajatlari, maslahat va boshqa xizmatlar uchun xarajatlarga olib keladigan noxush hodisalarning ma’lum sharoitlarda yuzaga kelish ehtimoli.

Soliq riskining yuzaga kelishi sabablari quyidagilar bo‘lishi mumkin:

- tasdiqlovchi hujjatlarni noto‘g‘ri rasmiylashtirish, hujjatlarni nazorat qilish tizimlarining yo‘qligi;
- soliq yukini kamaytirishga qaratilgan operatsiyalarni amalga oshirish;
- soliq to‘lovchi, soliq agenti tomonidan soliqlar va yig‘imlar to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini bevosita buzganligi;
- soliqlar va yig‘imlar to‘g‘risidagi qonun hujjatlari qoidalarini talqin qilishda

- noaniqlik mavjud bo‘lgan operatsiyalarni amalga oshirish;
- buxgalteriya hisobi va soliq hisobini yuritish jarayonida yuzaga keladigan kutilmagan xatolar;
- buxgalteriya (moliyaviy) hisobotlarini buzishga qaratilgan qasddan qilingan harakatlar va boshqalar.

Soliq riskining asosiy belgilari quyidagilardan iborat: iqtisodiy va huquqiy axborotning noaniqligi bilan bog‘liq;

- moliyaviy riskining ajralmas qismi hisoblanadi;
- soliq huquqiy munosabatlari ishtirokchilariga: soliq to‘lovchilarga, soliq agentlariga va davlat manfaatlarini ifodalovchi boshqa shaxslarga nisbatan qo‘llaniladi;
- soliq huquqiy munosabatlarining barcha ishtirokchilari uchun salbiy xarakterga ega (boshqa riski turlaridan farqli o‘laroq);
- soliq huquqiy munosabatlarining har bir ishtirokchisi uchun turlicha namoyon bo‘ladi.

Soliq riskini turli mezonlarga ko‘ra tasniflash mumkin:

- Soliq riski (riski) zimmasida bo‘lgan subyektlar tomonidan: davlat, soliq to‘lovchilar, soliq agentlari, aloqador shaxslarning soliq riski.
- Soliq to‘lovchilar – yuridik va jismoniy shaxslar uchun, davlat – soliqqa tortish jarayonida ishtirok etuvchi turli qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyat organlari uchun riskni batafsil ko‘rib chiqish mumkin.
- Soliq riskini belgilovchi omillarga asoslanib: tashqi va ichki (yoki tizimli va tizimsiz) ga bo‘lish mumkin.
- Soliq to‘lovchi tashkilot uchun tavakkalchilkilarning ikkala guruhi ham mavjud bo‘lishi mumkin: tashqi risklar soliqqa tortish shartlarining o‘zgarishi bilan bog‘liq sabablarga ko‘ra, ichki – tadbirkorlik subyektining soliq siyosatining samarasizligi sababli yuzaga kelishi mumkin.

Davlat uchun soliq riskini tashqi va ichki toifalarga bo‘lish ham mumkin. Tashqi tomondan soliqqa tortish sohasidagi xalqaro shartnomalarning amal qilishi, offshor zonalarning faoliyati va ular taklif etayotgan shart-sharoitlar va boshqalar bilan, ichki esa – soliqqa tortish jarayonida davlat funksiyalarini bajaradigan qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyat organlari, shuningdek, soliq to‘lovchilar faoliyati bilan belgilanadi.

Tizimli riski barcha xo‘jalik yurituvchi subyektlar uchun umumiy bo‘lgan turli omillar ta’siridan kelib chiqadi.

Tizimsiz riski xo‘jalik yurituvchi subyektning o‘zi faoliyatiga to‘liq bog‘liq bo‘lgan omillarning ta’siridan kelib chiqadi.

Risklarning boshqa turlari bilan bog‘lanish obyektiga ko‘ra: yo‘qotilgan foyda riski, moddiy va nomoddiy aktivlarning yo‘qolishi riski, to‘lovga layoqatsizlik riski, investitsiya risklari va boshqalar.

Oqibatlarning turlari bo‘yicha: soliq nazorati riski, soliq yukining ortishi riski, soliq xarakteridagi jinoiy javobgarlikka tortish riski.

Soliq nazorati risklarini, o‘z navbatida, «oddiy» soliq nazorati risklari va «bojxona» soliq nazorati risklariga bo‘lish mumkin. Ushbu risklarning birinchi turiga hududiy soliq organlari tomonidan o‘zlarining faoliyati davomida nazorat qilish risklari kiradi. Ikkinchi turdagi risklar huquqni muhofaza qiluvchi organlar yoki alohida yuqori mansabdor shaxslar tomonidan «siyosiy buyurtma» doirasida qo‘zg‘atilishi mumkin, ular fors-major holatlari hisoblanib, ularni yetarlicha aniq aniqlash mumkin emas.

Soliq yukini oshirish risklari soliq solinadigan bazalarni hisoblash metodologiyasining o‘zgarishi tufayli ham, iqtisodiy faoliyatning kengayishi bilan bog‘liq ravishda o‘sishini ham o‘z ichiga olishi mumkin.

Jinoiy javobgarlikka tortishning riski soliq qonunchiligini buzgan soliq to‘lovchi tashkilotlarning rahbarlariga nisbatan jinoyat ishi qo‘zg‘atilishi va jinoiy javobgarlikka tortilish imkoniyati mavjudligi bilan bog‘liq. Biroq, ushbu turdagi xavf soliq to‘lovchi tashkilotning o‘ziga to‘liq tatbiq etilishi mumkin emas (uning oqibatlari faqat bilvosita baholanishi mumkin).

Mumkin bo‘lgan yo‘qotishlar hajmi bo‘yicha: mumkin bo‘lgan, muhum va halokatli risklar.

Shunday qilib, xo‘jalik yurituvchi subyekt uchun muhim soliq riskga misol bo‘lib soliq to‘lovchining to‘lov qobiliyatiga tahdid soladigan soliqning asosiy miqdori bilan birgalikda jarima solish hisoblansa, tashkilotning mavjudligiga xavf solish – bu halokatli risk uchun misol bo‘la oladi. Endilikda soliq to‘lovchilar o‘zlarining moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini mustaqil baholashlari, soliq va yig‘imlarni hisoblashdagi xatolarni bartaraf etishlari mumkin.

Soliq riskiini bir qator mezonlarini ajratib ko‘rsatish mumkin, xususan:

1. Soliq to‘lovchining soliq yuki muayyan tarmoq (iqtisodiy faoliyat turi) bo‘yicha xo‘jalik yurituvchi subyektlar uchun uning o‘rtacha darajasidan past.

2. Bir necha soliq davrlarida zararlarni buxgalteriya hisobida yoki soliq hisobotida aks ettirish.

3. Muayyan davr uchun soliq chegirmalarining miqdorini soliq hisobotida aks ettirish.

4. Xarajatlarning o‘sish sur’atlarini tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) sotishdan olingan daromadlarning o‘sish sur’atlaridan yuqori ko‘rsatish.

5. Hududdagi iqtisodiy faoliyat turi bo‘yicha bir xodimga o‘rtacha darajadan past bo‘lgan o‘rtacha oylik ish haqini to‘lash.

6. Soliq kodeksida belgilangan ko‘rsatkichlarning maksimal qiymatiga, soliq to‘lovchilarga maxsus soliq rejimlarini qo‘llash huquqini beradigan ko‘rsatkichlarning qiymatlariga bir necha bor yaqinlashish.

7. Yakka tartibdagi tadbirkorning xarajatlar miqdorini kalendar yili uchun olgan daromadlari miqdoriga imkon qadar yaqinroq aks ettirish.

8. Pudratchi yoki vositachilar («kontragentlar zanjiri») bilan oqilona iqtisodiy yoki boshqa sabablarsiz (xo‘jalik maqsadi) shartnomalar tuzish asosida moliya- xo‘jalik faoliyatini yuritish.

9. Faoliyat ko‘rsatkichlarida nomuvofiqliklar aniqlanganligi to‘g‘risidagi soliq organining xabarnomasiga soliq to‘lovchi tomonidan tushuntirishlar taqdim etilmaganligi.

10. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, buxgalteriya hisobi ma’lumotlariga ko‘ra rentabellik darajasining ushbu faoliyat sohasi uchun rentabellik darajasidan sezilarli darajada farq qilishi.

11. Soliq riski yuqori bo‘lgan moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini amalga oshirish.

Soliq riski soliq munosabatlari subyekti uchun soliqqa tortish jarayoni bilan bog‘liq moliyaviy va boshqa yo‘qotishlarga keltirib chiqarish riskini o‘z ichiga oladi. Bu subyekt tomonidan qabul qilingan qarorlarning salbiy og‘ishlari tufayli, amaldagi qonun normalariga rioya qilmasligi tufayli, o‘z zimmasiga olgan majburiyatdan chetga chiqishi tufayli yuzaga keladi.

Soliq riski soliq qonunchiligi yetarlicha ishlab chiqilmaganda, uning alohida qoidalarining noaniqligida ham yuzaga keladi. Bunda

soliq to‘lovchining soliq riski ularning soliqlarni minimallashtirishning xavfli sxemalaridan foydalanishi, soliq qonunchiligi qoidalarining ikki xilligidan foydalanishga urinishlari, shuningdek, xo‘jalik yurituvchi subyekt tomonidan olib borilayotgan samarasiz soliq siyosati tufayli yuzaga keladi. Soliq riski davlat va soliq to‘lovchining pozitsiyasidan ko‘rib chiqiladi.

Shunday qilib, davlat (vakolatli soliq organlari tomonidan taqdim etilgan) va soliq to‘lovchilar uchun soliq riski omillari tizimlarida aniq sezilarli farqlar mavjud bo‘lib, buning natijasida soliq risklarining namoyon bo‘lishida ham o‘zgarishlar yuzaga keladi.

Soliq riskining uchta asosiy guruhi mavjud:

1. Soliq va hatto jinoiy javobgarlikka tortishning aniq tahdidi. Soliq to‘lashdan qo‘pol ravishda bo‘yin tovlashda risklar yuzaga keladi. Bunday hollarda jinoiy javobgarlikka tortish riski juda yuqori. Amalda, jinoyat ishlarini ko‘rib chiqishda sudlar aybdorga real qamoq jazosini beradigan holatlar ko‘payib bormoqda.

2. Qonunchilik normalarining noaniqligi va mavhumligi natijasida kelib chiqadigan soliq javobgarligiga tortish riski. Risklar soliq qonunchiligida biron-bir savolga aniq javob bo‘lmaganda paydo bo‘ladi. Ekspertlar, auditorlar fikri bir joydan chiqmaydi, sud amaliyoti bir xil ish tutmaydi.

3. Subyektiv risklar. Soliq inspektorlarining shaxsiy qarorlari va ularning soliq qonunchiligini va tekshirilayotgan tashkilot faoliyatini talqin qilishdagi riski. Tashkilotning kontragentlari orasida tekshirish paytida aniqlangan bir kunlik firmalarni risklari, kompaniyalar ko‘pincha obyektiv sabablarga ko‘ra barcha kontragentlarini tekshira olmaydilar.

Moliyaviy soliq risklari pul ko‘rinishida baholanishi mumkin (bundan tashqari, soliq munosabatlari moliyaviy munosabatlarning bir qismidir). Jinoiy javobgarlik qonuniy jihatdan pul ko‘rinishida baholanishi mumkin emas, boshqa javobgarlik turlari esa pul qiymatiga ega bo‘lishi mumkin.

Xo‘jalik yurituvchi subyektlar uchun soliq riskining alohida ahamiyati shundan iboratki, agar xo‘jalik yurituvchi subyektlarning faqat bir qismigina investitsiya, valyuta, bank risklariga duch kelsa, har bir xo‘jalik yurituvchi subyekt soliq riskiga duch keladi, chunki soliqqa tortish barcha faoliyat turlariga va barcha xo‘jalik yurituvchi subyektlarga tegishlidir.

Soliq riskii miqdoriga ta’sir etuvchi omillar tashqi va ichkiga bo‘linadi. Tashqi omillarga quyidagilar kiradi: soliq qonunchiligidagi sifat o‘zgarishlari, bu nafaqat kamayishiga, balki soliq riskining oshishiga ham olib kelishi mumkin.

Soliq qonunchiligining tez-tez o‘zgartirishi. Ba’zida soliq qonunchiligidagi o‘zgarishlar birmuncha o‘tgan davrlarga nisbatan ham amalga oshiriladi, bu esa, xo‘jalik yurituvchi subyekt tomonidan o‘zgarishlarni kuzatib borish va buxgalteriya hisobida o‘z vaqtida aks ettirish imkoniyatini jiddiy ravishda murakkablashtiradi va natijada, hisobchi tomonidan mumkin bo‘lgan xatolar sonining ko‘payishi, soliq riskining oshishiga olib keladi:

- soliq qonunchiligi hujjatlarining ayrim qoidalarining aniq ifodalanmaganligi sababli ularni bir xilda talqin qilinmasligi, normativ-huquqiy hujjatlarning ayrim qoidalarining nomuvofiqligi, shuningdek, ayrim xo‘jalik operatsiyalariga soliq solishning to‘liq tartibga solinmaganligi soliq riskining oshishiga olib keladi. Bu masalalar ko‘pincha sudlarda hal qilinadi;
- xo‘jalik yurituvchi subyektlarda soliq hisobini yuritish, shuningdek, daromad solig‘i hisob-kitoblari bo‘yicha ma’lumotlarni shakllantirish buxgalteriya xizmatining qo‘shimcha mehnat xarajatlarini talab qiladi;
- mamlakatdagi noqulay siyosiy va iqtisodiy vaziyat, bu odatda soliq qonunchiligini barqarorlashtirishga va boshqaruvning iqtisodiy sharoitlarini yaxshilashga yordam bermaydi va hokazolar.
- Ichki omillarga quyidagilar kiradi: mamlakatimizda soliq to‘lash majburiyatini bajarishga alohida munosabat. Amaliyotda «qonunga bo‘ysunuvchi soliq to‘lovchi» imidjiga salbiy munosabat hukm surmoqda. Boshqa tomondan, jamiyatning soliq to‘lashga munosabatini o‘zgartirish, soliq to‘lash orqali davlat hayotida shaxsiy ishtirok etishdan g‘ururlanishni tarbiyalash davlatning byudjet siyosati shaffof bo‘lgandagina mumkin;
- tashkiliy jihatlar; masalan, korxonada soliq boshqaruvini tashkil etishning yo‘qligi yoki etarli darajada emasligi, buning natijasida aniqlanmagan va tuzatilmagan xatolar mavjudligi;

- rahbarning buxgalteriya hisobi va soliqqa tortish muammolariga munosabati.

Iqtisodiy operatsiyalar bajarilgan vaqtda hujjatlarning rasmiylashtirilishi muhimligini tushunmaslik xo‘jalik yurituvchi subyekt rahbarining ko‘pincha buxgalterga o‘tgan soliq davrida amalga oshirilgan operatsiyalar bo‘yicha birlamchi hujjatlarni taqdim etishiga olib keladi. Bu esa:

- buxgalteriya hisobida hamda soliqqa tortishda xatolarga olib keladi;
- hisobchi xodimlarining past malakasi buxgalteriya hisobi va soliq hisobotini shakllantirish sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda;
- buxgalterning riskka munosabati, bu uning yetarli darajada asoslanmagan qarorlar qabul qilishga moyilligi yoki haddan tashqari ehtiyotkorlik bilan, masalan, soliqlarni ortiqcha to‘lashda namoyon bo‘ladi;
- soliq to‘lovchilar va soliq organlari o‘rtasidagi munosabatlar.

O‘zbekiston Respublikasida soliq stavkalari biznes yuritish uchun ancha qulay bo‘lishiga qaramay, xorijiy investorlarni soliq organlari bilan muammosiz, soliq risklarsiz O‘zbekiston Respublikasida biznes yuritish mumkinligiga ishontirish qiyin.

2. Soliq risklarini boshqarish

Bugungi kunda mamlakatimizda soliq tizimini yanada takomillashtirish, soliqlarning rag‘batlantiruvchi rolini oshirish, ularning manzilli bo‘lishini ta’minlash, eng asosiysi xo‘jalik yurituvchi subyektlar zimmasidagi soliq yukini kamaytirish hamda soliq risklarini boshqarish masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Jahon amaliyoti shuni ko‘rsatadiki, soliq xizmati organlari o‘zlarining faoliyatlari davomida soliq risklarini boshqarish zaruratiga to‘qnash keladilar, bu o‘z navbatida, soliq tizimining barcha darajalarida risk boshqaruvining samarali jarayonlarini yaratishni taqozo etadi.

Xorijiy davlatlarning soliq idoralari tomonidan fiskal ahamiyati bo‘yicha risklarni maqbullashtirish, tartiblash va baholash uchun turli yondashuvlardan foydalaniladi. Amalga oshirilgan tahlillar shundan dalolat beradiki, alohida davlatlarning soliq organlari tomonidan tizimli va kompleks asosda risklarni soliq monitoringidan o‘tkaziladi.

Eng avvalo, soliq risklarini boshqarish tushunchasining zamonaviy ta’riflaridan biriga to‘xtalsak, «soliq risklarini boshqarish» – bu ijobiy yoki salbiy natija kelib chiqishini prognozlash va risk darajasini oldindan pasaytirishga chora ko‘rishdir. Soliq riski moliyaviy yo‘qotishlarni ifodalovchi ehtimoliy ko‘rsatkichlar bilan aniqlanadi[29].

Soliq risklarini boshqarish deganda – ijobiy yoki salbiy natijani bo‘lishini prognozlash va risk darajasini pasaytirishga qaratilgan choralarni oldindan qo‘llash tushuniladi.

Soliq risklarini samarali boshqarishni tashkil etish uchun soliq risklarini aniqlash va baholash, ularga ta’sir etish, ya’ni, kamaytirish chora-tadbirlarini ko‘rish muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun esa soliq qonunchiligidagi munozarali holatlarini o‘rganib chiqish, mavjud risklar monitoringgini olib borish, risklarning tasniflanishi va ularning oqibatlarini tahlil qilish muhim hisoblanadi.

Soliq risklarini to‘g‘ri boshqarishda korxonalarning rahbarlari hamda ularda faoliyat ko‘rsatuvchi buxgalterlarning mavjudligi hamda ular tomonidan amalga oshiriladigan vazifalar to‘liq va o‘z vaqtida bajarilishi bilan bevosita bog‘liq hisoblanadi.

Mamlakatimizda soliq risklarini samarali boshqarishni ta’minlash bo‘yicha quyidagi masalalarga e’tibor qaratish o‘zining ijobiy natijasini beradi:

1. Har bir moliya yilining oxirida soliq qonunchiligiga ko‘plab o‘zgarishlar kiritilishi natijasida moliya yilining birinchi choragida soliq xatolari va soliq risklarining yuzaga kelishi ko‘proq ko‘zga tashlanadi. Buning oldini olish uchun davlat byudjeti parametrlarini kuchga kirish muddatidan kamida olti oy oldin matbuotda e’lon qilinishini tashkil etish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

2. Axborotlarni oshkor etish bo‘yicha kompleks choralar ko‘rilishi hamda soliq idoralarining tashkiliy tuzilmasi va asosiy funksiyalari soliq risklarini o‘z vaqtida aniqlash va ularni munosib boshqarish hisoblangan soliq monitoringgi maxsus bo‘linmalarini tashkil etilishi davlat soliq siyosatini muvaffaqiyatli amalga oshirishga imkon beradi.

Soliq nazorati tizimida potensial riskni baholashga birmuncha progressiv yondashuvlardan biri – riskka asoslangan yondashuv bo‘lib, uning asosiga kelgusida risklarni kamaytirish va bartaraf etish

[29] Кирина Л.С. Международный опыт осуществления мониторинга налоговых рисков налоговыми органами. Экономика. Налоги. Право. – М.: «Юрайт», 2012. С. 130–133.

maqsadida ularni tizimli tarzda aniqlash va tahlil etishga qaratilgan tarkiblashtirilgan jarayon mujassamlashtirilgan.

Uni amaliyotda qo‘llash quyidagi sharoitlarda muhimdir:

- soliq tekshiruvlari va soliq organlari foydalanayotgan resurslar biznes-jarayonlaridagi jiddiy tafovutlar (bunday holat mavjudligi soliq organlarining barcha aniqlangan risklarning oldini ola bilish qobiliyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi) kuzatilganda;
- soliq qonunchiligi o‘zgarishlari yuzasidan davlat organlari va tarkibiy tuzilmalari qarashlarida farqlar mavjudligida;
- soliq nazorati tizimida shaxsiy personal amaliy ko‘nikmalarining etishmasligi (bu narsa yirik soliq risklari bilan kurashishga bevosita ta’sir ko‘rsatadi) holatida.

Riskka asoslangan yondashuvdan amaliyotda foydalanish imkoniyatlariga ilmiy-nazariy qarashlarni umumlashtirish shunday xulosa qilishga imkon beradi: soliq qonunchiligiga rioya qilinishi ustidan o‘rnatilgan qattiq normalarning kuchaytirilishi, odatda, soliq nazorati maqsadlariga erishishda aks samaraga olib keladi, soliqdan qochish yoki soliq bazasini yashirish uchun imkoniyatning yuzaga kelishi, adolatlilikning buzib talqin etilishi, shaxsiy va ijtimoiy normalarni bajarishning birlamchiligi.

Shu boisdan, shuni alohida ta’kidlash zarurki, riskka asoslangan yondashuvning asosiga soliq to‘lovchi xulq-atvori modelida mavjud soliq riski darajasidan chetlashuvlarni aniqlash imkonining mavjudligi quyilishi lozim.

Shunga bog‘liq tarzda riskka asoslangan yondashuvdan amaliyotda foydalanish tashqi va ichki muhit omillari ta’sirida kelib chiquvchi uning hududiy va tarmoq xususiyatlarini aniqlash zaruratidan kelib chiqadi.

O‘zbekiston Respublikasida soliqlar yig‘iluvchanligi darajasini oshirish maqsadida soliq nazorati sifatini oshirish uchun risklarni baholash tizimi (SNTBT)ni shakllantirish, uning vazifalarini asoslab berish, uning faoliyati sxemasini ishlab chiqish hozirgi kunda o‘ta dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Mazkur tizimning asosiy vazifasi – soliq to‘lovchilar faoliyatida doimiy asoslarda yuzaga keluvchi risklarni aniqlash, baholash va identifikatsiyalash bo‘yicha umumiy ma’lumot bazasini shakllantirish hisoblanadi. Uning amaliyotga qo‘llanilishi pul oqimlari

harakatlanishini nazorat qiluvchi barcha fiskal organlarning kompleks tarzdagi hamjihat harakatini hisobga olgan soliq ma’muriyatchiligi va monitoringgida foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Soliq nazorati sifatini oshirish uchun risklarni baholash tizimi (SNTBT) quyidagi asosiy masalalar bo‘yicha aniqlashtirilgan ma’lumotlarni bera oladigan soliq nazoratiga biriktirilgan muhim jarayon hisoblanadi:

bozorning turli segmentlarida soliq nazoratidan bo‘yin tovlash bilan bog‘liq bo‘lgan soliq qonunchiligi buzilishi va boshqa qonunga xilof harakatlar xususiyati va ko‘lami;

risklarni dastlabki bosqichidayoq aniqlash va hududlar mahalliy byudjetlaridagi muammolarni hal etishga imkon beruvchi bozorning tarmoq va hududiy segmentlari kesimida xufiyona biznes bilan kurashish bo‘yicha amalda bo‘lgan tadbirlarning kamchiliklari;

soliqni to‘lashdan bo‘yin tovlash sxemalarida ishtirok etuvchi uchinchi shaxslar orqali soliq to‘lanmasligi va kapitalning chetga olib chiqib ketilishi belgilarini hisobga olgan holda faoliyati iqtisodiyotga eng katta zarar keltirishi mumkin bo‘lgan yirik soliq to‘lovchilarga oid xususiyatlar.

Soliq nazorati sifatini oshirish uchun risklarni baholash milliy tizimi (SNTBT) faoliyati sxemasi aks ettirilgan.





12-rasm. Soliq nazoratida foydalanish maqsadida risklarni baholash tizimi (SNTBT) faoliyat yuritish tartibi

Soliq nazorati sifatini oshirish uchun risklarni baholash tizimi (SNTBT) amal qilishi doirasida fiskal va nazorat organlarining o‘zaro hamjihat faoliyati tartibi moliyaviy bozorning tartibga soluvchisi Iqtisodiyot va moliya vazirligining, huquqni muhofazalash organlarining, O‘zbekston Respublikasi Hisob Palatasining, Davlat bojxona qo‘mitasining majburiy ishtirokini talab etadi.

Mazkur organlar faoliyati Davlat soliq qo‘mitasi faoliyatini belgilovchi davlat normativ aktlari, buyruq va farmoyishlari bilan belgilanadi.

Soliq nazorati sifatini oshirish uchun risklarni baholash tizimi (SNTBT) faoliyatida yakuniy bosqich – fiskal organlar amaliy faoliyatida soliqlarni to‘lash, soliqni to‘lashdan bo‘yin tovlash sxemalari haqidagi ma’lumotlardan foydalanish uchun soliq nazoratining innovatsion mexanizmlarini joriy etish hisoblanadi va u quyidagilarga imkon beradi:

- «soliq to‘lovchilar o‘zaro hamkorligi ko‘zguli sxemalari tahlili» orqali soliq to‘lovchilar gorizontal monitoringgini o‘tkazish usullarini maqsadga yo‘naltirish;
- riskka-asoslangan yondashuvdan foydalanish maqsadida soliq to‘lovchilar xulqiga oid tavsiflari bilan bog‘liq asosiy risklarni identifikatsiyalash;
- soliq to‘lovchilar kesimida soliqlar va majburiy to‘lovlarning to‘langanligi haqidagi ma’lumotlarni umumlashtirish uchun kredit tarixi ma’lumotlar bazasining analogi tarzida O‘zbekiston Respublikasida soliq tarixi yagona bazasini yaratish uchun asosni shakllantirish; nazorat va tekshiruv tadbirlarini amalga oshirish maqsadida soliq riskilarini ilgaridan aniqlashning ilk baholash indikatorlarini umumlashtirish.

Mazkur tadbirlarning amalga oshirilishi soliq tekshiruvlari yuzasidan xarajatlarni kamaytirishni va davlat soliq xizmati organlariga bo‘lgan ishonchning ortishini ta’minlaydi.

Jumladan, davlat soliq xizmati organlarida soliqqa oid huquqbuzarlik riskini tahlil etish tizimini joriy etish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2018-yil 5-oktyabrda 3075-son bilan ro‘yxatga olingan «Davlat soliq xizmati organlarida soliqqa oid huquqbuzarlik riskini tahlil etish tizimini joriy etish tartibi to‘g‘risida»gi nizom soliqqa oid huquqbuzarlik riskini tahlil etish tizimi davlat soliq xizmati organlarida amaliyotga joriy etilgan «Tahlika-tahlil» dasturiy mahsuloti orqali tadbirkorlik subyektlarida soliqqa oid huquqbuzarlik riskini avtomatik tarzda inson omili aralashmagan holda tahlil qilishni amalga oshiradi.

Mazkur Dasturiy mahsulot xavfni tahlil etish tizimini davlat soliq organlaridagi mavjud ichki va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 30-oktyabrdagi «O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq xizmati idoralari axborot-kommunikatsiya tizimi faoliyati samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qaroriga asosan vazirlik va idoralar tomonidan taqdim etilgan tashqi ma’lumotlarga, veb sahifalari va ijtimoiy tarmoqlardan olingan axborotlarga asosan quyidagi yo‘nalishlarda:

- tadbirkorlik subyektlarining shaxsiy kartochkalarida soliq qarzdorligi mavjudligini;
- tadbirkorlik subyektlari tomonidan soliq majburiyatlarini bajarilishida soliqlar va majburiy to‘lovlar bo‘yicha taqdim etilgan soliq hisobotlariga muntazam ravishda (bir yil davomida ikki va undan ortiq marta) qayta hisob-kitoblarning amalga oshirilganligini;
- tadbirkorlik subyektlari hisobot davri mobaynida dastlab ro‘yxatga olingan yuridik manzilini bir hududdan boshqa bir hududga muntazam ravishda (ikki va undan ortiq marta) o‘zgartirib borilganligini;
- tadbirkorlik subyektlari tomonidan o‘zlariga tegishli bo‘lmagan to‘lov terminallari bilan foydalanilganligini.

Jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan aynan bir tadbirkorlik subyekti faoliyatidan noroziligi haqidagi murojaatlarni va boshqa yo‘nalishlarni tahlil qiladi hamda yakuniy natijalarni ballik tizim orqali soliqqa oid huquqbuzarlik riski darajasini baholaydi. Dasturiy mahsulot orqali soliqqa oid huquqbuzarlik riskining ballik tizimi natijalariga

ko‘ra soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etish riski darajasi quyidagi uch toifaga bo‘linadi:

- soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etish riski yuqori bo‘lgan tadbirkorlik subyektlari;
- soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etish riski o‘rtacha bo‘lgan tadbirkorlik subyektlari;
- soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etish riski past bo‘lgan tadbirkorlik subyektlari.

Davlat soliq xizmati organlari tomonidan soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etish riski yuqori bo‘lgan tadbirkorlik subyektlari ro‘yxati dasturiy mahsulotdan shakllantiriladi.

Shakllantirilgan ro‘yxatda keltirilgan tadbirkorlik subyektlarining shaxsiy kabineti orqali davlat soliq xizmati organi tomonidan soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etish riski yuqoriligi to‘g‘risida tadbirkorlik subyekti xabardor qilinadi hamda O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksida belgilangan tartibda soliq auditi o‘tkaziladi.

Davlat soliq xizmati organlari tomonidan soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etish riski o‘rtacha bo‘lgan tadbirkorlik subyektlari ro‘yxati dasturiy mahsulotdan shakllantiriladi.

Shakllantirilgan ro‘yxatda keltirilgan tadbirkorlik subyektlarining shaxsiy kabineti orqali davlat soliq xizmati organi tomonidan soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etish riski o‘rtachaligi to‘g‘risida tadbirkorlik subyekti xabardor qilinadi hamda O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksida belgilangan tartibda kameral nazoratdan o‘tkaziladi.

Kameral nazorat natijalari bo‘yicha aniqlangan tafovutlarni bartaraf etish yuzasidan tadbirkorlik subyektlari tomonidan aniqlashtirilgan qayta hisobotlar yoxud asoslantiruvchi hujjatlar taqdim etilmaganda davlat soliq xizmati organlari tadbirkorlik subyektlarida tekshirish o‘tkazishni kelishish to‘g‘risida vakolatli organga murojaat qilishi mumkin.

Davlat soliq xizmati organlari tomonidan soliqqa oid huquq buzarlik sodir etish riski past bo‘lgan tadbirkorlik subyektlarida kameral nazorat o‘tkazilmaydi va soliq to‘lovchini tekshirish uchun vakolatli organlarga murojaat qilinmaydi.

Hozirda masofaviy nazorat-tahlil ishlari va tekshiruv oldi tahlillarni amalga oshirish uchun ma’lumotlarni jamlash va qayta ishlash imkonini beruvchi zamonaviy, ilg‘or axborot- texnologiyalarini joriy qilish bo‘yicha Jahon banki va Xalqaro valyuta fondi mutaxassislari tavsiyalari

asosida soliq to‘lashdan qochish riskiga baho berish uchun mezonlar ishlab chiqilgan.

Mavzu bo‘yicha savollar

1. Soliq riskiga tarif bering.
2. Soliq risklarini boshqarish deganda nimani tushunasiz.
3. Soliq munosabatlari tizimidagi soliq riskining mohiyati va turlari?
4. Soliq riskini boshqarishning vazifalari?
5. Soliq riskini mezonlarini ajratib ko‘rsatish.
6. Soliq riskining asosiy guruhini sanab bering.
7. Soliq nazorati tizimida potensial riskni baholashga progressiv yondashuvlarni yoriting.
8. Soliq nazoratida foydalanish maqsadida risklarni baholash tizimida faoliyat yuritish tartibi nimalardan iborat.

VI BOB. SOLIQ MUNOSABATLARIDA SOLIQ INTIZOMI MUAMMOLARINI BARTARAF ETISH YO‘LLARI

12-MAVZU. SOLIQ MADANIYATINI OSHIRISH MASALALARI

1. Soliq madaniyatini oshirish maqsadida soliq to‘lovchilar bilan ishlashni tashkil etish

2. Soliq madaniyatini shakllantirishda axborot-tushuntirish ishlarining ahamiyati

1. Soliq madaniyatini oshirish maqsadida soliq to‘lovchilar bilan ishlashni tashkil etish

Aholining soliq madaniyatini oshirishning ahamiyati tobora ortib borayotgani yanada yangi va zamonaviy yondashuvlarni talab qilmoqda. Soliqlar mavzusi ko‘tarilganda soliq to‘lovchilarda vaqti-vaqti bilan paydo bo‘ladigan axborot «bo‘shlig‘i»ni to‘ldirishdagi axborot-tushuntirish ishlari soliq organlarining yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, birinchi navbatda, ularga soliqlar, yig‘imlar va majburiy to‘lovlarni o‘z vaqtida va to‘liq to‘lash haqida ma’lumot berish muhim hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda soliq to‘lashdan bo‘yin tovlash keng tarqalgan. Bu bir qancha sabablarga bog‘liq: axloqiy, siyosiy, iqtisodiy, texnik. Shuningdek, beshinchi sababni alohida ajratib ko‘rsatishimiz mumkin, bu aholi o‘rtasida soliq madaniyatining yo‘qligidir. Soliq madaniyati deganda soliq va yig‘imlarning qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda byudjetga o‘z vaqtida to‘lanishi tushuntirish kerak. Soliq intizomi soliq madaniyatining muhim elementi hisoblanadi. Bu soliq to‘lovchilarning soliq majburiyatlarini bajarish bo‘yicha o‘zaro hamkorlikda ma’naviy, moliyaviy qobiliyatlarini va byudjetga to‘lov qobiliyatini tizimli ravishda o‘qitish, rivojlantirish va nazorat qilishdir. Soliq savodxonligini qanday oshirish mumkin?

Soliq madaniyati tushunchasi ham soliq to‘lovchilar, ham inspektorlar faoliyatini o‘z ichiga oladi. Madaniyatni oshirish to‘lovchilar kontingenti, qonunchilik bazasi va soliq organlari xodimlari bilan ishlash bilan bog‘liq. Soliq organlari xodimlari to‘lovchi bilan munosabatlarni mohirona o‘rnatishi, soliqlarni o‘z vaqtida to‘lash bo‘yicha maslahat berishi va nazorat qilishi kerak.

Ma’lumki, mamlakatimizda soliq madaniyati nihoyatda past darajada. Turli tashkilotlar tomonidan olib borilayotgan sa’y-harakatlar,

afsuski, sezilarli natija bermayapti. Aholining moliyaviy savodxonligining pastligi, huquqiy nigilizm, me'yoriy-huquqiy hujjatlarga ommaviy ravishda rioya qilmaslik davlatga tuzatib bo'lmaydigan moddiy zarar yetkazilishiga, iqtisodiy jinoyatlar sodir etilishiga sabab bo'lmoqda. Shu munosabat bilan barcha joylarda soliq qonunchiligini tushuntirish, targ'ib qilish, aholining huquqiy madaniyatini yuksaltirish targ'ibotini yo'lga qo'yish zarur. Bu ish aholining turli qatlamlarini qamrab olgan holda, yuqori soliq madaniyatiga ega aholini tarbiyalash yo'nalishida tizimli, maqsadli va tabaqalashtirilgan holda amalga oshirilishi kerak[30]. Axborotlash muammosi nafaqat nazorat qiluvchi organlar, balki soliq to'lovchilar uchun ham muhimdir. Axborot- tushuntirish ishlari – bu nafaqat soliq to'lovchilarning muammolarini hal qilish imkonini beruvchi, balki soliq organlarining o'z faoliyatini tashkil etishga ham hissa qo'shadigan qayta aloqa vositasidir[31].

2. Soliq madaniyatini shakllantirishda axborot-tushuntirish ishlarining ahamiyati

Soliq to'lovchilar bilan zamonaviy texnik vositalardan foydalangan holda axborot-tushuntirish ishlarining ilg'or shakllari va usullarini joriy etish vazifasi doirasida quyidagi tadbirlarni amalga oshirish zarur:

1) aholi oldida davlatning ijobiy imidjini shakllantirish, ya'ni, qonunlar, farmonlar va davlatning boshqa harakatlari odamlarda yolg'on umidlarga va keyinchalik esa umidsizlikka olib kelmasligi kerak.

2) soliq to'lovchilarga, ayniqsa, qishloq joylarda yashovchilarga maslahat xizmatlari ko'rsatish konsepsiyasini ishlab chiqish.

3) soliq to'lovchilarga masofaviy maslahatlar berish uchun mo'ljallangan telefon ma'lumotnoma xizmatini tashkil etish.

4) qo'ng'iroqlarni kechayu-kunduz qabul qiladigan «ishonch telefoni» orqali soliq to'lovchilar bilan muloqotni tashkil etish.

5) telekanallardan birida soliqqa tortish masalalari bo'yicha o'quv-axborot dasturi yaratish. Ommaviy axborot vositalarida qonunga itoatkor soliq to'lovchilarni tarbiyalash ishlarini, iqtisodiy jinoyatlar va

---

[30] Кузнецов АЛ. Налоговая проблему очередей в инспекциях, облегчит работу сотрудников органов и повысит органы: реальное состояние, проблемы, перспективы [Электрон. ресурс]. — Электрон. Режим доступа: http://vasilievaa.narod. ru/zhurnal/2.97-8.htm.

[31] Ногина ОА Налоговый — календарь налогоплательщика; контроль:/ ОА Ногина. — СПб.: Питер, 2017. – С. 260.

huquqbuzarliklarning oldini olish maqsadida targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishi kerak. Odamlar ongida vijdonsiz soliq to‘lovchilarga nisbatan salbiy munosabatni shakllantirish kerak.

Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, ularning eng samarali ta’siri soliq jinoyatlariga qarshi kurash bo‘yicha mutaxassislar ishtirokida bevosita tayyorlangan teledasturlardir. Jurnalistlarning ushbu mazkur muammoga qiziqishini saqlab qolish uchun soliqlar mavzusida jurnalistlar uchun professional tanlovlar o‘tkazish mumkin. Ushbu musobaqaning maqsadlari quyidagilardan iborat bo‘lishi mumkin:

- soliq qonunchiligiga va uni qo‘llash amaliyotiga hurmat bilan munosabatda bo‘lishni shakllantirish, soliqlarga nisbatan huquqiy nigilizm va skeptitsizm faktlarini bartaraf etish;
- soliqlarni o‘z vaqtida va to‘liq to‘lash masalalarida aholining faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishga ko‘maklashish, qonun ustuvorligi va soliq qonunchiligini mustahkamlash zarurligi to‘g‘risida jamoatchilik fikrini shakllantirish;
- soliq organlarining qonun hujjatlariga rioya etilishini nazorat qilish va turli darajadagi byudjetlarga to‘lovlar tushumini ta’minlash sohasidagi faoliyatini holis, ishonchli aks ettirish;
- soliq to‘lovchilarga qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik muqarrarligini, audit, to‘lov-hisob-kitob hujjatlari, deklaratsiyalar va boshqa moliyaviy majburiyatlardan foydalanishning qulayliklari va afzalliklarini tushuntirish.

Aksariyat jurnalistlar uchun ushbu mavzuni muhokama qilish qiyinchilik tug‘dirganligi sababli, soliq xizmati malakali xodimlarining yordami bu holda zarur;

- maktab skameykalaridan boshlab soliq asosini o‘rganish.
- soliq organlarining aholining soliq madaniyatini oshirishga qaratilgan axborot-tushuntirish ishlari kompleksini kengaytirish: soliq to‘lovchilar uchun turli ko‘rinishdagi seminar va treninglar o‘tkazish.
- soliq organlari, Ichki ishlar vazirligi, bojxona xizmati mutaxassislarini jalb qilgan holda matbuot anjumanlari va «davra suhbatlari» tashkil etish.
- maktab o‘quv kursini soliq tarixi, soliqlar va qonunchilik, to‘lovchilarning asosiy huquq va majburiyatlari, soliq organlarining vakolatlari va soliq jinoyatlari haqidagi fan bilan to‘ldirish.

Ko‘rinib turibdiki, maktab o‘quvchilarini bu ma’lumotlar bilan erta tanishtirish kelgusida aholining soliq madaniyati darajasini sezilarli darajada oshiradi. Fikrimizcha, ko‘p bosqichli ta’lim tizimining barcha o‘quv dasturlari soliq madaniyati elementlarini o‘z ichiga olishi kerak.

- soliq tizimining shakllanishi va rivojlanishi tarixi ko‘rsatilgan soliqlar tarixi muzeylarini ochish.
- soliq organlari xodimlariga uchastka inspektorlari ishini takomillashtirish. Bu nazorat qilinadigan hudud haqida ma’lumot olish imkonini beradi.

Tegishli malakaga ega bo‘lgan holda, uchastka soliq inspektorlari:

- nazorat qilinadigan hududda soliq to‘lovchilarning aniq joylashuvini aniqlash;
- to‘lovchilar tomonidan mulk, yer uchastkalari, garajlar mavjudligi;
- tegishli hujjatlarsiz yoki boshqa daromadlarga ega bo‘lgan tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanayotgan fuqarolarni aniqlash;
- soliq to‘lovchilar faoliyati to‘g‘risidagi dolzarb ma’lumotlarga ega bo‘lish (saqlash joylarining mavjudligi, tovarlarning yirik partiyalarini yetkazib berishda tegishli hujjatlarni tekshirish va boshqalar).

Uchastka inspektorlari doimiy ravishda aholi o‘rtasida bo‘lib, profilaktika va targ‘ibot ishlarini olib borishi soliq qarzlarning qisqarishiga va byudjet daromadlarining oshishiga olib keladi.

Shunday qilib, soliq to‘lovchilarga axborot-tushuntirish xizmatlarini ko‘rsatish konsepsiyasini ishlab chiqish hozirda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, soliq madaniyatining yuqori darajasiga yetgandagina soliq intizomiga rioya qilish, soliq to‘lashdan bo‘yin tovlashni kamaytirish va byudjet daromadlarini oshirishga erishish mumkin bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti rivojlanishining hozirgi bosqichidagi asosiy muammo mamlakat aholisining soliq savodxonligi va madaniyatini shakllantirish hisoblanadi. Bugungi kunda soliq madaniyati darajasi past darajada, bu fuqarolarning o‘z huquqlari to‘g‘risida xabardor emasligi bilan tavsiflanadi, masalan, barcha soliq to‘lovchilar ham ba’zi bir imtiyozlarni olish huquqiga ega ekanligini bilishmaydi.

Amerikalik sotsiolog, Garvard universiteti professori Jorj Xomans nazariyasiga ko‘ra: «Soliq madaniyati bir tomondan soliq va soliq jarayonida ishtirok etuvchi boshqa organlarning, ikkinchi tomondan soliq to‘lovchilarning faoliyati almashinuvining mahsulidir»[32].

Shunday qilib, o‘zaro munosabatlarni shakllantirishga qaratilgan davlat manfaatlari va soliq to‘lovchilar manfaatlarining uyg‘unligi soliq madaniyatining mustahkam poydevorini tashkil etadi.

Soliq madaniyati mamlakat milliy madaniyatining bir qismi bo‘lib, soliq tizimida davlat va fuqarolarning o‘zaro munosabatlari bilan chambarchas bog‘liqdir. U quyidagilarni shakllantiradi:

- soliq sohasidagi o‘zaro munosabatlar ishtirokchilarining soliq tizimini, soliqlar va yig‘imlar to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini bilish va ularga rioya qilish;
- byudjet oldidagi majburiyatlarning to‘liq va o‘z vaqtida bajarilishi, ya’ni, soliq va yig‘imlarni o‘z vaqtida hisoblab chiqarish va davlat byudjetiga to‘liq o‘tkazish;
- soliq va yig‘imlarni hisoblash usullari.

Soliq savodxonligi va madaniyatining asosiy elementi soliq intizomi bo‘lib, u soliq to‘lovchilarning ma’naviy va moliyaviy qobiliyatlari va imkoniyatlarini tizimli ravishda o‘qitish, rivojlantirish va nazorat qilishdan iborat[33].

Soliq to‘lovchilar tomonidan O‘zbekiston Respublikasining amaldagi soliq tizimidagi deviant xatti-harakatlarining sabablarini soliq intizomida namoyon bo‘lishini ko‘rib chiqamiz. Bu savolga javob esa, jamiyatning soliq madaniyatining pastligi, jismoniy va yuridik shaxslarning soliq tizimiga nisbatan ishonchsizligi, soliq to‘lashdan bo‘yin tovlash istagi balandligi olimlar tomonidan e’tirof etilmoqda.

Bunday xulosalar daromadlarni yashirish va ulardan soliqlarni o‘z vaqtida to‘lamaslik bilan bog‘liq huquqbuzarliklar va jinoyatlar o‘sishining statistik tahlili hamda ko‘plab sotsiologik tadqiqotlar natijasida olingan.

Ko‘p miqdorda soliq to‘lashdan bo‘yin tovlashning asosiy sabablari:

- beqaror soliq qonunchiligi;
- mamlakat aholisini xabardor qilish, maslahat berish tizimining yetarli emasligi;

---

[32] Касимов Д.О. Институциональные основы формирования и развития налоговой культуры: Дис. ... канд. экон. наук: 08.00.10: утв. 13.06.12. – М., 2016. – 168 с.

[33] Морозова Г.В. Повышение налоговой культуры населения как способ борьбы с налоговыми правонарушениями // Российское предпринимательство. – 2017. – №3-2 (131). – С. 118-1.

- fuqarolar tomonidan soliq organlariga nisbatan ishonchsizlik;
- soliq munosabatlari subyektlari o‘rtasidagi o‘zaro ijtimoiy javobgarlik muammosi[34].

Shuni e’tiborga olish kerakki, soliqlar va yig‘imlar to‘g‘risidagi qonunchilikning buzilishi davlat byudjetiga, byudjetdan tashqari jamg‘armalarga soliq to‘lovlarining sezilarli darajada kamayib ketishiga, bu esa nafaqat mamlakat iqtisodiyotining yomonlashuviga, balki jamiyatning yanada sekin rivojlanishiga va buning natijasida byudjet daromadlari kamomadining shakllanishiga olib keladi.

Soliq va byudjet sohasidagi qonunchilikning jiddiy haddan tashqari oshirib yuborishning real faktlarini (xizmatlar narxi va olingan davlat mahsulotining haqiqiy hajmi o‘rtasidagi nomuvofiqlik) inkor etib bo‘lmaydi. Bular soliq munosabatlariga subyektiv, yuqori tuzilmaviy omillarning katta ta’siri, davlatning soliqqa tortish va jamoat tovarlari bilan ta’minlash sohasidagi monopoliyasi bilan bog‘liq xarajatlardir[35].

Soliq madaniyatining past darajasi, soliq tushumlarining tushushi mumkin bo‘lgan miqdori va ularning haqiqiy tushgan miqdori o‘rtasidagi tafovut ma’lum darajada soliq savodxonligining etarli emasligi bilan bog‘liq.

Soliq huquqiy munosabatlari ishtirokchilarining soliq savodxonligi va madaniyatini oshirish usullarini tahlil qilar ekanmiz, shuni ta’kidlash kerakki, soliqlar va yig‘imlar sohasidagi qonunchilikni takomillashtirish birinchi, ammo eng qiyin bo‘lmagan qadamdir. Ushbu yo‘nalishni amalga oshirish quyidagi chora-tadbirlarni qo‘llash orqali amalga oshiriladi:

1. Davlatning ijobiy imidjini shakllantirish. Bu qadamning asosiy g‘oyasi shundan iboratki, davlatning turli harakatlari, masalan, qonunlar, farmonlar va boshqalar aholi o‘rtasida noto‘g‘ri, chalkash fikrlarni shakllantirmasligi uchun har qanday me’yoriy-huquqiy hujjatlarni imzolash, kuchga kiritishda uni batafsil tushuntirish va talqin qilish kerak. Hozirgi vaqtda soliq qonunchiligi o‘zining murakkabligi

---

[34] Налоговая культура – важный элемент сильной системы налогообложения // Молодежный научный форум: Общественные и экономические науки: Электр. сб. ст. по материалам V студ. междунар. заочной науч.-практ. конф. – М.: МЦНО, 2018 – №5 (5) [Электронный ресурс]. – Режим доступа: http://nauchforum.ru/archive/MNF_ social/5(5).pdf

[35] Налоговая культура – важный элемент сильной системы налогообложения // Молодежный научный форум: Общественные и экономические науки: Электр. сб. ст. по материалам V студ. междунар. заочной науч.-практ. конф. – М.: МЦНО, 2018 – №5 (5) [Электронный ресурс]. – Режим доступа: http://nauchforum.ru/archive/MNF_social/5(5).pdf

va noaniqligi tufayli hamma uchun va hamma vaqt ham tushunarli emas, shuning uchun qonun chiqaruvchilar turli huquqiy hujjatlarni chuqur tushuntirishga ko‘proq e’tibor berishlari kerak. Barcha soliq to‘lovchilar soliq qonunchiligi to‘g‘risida to‘liq va xolis axborot olishdan manfaatdor. Ko‘pgina nizolar faqat soliq qonunchiligining ayrim normalarini soliq organlariga qaraganda boshqacha tushunganligi sababli yuzaga keladi. Boshqa tomondan, soliq to‘lovchilarning ko‘pchiligi qonunga itoatkor bo‘lsagina soliq organlarining faoliyati haqiqatan ham samarali bo‘lishi mumkin.

2. Mamlakatning asosiy telekanallaridan birida soliqqa tortish masalalari bo‘yicha o‘quv-axborot ko‘rsatuvini yaratish. Ya’ni, ommaviy axborot vositalari jamiyatda vijdonsiz soliq to‘lovchilarga nisbatan salbiy munosabatni shakllantirishi kerak[36].

Eng qiyini – soliq to‘lovchilarning soliq madaniyatini tarbiyalash, uning asosi soliq qonunchiligiga ixtiyoriy rioya qilishdir. Soliq madaniyati fuqarolarning davlat va jamiyat uchun soliq to‘lash muhimligini tushunish (siyosiy madaniyatning bir qismi sifatida) va ularni to‘lash bo‘yicha o‘z huquq va majburiyatlarini bilishi (huquqiy madaniyatning bir qismi sifatida) bo‘lib, aslida ular birgalikda soliq madaniyatini tashkil etadi.

Respondentlarning soliq qonunchiligi sohasidagi bilim darajasini baholash bo‘yicha sotsiologik so‘rov quyidagi natijalarini ko‘rsatdi[37]:

- 60%i xabardorlik darajasini o‘rtacha deb hisoblaydi;
- 30% – past;
- 10% – juda past.

Taqdim etilgan ma’lumotlarga ko‘ra, soliq to‘lovchilarga yuqori darajadagi axborot-tushuntirish xizmatlarini ko‘rsatish alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu yo‘nalishni amalga oshirish quyidagi chora-tadbirlarni qo‘llash orqali amalga oshiriladi:

1) soliq to‘lovchilar uchun seminarlar va treninglar o‘tkazish. Shuningdek, bunday tadbirlar aholi uchun ixtiyoriy va bepul bo‘lishi kerak. Bular shubhasiz aholining soliq savodxonligi va madaniyatining tabiiy o‘sishiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi, ammo uni amalga oshirish uchun qo‘shimcha mablag‘ va vaqt talab etiladi;

---

[36] Все о праве [Электронный ресурс]. Режим доступа: http://www.allpravo.ru/diploma/doc45p0/instrum2717/

[37] Аникиец С.Г. Налоговая культура российских граждан [Электронный ресурс]. – Режим доступа: http://law. edu.ru/doc/document.asp?docID=1225484

2) O‘zbekiston Respublikasining barcha hududlarida to‘lovchilar bilan ishlash uchun ixtisoslashtirilgan zallarning ochilishi inspektorlar bilan aloqalarni imkon qadar shaffof va qulay qiladi. Bu soliq to‘lovchilarning navbatlarda kutib qolish muammosini hal etish bilan birga, soliq idoralari xodimlarining mehnatini engillashtirish, soliq to‘lovchilarga xizmat ko‘rsatish sifati va madaniyatini oshirish imkonini beradi.

3) qishloq joylarda soliq to‘lovchilar uchun maslahat xizmatlarini ochish;

4) maktab o‘quv dasturiga soliq qonunchiligini, soliq to‘lovchilarning asosiy huquq va majburiyatlarini, soliq organlarining vakolatlari kabilarni o‘z ichiga olgan qo‘shimcha kursni kiritish, ya’ni, moliyaviy savodxonlik platformasini yaratish. Soliq madaniyatini shakllantirish, ayniqsa, o‘smirlik davrida, ya’ni, shaxsning jadal ijtimoiy kamolotga yetishi davrida muhim ahamiyatga ega;

5) soliq organlarida normativ-huquqiy hujjatlarga kiritilgan so‘nggi o‘zgarishlar, hisobot berish tartibi, soliq to‘lovchilar taqvimi va boshqalar to‘g‘risidagi asosiy ma’lumotlarni aks ettiruvchi axborot stendlarini joylashtirish. Ochiq ma’lumotlarning mavjudligi soliq to‘lovchilarning soliq organlariga bo‘lgan ishonchini sezilarli darajada oshirishi mumkin, bu ham soliq madaniyatining ajralmas qismi hisoblanadi.

Soliq huquqiy munosabatlari ishtirokchilarining soliq savodxonligi va madaniyatini oshirishni soliq organlari xodimlari soliq to‘lovchi – davlatning hamkori ekanligini anglab yetmasdan turib amalga oshirib bo‘lmaydi, demak, soliq to‘lovchining muammolariga hurmat bilan munosabatda bo‘lish soliq madaniyatini shakllantirishning muhim omili hisoblanadi[38].

Shuning uchun quyidagi yo‘nalishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

1. Aholining keng qatlamlarida soliq organlari faoliyatiga jadal rivojlanayotgan, istiqbolli va zarur davlat tuzilmalari sifatidagi ishonchi va iqtisodiy ahamiyatni oshirish.

2. Soliq organlari xodimlari tarkibidagi uchastka inspektorlari lavozimini takomillashtirish. Buning yordamida nazorat qilinadigan hudud haqida aniq ma’lumot olish mumkin bo‘ladi. Ya’ni, xodimning

[38] Кузнецов А.Л. Налоговая политика и налоговые органы: реальное состояние, проблемы, перспективы (региональный аспект) [Электронный ресурс]. – Режим доступа: http://vasilievaa.narod.ru/zhumal/2.97-8.htm

o‘zi nazorat qiladigan hududdagi faoliyati soliq to‘lovchilarning aniq manzilini aniqlashdan iborat bo‘lib, to‘lovchilarning soliqqa tortiladigan mol-mulki mavjudligini aniqlash, noqonuniy tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi yoki boshqa daromadlarga ega bo‘lgan fuqarolarni aniqlash hamda noqonuniy tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanishga yo‘l qo‘ymaslik mumkin bo‘ladi. Bundan tashqari, uchastka inspektorining faoliyati profilaktika va tashviqot ishlarini olib borishdan iborat bo‘lib, natijada qarzdorlik kamayib, byudjet daromadlari ko‘payishiga olib keladi[39].

Shunday qilib, soliq to‘lovchilarga xizmat ko‘rsatishni takomillashtirish, fuqarolarning soliq organlariga yozma va og‘zaki murojaatlariga tezkor va malakali tushuntirish berish, soliq to‘lovchilarda soliq xizmatini nafaqat butun jamiyat manfaatlarini ko‘zlab ish yurituvchi davlat organi sifatida emas, balki ular bilan hamkorlikda ishlayotgan har bir fuqaro manfaatlarini ko‘zlab ish yurituvchi sifatidagi qarashlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Shundagina soliq ma’murlari va soliq to‘lovchilar o‘rtasida ishonchli munosabatlar rivojlanishi mumkin.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, soliq huquqiy munosabatlari ishtirokchilarining savodxonligi va madaniyatini shakllantirish uchun soliq organlari, soliq to‘lovchilar, soliq maslahatchilari o‘rtasidagi munosabatlarning biryoqlama xarakteridan voz kechish va soliq huquqiy munosabatlari ishtirokchilari o‘rtasida tsivilizatsiyalashgan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish muhim hisoblanadi. Faqatgina hamkorlik orqali soliq tizimining samarali ishlashini ta’minlash mumkin.

Shuningdek, barcha joylarda soliq qonunchiligini axborotlashtirish, targ‘ib qilish, aholining huquqiy madaniyatini yuksaltirish targ‘ibotini yo‘lga qo‘yish zarur. Fuqarolarni yuksak soliq madaniyatini tarbiyalash yo‘nalishidagi bu ish aholining turli qatlamlarini hisobga olgan holda, tizimli, maqsadli va tabaqalashtirilgan holda olib borilishi kerak.

Shunday qilib, soliq to‘lovchilarga axborot-tushuntirish xizmatlarini ko‘rsatish konsepsiyasini ishlab chiqish hozirda muhim ahamiyatga ega, chunki soliq madaniyatining yuqori darajasi bilangina soliq intizomiga rioya qilish, soliq to‘lashdan bo‘yin tovlashni kamaytirish va byudjet daromadlarini oshirish mumkin bo‘ladi.

---

[39] Ногина О.А. Налоговый контроль: вопросы теории / О.А. Ногина. – СПб.: Питер, 2017. – 260 с.

Mavzu bo‘yicha savollar

1. Mamlakatda qulay soliq muhitini yaratish, soliq madaniyatini oshirishning zarurati nimada?
2. Soliq madaniyatini oshirish maqsadida soliq to‘lovchilar bilan ishlashni qanday tashkil etish kerak?
3. Soliq madaniyatini shakllantirishda axborot-tushuntirish ishlarining ahamiyati qanday?
4. Soliq savodxonligi va madaniyatining asosiy elementi nimadan iborat?
5. Soliq madaniyatini oshirishda soliq to‘lovchilarga axborot-tushuntirish xizmatlarini ko‘rsatish ahamiyati qanday?
6. Soliq madaniyatini oshirishda ochiq ma’lumotlarning poli qanday?
7. Soliq madaniyatini shakllantirishda qanday yo‘nalishlarda ishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi?
8. Soliq huquqiy munosabatlari ishtirokchilarining savodxonligi va madaniyatini shakllantirishda sivilizatsiyalashgan hamkorlikni roli qanday?

13-MAVZU. DAVLAT SOLIQ XIZMATI ORGANI XODIMLARINING XULQ-ATVORI, MUOMALA MADANIYATI

1. Davlat soliq xizmati organi xodimlarining xizmatdagi xulq-atvor qoidalari

2. Davlat soliq xizmati organlari xodimlarining soliq to‘lovchilar bilan muomala madaniyati

3. Davlat soliq xizmati organlarida manfaatlar to‘qnashuvi

4. Soliq xizmati organi xodimlari o‘rtasida huquqbuzarlik profilaktikasi

1. Davlat soliq xizmati organi xodimlarining xizmatdagi xulq-atvor qoidalari

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 17-apreldagi 320-son qarori bilan tasdiqlangan «O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi to‘g‘risida»gi Nizomda nazarda tutilgan Davlat Soliq Qo‘mitasining kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo‘yish, davlat soliq xizmati organlarini yuksak ma’naviy-axloqiy sifatlarga ega bo‘lgan malakali xodimlar bilan to‘ldirish, shuningdek, kadrlarni kasbga tayyorlash va qayta tayyorlash bo‘yicha tizimli ishlarni amalga oshirish sohasidagi asosiy funksiyalari quyidagilardan iborat hisoblanadi:

- qo‘yilgan talablarga muvofiq davlat soliq xizmati organlariga ma’naviy- axloqiy jihatdan yuqori malakali xodimlarni tanlash va to‘ldirish bo‘yicha ishlarni tashkil etish;
- belgilangan tartibda ta’lim muassasalari tashkil etish yo‘li bilan, davlat oliy ta’lim muassasalari imkoniyatlaridan foydalangan holda davlat soliq xizmati organlari kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish ishlarining tizimli ravishda tashkil etilishini ta’minlash, shuningdek, rivojlangan xorijiy mamlakatlarning soliq organlari va o‘quv muassasalari bilan tajriba almashishning kengaytirilishini amalga oshirish;
- davlat soliq xizmati organlari xodimlari lavozimlarining malaka tavsifnomalarini ishlab chiqish, rahbarlar va mutaxassislarni attestatsiyadan o‘tkazish, ularga o‘z vakolatlari doirasida maxsus unvonlar berish;
- tegishli tanlovdan o‘tmagan yoki lavozim vazifalarini jiddiy buzganligi uchun ilgari davlat soliq xizmati organlaridan

bo‘shatilgan shaxslarning ishga qabul qilinishiga yo‘l qo‘ymaslik yuzasidan nazoratni ta’minlash;

- davlat soliq xizmati organlari kadrlarini tayyorlash bo‘yicha xizmat ko‘rsatishga yo‘naltirilgan tizimni joriy etish, soliq to‘lovchilar bilan nizoli vaziyatlar yuzaga kelganda ularga stressga bardoshlilikni singdirish, shuningdek, xodimlarning axloqiy – psixologik holatini oshirish bo‘yicha psixologik treninglarni joriy qilish.

Davlat soliq xizmati organlari xodimlariga korporativ etikani singdirish, korrupsiya faktlariga keskin barham berish bo‘yicha ta’sirchan choralarni, shu jumladan xodimlar manfaatlarining to‘qnashuvini hal qilish yo‘li bilan amalga oshirish, ishga rasmiyatchilik bilan yondashishga barham berish, shuningdek, xodimlar o‘rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini ta’minlash, o‘z xizmat faoliyati samaradorligini oshirish motivatsiyasi tizimini joriy etish va ular uchun xizmatni o‘tashning munosib shart-sharoitlarini yaratish sohasida esa:

- kadrlarni O‘zbekiston Respublikasiga sodiqlik, vatanparvarlik, halollik hamda huquqiy davlat g‘oyalari va asoslarini hurmat qilish ruhida tarbiyalash yuzasidan uzluksiz ishlarni amalga oshirish;
- davlat soliq xizmati organlari xodimlari tomonidan soliq to‘lovchilarga nisbatan g‘arazli maqsadlarda noqonuniy ta’sir ko‘rsatish holatlarini aniqlash va ularga barham berish;
- davlat soliq xizmati organlarida korrupsiya holatlarini aniqlashga, ularning oldini olishga, qarshi kurashishga va bartaraf etishga yo‘naltirilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish, tashkil etish va ularni amalga oshirishda qatnashish;
- davlat soliq xizmati organlarining xodimlari o‘rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasi bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish;
- xizmat vazifalarini bajarayotganda davlat soliq xizmati organlari xodimlarini noqonuniy tajovuzlardan himoya qilishni ta’minlash yuzasidan chora-tadbirlar kompleksini ishlab chiqish va amalga oshirish;
- har ikki yilda ko‘pi bilan bir marta davlat soliq xizmatining hududiy organlari hamda Hududlararo inspeksiyaning byudjet va xo‘jalik faoliyati bo‘yicha xarajatlar smetalari ijrosi

yuzasidan taftishni amalga oshiradi. Juda zarur bo‘lganda va moliya- xo‘jalik faoliyatida qonun buzilishlariga yo‘l qo‘yilgan holatlar to‘g‘risida ishonchli axborot mavjud bo‘lgan taqdirda navbatdan tashqari taftishlar o‘tkazilishi mumkin;

- davlat soliq xizmatining hududiy organlari hamda Hududlararo inspeksiya tomonidan moddiy va pul resurslaridan oqilona foydalanish chora-tadbirlari bajarilishini ta’minlaydi, xo‘jasizlik, isrofgarchilik, davlat mablag‘larini va byudjetdan tashqari mablag‘larni asossiz ravishda sarflash, smeta-shtat intizomini buzish hollariga barham beradi;
- mamlakat iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish borasida vijdonan xizmat qilayotgan xodimlarni ularning shaxsiy hissasidan kelib chiqqan holda rag‘batlantirish mexanizmlarini yaratadi[40].

Mamlakatimizda xodimlarning huquq va manfaatlarini himoya qiluvchi bir qator qonun hujjatlari qabul qilingan bo‘lib, unga asosan odob-axloq qoidalari ishlab chiqilgan. Odob-axloq qoidalarining o‘rnatilishi yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarga ega, jamiyat, davlat va oila oldida o‘z mas’uliyatini his etadigan, vatanparvar va insonparvar, zamonaviy bilimlar bilan qurollangan irodasi baquvvat, iymoni butun va vijdoni pok mutaxassis xodimlar tomonidan o‘z vazifalarini bajarishida majburiy bo‘lgan xulq-atvorning ma’naviy hamda axloqiy prinsiplarini samarali qo‘llashga zamin yaratadi.

«Davlat soliq xizmati organi xodimlarining odob-axloq qoidalari» Davlat Soliq Qo‘mitasining 2016-yil 15-apreldagi 155-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlanib, uning talab va qoidalariga Davlat soliq xizmati organi xodimlari tomonidan rioya etilishi shart hisoblanadi. Davlat soliq xizmati organi xodimi tomonidan Odob-axloq qoidalarining buzilishi uni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgarlikka tortish uchun asos bo‘lishi mumkin. Odob-axloq qoidalarida Davlat soliq xizmati organlarining barcha pog‘onadagi rahbarlari qo‘l ostidagi shaxsiy tarkibning mehnat faoliyatidagi intizomi va odob-axloq uchun bevosita mas’ul ekanliklari belgilab qo‘yilgan.

Davlat soliq xizmati organi xodimi tomonidan odob-axloq qoidalariga rioya etilishi attestatsiyalar o‘tkazishda, yuqori va boshqa

[40] Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 17-apreldagi 320-son qaroriga « O`zbekiston Respublikasi Davlat Soliq Qo`mitasi to`g`risida»gi Nizom.

lavozimlarga tayinlash uchun kadrlar zaxirasini shakllantirishda hisobga olinadi. Davlat soliq xizmati organlari xodimlarining odob-axloq qoidalari – egallab turgan lavozimlaridan qat'iy nazar har bir xodimning kasbiy odob-axloqinining umumiy prinsiplari va xizmatdagi xulq-atvorining asosiy qoidalari yig'indisi hisoblanadi.

Mazkur qoidalarga rioya etilishi xodimning kasbiy faoliyatini va xizmatdagi xulq-atvorini baholash mezonlaridan biri hisoblanadi.

Odob-axloq qoidalariga so'zsiz rioya etilishi vujudga kelishi mumkin bo'lgan huquqbuzarliklarning oldini olish hamda jamiyatda turli xil jinoyatlar, ayniqsa korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatni shakllantirishga xizmat qiladi.

Davlat soliq xizmati organi xodimlari o'z kasbiy faoliyatini quyidagi prinsiplar asosida amalga oshirishlari kerak:

- qonuniylik;
- fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi;
- vatanparvarlik va xizmat burchiga fidoyilik; davlat va jamiyat manfaatlariga sodiqlik; adolatlilik, halollik va xolislik;
- manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik.

Davlat soliq xizmati organlari xodimlari o'z xizmat vazifalarini bajarishda quyidagilarga majbur:

- xizmat vazifalarini bajarishda davlat prinsiplari va talablariga qat'iy rioya etish;
- o'z xizmat vazifalarini vijdonan, yuksak kasbiy darajada bajarish;
- yuqori davlat organlari va mansabdor shaxslarning o'z vakolatlari doirasida qabul qilgan (bergan) qarorlarini (topshiriqlarini) o'z vaqtida va sifatli bajarish;
- o'z faoliyatini qonun hujjatlarida va ichki hujjatlarida belgilangan lavozim vakolatlari doirasida amalga oshirish;
- o'z xizmat vazifalarini bajarishda biror-bir shaxslar, guruhlar yoki tashkilotlarga yon bosmaslik va ustunlik bermaslik, ularning ta'siridan mustaqil bo'lish, fuqarolarning huquqlari, majburiyatlari va qonuniy manfaatlarini hisobga olish, kamsitish holatlariga yo'l qo'ymaslik;
- o'z xizmat vazifalarini bajarishiga to'sqinlik qiluvchi biror-bir shaxsiy, mulkiy va boshqa manfaatlarning ta'siri bilan bog'liq bo'lgan xatti-harakatlarga barham berish;

- normativ-huquqiy hujjat va idoraviy hujjatlarda belgilangan cheklashlar va taqiqlarga rioya qilish, o‘z xizmat vazifalarini og‘ishmay bajarish;
- o‘z xizmat faoliyatiga biror-bir ta’sir ko‘rsatish imkoniyatiga barham berish;
- O‘zbekiston Respublikasi va boshqa davlatlar xalqlarining urf-odatlari va an’analarini hurmat qilish, turli etnik, ijtimoiy guruhlar va konfessiyalarning madaniy hamda boshqa xususiyatlarini hisobga olish, ijtimoiy barqarorlikka, millatlararo va konfessiyalararo totuvlikka ko‘maklashish;
- o‘zlarining xizmat vazifalarini vijdonan bajarishda shubha paydo qilishi mumkin bo‘lgan xulq-atvordan o‘zini tiyish, shuningdek, o‘z obro‘siga yoki davlat soliq xizmati organlarining nufuziga zarar yetkazishga qodir bo‘lgan vaziyatlarga yo‘l qo‘ymaslik;
- xizmat mavqeyidan davlat soliq xizmati organlari, boshqa tashkilotlar, ularning mansabdor shaxslari, shuningdek, fuqarolar faoliyatiga noqonuniy ta’sir ko‘rsatish uchun foydalanmaslik;
- davlat soliq xizmati organida xabarlarni va xizmat axborotlarini taqdim qilishning belgilangan qoidalariga rioya etish;
- Davlat obro‘sini, fuqarolarning davlat institutlariga ishonchini mustahkamlashga ko‘maklashishi, O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, soliq to‘lovchilarning qonun bilan qo‘riqlanadigan huquq va manfaatlarini hurmat qilishi, davlat manfaatlarini himoya qilishi;
- soliq haqidagi qonun hujjatlariga rioya qilinishini ta’minlashi, davlatning iqtisodiy manfaatlari va mulkiy huquqlarini himoya qilishi;
- tadbirkorlikning qonuniy faoliyatiga to‘sqinlik qilmasligi, asossiz aralashmasligi, ularning manfaatlariga zarar yetkazmasligi;
- soliq to‘lovchilar bilan bo‘lgan muloqotlarda muomala madaniyatiga qat’iy amal qilishi;
- ota-onalariga g‘amxo‘rlik qilishi, o‘z farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqishi va tarbiyalashi shart.

Davlat soliq xizmati organlari xodimlariga quyidagilar:

- O‘zbekiston Respublikasining suverenitetiga, yaxlitligiga va xavfsizligiga, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi chiquvchi, urushni, ijtimoiy, milliy, irqiy va diniy adovatni targ‘ib qiluvchi siyosiy va diniy ruxdagi partiyalarning hamda jamoat birlashmalarining tuzilishi va faoliyatida ishtirok etish;
- ish tashlashlar, siyosiy manifestatsiyalar va yurishlarni tashkil etish va ularda qatnashish;
- korxonalar, muassasalar, tashkilotlarda o‘rindoshlik bo‘yicha ishlash (ilmiy, o‘qituvchilik va ijodiy faoliyat bilan shug‘ullanish bundan mustasno);
- o‘z xizmat vazifalarini bajarganlik yoki bajarmaganlik uchun mukofotlar yoki xizmatlarni qabul qilish hamda qarindoshlari, tanishlari va boshqa shaxslar iltimosiga ko‘ra amaldagi qonun hujjatlariga rioya etmaslik;
- qimor o‘ynash, giyohvand moddalar, shuningdek, xizmat vazifalarini bajarish chog‘ida spirtli ichimliklar iste’mol qilish;
- ish joylarida, sog‘liqni saqlash, ta’lim, sport-sog‘lomlashtirish muassasalarida, yong‘in chiqish riski bo‘lgan joylarda, shu jumladan, avtomobillarga yoqilg‘i quyish shoxobchalarida va boshqa jamoat joylarida tamaki mahsulotini iste’mol qilish, bundan tamaki mahsulotini iste’mol qilish uchun maxsus ajratilgan joylar va (yoki) xonalar mustasno;
- Respublika soliq organlari sha’niga dog‘ tushiruvchi shaxslar bilan munosabat o‘rnatish;
- soliq organlarida uchinchi shaxslar ishi bo‘yicha ishonchli vakillar yoki vakillar bo‘lish;
- moddiy-texnika va axborot bilan ta’minlash, moliya vositalaridan, davlatning boshqa mol-mulkidan, shuningdek, xizmat axborotlaridan lavozim vazifalari bilan bog‘liq bo‘lmagan maqsadlarda foydalanish;
- soliq to‘lovchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini kafolatlovchi qonun hujjatlariga rioya etmaslik hamda ularning qonuniy faoliyatiga to‘sqinlik qilish va aralashish;
- o‘ziga qonun bilan berilgan vakolatlar doirasidan chetga chiqadigan harakatlarni sodir etish;
- o‘z vazifalariga loqaydlik yoki vijdonsizlarcha munosabatda bo‘lish, ularni bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmaslik;

- xizmat vazifasi yuzasidan bajarishi shart va mumkin bo‘lgan harakatlarni qasddan bajarmaslik;
- g‘arazgo‘ylik yoki boshqa manfaatlarni ko‘zlab, rasmiy hujjatlarga bila turib, soxta ma’lumotlar va yozuvlar kiritish, hujjatlarni qalbakilashtirish yoki bila turib, soxta hujjatlar tuzish va taqdim etish taqiqlanadi.

Davlat soliq xizmati organlari xodimlari korrupsiya holatlariga qarshi kurashishi va ularning profilaktikasiga faol ko‘maklashishi shart.

Davlat soliq xizmati organlari xodimlari o‘z rahbarini yoxud huquqni muhofaza qilish organlarini ularni huquqbuzarliklar sodir etishga og‘dirish maqsadida biror-bir shaxslarning qilgan murojaatlarining barcha holatlari to‘g‘risida, shuningdek, boshqa davlat xizmatchilari tomonidan sodir etilgan huquqbuzarliklarning o‘zlariga ma’lum bo‘lgan har qanday holatlari haqida xabardor qilishi shart.

Davlat soliq xizmati organlari rahbarlari shaxslar qonunchilikning buzilishi faktlari to‘g‘risida murojaat qilganligi munosabati bilan yoxud bildirilgan fikr va murojaatdagi tanqidi uchun, shuningdek, boshqacha shaklda tanqid qilganligi uchun ishdan bo‘shatilishiga yoki boshqacha shaklda ta’qib qilinishiga yo‘l qo‘ymasligini ta’minlashi kerak.

Davlat soliq xizmati organlari xodimlari kasbiy faoliyati davomida o‘zlariga ma’lum bo‘lgan axborotning saqlanishini va maxfiyligini ta’minlash yuzasidan barcha choralarni ko‘rishlari shart, ularning oshkor etilganligi uchun ular qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradilar.

Rahbar o‘ziga bo‘ysunuvchi xodimlarga nisbatan yuqori professionalizm, soflik va adolatda o‘rnak bo‘lishi, davlat organida yoxud uning tarkibiy yoki hududiy bo‘linmasida ma’naviy-psixologik muhit shakllanishiga ko‘maklashishi lozim, u bo‘ysunuvchi xodimlardan ularning xizmat vazifalari doirasidan chiqib ketadigan topshiriqlarni bajarishini talab qilmasligi, shuningdek, qonunga xilof xatti-harakatlarni sodir etishga undamasligi kerak.

Rahbar kadrlarni qarindoshlik, hamshaharlik yoki shaxsiy sadoqat belgilari bo‘yicha tanlash va joy-joyiga qo‘yish holatlariga yo‘l qo‘ymasligi kerak. U guruhbozlik, mahalliychilik, favoritizm ko‘rinishlarining, shuningdek, o‘z xizmat vazifalarini bajarish jarayonida boshqa salbiy omillarning qat’iy ravishda oldini olishi lozim.

Davlat soliq organlarining rahbarlari:

- manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish va ularni tartibga solish yuzasidan o‘z
- vaqtida chora-tadbirlar ko‘rishi;
- korrupsiyaning oldini olish choralarini ko‘rishi;
- jamoada sog‘lom, ishchan ma’naviy-ruhiy muhitning shakllanishi va saqlanishiga ko‘maklashishi, qo‘l ostidagi xodimlarida ma’naviy-ruhiy, axloqiy va kasbiy ko‘nikma, xislatlarni yuksaltirishi, ularni vatanparvarlik, vatanga sadoqat ruhida tarbiyalashi;
- qo‘l ostidagi xodimlarining sha’ni va qadr-qimmatini hurmat qilishi, shaxsiyatini kamsitmasligi va ularga nisbatan obyektiv munosabatda bo‘lishi;
- xodimlardan soliq to‘lovchilarga ko‘rsatiladigan davlat xizmatlarining sifatini
- belgilangan standartlarga muvofiq ravishda doimiy tarzda oshirishni talab qilishi; xodimlardan shaxsiy (ijobiy yoki salbiy) munosabatidan qat’iy nazar xizmat
- vazifalarini bajarilishini bir xilda talab qilishi;
- qo‘l ostidagi xodimlari oldiga uzoq va qisqa muddatli topshiriq va vazifalarni to‘g‘ri qo‘ya olishi, shu vazifalarni hal etishda jamoani jipslashtirishi;
- soliq ma’murchiligini takomillashtirishi jarayonida barcha xodimlarning faol qatnashishi uchun yetarli shart-sharoitlarni yaratishi;jamoada doimiy ravishda mehnat intizomi, sog‘lom, ishchan ma’naviy-ruhiy muhit holatini yaratishi, salbiy holatlarga murosasiz bo‘lishi;
- xodimlarning madaniy hordiq chiqarishi va sport sog‘lomlashtirish tadbirlari uchun shart-sharoit yaratib berishi;
- shaxsiy tarkib oldiga asoslanmagan talablarni qo‘ymasligi yoki O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga zid bo‘lgan topshiriqlarni bermasligi, qo‘l ostidagi xodimdan shaxsiy, moddiy va boshqa turdagi noqonuniy xizmatlarni talab qilmasligi;
- xizmat vazifalarini lozim darajada bajarilmaganligi va xato qarorlar qabul qilganligi uchun o‘z javobgarligini qo‘l ostidagi xodimlarga yuklamasligi;

- qo‘l ostidagi xodimi tomonidan bildirilgan tanqidni agressiv tarzda qabul etmasligi va bildirilgan tanqid tufayli xodimni ta’qib qilinishiga yo‘l qo‘ymasligi;
- shaxsiy tarkibi tomonidan sodir qilingan jinoyatlar, huquqbuzarliklar va qo‘pol tartib buzarliklar haqida o‘zidan yuqori turuvchi rahbarini darhol xabardor etishi;
- xodimlarni samarali boshqarishi, o‘ziga ishonib topshirilgan mulkka va moliyaviy mablag‘larga ehtiyotkorlik va tejamkorlik bilan munosabatda bo‘lishi shart. Davlat soliq xizmati organlari rahbari o‘ziga bo‘ysunuvchi, xizmatdagi xulq-atvori prinsiplari va qoidalarini buzayotgan xodimlarning xatti-harakatlariga (harakatsizligiga) yo‘l qo‘yilmasligi choralarini ko‘rmaganligi uchun javob beradi.

Davlat soliq xizmati organlari xodimlari o‘zlarining xizmatdagi xulq-atvori bilan jamoada boshqa davlat soliq xizmati organlari xodimlari bilan o‘zaro ishchanlik va amaliy hamkorlik qaror topishiga da’vat etilgan.

Davlat soliq xizmati organlari xodimlari xushmuomala, iltifotli, odobli, e’tiborli, fuqarolar va hamkasblari bilan munosabatda sabr-toqatli bo‘lishi, ularni hurmat qilishi shart. Davlat soliq xizmati organlari xodimlari o‘ziga bo‘ysunuvchilarga va fuqarolarga nisbatan qo‘pollik qilmasligi, insonlarning sha’ni va qadr-qimmatini kamsitmasligi, ularga asossiz psixologik va jismoniy ta’sir ko‘rsatish holatlariga yo‘l qo‘ymasligi kerak.

Xizmat vazifalarini bajarish chog‘ida ish sharoitlari va xizmat tadbirlarining shakliga bog‘liq holda davlat soliq xizmati organlari xodimlarining tashqi ko‘rinishi fuqarolarning davlat organiga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo‘lishiga yordam berishi, umumiy qabul qilingan ish uslubiga muvofiq bo‘lishi, ular rasmiyliligi, vazminligi va tartibliligi bilan boshqalardan ajralib turishi kerak.

Davlat soliq xizmati organlari xodimlari xizmatdan tashqari vaqtda umumiy qabul qilingan odob-axloq normalariga rioya etishlari, g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlarga yo‘l qo‘ymasligi kerak.

2. Davlat soliq xizmati organlari xodimlarining soliq to‘lovchilar bilan muomala madaniyati

Davlat soliq xizmati organlari xodimlarining yurish-turishi, ichki madaniyati, tirishqoqligi, xizmatga shayligi, intizomliligi fuqarolarning

ishonchiga sazovor qiluvchi, insonga estetik zavq beruvchi, hamkasblari va atrofdagilarga axloqiy-ruhiy ta’sir o‘tkazib tarbiyalovchi bo‘lishi lozim.

Har bir xodim xizmat burchini bajarishda, eng avvalo o‘zining davlat xizmatchisi ekanligini, insonlar uning xulq-atvori, xatti-harakati, so‘z ohangi va tashqi ko‘rinishiga qarab soliq tizimiga baho berishlarini, uning obro‘si davlat obro‘si ekanligini unutmasligi kerak.

Fuqarolarga, shuningdek, tadbirkorlik subyektlariga murojaat qilganda salomlashish qoidalariga to‘liq rioya etishlari, o‘zini to‘liq tanishtirishi, so‘ngra murojaat qilish sababini va maqsadini tushuntirib, ularni diqqat va sabr-toqat bilan eshitishlari shart:

- Idoraga kelgan soliq to‘lovchi, albatta, ochiq yuz bilan «Assalomu alaykum, xush kelibsiz!» deya kutib olinadi;
- So‘ngra, xodim o‘zini tanishtiradi va «Keling, nima masalada keldingiz, bizdan qanday yordam kerak?» deya so‘raydi;
- Agar masala qabul qilgan xodimning vakolati doirasida bo‘lsa, muloyimlik va tavoze bilan soliq to‘lovchini oxirigacha sabr qilib eshitadi, gapi cho‘zilib ketsa, g‘ijinmaydi hamda muammoni qonuniy hal qilishning barcha choralarini ko‘radi;
- Basharti masala o‘ziga tegishli bo‘lmasa, unda soliq to‘lovchini tinglab bo‘lgach, «Bizda, bu masala bilan falon kabinetdagi falonchi xodim shug‘ullanadi», deya o‘sha kabinetga qanday o‘tilishini xushmuomalalik bilan ko‘rsatib qo‘yadi;
- Soliq to‘lovchini kuzatayotib, «Xayr, qanday muammo yoki masala bo‘lsa, tortinmasdan kelavering, imkon doirasida albatta ijobiy hal qilishga harakat qilamiz, yaxshi boring!» deya kuzatib qo‘yadi;
- Soliq to‘lovchilarga ochiq yuz va nim tabassum bilan munosabatda bo‘linadi.

Savoli yoki e’tirozi noo‘rin bo‘lgan taqdirda ham tuyg‘ular oshkor etilmaydi.

Og‘zaki murojaatlarga, berilgan barcha savollarga xushmuomalalik bilan javob berilishi, yotig‘i bilan asosli va qonuniy tushuntirishlar berishi lozim. Koridorda yoshi o‘zidan kattaroq kimsaga duch kelinsa, u qaysi masalada, kimning oldiga kelganligidan qat’iy nazar oldidan «Assalomu alaykum!» deb o‘tiladi. Basharti o‘sha kimsa salomga biror-bir sabab bilan alik olmasa, e’tibor qilinmaydi, yuz ifodasi o‘zgartirilmaydi va unga norozi ohangda qaralmaydi.

Telefonda so‘zlashilganda trubkadan «allo» degan ovoz eshitilsa, «Labbay, assalomu alaykum», deya javob beriladi. «daa», «haa», «ho‘o‘«, «nima», «nimaydi», «kim kerak», «kimsiz», «eshitaman» qabilida javob berilmaydi.

Muomala qilishni bilish – suhbatni olib bora olish qobiliyatidir. Og‘zaki murojaat etgan shaxsning gapini bo‘lmasdan eshitiladi.

Soliq organlari shaxsiy tarkibiga fuqarolar bilan muomala qilish chog‘ida dimog‘dorlik, manmanlik, qo‘pollik qilish, dag‘al tarzda tanbeh berish, suhbat va muomala jarayonida inson qadr-qimmati, shaxsini tahqirlovchi boshqa xatti-harakatlarga yo‘l qo‘yish qatiyan man etiladi.

Fuqarolarning gapini oxirigacha eshitmay, qo‘l siltab ketish yoki qo‘pol muomalada bo‘lish madaniyatsizlikni anglatadi. Murojaatchining fikrini noto‘g‘ri deb bilgan taqdirda ham tarbiyali va kamtar inson sifatida munosabatda bo‘lib, «Menimcha adashdingiz?» «Uzr, men boshqa fikrdaman», «Kechirasiz, men sizning fikringizga qo‘shilmayman» degan iboralar bilan murojaat qilinadi. Hech qachon «umuman noto‘g‘ri», «bu to‘g‘rida hech narsani tushunmaysiz», «bu narsani yosh bola ham biladi» degan iboralarni ishlatish mumkin emas.

Gapirayotgan insonning fikrini bo‘lib, «Bo‘lishi mumkin emas», «O‘zingiz shunga ishonasizmi?» tarzidagi iboralar bilan chalg‘itish ham odobsizlik sanaladi. Xodim ishdan bo‘sh vaqtda murojaat qilgan fuqarolarga nisbatan befarq bo‘lmasligi, ularga to‘g‘ri maslahatlar berishi va savollariga javob topish uchun imkon darajasida amaliy va ma’naviy yordam ko‘rsatishi zarur. (Foydalanish doirasi chegaralangan axborotlar hamda davlat, soliq va xizmat sirlari bundan mustasno).

Davlat soliq xizmati organlarida fuqarolarni qabul qilish madaniyati yuqori darajada bo‘lishi ta’minlanishi shart, ya’ni:

- fuqarolarni qabul qilish vaqti aniq belgilangan va kimlar qanday masalalar bo‘yicha qabul qilishi ko‘rsatilgan bo‘lishi;
- qabul qiladigan xodim maxsus kiyimda bo‘lishi, o‘zini kamtarona tutishi, xizmatga shayligi fuqaroga sezilib turishi;
- tashrif buyurgan fuqaroning barcha savollariga, shikoyatlariga to‘liq javob berilishi, javobning tushunarli bo‘lganligiga ishonch hosil qilinishi;
- murojaatga aloqador mansabdor shaxslar suhbat chog‘ida ishtirok etayotgan bo‘lsa, ularning barchasi fuqaroga tantishtirilishi;

- fuqaro bilan suhbat chog‘ida ularga berilayotgan javob aniq va ishonchli bo‘lishi uchun javobni qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar bilan asoslash; suhbat davomida ko‘rilayotgan masala ushbu idora vakolatiga taalluqli bo‘lmasa, fuqaroga bu haqda tegishli idoraga murojaat qilishi mumkinligi qonun normalariga asoslangan holda, yotig‘i bilan tushuntirilishi;
- ko‘rilayotgan masalani hal qilish uchun qo‘shimcha ma’lumotlar, hujjatlarni ko‘rish yoki muayyan tashkiliy tadbirlarni o‘tkazish zarur bo‘lsa, bu haqda murojaat etuvchiga ma’lum qilinib, masala hal qilinishi lozim bo‘lgan aniq vaqt belgilanishi talab etiladi.

Profilaktika tadbirlarini o‘tkazishda, aholi bilan hisob-kitoblarni amalga oshirishda savdo va xizmat ko‘rsatish qoidalariga rioya etilishini, shu jumladan, nazorat-kassa texnikasi va hisob-kitob terminallarining qo‘llanilishini tekshirishda, soliq to‘lovchining hududlari va binolarini, shuningdek, hujjatlar va buyumlarini, soliq to‘lovchi daromad olish uchun foydalanadigan yoxud soliq solish obyektlarini saqlash bilan bog‘liq joylarni ko‘zdan kechirishda, xronometraj ko‘zdan kechirishni o‘tkazishda, soliq auditi hamda sayyor soliq tekshiruvining boshqa nazorat tadbirlarini o‘tkazishga chiqilganda, tavoze bilan salom berib, o‘zini tanishtiradi, xizmat guvohnomasi, tekshiruv o‘tkazish maxsus guvohnomasini ko‘rsatadi hamda muloyimlik bilan bezovta qilishi sababini aytadi va tashrifiga asos bo‘luvchi buyruq bilan tanishtiradi va imzo orqali nusha taqdim etadi. Tekshirish bo‘yicha soliq to‘lovchini tanishtiradi, buyruqdan chetga chiqmaydi.

O‘rganish va tekshiruvlar jarayonida kamtarlik, xushmuomalalikka, odob-axloq qoidalariga rioya etiladi.

Tekshiruvchi muloqot paytida soliq to‘lovchini eshitishi va uning haqligi tasdiqlangan hollarda adolatli bo‘lishi, o‘zini odob bilan va professional tarzda tutishi lozim, soliq to‘lovchiga bosim o‘tkazishi va tahdid qilishi mumkin emas. Tekshiruvchi soliq to‘lovchi tomonidan beriladigan savollarga tayyor bo‘lishi kerak.

Aniqlangan kamchilik Soliq kodeksi yoki tegishli me’yoriy hujjatning aniq modda va bandlari ko‘rsatilgan holda yotig‘i bilan tushuntirilib, uni bartaraf etish yo‘llari o‘rgatiladi. Zarurat bo‘lsa, bundan keyin e’tiborliroq bo‘lishlari, qonunchilikda bunday

qoidabuzarlik takroran sodir etilsa, unday holda moliyaviy yoki ma’muriy sanksiya qo‘llanishi ko‘zda tutilganligi uqtiriladi.

O‘zgani ranjitmaslik, birovga yomon so‘z aytmaslik, bahs-munozaraga kirishganda soliq to‘lovchini hurmat qilish, qo‘rslik va chapanilikdan xoli bo‘lish hamda suhbatlashganda ehtiroslarga berilmaslikni talab etiladi.

Tadbirkorlik subyektlari rahbarlari yoki hisobchilariga nisbatan «Nishondasan», «Kontroldasan», «Qaragin lekin», «O‘zingni olma», «Tashavossanmi?» qabilidagi sirli po‘pisalar ishlatilmaydi, har qanday holatda ham dag‘dag‘a qilinmaydi va «siz»lab gapiriladi.

Davlat soliq xizmati organlari xodimlari nutq madaniyatida quyidagilarga asosiy e’tiborni qaratishlari lozim, ya’ni, so‘z tartibi grammatika qoidalariga to‘la asoslangan bo‘lishi, fikr sodda, aniq va qisqa ifodalanishi, fikr kasbga doir terminlar asosida bayon qilinishi, og‘zaki so‘zlashuv uslubiga xos so‘zlar ishlatilmasligi kerak.

Davlat soliq xizmati xodimi tadbirkorlik subyektlarida soliq nazorati tadbirlarini, soliq tekshiruvi, profilaktika tadbirlari va boshqa tadbirlarni amalga oshirish mobaynida, mazkur subyektlarda yuzaga kelgan shaxsiy munozaralarga va bahslarga aralashmasligi kerak.

Davlat soliq xizmati organlari xodimlarining ish hajmi ortgan vaqtlarida ham xabarnoma, talabnoma tarqatish yoki soliqlarni undirish jarayoniga talabalarni va umuman uchinchi shaxslarni norasmiy jalb etish amaliyotini qo‘llamaydi. Chunki ular fuqaro oldida o‘zlarini istaganday tutishlari, g‘o‘rlik qilib, havolanib ketishlari, suiiste’molikka yo‘l qo‘yishlari ehtimoli yuqori, bu esa oqibatda fuqarolarda soliq organlari xodimlari haqida salbiy tasavvur hosil bo‘lishiga olib keladi.

3. Davlat soliq xizmati organlarida manfaatlar to‘qnashuvi

Davlat soliq xizmati organlari xodimlari o‘z xizmat vazifalarini bajarishda manfaatlar to‘qnashuviga sabab bo‘ladigan shaxsiy manfaatdorlik holatlariga yo‘l qo‘ymasliklari kerak.

Manfaatlar to‘qnashuvi davlat soliq xizmati organlari xodimlarining shaxsiy manfaatlari ularning o‘z xizmat vazifalarini xolisona va beg‘araz bajarishiga ta’sir ko‘rsatadigan yoki ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan holatlarda paydo bo‘ladi.

Davlat soliq xizmati organlari xodimlarining shaxsiy manfaatdorligi ularning shaxsan o‘zi yoki yaqin qarindoshlari, shuningdek, ular yaqin yoki ishbilarmonlik munosabatlarida bo‘ladigan

boshqa shaxslar uchun har qanday naf koʻrish yoki afzalliklarga ega boʻlishni oʻz ichiga oladi.

Tekshirilayotgan soliq toʻlovchi mansabdor shaxslarining yaqin qarindoshlari (ota-onasi, tugʻishgan va oʻgay aka-ukalari va opa-singillari, eri (xotini), farzandlari, shu jumladan farzandlikka olinganlar, bobolari, buvilari, nevaralari, shuningdek, erining (xotinining) ota-onasi) boʻlgan davlat soliq xizmati organlari xodimlarining mazkur soliq toʻlovchilarda soliq tekshiruvini oʻtkazishi mumkin emas.

Manfaatlar toʻqnashuvi yuzaga kelgan taqdirda davlat soliq xizmati organlari xodimlari oʻz rahbarini darhol xabardor qilishi kerak.

Manfaatlar toʻqnashuvi mavjudligi toʻgʻrisidagi ma’lumotni olgan rahbar uni tartibga keltirish boʻyicha oʻz vaqtida chora koʻrishi shart.

Davlat soliq xizmati organlari xodimlarining tadbirkorlik faoliyati bilan shugʻullanishi taʻqiqlanadi.

Davlat soliq xizmati organlari xodimlari oʻzlarining oʻz xizmat vazifalarini zarur darajada bajarishiga yoki ularga zarar yetkazishi mumkin boʻlgan faoliyatni amalga oshirmasligi, shuningdek, lavozimni egallamasligi kerak.

Davlat soliq xizmati organlari xodimlari har qanday holatlarda ham oʻz xizmat mavqeyidan mumkin boʻlmagan shaxsiy foydani olishi mumkin emas.

Davlat soliq xizmati organlari xodimlari oʻz rahbarini manfaatlar toʻqnashuviga yoʻl qoʻymaslik boʻyicha chora koʻrish maqsadida tijorat tashkilotlarining ustav kapitalida ishtirok etishi toʻgʻrisida xabardor qilishi shart.

Davlat soliq xizmati organi xodimi lavozimga tayinlanayotganda va xizmat vazifalarini bajarayotganda oʻzining xizmat vazifalarini zarur darajada bajarishiga ta’sir koʻrsatadigan yoki ta’sir koʻrsatishi mumkin boʻlgan shaxsiy manfaatdorligining mavjudligi yoki mavjud boʻlishi imkoniyati toʻgʻrisida ma’lum qilishi shart.

Odob-axloq qoidalari normalarining buzilishlari davlat soliq xizmati organlarining rejim xizmati tomonidan koʻrib chiqiladi.

Odob-axloq qoidalarining buzilishi holatlarini rejim xizmati tomonidan koʻrib chiqish natijalari boʻyicha intizomiy yoki boshqacha tarzdagi qoida buzilishlarining mavjudligi (mavjud emasligi) toʻgʻrisida xulosa chiqariladi. Ayni vaqtda davlat soliq xizmati organi rahbarining koʻrib chiqishiga qoidalar buzilishini sodir etgan davlat soliq xizmati organi xizmatchisini javobgarlikka tortish toʻgʻrisida taklif kiritiladi.

Yo‘l qo‘yilgan qoida buzilishining xususiyatini hisobga olgan holda davlat soliq xizmati organi xodimiga nisbatan Odob-axloq qoidalarining buzilishiga yo‘l qo‘ymaslik to‘g‘risidagi ogohlantirish bilan cheklanishi mumkin.

Davlat soliq xizmati organlari xodimlari o‘zlari yo‘l qo‘ygan qoida buzilishi, qoida buzilishining ko‘rib chiqilishi jarayoni haqida axborotni olish va o‘zini himoya qilish uchun dalillarni taqdim etish, shuningdek, davlat organining qarorlari yuzasidan belgilangan tartibda shikoyat qilish huquqiga ega.

Shuningdek, davlat soliq xizmati organlari xodimlari faoliyatiga to‘siq bo‘luvchi omillar:

- O‘zini-o‘zi boshqara olmaslik;
- Shaxsiy qadriyatlardan putur ketishi;
- Shaxsiy maqsadning noaniqligi;
- O‘zini-o‘zi kamol toptirishning izdan chiqqanligi;
- Muammolarni hal qilish malakalarining yetishmasligi;
- Ijodiy yondashuvda nuqsonlarning mavjudligi;
- Odamlarga ta’sir o‘tkaza olmaslik;
- Boshqalarni o‘qitish, ularga saboq berish, o‘rgatish uquvining yo‘qligi;
- Mehnat jamoasini jipslashtirish qobiliyatining pastligi;
- Yangiliklar bilan o‘zgalar e’tiborini jalb qilishga uquvsizlik;
- Odamlar bilan muomala qilish madaniyatining yo‘qligi;
- Aql va farosat bobidagi sustkashlik;
- Ishni keyinga surish;
- Boshlagan ishini oxiriga yetkazmaslik;
- Hamma ishni birdaniga bajarish;
- Vazifani yakka o‘zi hal qilish;
- «Boshqalarga qaraganda men o‘zim yaxshi bilaman» degan tuyg‘u;
- Xizmat vazifalarini chegaralay olmaslik;
- Ayb va aybdorni qidirish va aybni boshqalarga to‘nkash;
- Vaqtni ishga to‘g‘ri taqsimlay olmaslik;
- Sustkashlik;
- Topshiriqning bajarilishi va uning natijasini nazorat qilmaslik hisoblanadi.

4. Soliq xizmati organi xodimlari o‘rtasida huquqbuzarlik profilaktikasi

Soliq xizmati organi xodimlari o‘rtasida huquqbuzarlik profilaktikasi bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish o‘z xavfsizligi va kompleans-nazorat bo‘limi xodimlarining asosiy vazifalari hisoblanib, inspeksiya xodimlari tomonidan soliq to‘lovchilarga nisbatan g‘arazli maqsadlarda noqonuniy ta’sir ko‘rsatish holatlarini aniqlash va oldini olishni, inspeksiyada korrupsiya holatlarini aniqlashni, ularning oldini olishga, qarshi kurashishga va bartaraf etishga yo‘naltirilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqadi va ijrosini ta’minlaydi.

Soliq xizmati organi xodimlari xatti-harakatlari yuzasidan kiritilgan axborotlar, kelib tushgan murojaatlar, huquqni muhofaza qiluvchi organlar taqdimnomalari, ommaviy axborot vositalari va boshqa tashkilotlardan kelgan xatlar bo‘yicha xizmat tekshiruvi va o‘rganishlar o‘tkazadi.

Soliq xizmati organi bo‘linmalari faoliyati bo‘yicha monitoring, tahliliy ishlarni amalga oshirish, tahlillar natijasida surunkali ravishda qo‘pol xato va kamchiliklarga yo‘l qo‘ygan xodimlar faoliyati yuzasidan o‘rganishlar hamda lozim hollarda xizmat tekshiruvlari o‘tkazadi.

Soliq xizmati organini yuksak ma’naviy-axloqiy sifatlarga ega bo‘lgan xodimlar bilan to‘ldirish hamda tizimga nopok xodimlar kirib qolishining oldini olish maqsadida, Inspeksiya nomenklaturasidagi lavozimlarga tavsiya etilgan nomzodlar, shuningdek, davlat mukofotiga tavsiya qilinayotgan, chet elga xizmat safariga chiqayotgan xodimlar bo‘yicha maxsus tekshirish ishlarini amalga oshiradi, tegishli tanlovdan o‘tmagan yoki lavozim vazifalarini jiddiy buzganligi uchun ilgari davlat soliq xizmati organlaridan bo‘shatilgan shaxslarning ishga qabul qilinishiga yo‘l qo‘ymaslik yuzasidan ishlarni amalga oshiradi.

Xizmat vazifalarini bajarish jarayonida Inspeksiya xodimlarini noqonuniy tajovuzlardan himoya qilishni ta’minlab, inspeksiya ma’muriy binolariga belgilangan tartibda kirib-chiqish, rejim qoidalariga rioya etilishini nazorat qiladi.

Huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlikda Inspeksiyada korrupsiya holatlarini aniqlash, oldini olish va bartaraf etish borasida profilaktik tadbirlarni amalga oshiradi.

O‘ziga yuklangan vazifalarga muvofiq Inspeksiya xodimlari bilan huquqbuzarlik profilaktikasi bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish sohasida Inspeksiya xodimlari o‘rtasida huquqbuzarlik profilaktikasi bo‘yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqib, shaxsiy tarkibning har bir xodimi bilan har chorakda kamida bir marotaba tizim sha’niga dog‘ tushiruvchi har qanday tusdagi salbiy holatlarning oldini olish bo‘yicha individual profilaktik suhbat o‘tkazadi va ulardan bu to‘g‘risida tilxat olgan holda maxsus kitobga qayd qilib boradi.

Xizmat safariga yuborilayotgan xodimlar bilan har qanday tusdagi salbiy holatlarga yo‘l qo‘ymaslik bo‘yicha profilaktik suhbat (instruktaj) o‘tkazib, shaxsiy tarkib bilan bo‘lib o‘tadigan yig‘ilishlarda huquqbuzarliklarni kelib chiqish shart- sharoitlari, omillari va oqibatlari, ularning oldini olish to‘g‘risida profilaktik chiqishlarni amalga oshiradi. Shaxsiy tarkib bilan huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlarini, tadbirkorlik subyektlarini, soliq to‘lovchilarni hamda xodimlarning oila a’zolarini taklif qilgan holda profilaktik yig‘ilishlarni tashkillashtiradi.

Soliq xizmati organi xodimlari tomonidan soliq to‘lovchilarga nisbatan g‘arazli maqsadda noqonuniy ta’sir ko‘rsatish holatlarini aniqlash va ularning oldini olish bo‘yicha xo‘jalik yurituvchi subyekt rahbarlari yoki vakillari bilan uchrashgan holda davlat soliq xizmati organlari xodimlarining xatti-harakatlari yuzasidan tezkor ma’lumotlar to‘playdi va ularning haqqoniyligini tekshiradi hamda axborot kiritadi, mazkur yo‘nalishda profilaktik tadbirlarni olib boradi, zarur hollarda o‘rganish va xizmat tekshiruvi o‘tkazib, to‘plangan hujjatlarni belgilangan tartibda huquqni muhofaza qiluvchi organlarga yuboradi.

Soliq xizmati organida korrupsiya holatlarini aniqlashga, ularning oldini olishga, qarshi kurashishga va bartaraf etishga yo‘naltirilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish va ijrosini ta’minlashda Inspeksiyadagi korrupsion mexanizmlarni hamda ularning vujudga kelish shart-sharoitlarini aniqlab, korrupsiya holatlarini bartaraf etish yuzasidan chora-tadbirlar ishlab chiqadi va ijrosini amalga oshiradi.

Soliq xizmati organining mansabdor shaxslari tomonidan xizmat vazifalarining sovuqqonlik bilan bajarilishi holatlarini aniqlash maqsadida qonun hujjatlariga muvofiq nazorat tartibidagi tekshirishlarni tashkil etadi, axborotlar olishni ta’minlaydi, Inspeksiya mansabdor shaxslarining noqonuniy xatti-harakatlari to‘g‘risidagi

axborotlar bo‘yicha ishlaydi, umumlashtiradi va ularni tahlil qilib boradi.

Soliq xizmati organi xodimlari xatti-harakatlari yuzasidan kiritilgan axborotlar, kelib tushgan murojaatlar, huquqni muhofaza qiluvchi organlar taqdimnomalari, ommaviy axborot vositalari va boshqa tashkilotlardan kelgan xatlar bo‘yicha xizmat tekshiruvi va o‘rganishlar o‘tkazishda jismoniy va yuridik shaxslar, shuningdek, boshqa korxona va tashkilotlar, vakolatli idoralar murojaatlari, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning taqdimnomalari, xususiy ajrimlari, ommaviy axborot vositalari tomonidan (televidenie, gazeta va jurnal, ijtimoiy tarmoqlardagi maqola va e’tirozlar) e’lon qilingan maqolalar yuzasidan o‘rganish va xizmat tekshiruvlari o‘tkazib, mazkur yo‘nalishda o‘tkazilgan o‘rganish va xizmat tekshiruvi natijasi bo‘yicha aybdor xodimlarga nisbatan tegishli choralar qo‘llanilishi yuzasidan taklif kiritadi.

Tuzilmalar faoliyati yuzasidan monitoring, tahliliy ishlarni amalga oshirish, tahlillar natijasida surunkali ravishda qo‘pol xato va kamchiliklarga yo‘l qo‘ygan xodimlar faoliyati yuzasidan o‘rganishlar hamda lozim hollarda xizmat tekshiruvlari o‘tkazish sohasida Inspeksiya tarkibiy bo‘linmalari faoliyati yuzasidan monitoring, tahliliy ishlarni amalga oshiradi, tahlil natijasi yuzasidan o‘rganishlar yoki xizmat tekshiruvlarini tashkil etadi, surunkali ravishda qo‘pol xato va kamchiliklarga yo‘l qo‘ygan xodimlar mas’uliyatini prinsipial ko‘rib chiqish yuzasidan taklif kiritadi.

Soliq xizmati organini yuksak ma’naviy-axloqiy sifatlarga ega bo‘lgan xodimlar bilan to‘ldirish hamda tizimga nopok xodimlar kirib qolishining oldini olish maqsadida, Inspeksiya nomenklaturasidagi lavozimlarga tavsiya etilgan nomzodlar, shuningdek, davlat mukofotiga tavsiya qilinayotgan, chet elga xizmat safariga chiqayotgan xodimlar bo‘yicha maxsus tekshirish ishlarini amalga oshirish maqsadida Inspeksiya nomenklaturasidagi lavozimlarga tavsiya etilgan nomzodlar bo‘yicha maxsus tekshirish ishlarini amalga oshiradi, davlat mukofotiga tavsiya etilgan nomzodlarni o‘rganadi, xizmat va shaxsiy masalalarda chet elga chiqish istagini bildirgan xodimlarni o‘rganadi hamda ular bilan profilaktik suhbatlar o‘tkazadi.

Tegishli tanlovdan o‘tmagan yoki lavozim vazifalarini jiddiy buzganligi uchun ilgari davlat soliq xizmati organlaridan bo‘shatilgan shaxslarning ishga qabul qilinishiga yo‘l qo‘ymaslik yuzasidan ishlarni

amalga oshirish maqsadida mehnat vazifalarini qo‘pol ravishda buzganligi uchun davlat soliq xizmati organlaridan bo‘shatilgan xodimlar to‘g‘risida axborotlarni jamlab, shakllangan va qo‘shimcha ma’lumotlarga asosan ushbu xodimlarning Inspeksiyaga ishga qabul qilinishiga yo‘l qo‘ymaslik bo‘yicha zarur choralarni ko‘radi.

Mehnat vazifalarini buzganligi uchun davlat soliq xizmati organlaridan bo‘shatilgan xodimlar ishga qayta qabul qilinganligi aniqlangan taqdirda, ushbu xodimni ishga qabul qilishda tashabbus ko‘rsatgan va qabul qilgan mas’ul xodimlarga nisbatan tegishli intizomiy choralar ko‘rish yuzasidan taklif kiritadi.

Xizmat vazifalarini bajarish jarayonida davlat soliq xizmati organlari xodimlarini noqonuniy tajovuzlardan himoya qilishni ta’minlash yuzasidan chora- tadbirlar ishlab chiqish va amalga oshirishda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda berilgan huquqlar doirasida xodimlarning xavfsizligini ta’minlaydi, himoya qiladi hamda xizmat vazifalarini bajarayotganda xodimlarni noqonuniy tajovuzlardan himoya qilishni ta’minlash yuzasidan kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqadi va amalga oshiradi.

Soliq xizmati organi ma’muriy binosiga belgilangan tartibda kirib-chiqish, rejim qoidalariga rioya etilishini ta’minlash maqsadida ma’muriy binoga xodimlar, shuningdek, soliq to‘lovchilarning belgilangan tartibda kirib chiqishlarini o‘rganib, aniqlangan xato va kamchiliklar bo‘yicha tahliliy axborot kiritib boradi, konfidensial, xizmat doirasida foydalanishga mo‘ljallangan ma’lumotlarning saqlanishini o‘rganadi, davlat sirlari saqlanishini ta’minlash, maxfiylik rejimiga rioya qilish, xizmat axborotlarini va kompyuter tarmoqlarining himoya qilinishi tadbirlarini olib boradi.

Xuquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlikda Inspeksiyada korrupsiya holatlarini aniqlash, oldini olish va bartaraf etish borasidagi profilaktik tadbirlarni amalga oshirishda Inspeksiyadagi mavjud korrupsion holatlarni aniqlaydi, ma’lumotlar almashinuvini ta’minlash yuzasidan huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan tartibda hamkorlikni amalga oshiradi, qonunchilikda belgilangan tartibda huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan tashkil etilgan korrupsiyaga qarshi kurashish komissiyalari, tashkilotlari, markazlari bilan hamkorlikda ish olib boradi.

Mavzu bo‘yicha savollar

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 17-apreldagi 320-son qarori mohiyatini yoritib bering.
2. «Davlat soliq xizmati organi xodimlarining odob-axloq qoidalari» nimalardan iborat?
3. Davlat soliq xizmati organlari xodimlariga korporativ etikani deganda nimani tushunasiz?
4. Davlat soliq xizmati organi xodimlarining xizmatdagi xulq-atvorining qoidalari nimalardan iborat?
5. Davlat soliq xizmati organlari xodimlariing soliq to‘lovchilar bilan muomala madaniyati qanday tashkil etilgan?
6. Davlat soliq xizmati organlari xodimlari uchun taqiqlangan xatti-xarakatlar nimalardan iborat?
7. Davlat soliq xizmati organlari xodimlari faoliyatiga to‘siq bo‘luvchi omillar nimalardan iborat?
8. Davlat soliq xizmati organlarida manfaatlar to‘qnashuvi qanday namoyon bo‘ladi?
9. Inspeksiya xodimlari o‘rtasida huquqbuzarlik profilaktikasi qanday olib boriladi?
10. Davlat soliq xizmati organlarida korrupsiya holatlarini aniqlash qanday amalga oshiriladi?

14-MAVZU. SOLIQ NIZOSI USTIDAN YUQORI TURUVCHI SOLIQ ORGANIGA SHIKOYAT QILISH TARTIBI

1. **Shikoyat qilish huquqi va tartibi**
2. **Soliq organlari mansabdor shaxslarining harakatlari (harakatsizligi) ustidan sudgacha shikoyat qilish**
3. **Shikoyatni ko‘rmasdan qoldirish tartibi**

1. Shikoyat qilish huquqi va tartibi

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 230–236-moddalari va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 2018-yil 26-iyundagi PQ–3802-son qarori doirasida soliq organlarining qarorlari, ular mansabdor shaxslarining harakatlari (harakatsizligi) ustidan yuqori turuvchi soliq organiga shikoyat qilish tartibi belgilanib**,** shikoyat beruvchi soliq organlarining qarorlari, ular mansabdor shaxslarining harakatlari (harakatsizligi) ustidan sudgacha tartibda shikoyat qilish huquqiga ega.

Soliq kodeksinint 231-moddasiga asosan «Shaxsning soliq organiga uning kuchga kirgan va kuchga kirmagan, normativ xususiyatga ega bo‘lmagan hujjatlari, uning mansabdor shaxslarining harakatlari (harakatsizligi) ustidan shikoyat qilingan murojaati, agar ushbu shaxsning fikriga ko‘ra mazkur hujjatlar, harakatlar yoki harakatsizlik uning huquqlarini buzsa, shikoyat deb e’tirof etiladi»[41].

Soliq organining yuqori turuvchi organiga shikoyat berish shikoyat bo‘yicha soliq organining yuqori turuvchi organi tomonidan qaror qabul qilinguniga qadar shikoyat qilinayotgan qarorni yoki harakatni ijro etishni, shu jumladan qo‘shimcha hisoblangan soliqlar va yig‘imlarni undirishni, shuningdek, moliyaviy sanksiyalar qo‘llanilishini to‘xtatib turadi. Shikoyat beruvchi qaysi soliq organining qarori yoki mansabdor shaxsining harakatlari (harakatsizligi) ustidan shikoyat qilayotgan bo‘lsa, o‘sha organni soliq organining yuqori turuvchi organiga shikoyat berganligi to‘g‘risida tegishli tasdiqlovchi hujjatlarni ilova qilgan holda xabardor qilishi shart.

Soliq organining sayyor soliq tekshiruvi va soliq auditi natijalari bo‘yicha qabul qilgan qarorlari ustidan sud tartibida shikoyat qilish

[41] O‘zbekison Respublikasining Soliq Kodeksi 231-moddasi https://lex.uz/docs/-4674902 sayti ma’lumotlari.

faqat yuqori turuvchi soliq organiga shikoyat qilinganidan keyingina mumkin bo‘ladi, Davlat soliq qo‘mitasining qarorlari bundan mustasno.

Shikoyat beruvchi Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat soliq boshqarmalari, shuningdek, Yirik soliq to‘lovchilar bo‘yicha hududlararo davlat soliq inspeksiyasining qarorlaridan norozi bo‘lgan taqdirda, u bunday qaror ustidan O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasiga yoki sud tartibida shikoyat qilish huquqiga ega.

Shikoyat beruvchi shikoyat bo‘yicha qaror qabul qilinguniga qadar uni ko‘rib chiqayotgan soliq organiga yozma ariza yuborish yo‘li bilan shikoyatni to‘liq yoki qisman chaqirib olishi mumkin.

Shikoyatni chaqirib olgan shaxs o‘sha asoslarda takroran shikoyat bilan murojaat qila olmaydi.

Soliq organlarining sayyor soliq tekshiruvlari va soliq auditi natijalari bo‘yicha qabul qilingan qarorlari ustidan shikoyat yuqori turuvchi soliq organiga qarorlari ustidan shikoyat qilinayotgan soliq organi orqali beriladi.

Shikoyatda quyidagilar ko‘rsatiladi:

- jismoniy shaxsning familiyasi, ismi, otasining ismi hamda yashash joyi yoki shikoyat berayotgan yuridik shaxsning nomi va manzili;
- soliq organining nomi, normativ xususiyatga ega bo‘lmagan hujjati;
- shikoyat berayotgan shaxs o‘zining huquqlari qaysi asoslarga ko‘ra buzilgan deb hisoblasa, o‘sha asoslar;
- shikoyat berayotgan shaxsning talablari.

Shikoyatda telefon raqamlari, elektron pochta manzillari va shikoyatni o‘z vaqtida ko‘rib chiqish uchun zarur bo‘lgan boshqa ma’lumotlar ko‘rsatilishi mumkin.

Shikoyatga quyidagi hujjatlar nusxalari ilova qilinishi lozim:

- soliq organining shikoyat qilinayotgan qarori;
- sayyor soliq tekshiruvi yoki soliq auditi dalolatnomasi;
- sayyor soliq tekshiruvi yoki soliq auditi natijalarini ko‘rib chiqish bayonnomasi;
- shikoyat beruvchining fikrlarini (pozitsiyasini) tasdiqlovchi hujjatlar;
- shikoyat beruvchi taqdim etishni maqsadga muvofiq deb hisoblagan boshqa hujjatlar;

- shikoyat vakil tomonidan taqdim etilgan taqdirda, ushbu vakilning vakolatlarini tasdiqlovchi hujjatlar.

Shikoyat va unga ilova qilinadigan hujjatlar soliq organiga yozma yoki elektron shaklda yuborilishi mumkin.

Qarori ustidan shikoyat qilinayotgan soliq organi, sanab o‘tilgan hujjatlarga, mazkur belgilangan shaklga muvofiq shikoyat masalasi yuzasidan o‘zining va shikoyat beruvchining fikrlari ko‘rsatilgan holdagi asoslangan xulosani uch kun ichida shikoyat va ilovalari bilan yuqori turuvchi soliq organiga yuborishi lozim.

Sayyor soliq tekshiruvi yoki soliq auditi natijasi bo‘yicha qabul qilingan qaror ustidan berilgan shikoyat yuqori turuvchi soliq organi tomonidan shikoyat qabul qilingan kundan boshlab bir oy ichida ko‘rib chiqiladi va tegishli qaror qabul qilinadi. Soliq organining rahbari (rahbar o‘rinbosari) tomonidan quyi turuvchi soliq organlaridan shikoyatni ko‘rib chiqish uchun zarur bo‘lgan hujjatlarni (axborotni) olish uchun yoki shikoyat bergan shaxs qo‘shimcha hujjatlarni taqdim etganda o‘n besh kundan ortiq bo‘lmagan muddatga uzaytirilishi mumkin va bu haqda shikoyat beruvchi xabardor qilinadi. Bunday hollarda, shikoyatni ko‘rib chiqish muddatini uzaytirish to‘g‘risida soliq organining tegishli qarori qabul qilinadi.

Ushbu qaror Soliq nizolarini sudgacha hal qilish boshqarmasi yoki uning hududiy bo‘linmalarining xulosalari asosida soliq organi rahbari (rahbar o‘rinbosari) tomonidan qabul qilinadi.

Yuqori turuvchi soliq organi shikoyatni ko‘rib chiqish jarayonida, qarori ustidan shikoyat qilinayotgan soliq organidan yoki shikoyat beruvchidan qo‘shimcha hujjatlarni so‘rab olishi mumkin.

Shikoyat beruvchi hamda quyi soliq organi tegishli so‘rovni olgan kundan boshlab besh kun ichida ko‘rsatilgan hujjatlarni taqdim etishi lozim.

So‘ralayotgan hujjatlar belgilangan muddatda taqdim etilmagan taqdirda, yuqori turuvchi soliq organi shikoyatni dastlabki taqdim etilgan va mavjud hujjatlar asosida ko‘rib chiqadi.

Shikoyat beruvchi tomonidan qo‘shimcha hujjatlar soliq organiga o‘z vaqtida taqdim etilmagan taqdirda va soliq organi tomonidan ko‘rsatilgan hujjatlar bo‘yicha asoslantirilgan sabablar taqdim etilmaganda, bunday hujjatlar yuqori turuvchi soliq organi tomonidan ko‘rib chiqishga qabul qilinadi.

Soliq organi tomonidan shikoyatni ko‘rib chiqish muddatini uzaytirish to‘g‘risidagi qaror qabul qilingan sanadan e’tirboran uch kun ichida shikoyat beruvchiga topshiriladi yoki yuboriladi.

Sayyor soliq tekshiruvi yoki soliq auditi natijalari yuzasidan qabul qilingan qaror ustidan shikoyat Davlat soliq qo‘mitasining Soliq nizolarini sudgacha hal qilish boshqarmasi yoki uning hududiy bo‘linmalari tomonidan ko‘rib chiqiladi.

Boshqa qarorlar ustidan shikoyat, yuqori turuvchi soliq organining tegishli tarkibiy tuzilmalari tomonidan ko‘rib chiqiladi.

Soliq organlarining sayyor soliq tekshiruvlari va soliq auditi natijalari bo‘yicha qabul qilgan qarorlari ustidan shikoyatlar, shikoyat beruvchining o‘z huquqlari buzilganligi to‘g‘risida bilgan yoki bilishi kerak bo‘lgan kundan e’tiboran bir oy ichida berilishi mumkin.

Uzrli sababga ko‘ra, shikoyat berish muddati o‘tkazib yuborilgan taqdirda, ushbu muddat shikoyat beruvchining iltimosnomasiga asosan yuqori turuvchi soliq organi tomonidan, agar iltimosnoma qarorning qonuniy kuchga kirgan kunidan bir yildan kechiktirmay berilganda va shikoyat berish muddati o‘tganligi sababi uzrli deb tan olinganda tiklanadi.

Shikoyat berish muddatini o‘tganligi uzrli sabablariga vaqtincha mehnatga layoqatsizlik, xizmat safarida bo‘lganlik kabi hujjat bilan tasdiqlangan shaxsiy yoki favqulotdagi xarakterga ega sabablar kiradi.

Shikoyat beruvchining belgilangan muddatda murojaat qilmaganligi uzrsiz deb tan olingan taqdirda, yuqori turuvchi soliq organi shikoyatni ko‘rib chiqishni rad etadi. Bunday hollarda shikoyat, qabul qilingan kundan boshlab besh kun ichida shikoyat beruvchiga qaytariladi.

Yuqori turuvchi soliq organi shikoyatni ko‘rib chiqish yakunlari bo‘yicha quyidagi qarorlardan birini qabul qiladi:

- shikoyatni qanoatlantirmasdan qoldiradi;
- soliq organining qarorini to‘liq yoki qisman bekor qiladi;
- soliq organining qarorini to‘liq bekor qiladi va ish yuzasidan yangi qaror qabul qiladi;
- soliq organlari mansabdor shaxslarining harakatlarini (harakatsizligini) noqonuniy deb e’tirof etadi va ishni mohiyati bo‘yicha qaror chiqaradi.

Qaror yuqori turuvchi soliq organi rahbari (rahbar o‘rinbosari) tomonidan qabul qilinadi.

Shikoyatni ko‘rib chiqayotgan soliq organi o‘z tashabbusiga yoki shikoyat beruvchining iltimosiga ko‘ra uni eshitishni tashkil etishi mumkin.Shikoyatni ko‘rib chiqish natijasi bo‘yicha qabul qilingan qaror, qabul qilingan sanadan e’tiboran uch kun ichida, shikoyat beruvchiga topshiriladi yoki yuboriladi.

Yuqori turuvchi soliq organi tomonidan quyi soliq organining qarori qisman yoki to‘liq bekor qilingan taqdirda, shikoyatni ko‘rib chiqish natijasi bo‘yicha qabul qilingan qaror, u qabul qilingan kundan boshlab keyingi kundan kechiktirmay, shikoyat qilinayotgan soliq organiga yuboriladi.

Qarori to‘liq yoki qisman bekor qilingan soliq organi yuqori turuvchi soliq organining qarori ijroga kelib tushgandan keyin bir kundan kechiktirmay ijro qilishi lozim.

Quyi soliq organi qaror ijrosi amalga oshirilgan kundan e’tiboran uch kun ichida uning ijro etilganligi to‘g‘risida shikoyat beruvchini va yuqori turuvchi soliq organini xabardor qilishi shart. Soliqlar va yig‘imlar bo‘yicha dastlabki qarorni to‘liq yoki qisman bekor qilishni ko‘zda tutuvchi qarorni ijro etish, soliq organi tomonidan soliq to‘lovchining hisobvarag‘iga o‘zgartirish kiritish orqali amalga oshiriladi.

Soliq organining sayyor soliq tekshiruvi yoki soliq auditi natijalari bo‘yicha qabul qilgan qarori yuqori turuvchi soliq organi tomonidan bekor qilingan taqdirda, ushbu qaror bo‘yicha soliqlarning va moliyaviy sanksiyalarning undirilgan (to‘langan) summalari O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining ushbu summalar undirilgan (to‘langan) davrda amalda bo‘lgan qayta moliyalashtirish stavkasidan kelib chiqqan holda hisoblangan foizlar bilan qaytarilishi (hisobga olinishi) lozim.

Agar shikoyat bo‘yicha qaror yuqori turuvchi soliq organi tomonidan belgilangan muddatlarda qabul qilinmagan bo‘lsa, soliq organlari qarorlari ustidan sud tartibida shikoyat qilinishi mumkin.

Soliq tekshiruvi natijalarini ko‘rib chiqish tartib-taomilining muhim shartlari buzilishi yuqori turuvchi soliq organi tomonidan soliq tekshiruvi natijasi yuzasidan qabul qilingan qarorni bekor qilishga asos bo‘lishi mumkin. Bunday muhim shartlarni buzish jumlasiga o‘ziga nisbatan soliq tekshiruvi o‘tkazilgan shaxsning soliq tekshiruvi materiallarini ko‘rib chiqish jarayonida shaxsan va (yoki) o‘z vakili orqali ishtirok etish imkoniyatini bermaslik hamda soliq to‘lovchining tushuntirishlar berish imkonini ta’minlamaslik kiradi.

Soliq tekshiruvi materiallarini ko‘rib chiqish tartib-taomilining boshqacha buzilishlari ham, agar bunday qoidabuzarliklar soliq organi rahbari (rahbar o‘rinbosari) tomonidan g‘ayriqonuniy qaror qabul qilishga olib kelgan yoki olib kelishi mumkin bo‘lsa, yuqori turuvchi soliq organi tomonidan soliq organining qarorini bekor qilish uchun asos bo‘lishi mumkin.

Soliq nizosini ko‘rib chiqish Davlat soliq qo‘mitasining tegishli tuzilmasi yoki uning hududiy bo‘linmalari tomonidan shikoyat beruvchini jalb qilgan holda amalga oshirilishi mumkin.

Soliq nizosini ko‘rib chiqishda, zarur hollarda, maxsus bilimga ega bo‘lgan mutaxassis yoki ekspert jalb qilinishi mumkin. Bunda soliq to‘lovchi to‘g‘risidagi ma’lumotlar soliq sirini tashkil etsa, soliq nizoni ko‘rib chiqish qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Soliq nizosi yuqori turuvchi soliq organi tomonidan qabul qilingan kundan boshlab bir oy ichida ko‘rib chiqiladi va zarur hollarda belgilangan talablar doirasida ko‘rish muddati uzaytirilishi mumkin. Bunda, soliq organining rahbari (rahbar o‘rinbosari) tomonidan tegishli qaror qabul qilinadi.

Ushbu qaror Davlat soliq qo‘mitasining tegishli tuzilmasi yoki uning hududiy bo‘linmalarining xulosalari asosida soliq organi rahbari (rahbar o‘rinbosari) tomonidan qabul qilinadi.

Shikoyatni ko‘rib chiqish natijasi bo‘yicha qaror qabul qilingan yoki uni ko‘rish muddati uzaytirilgan kundan boshlab uch kun ichida, shu jumladan shikoyat elektron ko‘rinishda yuborilgan bo‘lsa, shaxsiy kabinet orqali soliq to‘lovchiga yuboriladi.

Soliq nizosini ko‘rib chiqish natijalari ommaviy axborot vositalarida joylashtirilishi mumkin, e’lon qilinishi doirasi chegaralangan axborotlar bundan mustasno.

2. Soliq organlari mansabdor shaxslarining harakatlari (harakatsizligi) ustidan sudgacha shikoyat qilish

Shikoyat beruvchi soliq organlari mansabdor shaxslarining harakatlaridan (harakatsizligidan) norozi bo‘lgan taqdirda, yuqori turuvchi soliq organiga shikoyat bilan murojaat qilishi mumkin.

Shikoyatda quyidagilar ko‘rsatiladi:

1) jismoniy shaxsning familiyasi, ismi, otasining ismi hamda yashash joyi yoki shikoyat berayotgan yuridik shaxsning nomi va manzili;

2) mansabdor shaxsning harakatlari (harakatsizligi) ustidan berilayotgan shikoyat;

3) ustidan shikoyat berilayotgan mansabdor shaxslarning harakatlari (harakatsizligi);

4) shikoyat berayotgan shaxs o‘zining huquqlari qaysi asoslarga ko‘ra buzilgan deb hisoblasa, o‘sha asoslar;

5) shikoyat berayotgan shaxsning talablari.

Shikoyatda telefon raqamlari, elektron pochta manzillari va shikoyatni o‘z vaqtida ko‘rib chiqish uchun zarur bo‘lgan boshqa ma’lumotlar ko‘rsatilishi mumkin.

Shikoyatga quyidagi hujjatlar ilova qilinishi lozim:

1) harakatlarni (harakatsizlikni) amalga oshirishni tasdiqlovchi hujjat (mavjud bo‘lganda);
2) shikoyat beruvchini fikrini (pozitsiyasini) tasdiqlovchi hujjatlar;
3) shikoyat beruvchi taqdim etishga maqsadga muvofiq hisoblagan boshqa hujjatlar;
4) shikoyat vakil tomonidan berilgan taqdirda ushbu vakilning vakolatini tasdiqlovchi hujjatlar.

Soliq organlari mansabdor shaxslarining harakatlari (harakatsizligi) ustidan shikoyat yuqori turuvchi soliq organining tegishli tuzilmasi tomonidan shikoyat kelib tushgan kundan boshlab o‘n besh kun ichida ko‘rib chiqiladi va tegishli qaror qabul qilinadi. Zarur hollarda, belgilangan muddat quyi soliq organlari yoki shikoyat beruvchidan hujjatlarni (ma’lumotlarni) olish uchun soliq organi rahbari (rahbar o‘rinbosari) tomonidan o‘n besh kundan ko‘p bo‘lmagan muddatga uzaytirilishi mumkin va bu haqda shikoyat beruvchi xabardor qilinadi.

Soliq organlari mansabdor shaxslarining harakatlari (harakatsizligi) ustidan shikoyatni ko‘rib chiqish yakunlari bo‘yicha yuqori turuvchi soliq organi quyidagi qarorlardan birini qabul qiladi:

- shikoyatni qanoatlantirmasdan qoldiradi;
- soliq organlari mansabdor shaxslarining harakatlarini (harakatsizligini) noqonuniy deb topadi va ishning mohiyati bo‘yicha qaror chiqaradi.

Qaror yuqori turuvchi soliq organi rahbari (rahbar o‘rinbosari) tomonidan qabul qilinadi.

Soliq organi mansabdor shaxslarining harakatlari (harakatsizligi) noqonuniy deb topilgan taqdirda, yuqori turuvchi soliq organi qaror qabul qilgan kundan keyingi kunidan kechiktirmasdan, ushbu soliq

organiga aybdor xodimlarga nisbatan tegishli choralar qo‘llash to‘g‘risida topshiriq yuboradi.

Topshiriqni olgan soliq organi ko‘rilgan choralar to‘g‘risida bir kundan kechiktirmasdan yuqori turuvchi soliq organini xabardor qilishi lozim.

Soliq organi mansabdor shaxslarining harakatlari (harakatsizligi) ustidan shikoyatni ko‘rib chiqish natijasi bo‘yicha soliq organining qarori, qaror qabul qilingan kundan e’tiboran uch kundan kechiktirmasdan, shikoyat beruvchiga taqdim etiladi yoki yuboriladi.

Agar shikoyat bo‘yicha qaror yuqori turuvchi soliq organi tomonidan belgilangan muddatlarda qabul qilinmagan bo‘lsa, soliq organlari qarorlari ustidan sud tartibida shikoyat qilinishi mumkin.

3. Shikoyatni ko‘rmasdan qoldirish tartibi

Yuqori turuvchi soliq organi, agar quyidagilarni aniqlagan bo‘lsa, shikoyatni to‘liq yoki qisman ko‘rmasdan qoldiradi:

- shikoyat shikoyatni bergan shaxs yoki uning vakili tomonidan imzolanmagan bo‘lsa yoxud vakilning shikoyatni imzolash uchun vakolatlarini tasdiqlovchi belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan hujjatlar taqdim etilmagan bo‘lsa;
- shikoyat Soliq kodeksida belgilangan shikoyat berish muddati tugaganidan keyin berilgan va uni tiklash to‘g‘risidagi iltimosnomani o‘z ichiga olmagan bo‘lsa yoki shikoyat berish uchun o‘tkazib yuborilgan muddatni tiklash rad etilgan bo‘lsa;
- shikoyat bo‘yicha qaror qabul qilinishiga qadar shikoyatni bergan shaxs nomidan shikoyatni to‘liq yoki qisman chaqirib olish to‘g‘risidagi ariza kelib tushgan bo‘lsa;
- ilgari aynan o‘sha asoslar bo‘yicha shikoyat berilgan bo‘lsa;
- shikoyat soliq organining belgilangan tartibda ilgari shikoyat qilingan qarori ustidan berilgan bo‘lsa;
- shikoyat Soliq kodeksining 232-moddasida belgilangan (ariza kelib tushgan kundan e’tiboran uch kun ichida) tartib buzilgan holda berilgan bo‘lsa;
- shikoyat Soliq kodeksining 233-moddasi talablariga muvofiq rasmiylashtirilmagan bo‘lsa;
- shikoyat qo‘zg‘atilgan jinoyat ishi doirasida yoki soliq to‘lovchi sudda ko‘rilayotgan masalasi bo‘yicha murojaat qilganda berilgan bo‘lsa.

Shikoyatni ko‘rib chiqayotgan soliq organi shikoyat olingan yoxud shikoyatni to‘liq yoki qisman chaqirib olish to‘g‘risidagi ariza olingan kundan e’tiboran besh kun ichida shikoyatni to‘liq yoki qisman ko‘rmasdan qoldirish haqida tegishli qaror qabul qiladi. Qabul qilingan qaror to‘g‘risida shikoyatni bergan shaxsga qaror qabul qilingan kundan e’tiboran uch kun ichida yozma shaklda xabar beriladi.

Shikoyatni ko‘rmasdan qoldirish shaxsning shikoyat berish uchun belgilangan muddatlarda shikoyat bilan takroran murojaat qilishiga qarshilik qilmaydi, ya’ni, shikoyat bo‘yicha qaror qabul qilinishiga qadar shikoyatni bergan shaxs nomidan shikoyatni to‘liq yoki qisman chaqirib olish to‘g‘risidagi ariza kelib tushgan bo‘lsa, ilgari aynan o‘sha asoslar bo‘yicha shikoyat berilgan bo‘lsa kabi asoslar bo‘yicha shikoyatni ko‘rmasdan qoldiriladi.

Soliq organlarining shikoyat qilinayotgan qarorlari yoki harakatni ijrosini to‘xtatib turish soliq to‘lovchining yuqori turuvchi soliq organiga shikoyat berish to‘g‘risida xabardor qilgan kundan keyingi kundan kechiktirmasdan boshlanadi va shikoyat bo‘yicha soliq organi tomonidan yuqori turuvchi soliq organining qarorini olgan kundan keyingi kundan tugaydi.

Ushbu qarorlar yoki harakatni ijrosini to‘xtatib turish shikoyat qilinayotgan soliq organining tegishli tuzilmasi tomonidan amalga oshiriladi.

Mavzu bo‘yicha savollar

1. Shikoyat tushunchasiga ta’rif bering.
2. Shikoyat qilishning huquqiy asosini ko‘rsating.
3. Soliq organlari mansabdor shaxslarining harakatlari (harakatsizligi) ustidan shikoyat qilish tartibi qanday?
4. Soliq organlari mansabdor shaxslarining harakatlaridan (harakatsizligidan) norozi bo‘lgan taqdirda, yuqori turuvchi soliq organiga shikoyatda qanday ma’lumotlar ko‘rsatilishi kerak?
5. Soliq organlari mansabdor shaxslarining harakatlari (harakat-sizligi) ustidan sudgacha shikoyat qilish qanday tartibda amalga ochiriladi?
6. Qanday hollarda shikoyatni ko‘rmasdan qoldirish mumkin?

15-MAVZU. DAVLAT SOLIQ XIZMATI ORGANI KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH

1. Soliq organlarida korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy tamoyillari

2. Soliq organlarida korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy yo‘nalishlari

1. Soliq organlarida korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy tamoyillari

O‘zbekiston Respublikasi Prizedentining 2018-yil 26-iyundagi «Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ–3802-sonli qarorida mamlakat iqtisodiyotini uzoq muddatli rivojlantirish maqsadida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilayotgan bir paytda samarali soliqqa tortish tizimini tashkil etish va davlat soliq xizmati organlarining uyg‘unlashgan faoliyatiga alohida ahamiyat berish kerakligi ta’kidlanib, soliq nazoratining eskirgan uslub va prinsiplariga asoslangan davlat soliq xizmati organlari faoliyatini tashkil etish ular oldiga qo‘yilgan yangi vazifalarni hal qilish, soliq solinadigan bazani kengaytirish va soliqlar yig‘iluvchanligining oshirilishini ta’minlash imkonini bermayotganligini, o‘z echimini topmagan sezilarli muammolarning mavjudligi ya’ni:

- «soliq ma’muriyatchiligida korrupsiyaviy muhitni shakllantirayotgan, davlat soliq xizmati organlarining deyarli barcha bo‘g‘inlarida xodimlar korrupsiyalashuviga olib kelayotgan sezilarli shart-sharoitlarning mavjudligi;
- soliqlar to‘lashdan bo‘yin tovlashning turli sxemalari yaratilishiga olib kelayotgan, savdo, umumiy ovqatlanish korxonalari, bozorlar va savdo komplekslari faoliyatini nazorat qilish bo‘yicha berilgan vakolatlardan samarasiz foydalanilishi;
- mavjud resurslardan davlat soliq xizmati organlari xodimlarini moddiy rag‘batlantirish uchun yetarlicha foydalanilmayotganligi va intizomiy javobgarlikka tortish darajasi haddan tashqari yuqoriligi umuman soliq tizimining samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda»[42]deb ta’kidlandi.

[42] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 26-iyundagi «Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-3802-son qarori.lex.uz

Ushbu muammolarni bartaraf qilish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi soliq ma’muriyatchiligi tizimini takomillashtirishning eng muhim yo‘nalishlari etib quyidagilar belgilab olindi:

- «davlat soliq xizmati organlarini soliq to‘lovchilarning biznes-hamkori va maslahatchisi sifatidagi yangi imidjini yaratish orqali xizmat ko‘rsatishga yo‘naltirilgan idoraga aylantirish, har bir xodim tomonidan «Soliq xizmati – insofli soliq to‘lovchilarning ishonchli hamkori» degan maqsadli vazifani so‘zsiz bajarish;
- soliq ma’muriyatchiligi va nazoratining mutlaqo yangi tizimini yaratish, shuningdek, korrupsiyaviy omillarga yo‘l qo‘ymaslik bo‘yicha preventiv va oldini olish choralarini qo‘llash;
- davlat soliq xizmati organlari xodimlariga korporativ etikani singdirish, davlat soliq xizmati organlarining strategik maqsad va vazifalariga erishish uchun o‘z xizmat faoliyati samaradorligini oshirish motivatsiyasi tizimini joriy etish» [43].

Qarorda keltirib o‘tilgan muammolarni bartaraf etish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasining korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati ishlab chiqilgan bo‘lib, unda xodimlarda hamda jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashish madaniyati darajasini oshirish uchun yuqori axloqiy me’yorlar tarafdori ekanligi, shuningdek, davlat soliq xizmati organlari xodimlari o‘z faoliyatida korrupsion huquqbuzarliklarga murosasiz munosabatda bo‘lishlari va ularni sodir etilishiga yo‘l qo‘ymaslikni qo‘llab-quvvatlashini ta’kidlanadi. Siyosat soliq organlari faoliyatida korrupsion huquqbuzarliklar profilaktikasi va ularga barham berishga yo‘naltirilgan asosiy prinsip va talablarni belgilovchi muhim ichki idoraviy hamda Davlat soliq qo‘mitasi, hududiy davlat soliq xizmati organlari, qo‘mita tasarrufidagi tashkilot va muassasalar tomonidan amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar uchun asosiy hujjat hisoblanadi.

Davlat soliq xizmati organlarida korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy maqsadlari:

- soliq organlarida korrupsiyaga to‘liq barham berilishiga erishish;

[43] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 26-iyundagi «Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-3802-son qarori.lex.uz

- aholi, shu jumladan soliq to‘lovchilarning huquqiy ongi va madaniyatini oshirish, jamiyatda korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatni shakllantirish;
- soliq organlari faoliyatining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish;
- korrupsion huquqbuzarliklarni o‘z vaqtida aniqlash, uning oqibati, sabab va omillarini bartaraf etish, korrupsion jinoyatlarni sodir etganlik uchun jazoning muqarrarligi prinsipini ta’minlash hisoblanadi.

Bu talablar soliq organlarining lavozimi, bajaradigan vazifalaridan qat’iy nazar mehnat munosabatlarida bo‘lgan barcha xodimlari uchun majburiy hisoblanadi, ishga qabul qilinayotgan har bir shaxs ushbu talablarga rioya etishi yuzasidan tanishtiriladi.

Soliq organlari korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan faoliyatini quyidagi tamoyillar asosida amalga oshiradi:

- qonuniylik – soliq organlari korrupsiyaga qarshi kurashish chora-tadbirlarni O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga qat’iy rioya qilgan holda hamda davlat organlarida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha tan olingan xalqaro amaliyotni hisobga olib amalga oshiradi;
- korrupsiyaga murosasizlik – soliq organlari faoliyatining barcha sohalarida korrupsiyaga murosasiz munosabatda bo‘ladi. Xodimlarning har qanday korrupsion xavf kelib chiqishi mumkin bo‘lgan faoliyatda bevosita yoki bilvosita ishtirok etishi taqiqlanadi;
- ochiqlilik va shaffoflik – soliq organlarida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida qabul qilingan ichki idoraviy hujjatlar, amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar haqida shaxsiy tarkib va kontragentlar, shuningdek, keng jamoatchilik doimiy xabardor qilib boriladi;
- preventivlik – soliq organlari korrupsion xatti-harakatlar sodir etilishiga va korrupsion xavfni vujudga kelishiga sabab bo‘ladigan shart-sharoit va omillarni bartaraf etishga qaratilgan ogohlantiruvchi chora-tadbirlarni amalga oshirishga ustuvor ahamiyat beradi;
- tizimlilik – korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan chora-tadbirlar soliq organlari faoliyatining barcha yo‘nalishlarida tizimli ravishda amalga oshiriladi;

- jazo muqarrarligi – korrupsion huquqbuzarlikni sodir etgan xodim o‘zining maqomi va egallab turgan lavozimidan qat’iy nazar amaldagi qonunchilik va soliq organlarining ichki idoraviy hujjatlariga muvofiq javobgarlikka tortiladi;
- jamoatchilik nazorati – soliq organlari o‘zlariga yuklatilgan vazifalarni shaffoflik va xolislik asosida bajarishini ta’minlash maqsadida, korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha belgilangan chora-tadbirlarni baholash uchun jamoatchilik vakillari jalb qilinadi.

Quyidagilar soliq organlari korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining asosiy elementlari hisoblanadi:

a) Korrupsiyaga qarshi kurashishni nazarda tutuvchi ichki idoraviy hujjatlarning mavjudligi;

Bunda, korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining asosini:

- davlat soliq xizmati organlari xodimlarining odob-axloq qoidalari;
- Davlat soliq qo‘mitasining Ichki mehnat tartibi qoidalari;
- davlat soliq xizmati organlariga xizmatga qabul qilishda tanlovlar o‘tkazish, xizmatga qabul qilish va boshqa doimiy ishga o‘tkazish tartibi;
- davlat soliq xizmati organlarida xizmat tekshiruvi o‘tkazish tartibi; boshqa taalluqli ichki idoraviy hujjatlarda aks ettirilgan tamoyillar va talablar tashkil etadi.

b) Yuqori darajadagi rahbarlarning siyosiy irodasi;

Soliq organlari rahbarlari, shuningdek, tarkibiy tuzilmalar rahbarlari bo‘ysunuvidagi xodimlar, jismoniy va yuridik shaxslar bilan munosabatlarda halol, adolatli munosabatda va namunaviy xulq-atvorga ega bo‘lishlari;

Davlat soliq qo‘mitasi raisi va uning o‘rinbosarlari, hududiy davlat soliq xizmati organlari rahbarlari korrupsiyaga qarshi kurashishning samarali tizimini yaratish va amalga oshirishda quyidagilar orqali siyosiy irodani namoyish etadi:

- soliq organlari faoliyatida korrupsion riski mavjud vazifalar, sohalar va funksiyalarni boshqarishda samarali chora-tadbirlar va tartiblarni joriy etishda, shu jumladan, korrupsiyaga qarshi kurashish dasturini ishlab chiqish va uning ijrosini nazorat qilishga tashabbuskor bo‘lishi;

- o‘z lavozim majburiyatlarini bajarish doirasida, soliq organlari xodimlarida korrupsiyaning barcha ko‘rinishlariga murosasiz munosabatni shakllantirgan holda huquqiy nigilizm, manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymaslik, amaldagi qonunchilik va ichki idoraviy hujjatlarga rioya qilishi;
- xodimlar, jismoniy va yuridik shaxslar bilan muloqotda axloqiy xulq-atvor yuzasidan shaxsan namuna sifatida namoyon bo‘lishi lozim.

c) Korrupsiyaga qarshi kurashish uchun mas’ul shaxslar va bo‘linmalar; Soliq organlarida korrupsiyaga qarshi kurashish, korrupsion xavfni aniqlash va baholash Davlat soliq qo‘mitasining O‘z xavfsizligi va kompleans-nazorat boshqarmasi hamda uning hududiy bo‘limlari tomonidan tizimli ravishda amalga oshiriladi. Mazkur jarayonda soliq organlarining rahbarlari hamda boshqa taalluqli tarkibiy tuzilmalari ham faol jalb etiladi. Davlat soliq qo‘mitasining O‘z xavfsizligi va kompleans-nazorat boshqarmasi o‘z vazifalarini amalga oshirishda etarli darajada mustaqillikka va resurslarga ega bo‘lib, bevosita Davlat soliq qo‘mitasining raisiga bo‘ysunadi. O‘z xavfsizligi va kompleans-nazorat boshqarmasi o‘z faoliyatini qo‘mita raisi tomonidan tasdiqlangan nizomga muvofiq amalga oshiradi. O‘z xavfsizligi va kompleans-nazorat boshqarmasi va uning hududiy bo‘limalari xodimlar o‘rtasida manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida kelib tushgan ma’lumotlarni ko‘rib chiqadi va (manfaatlar to‘qnashuvi tartibga solinmagan taqdirda) uni hal qilish bo‘yicha yoki aniqlangan holatlarni tartibga solishga qaratilgan choralarning samaradorligi to‘g‘risida xulosa qabul qiladi.

d) Korrupsion xavfni aniqlash va baholash;

Soliq organlari korrupsiyaga murosasiz munosabatda bo‘lishini hisobga olgan holda faoliyatida ko‘lami va ta’sir qilish darajasidan qat’iy nazar korrupsion xavfni boshqarish zaruratini tan oladi. Soliq organlari faoliyati, tarkibiy tuzilmalari, sohalari va bajarilayotgan funksiyalariga xos hamda boshqa ichki va tashqi omillarga bog‘liq holda korrupsion xavfni aniqlaydi va baholaydi. Bunda, soliq organlari faoliyatining barcha sohalari korrupsion xavfga ko‘proq uchraydigan soha (funksiya, yo‘nalish) larni aniqlash maqsadida tizimli tahlildan o‘tkaziladi. Korrupsion xavfni baholash yiliga kamida bir marta amalga oshiriladi. Baholash natijalari Davlat soliq qo‘mitasi raisi va tegishli rahbarlar tomonidan ko‘rib chiqiladi. Aniqlangan xavflarni boshqarish

hamda uning asosiy omillarini bartaraf etish choralari soliq organlarining korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan tegishli chora-tadbirlari, ish rejalari yoki yo‘l xaritalarida aks ettiriladi.

e) Korrupsion xavfni minimallashtirishga qaratilgan choralar;

Soliq organlari o‘z faoliyatidagi korrupsion xavflarni boshqarish, umumiy nazorat muhitini yaratish va korrupsiyaga qarshi kurashish tartib-taomillarini o‘z ichiga oluvchi korrupsiyaga qarshi kurashishning kompleks tizimini joriy etadi. Soliq organlari korrupsiyaga qarshi kurashishni nazorat qilish va tartib-taomillarning samaradorligi, jumladan, ularning aniqlangan xavf darajasiga mutanosibligi, soliq organlari xodimlari uchun qat’iyligi va aniqligi, keng jamoatchilik uchun shaffofligini ta’minlaydi. Amalga oshiriladigan tadbirlar, shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha nazorat choralari va tartib-taomillar soliq organlarining korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha me’yoriy hujjatlarida (chora-tadbir, ish reja, yo‘l xaritasi) aks ettiriladi.

f) Xabardor qilish va maslahat berish;

Korrupsion xavfni kamaytirish va soliq organlarining korrupsiyaga qarshi kurashish tamoyillari va talablarini keng jamoatchilikka yetkazish maqsadida, soliq organlarining korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora- tadbirlari to‘g‘risidagi asosiy ma’lumotlar Davlat soliq qo‘mitasining rasmiy veb- saytiga joylashtiriladi.

Xodimlarning huquqiy madaniyatini oshirish, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi qonun hujjatlari bilan tanishtirish maqsadida:

- soliq organlari xodimlari uchun yiliga kamida bir marotaba korrupsiyaga qarshi kurashish asoslari bo‘yicha malaka oshirish kurslari tashkil etiladi;
- ishga yangi qabul qilinayotgan xodimlarga korrupsiyaga qarshi kurashish yuzasidan boshqa ichki idoraviy hujjjatlar talablarini tanishtirish uchun majburiy o‘quv kurslari tashkil etiladi;
- korrupsion riski yuqori bo‘lgan sohalar (lavozimlar) bo‘yicha soliq organlarida korrupsiyaga qarshi kurashish yo‘nalishida qo‘shimcha ta’lim dasturlari belgilanadi;
- soliq organlari xodimlari va soliq to‘lovchilarda korrupsiyaga murosasiz munosabatini shakllantirish maqsadida audio va videoroliklar hamda boshqa axborot ma’lumotlaridan foydalangan holda profilaktik tadbirlar tashkil etiladi. Soliq

organlari xodimlari tomonidan sodir etilgan korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqidagi ma’lumotlar haqida xabar berilishi mumkin bo‘lgan aloqa kanallari tashkil qilinadi. Soliq organlari xodimlarining mehnat shartlari tarkibiga korrupsiyaga qarshi kurashish qoidalari kiritiladi. Xodimlar o‘rtasida korrupsiyaga qarshi kurashishda lozim bo‘lgan xulq-atvorni shakllantirish bo‘yicha targ‘ibot-tashviqot ishlari amalga oshiriladi. Kontragentlarni korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha qabul qilingan talablar va tamoyillar haqida, shu jumladan, ular bilan tuziladigan shartnomalarga korrupsiyaga qarshi kurashish yuzasidan maxsus shartlar kiritilishi to‘g‘risida xabardor qilinadi va hokazo.

j) Monitoring, nazorat va hisobot;

Davlat soliq qo‘mitasi O‘z xavfsizligi va kompleans-nazorat boshqarmasi korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha tegishli chora-tadbirlarning ishlab chiqilganligi, mutanosibligi va samaradorligini baholaydi hamda doimiy monitoringini olib boradi. O‘tkazilgan monitoring natijalari bo‘yicha korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish yuzasidan tegishli choralarni ko‘radi.

Soliq organlarida monitoring va nazorat qilishning quyidagi tartib-taomillari amalga oshiriladi:

- soliq organlarida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimiga ichki va tashqi
- omillarning ta’sirini o‘rganish;
- korrupsiyaga qarshi kurashish tizimiga o‘zgartirish kiritish zaruratini tahlil qilish, shu jumladan, uni amaldagi qonunchilik talablariga muvofiqligini ta’minlash;
- samarasiz tartib-taomillarni aniqlash, tegishli o‘zgartirishlar kiritish va korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining ishonchliligi va samaradorligini ta’minlash maqsadida tanlov asosida funksiyalar va ichki jarayonlarni monitoring qilish;
- ichki va (yoki) tashqi tekshiruvlarni o‘tkazish jarayonida soliq organlari xodimlari tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha talablarga rioya qilinishini nazorat qilish va boshqalar.

Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini nazorat qilish va monitoringi bo‘yicha chora-tadbirlar natijalari Davlat soliq qo‘mitasi Hay’at yig‘ilishi va tegishli hududiy soliq organlarining Kengash yig‘ilishlarida muhokama qilinadi.

h) Huquqbuzarliklarga nisbatan munosabat bildirish va aybdor shaxslarni javobgarlikka tortish;

Soliq organlarida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha belgilangan chora- tadbirlarga rioya qilish har bir xodim uchun majburiydir. Soliq organi har bir xodimi belgilangan talablarni buzganligi uchun shaxsan javobgar hisoblanadi. Shuningdek, tarkibiy tuzilma rahbarlari o‘z bo‘ysunuvidagi xodimlar tomonidan korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etilganligi uchun shaxsan javobgar hisoblanadilar.

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha belgilangan talablar, tartib-tamoyillarni buzgan har bir soliq organi xodimi O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda intizomiy, ma’muriy yoki jinoiy javobgarlikka tortiladi. Xodimlar ularni korrupsiya bilan bog‘liq huquqbuzarlikni sodir etishga undovchi shaxslarning har qanday murojaatlari to‘g‘risida, shuningdek, boshqa xodimlar tomonidan sodir etilgan korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida o‘ziga ma’lum bo‘lgan har qanday faktlar haqida o‘z rahbarlariga, O‘z xavfsizligi va kompleans-nazorat boshqarmasi hamda uning hududiy bo‘limlariga xabar berishlari shart.

O‘z xavfsizligi va kompleans-nazorat boshqarmasi hamda uning hududiy bo‘limlari tomonidan soliq organlari xodimlarining korrupsiyaga oid huquqbuzarlik sodir etishlari bilan bog‘liq har qanday asosli shubha bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga muvofiq va ichki hujjatlarda belgilangan tartibga asosan xizmat tekshiruvlari o‘tkaziladi. Shuningdek, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etilishiga sabab bo‘lgan omillar va shart-sharoitlarni tahlil qiladi va doimiy ravishda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirib boradi. Soliq organlari, shu jumladan, O‘z xavfsizligi va kompleans-nazorat boshqarmasi hamda uning hududiy bo‘limlari korrupsiyani bartaraf etish choralarini ko‘rishda, o‘ziga yuklatilgan vazifalar doirasida huquqni muhofaza qiluvchi va boshqa vakolatli davlat organlari bilan hamkorlik qiladi.

2. Soliq organlarida korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy yo‘nalishlari

Soliq organlari xodimlari o‘z xizmat majburiyatlarini bajarish va (yoki) soliq organining manfaatlarini ifodalash doirasida vijdoniylik va halollik tamoyillariga amal qilishi, shaxsiy manfaatlari yo‘lida xizmat

mavqeyidan va (yoki) soliq organlarining mol-mulkidan foydalanmaslik va manfaatlar to‘qnashuviga olib keladigan vaziyatlardan yiroq bo‘lishlari lozim. Soliq organlarining har bir xodimi xizmat vazifalarini bajarish chog‘ida vujudga kelgan yoki vujudga kelishi ehtimoli mavjud manfaatlar to‘qnashuvi haqida o‘zining bevosita rahbariga zudlik bilan xabar berishi shart.

Davlat soliq qo‘mitasi nomzodlarni ishga qabul qilishda, boshqa lavozimga o‘tkazilishida manfaatlar to‘qnashuviga olib keladigan yoki olib kelishi mumkin bo‘lgan holatlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni har yili va tegishli vaziyatlar yuzaga kelishiga qarab oshkor qilishga majburdir.

Soliq organlarida manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni oshkor qilish va uni hal qilish jarayoni O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi va ichki me’yoriy hujjatlar asosida tartibga solinadi.

Soliq organlari xodimlariga o‘z xizmat majburiyatlarini bajarish jarayonida jismoniy va yuridik shaxslardan biron-bir sovg‘a yoki mehmondo‘stlikning belgilari, qarz, kafolatlar, kafilliklar, mukofotlar shaklida rag‘batlantirish vositalari, naqd pul mablag‘lari, qimmatli qog‘ozlar ko‘rinishida moddiy yordam qabul qilish taqiqlanadi. Soliq organlari xodimlari tomonidan rasmiy delegatsiyalar tarkibida, rasmiy tadbirlarda, jumladan, xorijda olingan har qanday sovg‘alar (summasidan qat’iy nazar) soliq organlarining mulkiga o‘tkaziladi. Soliq organlari jamoasi tomonidan xodimlarga ularning shaxsi bilan bog‘liq bayram kunlarida (tug‘ilgan kun, nikoh qurish, farzand tug‘ilishi, Vatan himoyachilari kuni, Xalqaro xotin-qizlar kuni va hokazo) berilgan, xizmat majburiyatlarini bajarishga bog‘liq bo‘lmagan sovg‘alar – xodimning shaxsi bilan bog‘liq sovg‘alar deb tan olinadi.

Bunday sovg‘alarni berishda quyidagi talablarga rioya qilish lozim:

- sovg‘alar soliq organlarining kamida uch nafar xodimlari ishtirokida berilishi lozim;
- sovg‘a berish jarayoni tabrik nutqi bilan birga bo‘lishi, unda sovg‘a berishga sabab bo‘lgan voqea o‘zining aniq ifodasini topgan bo‘lishi kerak; sovg‘aning umumiy qiymati (barcha soliqlar va yig‘imlarni hisobga olgan holda) 10 (o‘n) bazaviy hisoblash miqdoridan oshmasligi kerak.

Soliq organlarining har bir xodimi shaxsi bilan bog‘liq bayram kunlarida boshqa davlat idoralari, jismoniy va yuridik shaxslar

vakillaridan har qanday ko‘rinishdagi sovg‘alar va boshqa moddiy va nomoddiy qimmatliklarni olishi taqiqlanadi.

Xalqaro konferensiyalarda, simpoziumlarda va boshqa xizmatga oid ishbilarmonlik yig‘ilishlarda Davlat soliq qo‘mitasi nomidan sovg‘alar berish qo‘mita raisining buyrug‘i bilan amalga oshiriladi.

Sovg‘a qabul qilishning qonuniyligi bo‘yicha shubha tug‘ilgan har qanday holatda xodimlar O‘z xavfsizligi va kompleans-nazorat boshqarmasi yoki uning hududiy bo‘limlariga maslahat so‘rab murojaat qilishi lozim.

Soliq organlari xodimlarini tanlash, ularni attestatsiyadan o‘tkazish va faoliyatini baholash, shu jumladan mukofot pullarini to‘lash, ustama haqlar va boshqa turdagi mukofotlarni belgilash jarayoni barcha xodimlar uchun shaffof, teng va xolis bo‘lib, asosiy tamoyillari va talablariga muvofiq kelishi lozim.

Soliq organlarida rahbar va xodimlarni mukofotlashga asos bo‘lib xizmat qiladigan faoliyatlarining asosiy ko‘rsatkichlarini baholash tartibi va mezonlari ishlab chiqilishi lozim. Ushbu ko‘rsatkichlar har tomonlama xolis, adolatli, oshkora hamda soliq organlarining shaxsiy tarkibi bilan muhokama qilinishi kerak.

Soliq nazoratini tashkil etishda har bir soliq organlari xodimlari: manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymasligi;

- tekshirish yoki o‘rganish bir nafar xodim tomonidan amalga oshirilmasligi;
- sodir etilishi mumkin bo‘lgan huquqbuzarliklarni soxtalashtirish uchun tekshirilayotgan subyekt vakillarining etarli bilimga ega emasligidan foydalanib qonun hujjatlari normalarini noto‘g‘ri talqin qilmasligi, ularni aniqlangan faktlarni huquqni muhofaza qiluvchi organlarga taqdim etish bilan qo‘rqitmasligi;
- soliq nazorati o‘tkazilayotgan subyekt vakillariga tahdid qilmasligi;
- tekshirish predmetiga kirmaydigan masalalar bilan qiziqmasligi va ortiqcha hujjatlarni so‘ramasligi;
- soliq organlari xodimlari nazorat tadbiri davomida aniqlangan har bir huquqbuzarlik holatlariga qonuniy va professional baho berishi;
- agar, subyekt vakillari aniqlangan qonunbuzarliklarni yashirish uchun pora yoki biron-bir moddiy va nomoddiy qimmatlik yoki xizmatlarni taklif qilsa, O‘z xavfsizligi va kompleans-nazorat

boshqarmasi yoki uning hududiy bo‘limlari xodimlarini bu haqida darhol xabardor qilishi;

- subyekt vakillariga axloqiy xulq-avtor tamoyillariga muvofiq xolis munosabatda bo‘lishi shart.

Soliq organi kontragentlar va uchinchi shaxslar bilan munosabatlarda:

- qonuniylik va shaffoflik tamoyillariga amal qiladi;
- korrupsion xavfni keltirib chiqaruvchi har qanday xatti-harakatlarni amalga oshirmaydi.

Soliq organlari mahsulot yetkazib beruvchilar, pudratchilar va boshqa kontragentlarni tanlab olish va baholashning haqqoniy, ochiq va shaffof jarayonini O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va ichki idoraviy hujjatlar asosida ta’minlaydi.

Soliq organlari kontragentlar bilan o‘zaro hamkorlikda:

– bo‘lajak kontragentning ishonchliligini, jumladan, muqaddam korrupsion holatlar va huquqbuzarliklarni sodir etilishi, soliq organlari xodimlari bilan manfaatlar to‘qnashuvi mavjud emasligini tekshiradi;

– bo‘lajak kontragentni (tanlov, tender g‘olibini va to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar bo‘yicha xarid kontragentini) o‘zining korrupsiyaga qarshi kurashish tamoyillari va talablari haqida ular bilan tuziladigan shartnomalar matniga maxsus shartlarni qo‘shgan holda xabardor qiladi va tanishtiradi.

Soliq organlari amaldagi qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda xayriya va homiylikni qabul qilishlari mumkin. Bunday yordamni olgan paytda soliq organlari manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymasligi, mablag‘larni qonunda yoki shartnomada belgilangan maqsadlar uchun samarali sarflanishini ta’minlashi shart, shuningdek, bu haqida rasmiy veb-sayt orqali jamoatchilikka oshkor qilishi mumkin.

Soliq organlarining ko‘rsatayotgan xizmatlari sifati va tezligini, shuningdek, mas’ul xodimning huquqbuzarlik sodir etishiga moyilligini aniqlash maqsadida haqqoniy va ochiq tanlov natijalariga ko‘ra tanlab olingan mustaqil kompaniyalar orqali alohida nazorat tadbirlari o‘tkaziladi. Ushbu kompaniya soliq xizmatlarining sifatini, muddatliligini, shuningdek, soliq organlari xodimlari tomonidan belgilangan odob-axloq qoidalariga rioya qilinishini, ularning pora olishga moyilligini o‘rganib boradi.

Soliq organlari o‘tkazilgan «sirli mijoz» tadbirlari to‘g‘risidagi hisobotlarni ko‘rib chiqadi va korrupsiya riski aniqlangan taqdirda xizmat tekshiruvi o‘tkazadi.

Soliq organlarida xodimlar tomonidan jismoniy va yuridik shaxslar bilan muloqot jarayonida odob-axloq qoidalariga rioya qilinishi, korrupsion xavfni va huquqbuzarlikni kelib chiqishining oldini olish maqsadida video va audio yozuvlar yozib olinadi hamda ular O‘z xavfsizligi va kompleans-nazorat boshqarmasi va uning hududiy bo‘limlari xodimlari tomonidan doimiy ravishda kuzatib boriladi.

Davlat soliq qo‘mitasining rasmiy veb-saytiga korrupsiya riski yuqori bo‘lgan ayrim jarayonlarning onlayn translyatsiyalari joylashtirilishi mumkin (ishga qabul qilishda nomzodlar bilan suhbat va ularni sinovdan o‘tkazish jarayonlari, komissiya yig‘ilishlari, attestatsiya komissiyasi va boshqalar).

Ichki idoraviy hujjatlarni huquqiy ekspertizadan o‘tkazishda hujjatlarda korrupsion huquqbuzarliklar sodir etilishiga imkon yaratadigan omillarning mavjudligi, ularning oldini olish, aniqlash va istisno qilinishiga alohida e’tibor qaratiladi. Shaxsiy tarkib hamda jismoniy va yuridik shaxslarda xodimlarning xatti-harakatlari qonuniyligiga, odob-axloq normalariga rioya qilishiga shubha tug‘ilsa, shuningdek, korrupsiya va boshqa huquqbuzarlik holatlari sodir etishiga gumon yoki sodir etilganligi haqida aniq faktlar mavjud bo‘lsa, ular bu haqida Davlat soliq qo‘mitasiga tegishli aloqa kanallari orqali xabar berishlari mumkin. Bunday murojaatlarni ko‘rib chiqishda soliq organlarining vakolatli mansabdor shaxslari muallifning shaxsini sir tutilishini ta’minlaydi (qonunchilikda nazarda tutilgan hollar bundan mustasno).

Korrupsion holat haqida murojaat qilgan soliq organi xodimi himoyaga olinadi hamda uni qasddan ishdan bo‘shatish, lavozimini pasaytirish, kamsitish, bosim o‘tkazish hamda ta’qib qilish kabi holatlarga yo‘l qo‘yilmaslik kafolatlanadi.

Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi xabarlarni:

- Soliq organlarining ishonch telefonlari;
- Soliq organlarining telegramm kanallari;
- Davlat soliq qo‘mitasining rasmiy veb-saytidagi «Korrupsiyaga qarshi kurashish» bo‘limidagi alohida anonim xabar berish kanali;
- Soliq organlarining rasmiy elektron pochta manzillari;

- O‘z xavfsizligi va kompleans-nazorat boshqarmasi telefonlari aloqa kanallari orqali berish mumkin, to‘g‘ridan-to‘g‘ri huquqni muhofaza qiluvchi organlarga murojaat qilish huquqi mavjud.

Kelib tushgan barcha murojaatlar O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari va soliq organlarining ichki idoraviy hujjatlariga muvofiq belgilangan tartib va muddatlarda ko‘rib chiqiladi.

Anonim yuborilgan xabarlarda qayd etilgan holatlar bo‘yicha soliq organlari tomonidan qonun hujjatlari talablariga zid bo‘lmagan dastlabki o‘rganish amalga oshiriladi. Qayd etilgan holatlar o‘z tasdig‘ini topgan taqdirda, O‘z xavfsizligi va kompleans-nazorat boshqarmasi va uning hududiy bo‘limlari tashabbusi bilan xizmat tekshiruvi o‘tkaziladi.

Soliq organi xodimi tomonidan korrupsion holat haqida qasddan yolg‘on ma’lumot taqdim etilishi soliq organlarida o‘rnatilgan odob-axloq qoidalarining buzilishi deb baholanadi hamda unga nisbatan ichki idoraviy hujjatlarga muvofiq tegishli intizomiy jazo chorasi qo‘llaniladi.

Soliq organlarida korrupsiya faktlari to‘g‘risida vijdonan xabar bergan xodimlar, agar bu ma’lumotlar tasdiqlangan bo‘lsa, belgilangan tartibda rag‘batlantirilishi mumkin.

Mavzu bo‘yicha savollar

1. Soliq organlarida korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy tamoyillarini sanab bering.

2. Davlat soliq xizmati organlarida korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy maqsadlarini ko‘rsating.

3. Soliq organlari korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining asosiy elementlari nimalardan iborat?

4. Xodimlarning huquqiy madaniyatini oshirish, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi qonun hujjatlari bilan tanishtirish maqsadida qanday tadbirlar amalga oshiriladi?

5. Soliq organlarida korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy yo‘nalishlari nimalarda ko‘rinadi?

6. Soliq organlarida rahbar va xodimlarni mukofotlashga asos bo‘lib xizmat qiladigan faoliyatlarining asosiy ko‘rsatkichlarini baholash tartibi va mezonlari qanday?

VII BOB. SOLIQ MUNOSABATLARIDA SOLIQ INTIZOMI MUAMMOLARINI YECHISHDA ILG‘OR TAJRIBALARDAN FOYDALANICH

16-MAVZU. SOLIQ MUNOSABATLARIDA SOLIQ INTIZOMI MUAMMOLARI, ULARNI YECHISHDA ILG‘OR TAJRIBA VA METODLARNI AMALIYOTGA TATBIQ ETISH

1. Soliq munosabatlarida soliq intizomiga rioy qilishni tashkil etish

2. Soliq majburiyatini bajarish, soliq qarzdorliklarini kamaytirish bo‘yicha xorijiy mamlakatlar tajribasi

3. Xorijiy mamlakatlarda soliqqa oid huquqbuzarliklar va ularga qarshi qo‘llaniladigan chora-tadbirlar

1. Soliq munosabatlarida soliq intizomiga rioy qilishni tashkil etish

Prezidentimiz Shavkat Miromonovich ta’kidlaganlaridek: «Yangi fikr va yangi g‘oyaga, innovatsiyaga tayangan davlat har doim yutadi va rivojlanadi»[44].

Bugungi kundagi soliq siyosatidagi eng muhim va dolzarb bo‘lgan masalalardan biri – bu soliq munosabatlarini muvofiqlashtiruvchi soliq qonunchiligi va boshqa me’yoriy hujjatlarning mukammalligini ta’minlash, soliq ma’muriyatchiligini tubdan takomillashtirish, soliqlarning yig‘iluvchanligini oshirish bilan bir qatorda soliq qarzdorliklarini hosil bo‘lishining oldini olish va ularni undirish mexanizimini takomillashtirishdan iboratdir.

Soliqlarning to‘g‘ri hisoblanishi va to‘liq undirilishi xo‘jalik yurituvchi subyektlarga qulay shart-sharoit yaratish hamda ular manfaatini qonuniy himoyalash uchun ham xizmat qiladi.

Mustaqillik yillarida O‘zbekiston davlat soliq tizimi tez sur’atlarda rivojlanib, har qanday rivojlangan mamlakat soliq tizimi bilan raqobatlasha oladigan darajaga erishdi. Xarajatlarni qisqartirish maqsadida davlat soliq xizmati organlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanib, soliq qarzini elektron inkasso

[44] Mirziyoyev Sh.M. Innovatsion g‘oyalarni ilm-fan va sanoatga keng tatbiq etish- islohotlar samaradorligining bosh mezoni//Xalq so‘zi. № 107. 2019-yil. 29-may.

topshiriqnomalari orqali undirilmoqda. Ushbu tartibni soliq undirish amaliyotiga joriy etish, albatta, davlat manfaatlariga mos keldi. Xodimlarning huquqiy madaniyatini oshirish, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi qonun hujjatlari bilan tanishtirish maqsadida 2011-yilning yanvar oyidan boshlab soliq qarzini undirishning elektron inkasso topshiriqnomalari tizimi joriy etildi.

Soliq qarzini undirishning elektron inkasso topshiriqnomalari tizimining joriy etilishi quyidagi afzalliklarga ega:

- xodimning vaqtini tejaydi;
- qarzdor korxona hisob raqamiga avtomatik ravishda inkasso topshiriqnomasini o‘z vaqtida qo‘yilishini ta’minlaydi;
- soliq qarzi undirilishini tezlashtiradi;
- soliq undirish xarajatini kamaytiradi (qog‘oz, bo‘yoqlar, printerlar va boshqa xarajatlarni qisqartirish evaziga);
- byudjetga tushumlarning o‘z vaqtida tushishini ta’minlaydi;
- soliq nazorati samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 125-moddasiga muvofiq jismoniy shaxsning byudjet oldida soliq qarzdorligi yuzaga kelgan taqdirda, agar jismoniy shaxsning soliq qarzi umumiy summasi bir million so‘mdan oshsa, undirish to‘g‘risidagi ariza soliq organi tomonidan soliq qarzini undirish yuzasidan belgilangan tartibda sudga murojaat qilish lozimligi belgilab berilgan.

Belgilangan tartibdan kelib chiqqan holda davlat soliq xizmati organlari mavjud soliq qarzini jismoniy shaxsdan undirish yuzasidan da’vo arizani rasmiylashtiradi va tegishli iqtisodiy sudlariga topshiradilar. Iqtisodiy sudlar tomonidan ushbu da’vo arizalari atroflicha ko‘rib chiqilib, soliq qarzini jismoniy shaxsdan undirish yuzasidan ijro hujjati chiqariladi. Ushbu ijro hujjati belgilangan muddatda ijro uchun tegishli hududiy O‘zbekiston Respublikasi Bosh Prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosi bo‘limiga taqdim qilinadi va ijro hujjati yuzasidan qarzni undirish amalga oshiriladi.

Qonunchiligimizga muvofiq soliq qarzini mol-mulk hisobidan undirish faqat sud tartibida amalga oshiriladi. Mazkur tartib qoidalar soliq qarzini undirishni biroz ortga surilishiga olib kelmoqda, bundan tashqari, sud xarajatlari va pochta xarajatlari ham mavjud. Ko‘plab mamlakatlar tajribasiga ko‘ra, soliq qarzini mol-mulk hisobidan undirish sud tartibida amalga oshirilmaydi, bu vakolat davlat soliq xizmati organlarining vakolati hisoblanadi. Ushbu amaliyot soliq

qarzlarini undirish tezlashishiga ortiqcha sarf-xarajatlarning oldi olinishiga sabab bo‘ladi.

Dunyo mamlakatlari tajribasini o‘rganib shuni aytish mumkinki, xususan, Yaponiyada soliq qarzini undirishdan ko‘ra uni vujudga kelishini bartaraf etishga katta ahamiyat beriladi. Buning uchun, avvalambor, soliq to‘lovchilarning soliq madaniyatini rivojlantirish masalasiga katta e’tibor qaratilishi lozim.

Soliq madaniyati shakllanish jarayoniga ham bir qator muammolar ta’sir qiladi.

Ayrim tadqiqotchilarning fikricha, ular qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

- qonunchilikning nobarqarorligi;
- targ‘ibot ishlarining yetarli darajada emasligi;
- soliq munosabatlari subyektlarining o‘zaro munosabatlaridagi ijtimoiy javobgarlik muammolari;
- aholining soliq organlariga bo‘lgan ishonchsizligi;
- soliq organlarida xizmat qilish nufuzining yuqori emasligi va kadrlar qo‘nimsizligi;
- globalizatsiya jarayonida raqobatning kuchayishi va buning natijasida xo‘jalik yurituvchi subyektlarning doimiy ravishda soliq va yig‘imlardan qochish yo‘llarini qidirishi.

Aholi soliq savodxonligining pastligi, huquqiy nigilizm, normativ-huquqiy hujjatlarga ommaviy amal qilmaslik, soliq sohasiga yuzaki munosabat davlat va jamiyat manfaatlariga tuzatib bo‘lmaydigan darajada zarar keltiradi[45].

Hozirgi kunda ushbu masala yuzasidan bir qancha amaliy ishlar olib borilayotganligini ko‘rish mumkin, masalan «Biz to‘laydigan soliqlar nimalarga sarflanadi», – deb nomlangan ijtimoiy videoroliklarda ijtimoiy tarmoqlar orqali fuqarolarga ular to‘laydigan soliqlar davlat uchun uning o‘z oldiga qo‘ygan vazifalarini bajarishi uchun naqadar muhim ahamiyat kasb etishi haqida tushuntirilgan. Bundan tashqari, Respublikamizning barcha hududlarida «Men soliq to‘lovchiman» aksiyasi o‘tkazilishi ham fuqarolarning soliq savodxonligini oshirishga xizmat qilmoqda. Shu kabi ishlarni amalga oshirish natijasida soliq madaniyatini yanada yuksaltirish orqali fuqarolarimiz tomonidan soliqlar va yig‘imlarning o‘z vaqtida

[45] Raximov A.M., Temirov D.N. O‘zbekistonda soliq sohasidagi huquqbuzarliklar sabablari va ularga imkon beruvchi shart-sharoitlar//“Xalqaro moliya va hisob» ilmiy elektron jurnali. 2017. Aprel. № 2

to‘lanishi natijasida soliq qarzdorliklarini vujudga kelishining oldini olish mumkin.

Soliq to‘lovchi yuridik shaxslar soliq qarzdorligini kamaytirish, soliq qarzi vujudga kelishining oldini olishda soliq qarzining vujudga kelish sabablari hamda unga bevosita ta’sir etuvchi omillarni o‘rganib chiqish zarur. O‘zaro moliyaviy- xo‘jalik munosabatida bo‘lgan korxonalar tomonidan to‘lov intizomi qoidalariga rioya qilmaslik va buning oqibatida debitorlik hamda kreditorlik qarzlarining ortib ketishi korxonlarning byudjet oldida qarz majburiyatlarini vujudga kelishiga o‘z ta’sirini o‘tkazmoqda. Xorijiy mamlakatlar tajribalarini o‘rganish davomida shuni ko‘rdikki, ayrim mamlakatlarda soliq qarzdorliklari vujudga kelishining oldini olish maqsadida soliq qarzi mavjud xo‘jalik yurituvchi subyektlar soliq imtiyozlaridan foydalanish huquqidan mahrum etiladilar. Bu esa korxona uchun o‘z foydasining qisqarishiga olib keladi. Shuning uchun ham mazkur davlatlarda soliq imtiyozlaridan mahrum bo‘lmaslik uchun soliqlarni o‘z vaqtida hamda to‘liq hajmda to‘lashga harakat qilinadi. Mazkur mexanizm soliq qarzlarini vujudga kelishining oldini olish uchun xizmat qiladi.

Shunindek, soliq qarzini vujudga kelishining oldini olish bo‘yicha amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ishlardan biri sifatida soliq to‘lovchilarni qonunchilikdagi yangiliklardan xabardor qilish, undagi o‘zgarishlar bo‘yicha tushuntirishlar berish, turli seminar-treninglar tashkil etishni aytishimiz mumkin.

Iqtisodiyotning real sektori korxonalari moliyaviy faoliyatiga hozirda salbiy ta’sir ko‘rsatayotgan muammolardan biri - bu korxonaning byudjet oldidagi soliq qarzi uchun penya to‘lashidir. Penyalar soliq to‘g‘risidagi qonunchilikda belgilangan soliqni to‘lash kunidan keyingi kundan boshlab soliqni to‘lash bo‘yicha majburiyatni bajarish kechiktirilgan har bir kalendar kun uchun hisoblanadi. Har bir kechiktirilgan kun uchun penyalar soliqning to‘lanmagan summasidan kelib chiqib foizlarda belgilanadi.Penyaning foiz stavkasi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining shu davrda amalda bo‘lgan qayta moliyalash stavkasining uch yuzdan biriga teng etib qabul qilinadi [46].

Penyalarning belgilanishi bir tomondan adolatli, chunki u korxonalar byudjet oldidagi majburiyatlarini o‘z vaqtida bajarilishiga ta’sir ko‘rsatadi. Hozirda esa hukumat qarorlari bilan davlat xaridi va

[46] O’zbekison Respublikasining Soliq Kodeksi 110-moddasi https://lex.uz/docs/-4674902 sayti ma’lumotlari.

byudjet tashkilotlariga yuklab jo‘natilgan tovarlar (ish, xizmat) uchun davlat byudjetidan mablag‘larning o‘z vaqtida o‘tkazilmasligi sababli bunday soliq qarzlari ko‘payib bormoqda.

2. Soliq qarzdorliklarini kamaytirish bo‘yicha xorijiy mamlakatlar tajribasi

Xorijiy mamlakatlarning soliq qonunchiligida soliq qarzini undirishning ikkita bosqichi mavjud. Bular: birinchisi soliq organlari tomonidan soliq qarzlarini majburiy undiruvga qaratishni tashkil etish bo‘yicha chora tadbirlar, ikkinchisi bevosita undiruvni soliq to‘lovchining mol-mulkiga qaratish.

Birinchi bosqich soliq organlari soliq to‘lovchidan soliq majburiyatlarini bajarishini talab qilishni o‘z ichiga qamrab oladi. Ikkinchi bosqich soliq qarzini undirishni uning pul mablag‘lariga, mol-mulkiga, debitorlariga qaratishni belgilab beradi. Ayrim xorijiy davlatlarda bu choralar soliq idoralari tomonidan amalga oshiriladi.

Soliq qarzlarini undirish va soliq qarzini kamaytirish bo‘yicha xorijiy mamlakatlarning tajribalarini o‘rganish ularni ijobiy tomonlaridan mamlakatimizda foydalanish imkonini beradi.

Italiya, Kanada, va Ispaniya soliq tizimlarida soliq qarzlarini undirish borasida olib boradigan ishlari bir-biri bilan o‘xshashligi bilan ajralib turadi. Ushbu mamlakatlarda har qanday soliq kelishmovchiliklarini maxsus soliq sudi ko‘rib chiqib, soliq qarzlarini undirish jarayonlarini ham o‘z ichiga oladi. Soliq sudidan chetlab o‘tib, fuqarolik sudiga murojaat qilish mumkin emas.

Xorijiy mamlakatlardan yana biri bo‘lgan Indoneziyada soliq qarzini kamautirish bo‘yicha noan’anaviy usul qo‘llaniladi. Xususan, har yili 250 ta eng ko‘p miqdorda va o‘z vaqtida soliq to‘lagan soliq to‘lovchilarning ro‘yxati ommaviy axborot vositalarida e’lon qilinadi. Ularning har birini davlat rahbari tomonidan berilgan faxriy yorliqlar bilan taqdirlashadi. O‘z navbatida ularga soliqlardan yengillik va imtiyozlar beriladi. Qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish yo‘li bilan davlat soliq qarzini vujudga kelishining oldini olish va kamaytrish bo‘yicha kurash olib boradi.

Yevropa davlatlari ittifoqiga a’zo bo‘lgan mamlakatlardan biri bo‘lgan Ispaniyada soliq qarzini majburiy tartibda undirish 2003-yil 17-dekabrdagi 58-sonli umumiy soliq qonuni bilan tartibga solinadi. Ushbu qonunga ko‘ra soliq to‘lovchilar shu majburiyatlarini belgilangan

tartibda bajarmasalar, to‘lanmagan har bir soliq summasiga nisbatan 50 foizdan 150 foizgacha miqdorda jarima solish jazosi qo‘llaniladi.

Qarzdorlarni o‘z haq-huquqlarini anglab yetishiga ta’sir etuvchi choralardan yana bir qanchasi mavjud. Ular quyidagicha:

- soliq imtiyozlaridan foydalanish huquqidan va davlat dotatsiyalarini olishdan mahrum etilishi;
- davlat va davlat tashkilotlari bilan hamkorlik va tijorat faoliyatini olib borish bo‘yicha shartnomalar tuzishdan 5 yilga mahrum etish;
- davlat tomonidan tashkil etiladigan har qanday tenderlarda qatnashish, davlat tashkilotlari bilan o‘z mahsulot va ish xizmatlarini oldi-sotdi qilish bo‘yicha shartnomalar tuzib tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishdan mahrum bo‘ladi.

Yevropa davlatlar ittifoqiga a’zo davlatlarda korxonalar foydasiga soliq stavkasi korxona qarzdorligiga ahamiyatli darajada ijobiy ta’sir etib kelmoqda. Foizlarni to‘lash bo‘yicha soliqdan chegirmalarni joriy etilishi korxonalarni foyda solig‘idan qarzdorlikni yuqori darajada kamaytirish imkonini yaratadi[47].

Yaponiya – soliq qarzdorliklarini kamaytirish va undirish bo‘yicha jiddiy muammolari bo‘lmagan mamlakatlardan biridir. Yaponiyaning bunday yutug‘i yapon millatining o‘ziga xosligi, tarixiy an’anaga aylangan ommaviy ravishda qonunga qattiq bo‘ysunish hissi, batafsil ishlab chiqilgan qonuniy asoslarning mavjudligi hisoblanadi. Shu bilan birga Yaponiyada soliq qarzini undirishdan ko‘ra uni vujudga kelishini bartaraf etishga katta ahamiyat beriladi.

Soliq qarzdorligi bilan kurashishda avtomatlashtirilgan chora-tadbirlar tizimi ishlaydi. Bunday tizim soliq to‘lovchilarning qarzi paydo bo‘lishi bilanoq unga elektron tarzda turli usullarda maxsus xabarlar, eslatmalar yuboradi (telefon, faks, internet pochtalari va h.k). Shu bilan birga, soliq organida «shoshilinch aloqa tizimi» tashkil etilgan bo‘lib, ular soliq to‘lovchilarga soliq qonunchiligi bo‘yicha to‘xtovsiz ravishda izohlar,tushunchalar berib boradi, turli xil seminarlar uyushtiradi, gazeta va jurnallar, broshyuralar tarqatadi. Bu esa soliq qonunchiligida «shaffoflik»ni yuzaga keltiradi.

---

[47] Jinbaek Park, Young Lee. Corporate income taxes, corporate debt, and household debt. Journal International Tax and Public Finance, Springer New York LLC, Volume 26, Issue 3, 15 June 2018, Pages 506–535, scopus.com. htpp://doi.org/ 10.1007/s10797-018-9513-4

Yaponiya qonunchiligiga ko‘ra, qasddan soliqlarni to‘lamaslik holatlari bo‘yicha esa faqat sud tartibida, mol-mulkdan undirish, bankrot qilish, majburiy tartibda qimmatli qog‘ozlar emissiya qildirish, chet elga o‘tkazilgan mablag‘larni repatriatsiya (qaytarish) qilish, ozodlikdan mahrum etish kabi jazolar qo‘llashga sabab bo‘ladi.

Muddati o‘tkazib yuborilgan soliqlarini majburiy undirish faqatgina davlatni moliyaviy ta’minlash maqsadida emas, balki soliq yukini adolatli taqsimlash nuqtai nazaridan ham muhim hisoblanadi.

Yaponiya davlati qonunchiligiga muvofiq soliq qarzdorligini mol-mulki hisobidan undirish sud tartibida emas, balki davlat soliq xizmati organlari tomonidan mustaqil ravishda amalga oshiriladi. Bu esa, o‘z navbatida, davlat soliq xizmati organi xodimlarining vaqtini tejaydi, ortiqcha sarf-xarajatlarni ham oldini olishga xizmat qiladi.

Yaponiya soliq tizimida majburiy undiruvning mohiyati va xususiuatlari o‘ziga xos ta’riflanadi. Soliqlarni majburiy undirish – soliq qarzi bo‘yicha qarzdor davlat soliqlarini ixtiyoriy ravishda to‘lamagan taqdirda, soliqlarni undirish uchun majburiy ravishda amalga oshiriladigan chora bo‘lib, mulkni xatlash, to‘lov talabnomasi (jumladan, boshqa kreditorlar bilan birgalikda mulkni xatlash), mulkni realizatsiya qilish, tushgan summani taqsimlash ishlarining umumiy nomlanishidir.

Soliqlarni majburiy undirishni amalga oshiruvchi vakolatli shaxslar davlat soliqlarida bo‘lgan qarzlarni undirishga vakolatli bo‘lgan soliq inspeksiyalar yoki soliq boshqarmalari boshliqlari, soliq inspeksiyalari yoki soliq boshqarmalari tarkibidagi undiruv bilan shug‘ullanuvchi xodimlardir.

Ushbu soliq qarzdorliklari summalari katta yoki ish murakkab bo‘lsa, davlat soliq boshqarmasi boshlig‘i lozim deb topsa majburiy undiruv ishini o‘z hududidagi soliq inspeksiyasidan qabul qilib olib, undirishni davom ettirishi mumkin. Bundan tashqari, soliq inspeksiyasi boshlig‘i lozim deb topganda (masalan, davlat soliq qarzini to‘lash joyi o‘zgarmagan bo‘lsa-da, qarzdorning yashash manzili o‘zgargan bo‘lsa, davlat solig‘idan bo‘lgan qarzni undirishni tezlatish maqsadida qarzdorning yangi manzili tegishli bo‘lgan hududdagi soliq inspeksiyasiga undiruv ishini topshirish lozim bo‘lsa) boshqa soliq inspeksiyasi boshlig‘iga undiruv ishini topshirishi mumkin.

3. Xorijiy mamlakatlarda soliqqa oid huquqbuzarliklar va ularga qarshi qo‘llaniladigan chora-tadbirlar

Dunyoning barcha mamlakatlarida iqtisodiy rivojlanish darajasi va davlat- huquqiy tuzilishidan qat’iy nazar, soliq to‘lashdan bo‘yin tovlash va boshqa soliqqa oid huquqbuzarliklar va jinoyatlar muhim muammolardan biri hisoblanadi. Yashirin daromadlar davlat mavjudligi va jamiyatning normal rivojlanishi uchun zarur shart bo‘lgan byudjet tizimiga mablag‘larning tushmasligiga olib keladi. Soliq jinoyatlari moliya tizimiga katta miqdorda zarar yetkazish bilan tavsiflanadi va ko‘pincha boshqa iqtisodiy jinoyatlar bilan qo‘shilib ketadi.

Bundan tashqari, soliq to‘lashdan bo‘yin tovlash usullari doimiy ravishda rivojlanib va takomillashtirilib, iqtisodiy munosabatlarning o‘zgaruvchan sharoitlariga moslashtiriladi.

Soliq jinoyatlari va huquqbuzarliklarini aniqlash, ularga chek qo‘yish har qanday davlatning iqtisodiy soliq huquqiy munosabatlari sohasidagi huquqni muhofaza qilish faoliyatining eng muhim elementlaridan biridir. Shu bilan birga, davlat organlarining vakolatlari aniq chegaralangan: soliqqa oid huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ish yuritish doirasida soliq tekshiruvlari funksiyasi soliq organlariga yuklangan. Biroq, soliq organlarining soliq tekshiruvi doirasida dalillarni to‘plash qobiliyati sezilarli darajada cheklangan, chunki ular odatda tezkor-qidiruv tadbirlari majmuasini o‘tkazish, soliq jinoyatlarini mustaqil tergov qilish huquqiga ega emaslar, asosan soliq tekshiruvlari bilan shug‘ullanadilar. Soliq xizmatidan farqli o‘laroq, huquqni muhofaza qilish organlari mustaqil soliq tekshiruvlarini o‘tkaza olmay, soliq jinoyatlarini aniqlash, ularga chek qo‘yish va tergov qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshiradilar. Bular quyidagilar bo‘lishi mumkin: tekshirish, olib qo‘yish, ekspertiza, kuzatish, tinglash, pochtani ko‘rish.

Jahon amaliyotida soliq tekshiruvlari tizimini tashkil etishning bir necha asosiy yondashuvlari mavjud. Ayrim mamlakatlar qonun hujjatlarida soliq organlarining ayrim bo‘linmalariga soliq to‘lashdan bo‘yin tovlash holatlarini tekshirish huquqini beruvchi vakolatlar berilgan (Shveysariya, Isroil, Yaponiya, Bolgariya, Kanada). Misol uchun, Shveysariyada to‘g‘ridan-to‘g‘ri Federal Soliq idorasiga soliq to‘lashdan bo‘yin tovlaganlikda aybdor shaxslarni tergov qilish, jinoiy va ma'muriy javobgarlikka tortish huquqi berilgan Maxsus soliq tergov xizmati mavjud. Boshqa shtatlarda soliq politsiyasining (militsiyaning)

mustaqil huquqni muhofaza qilish organlari tashkil etilgan. Masalan, Germaniyada soliq tekshiruvlari Soliq tekshiruvi departamentiga – Steufga, AQShda esa soliq tekshiruvi – Soliq tekshiruvlari bosh boshqarmasiga topshiriladi. Xususan, Germaniya soliq tekshiruvi departamentining bo‘limi – Shteuf soliq jinoyatlari va huquqbuzarliklarini tekshiradi, davlatning fiskal manfaatlarini himoya qiladi. Steuf xodimlari o‘z faoliyati davomida yashirin daromadlarni aniqlashlari va ularga soliqlar, jarimalarni to‘lash uchun zarur bo‘lgan yetarli choralarni ko‘rishlari kerak. Qonunchilik Steuf xodimlariga qo‘yiladigan talablarni belgilaydi,ular kamida 27 yoshda, tegishli ma’lumot va malaka darajasiga ega, soliq xizmatida ish tajribasi bo`lishi kerak. Ushbu bo‘limda, masalan, nemis soliq to‘lovchilarining hisobga olinmagan uy hayvonlarini (itlarini) aniqlash uchun itlarning hurishiga taqlid qila oladigan noyob mutaxassislar ham xizmat qiladi.

Qo‘shma Shtatlarda soliq jinoyatlarini aniqlash va tergov qilish funksiyasi Ichki daromadlar xizmatining alohida bo‘linmasi – Fiskal tekshiruvlar Bosh departamentiga (GDFI) yuklangan. Ushbu organning asosiy vazifasi soliq to‘lashdan bo‘yin tovlayotgan shaxslarni aniqlashdan iborat[48]. Uning tarkibiga kiruvchi Tergov boshqarmasi (tezkor xizmatlar, sud ekspertizasi va sud-tibbiy ekspertiza laboratoriyasi, axborot-tahlil va ta’minot bo‘limlaridan iborat) soliq qonunchiligini qasddan buzish faktlarini tekshirish bo‘yicha asosiy ishlarni amalga oshiradi. Tergov bo‘limi xodimlari hujjatlarni aniqlash va tekshirish, barmoq izlarini olish, poligrafiyadan tekshirish va boshqa tadbirlarni amalga oshiradilar. AQShning amaldagi qonunchiligiga ko‘ra, Ichki daromad xizmati va Tergov idorasi eng keng vakolatlarga ega. AQShning barcha moliya institutlari barcha shubhali shaxslar, tranzaksiyalar, depozitlar va naqd pul bilan operatsiyalar haqida ma’lumot taqdim etishlari shart. Bundan tashqari, tergovni amalga oshiruvchi mansabdor shaxslar moliyaviy operatsiyalarning qonuniyligini mustaqil baholashga va sudning dastlabki qarorisiz (operatsiya noqonuniy deb topilgan taqdirda) har qanday soliq to‘lovchining – jismoniy yoki yuridik shaxsning barcha mol- mulkini

[48] Бондарь Елена Александровна, Волчкова Анна Александровна Ответственность за нарушение налогового законодательства в зарубежных странах: особенности организации системы налоговых расследований // Юридическая наука и практика: Вестник Нижегородской академии МВД России. 2019. № 3 (47). URL: https://cyberleninka.ru/article/n/otvetstvennost-za-narushenie-nalogovogo-zakonodatelstva-v-zarubezhnyh-stranah-osobennosti-organizatsii-systemy-nalogovyh

xatlash huquqiga ega. «Hayotda ikki narsa o‘zgarmasdir: o‘lim va soliq» degan naql aynan shu yurtda paydo bo‘lgani bejiz emas.

Soliq jinoyatlarini fosh etishni tashkil etishning yana bir modeli moliya organlariga – moliya qo‘riqchisiga, moliya politsiyasiga (Italiya, Xorvatiya, Ruminiya, Qirg‘iziston, Qozog‘iston, Belarusiya, Gruziya) ularni tergov qilish vakolatlarini berishdan iborat. Italiya modeli juda qiziq, bu yerda Moliyaviy gvardiya maxsus politsiya bo‘linmasi (o‘z faoliyat sohalarida Ichki ishlar vazirligi, Adliya vazirligi va Iqtisodiyot va moliya vazirligiga bo‘ysunadi), iqtisodiy (soliq) tergov bilan bir qatorda (soliq) jinoyatlarni aniqlashni odatdagi politsiya xizmatini amalga oshiradi, hatto patrul xizmati funksiyalarini bajaradi. Bu bo‘lim 1907-yilda chegara xavfsizligi, kontrabandaga qarshi kurash va soliq to‘lashdan bo‘yin tovlash bo‘yicha huquqni muhofaza qiluvchi organ sifatida tashkil etilgan. Keyinchalik ularning vakolatlari sezilarli darajada kengaytirildi, qonun chiqaruvchi tomonidan o‘g‘rilikka qarshi kurashish, ekstremal vaziyatlarda aholiga yordam ko‘rsatish, sudlar topshirig‘i bilan jinoyatga qarshi kurash choralarini ko‘rish kabi jihatlar qo‘shildi. Moliyaviy gvardiya tarkibiga kriminal politsiya bo‘linmasi, soliq nazorati xizmati, tezkor aralashish xizmati, shtab, chegara xizmati, ob’yektni muhofaza qilish xizmati va boshqalar kiradi[49].

Gresiya, Fransiya, Shvesiya, Finlyandiya kabi davlatlar qonuniy ravishda bunday vakolatlarni jinoyat yoki iqtisodiy politsiyaga bergan. Xususan, Xorvatiyada soliq va yig‘imlar to‘g‘risidagi qonun hujjatlari buzilishini tekshirish tarkibiy jihatdan Iqtisodiyot va moliya vazirligi tarkibiga kiruvchi moliya politsiyasi vakolatiga kiradi. Uni moliya vazirining taklifiga binoan Xorvatiya hukumati tomonidan tayinlanadigan bosh inspektor boshqaradi. Ushbu bo‘linma, shuningdek, byudjet mablag‘lari va boshqa xo‘jalik munosabatlari bo‘yicha byudjet qonunchiligining bajarilishini nazorat qilish funksiyalarini ham amalga oshiradi hamda jismoniy shaxs yoki tashkilotga muayyan faoliyat bilan shug‘ullanishni vaqtinchalik (sud qaroriga qadar) taqiqlashgacha bo‘lgan keng vakolatlarga ega.

Shuni ta'kidlash mumkunki, dunyoning aksariyat mamlakatlarida moliyaviy va soliq tekshiruv organlari mustaqil emas, balki soliq,

---

[49] Бондарь Елена Александровна, Волчкова Анна Александровна Ответственность за нарушение налогового законодательства в зарубежных странах: особенности организации системы налоговых расследований // Юридическая наука и практика: Вестник Нижегородской академии МВД России. 2019. №3 (47). URL: https://cyberleninka.ru/article/n/otvetstvennost-za-narushenie-nalogovogo-zakonodatelstva-v-zarubezhnyh-stranah-osobennosti-organizatsii-systemy-nalogovyh

moliya yoki boshqa organlarning tarkibiy bo‘linmalari hisoblanadi. Shu bilan birga, soliq jinoyatlarini aniqlash, oldini olish va birinchi navbatda, tergov qilish ular tomonidan qonun hujjatlarida belgilangan huquqiy maqomga muvofiq mustaqil ravishda, shuningdek, iqtisodiy yoki moliya politsiyasi bilan birgalikda amalga oshiriladi.

Mavzu bo‘yicha savollar

1. Soliq munosabatlarida soliq intizomiga rioya etishni tashkil etish qanday amalga oshiriladi?
2. Soliq majburiyatini bajarishda qaysi xorijiy mamlakatlar tajribasi diqqatga sazovor hisoblanadi?
3. Soliq qarzdorliklarini kamaytirish bo‘yicha qaysi xorijiy mamlakatlar tajribasini bilasiz?
4. Xorijiy mamlakatlarning soliq qonunchiligida soliq qarzini undirishning bosqichlarini sanab bering?
5. Yaponiya soliq tizimida majburiy undiruvning mohiyati va xususiyatlarini ko‘rsating.
6. Jahon amaliyotida soliq tekshiruvlari tizimini tashkil etishning asosiy yondashuvlarini ko‘rsating.
7. Qo‘shma Shtatlarda soliq jinoyatlarini aniqlash qanday amalga oshiriladi?
8. Germaniya soliq tekshiruvi departamentining bo‘limi qanday xuquqbuzarliklarini tekshiradi?
9. Xorijiy mamlakatlarda mavjud soliqqa oid huquqbuzarliklarni sanab o‘ting.
10. Xorijiy mamlakatlarda soliqqa oid huquqbuzarliklarga qarshi qanday chora-tadbirlar qo‘llaniladi?

GLOSSARIY

Bojxona boji, soliqlar va yig‘imlarni undirish bo‘yicha vakolatli organlar – qonun hujjatlariga muvofiq soliqlar, boshqa majburiy to‘lovlar, ma’muriy jarimalar va moliyaviy sanksiyalarni undirilishini amalga oshiruvchi organlar;

vakolatli organ – Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, viloyatlar va Toshkent shahar xalq deputatlari Kengashlari;

dalolatnoma – tekshiruv materiallarini ko‘rib shiqish natijalari bo‘yisha qaror qabul qilish ushun asoslardan biri bo‘lib hisoblanadigan, soliq tekshiruvini o‘tkazish jarayonida yoki uning natijasi bo‘yisha soliq organlarining vakolatli mansabdor shaxslari tomonidan tuziladigan hujjat;

daromadlar bo‘yicha shaxsiy g‘azna hisobvaraqlari – byudjet tizimi byudjetlari daromadlarining g‘azna ijrosi jarayonida tegishli byudjetlar daromadlarining tasdiqlangan miqdori, daromadlarning kassa tushumlari hajmi va tegishli byudjetlarga va byudjetlardan daromadlar turi va manbasi bo‘yicha amalga oshirilgan qaytarish (hisobga olish) summalari bo‘yicha ma’lumotlarni aks ettirish uchun mo‘ljallangan analitik hisob registrlari;

«Ishonchli hamkor» AAT – soliq to‘lovchilar to‘g‘risidagi soliq sirini tashkil etmaydigan ma’lumotlar va hisob ma’lumotlar, hisobvaraq-fakturalar va cheklarda ko‘rsatilgan mahsulotlarning (tovar va xizmatlarning) yagona elektron milliy katalogi bo‘yicha identifikatsiya kodlarini, shuningdek, majburiy markirovkalangan mahsulotlar bo‘yicha tahliliy va qayta ishlangan ma’lumotlarni uchinchi shaxslarga real vaqt rejimida yuborish imkoniyatiga ega avtomatlashtirilgan axborot tizimi;

ish jarayonida mehmondorchilik belgilari – o‘z manfaatini ko‘zlab soliq organlari bilan hamkorlikni o‘rnatish va bunday hamkorlikni saqlab qolish maqsadida soliq to‘lovchi yoki uchinchi shaxslar tomonidan amalga oshirilgan xarajatlar (ovqatlanish, yashash, avtotransport xarajatlari, ko‘ngilochar tadbirlarni qoplash va boshqalar);

korrupsiya – shaxsning o‘z mansab yoki xizmat mavqeyidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o‘zga shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek, bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish;

korrupsion harakatlar – xodim tomonidan pora beruvchining manfaatlarini ko‘zlab harakat yoki harakatsizligi uchun bevosita yoki bilvosita, shaxsan yoki uchinchi shaxslar orqali porani ya’ni pul, qimmatbaho qog‘ozlar, boshqa mol-mulkni, mulkiy tusdagi xizmatlarni, boshqa mulkiy huquqlarni olish, talab qilish, taklif qilish, va’da qilish va berish, shuningdek, pora berish va (yoki) olishda vositachilik qilish, rasmiyatchiliklarni soddalashtirish uchun to‘lovlarni olish, xodim tomonidan pora olish yoki huquqqa xilof boshqa maqsadlarda o‘z xizmat mavqeyidan noqonuniy foydalanish;

korrupsiyaga oid huquqbuzarlik – korrupsiya belgilariga ega bo‘lgan, sodir etilganligi uchun qonunchilikda javobgarlik nazarda tutilgan qilmish;

korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi – qo‘llaniladigan amaldagi qonunchilik va ichki hujjatlarni korrupsion jihatdan buzilishini bartaraf etish, soliq organlari xodimlari tomonidan yuqori darajada kasbiy va axloqiy faoliyat olib borishlarini ta’minlash bo‘yicha chora-tadbirlar majmyi;

korrupsion xavf – soliq xodimlari yoki uchinchi shaxslar tomonidan soliq organlari nomidan va (yoki) ularning manfaatlarini ko‘zlab korrupsion xatti-harakatlarni sodir etish ehtimoli va riski; rasmiyatchilikni soddalashtirish uchun to‘lovlar – belgilangan tartib-taomillar bajarilishini ta’minlash yoki tezlashtirish, tegishli qonunchilik, normalar va qoidalarda nazarda tutilmagan harakatlar sodir etish uchun g‘ayriqonuniy ravishda beriladigan pul mablag‘lari, mol-mulk, mulkiy huquqlar, xizmatlar va boshqa moddiy yoki nomoddiy naf;

korrupsion holat haqida ixtiyoriy ravishda xabar berish – soliq organining muayyan xodimi tomonidan sodir etilgan (sodir etish ehtimoli mavjud) korrupsion huquqbuzarlik to‘g‘risida rusxat etilgan aloqa kanallari orqali asosliligiga ishonch hosil qilgan holda murojaat yo‘llash;

kontragent – soliq organlari bilan shartnomaviy munosabatlarni o‘rnatgan (mehnat munosabatlari bundan mustasno) har qanday yuridik yoki jismoniy shaxslar;

ma’lumotlarni transchegaraviy uzatish – soliq to‘lovchi to‘g‘risida hisob ma’lumotlarni soliq organlari tomonidan respublika hududidan tashqariga O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida nazarda tutilgan hollarda uzatish;

manfaatdor shaxs – ushbu nizomda belgilangan soliqlarni to‘lash muddatlarini o‘zgartirish bo‘yicha murojaat qilgan soliq to‘lovchi;

ortiqcha to‘langan soliq summasi (penya, jarima) – soliqning (penyaning, jarimaning) to‘langan summasi bilan haqiqatda to‘lanishi lozim bo‘lgan summasi o‘rtasidagi ijobiy farq. Soliqning (penyaning, jarimaning) ortiqcha to‘langan summasi u ilgari hisobga olingan va (yoki) soliq to‘lovchiga qaytarilgan summalarni, shuningdek, soliq bo‘yicha kelgusi to‘lovlar hisobiga o‘tkaziladigan summalarni hisobga olgan holda uni hisob-kitob qilish sanasida aniqlanadi;

ortiqcha undirilgan soliq summasi – davlat soliq xizmati organining g‘ayriqonuniy xatti-harakatlari natijasida ortiqcha to‘langan soliq summasi;

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining axborot tizimi – byudjet tizimi byudjetlarining byudjet jarayonini kompleks avtomatlashtirish, shu jumladan byudjet tizimi byudjetlari ijrosi bilan bog‘liq operatsiyalarni aks ettirish uchun mo‘ljallangan axborot tizimi;

soliq to‘lovchilarning ayrim toifalari – to‘g‘ridan-to‘g‘ri xususiy chet el investitsiyalari ishtirokidagi yuridik shaxslar, maxsus iqtisodiy zonalarning ishtirokchilari, mahsulot taqsimotiga oid bitimlar ishtirokchilari, advokatlar hay’atlari, advokatlik firmalari, advokatlik byurolari va advokatlar hamda xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notariuslar;

soliq organining qarori – soliq tekshiruvi natijalari bo‘yicha soliq to‘lovchiga nisbatan muayyan talablarni o‘z ichiga oluvchi hujjat;

soliq organi mansabdor shaxslarning harakati (harakatsizligi) – soliq to‘lovchining murojatiga ko‘ra uning huquqlarini buzadigan soliq organi mansabdor shaxslarning har qanday harakatlari (harakatsizligi);

mansabdor shaxslarning harakatlari deganda, qaror shaklida ifodalanmagan bo‘lsa ham, biroq manfaatdor shaxslar huquqlari va erkinliklarini buzilishiga olib kelgan yoki ularning huquqlari va erkinliklari amalga oshirilishiga to‘sqinlik qilgan yuridik ahamiyatga ega hujjatlar tushuniladi;

harakatsizlik deganda, ma’muriy organ yoki uning mansabdor shaxsi zimmasiga normativ-huquqiy va boshqa hujjatlar (lavozim yo‘riqnomalari, nizomlar, reglamentlar, buyruqlar) bilan yuklatilgan majburiyatni bajarmaslik tushuniladi;

soliq nizosi – soliq organlari va soliq to‘lovchilar o‘rtasida soliq solish obyektini aniqlash, soliq bazasini hisoblash, soliqlar va yig‘imlar stavkalari, shuningdek, soliq imtiyozlari qo‘llanilishi hamda moliyaviy jarimalarni qo‘llash bilan bog‘liq bo‘lgan hollarda yuzaga keladigan ziddiyat;

sudgacha tartib – soliq organlarining qarorlari, ular mansabdor shaxslarining harakatlari (harakatsizligi) ustidan yuqori turuvchi soliq organiga shikoyat qilish tartibi;

shikoyat – shaxsning soliq organiga uning kuchga kirgan va kuchga kirmagan, normativ xususiyatga ega bo‘lmagan hujjatlari, uning mansabdor shaxslarining harakatlari (harakatsizligi) ustidan qilingan murojaati, agar ushbu shaxsning fikriga ko‘ra mazkur hujjatlar, harakatlar yoki harakatsizlik uning huquqlarini buzayotgan bo‘lsa;

shikoyat beruvchi – soliq organining qarori, uning mansabdor shaxslarining harakati (harakatsizligi) ustidan yuqori turuvchi soliq organiga murojaat qilayotgan yuridik shaxs, uning vakolatxonasi (filiali) yoki jismoniy shaxs;

soliq qarzi – O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi talablariga muvofiq hisoblab chiqarilgan (hisoblangan) va belgilangan muddatlarda to‘lanmagan soliqlarning, shu jumladan, ular bo‘yicha bo‘nak va joriy to‘lovlarning summalari, shuningdek, Soliq kodeksida belgilangan muddatda to‘lanmagan moliyaviy sanksiyalar va penyalar;

soliq to‘lash muddatlarini o‘zgartirish – soliq to‘lashni kechiktirish yoki bo‘lib- bo‘lib to‘lash imkoniyatini berish orqali soliq to‘lashning muddatini keyinroq muddatga ko‘chirish;

soliq to‘lashni kechiktirish – soliq qarzini bir yo‘la to‘lashni nazarda tutgan holda soliq to‘lash muddatini o‘zgartirish;

soliqni bo‘lib-bo‘lib to‘lash – soliqlarni teng ulushlarda bosqichma-bosqich to‘lashni nazarda tutgan holda soliq to‘lash muddatini o‘zgartirish;

soliq agentlari – Soliq kodeksiga muvofiq zimmasiga soliqlarni hisoblab chiqarish, soliq to‘lovchidan ushlab qolish va byudjet tizimiga o‘tkazish majburiyati yuklatilgan shaxslar;

soliq to‘lovchi to‘g‘risida hisob ma’lumotlari – soliq organlariga soliq to‘lovchi tomonidan taqdim etilgan ma’lumotlar, shuningdek, Soliq kodeksining 133-moddasida nazarda tutilgan tartibda davlat organlari, muassasalari va tashkilotlari tomonidan taqdim etilgan ma’lumotlar;

soliq to‘lovchi – Soliq kodeksga muvofiq zimmasiga belgilangan soliqlar hamda yig‘imlarni to‘lash majburiyati yuklatilgan yuridik va jismoniy shaxslar;

soliqlar – Soliq kodeksda belgilangan, O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjetiga yoki davlat maqsadli jamg‘armasiga to‘lanadigan majburiy beg‘araz to‘lov;

soliq qarzi – O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi talablariga muvofiq hisoblab chiqarilgan (hisoblangan) va belgilangan muddatlarda to‘lanmagan soliqlarning, shu jumladan, ular bo‘yicha bo‘nak va joriy to‘lovlarning summalari, shuningdek, Soliq kodeksida belgilangan muddatda to‘lanmagan moliyaviy sanksiyalar va penyalar;

soliq to‘lash muddatlarini o‘zgartirish – soliq to‘lashni kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash imkoniyatini berish orqali soliq to‘lashning muddatini keyinroq muddatga ko‘chirish;

soliq to‘lashni kechiktirish – soliq qarzini bir yo‘la to‘lashni nazarda tutgan holda soliq to‘lash muddatini o‘zgartirish;

soliqni bo‘lib-bo‘lib to‘lash – soliqlarni teng ulushlarda bosqichma-bosqich to‘lashni nazarda tutgan holda soliq to‘lash muddatini o‘zgartirish;

soliq hisobotidagi tafovutlar – soliq to‘lovchi tomonidan soliq to‘g‘risidagi qonunshilik talablariga muvofiq soliq hisobotlarida aks ettirilishi lozim bo‘lgan ko‘rsatkichlar yoki ma’lumotlar bilan soliq hisobotida aks ettirilgan ko‘rsatkishlar yoki ma’lumotlar orasidagi farq yoki nomuvofiqliklar;

soliq hisobotidagi xatolar – soliq to‘lovshi tomonidan soliq hisobotida noto‘g‘ri ma’lumotlar yoki ko‘rsatkishlar aks ettirilishi;

soliq to‘g‘risidagi qonunshilik buzilishini videotasvirga olish – fuqarolar yoki soliq organlari mansabdor shaxslari tomonidan videokamera va boshqa videoyozish qurilmalaridan foydalangan holda tasvirga olish yo‘li bilan olingan soliq to‘g‘risidagi qonunshilik buzilishi holatlari haqidagi videomateriallar;

talabnoma – kameral soliq tekshiruvi yakuni bilan taqdim etilgan soliq hisobotida tafovutlar va (yoki) xatolar aniqlanganda, soliq hisobotiga tuzatishlar kiritish zarurligi haqida ko‘rsatma mavjud bo‘lgan, soliq organi tomonidan soliq to‘lovshiga yuboriladigan hujjat;

tafovutlarning asosnomasi – soliq to‘lovshi tomonidan taqdim etiladigan soliq organining talabnomasiga javoban aniqlangan tafovutlarga asos bo‘ladigan tushuntirishlar va hujjatlar;

«**UzASBO» DM –** byudjet tashkilotlari tomonidan byudjet hisobi va hisobotining yuritilishini kompleks avtomatlashtirish uchun mo‘ljallangan dasturiy majmua;

uchinchi shaxs – o‘z faoliyatida qonunchilikda taqiqlanmagan maqsadlarda foydalanish uchun soliq to‘lovchiga doir ma’lumotlarni taqdim etish yuzasidan soliq organlariga yoki «Ishonchli hamkor» avtomatlashtirilgan axborot tizimi orqali murojaat qilgan shaxs;

xodimning shaxsiy manfaatdorligi – soliq organi xodimi tomonidan o‘z xizmat vazifalarini bajarishi chog‘ida uning yaqin qarindoshi yoki unga aloqador bo‘lgan shaxslar tomonidan xodimning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan pul mablag‘lari, moddiy yoki nomoddiy qimmatliklar, boshqa mol-mulk, boylik va imtiyozlar ko‘rinishida shaxsiy naf olish imkoniyati (shaxsiy, ijtimoiy, moliyaviy, siyosiy va boshqa tijorat yoki notijorat manfaatlari);

xatolik bilan to‘langan soliq (penya, jarima) summasi – soliq (penya, jarima) summasini to‘lagan shaxsni va (yoki) ushbu to‘lovning maqsadini qat’iy aniqlash imkoniyatini bermaydigan to‘lov chog‘ida xatolikka yo‘l qo‘yilgan soliq (penya, jarima) summasi. Qaysi soliqqa (penyaga, jarimaga) nisbatan uni to‘lagan shaxs soliq to‘lovchi deb hisoblanmaydigan shaxsdan yoki to‘lanishi lozim bo‘lgan byudjetdan boshqa byudjetga kelib tushgan soliq (penya, jarima) summasi ham xatolik bilan to‘langan deb e’tirof etiladi;

xronometraj ko‘zdan keshirish – ishlab shiqarishning (xizmatlar ko‘rsatishning) haqiqiy hajmlarini aniqlashga doir soliq nazorati tadbiri;

xulosa – kameral soliq tekshiruvi doirasida amalga oshirilgan harakatlar, soliq tekshiruvini o‘tkazish ushun asos bo‘lgan holatlarning soliq tekshiruvida tasdig‘ini topganligi yoki qisman tasdig‘ini topganligi yoxud tasdig‘ini topmaganligi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘z ishiga olgan tekshiruvni o‘tkazgan mansabdor shaxs tomonidan tekshiruv natijasi bo‘yisha tuziladigan hujjat;

yig‘imlar – byudjet tizimiga to‘lanadigan Soliq kodeksda yoki boshqa qonun hujjatlarida belgilangan majburiy to‘lov;

qo‘shilgan qiymat solig‘ining salbiy farq summasi – Soliq kodeksiga muvofiq aniqlanadigan, tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishga doir operatsiyalarning soliq bazasidan hisoblab chiqarilgan soliq summasi bilan olingan tovarlar (xizmatlar) bo‘yicha hisobga olinadigan soliq summasi o‘rtasidagi salbiy farq hisoblanadi;

yaqin qarindoshlar – ota-ona, tug‘ishgan va o‘gay aka-ukalari va opa-singillar, er (xotin), farzandlari, shu jumladan farzandlikka olinganlar, bobolar, buvilar, nevaralar, shuningdek, erning (xotinning) ota-onasi, tug‘ishgan va o‘gay aka- ukalari va opa-singillari;

yagona g‘azna hisobvarag‘i (bundan buyon matnda YaG‘H deb yuritiladi) – O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi (bundan buyon matnda Iqtisodiyot va moliya vazirligi deb yuritiladi) tomonidan boshqariladigan, byudjet tizimi byudjetlarining daromadlari va boshqa tushumlari kiritiladigan hamda xarajatlari to‘lanadigan, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankida (bundan buyon matnda Markaziy bank deb yuritiladi) ochilgan maxsus bank hisobvarag‘i.

TESTLAR

1. Soliq Kodeksning 223-moddasida soliq bazasini yashirish (kamaytirib ko‘rsatish) qanday jazo chorasi ko‘zda tutilgan?

a) #yashirilgan (kamaytirib ko‘rsatilgan) soliq bazasi summasining yigirma foizi miqdorida jarima solish

b) yashirilgan (kamaytirib ko‘rsatilgan) soliq bazasi summasining to‘rt foizi miqdorida jarima solish

c) yashirilgan (kamaytirib ko‘rsatilgan) soliq bazasi summasining besh foizi miqdorida jarima solishga sabab bo‘ladi

d) yashirilgan (kamaytirib ko‘rsatilgan) soliq bazasi summasining bir yuz bir foizi miqdorida jarima solishga sabab bo‘ladi

2. Soliq kodeksining 219-moddasida ko‘rsatib o‘tilgan qo‘shilgan qiymat solig‘ining soliq to‘lovchisi sifatida soliq organlarida hisobga qo‘yishning belgilangan tartibi soliq to‘lovchi tomonidan buzilganda qanday jazo chorasi qo‘llanilishi ko‘zda tutilgan?

a) #soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hisobga qo‘yish sanasidan haqiqatda hisobga qo‘yilgan sanagacha bo‘lgan davrda olgan daromadining besh foizi miqdorida, lekin besh million so‘mdan kam bo‘lmagan miqdorda jarima

b) soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hisobga qo‘yish sanasidan haqiqatda hisobga qo‘yilgan sanagacha bo‘lgan davrda olgan daromadining ellik foizi miqdorida, lekin ellik million so‘mdan kam bo‘lmagan miqdorda jarima.

c) soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hisobga qo‘yish sanasidan haqiqatda hisobga qo‘yilgan sanagacha bo‘lgan davrda olgan daromadining ellik besh foizi miqdorida, lekin ellik besh million so‘mdan kam bo‘lmagan miqdorda jarima

d) soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hisobga qo‘yish sanasidan haqiqatda hisobga qo‘yilgan sanagacha bo‘lgan davrda olgan daromadining bir foizi miqdorida, lekin yuz million so‘mdan kam bo‘lmagan miqdorda jarima

3. Soliq Kodeksning qaysi moddasida soliq solish maqsadlarida hisobga olish va hisob hujjatlari to‘g‘risida ma’lumot berilgan?

a) #Amaldagi Soliq kodeksining 76-moddasida

b) Amaldagi Soliq kodeksining 13-moddasida

c) Amaldagi Soliq kodeksining 14-moddasida
d) Amaldagi Soliq kodeksining 27-moddasida

4. Soliq Kodeksning qaysi moddasida alohida-alohida hisob va uni yuritish qoidalariko‘rsatilib o‘tilgan?

a) #Amaldagi Soliq kodeksining 80-moddasida
b) Amaldagi Soliq kodeksining 21-moddasida
c) Amaldagi Soliq kodeksining 22-moddasida
d) Amaldagi Soliq kodeksining 16-moddasida

5. Soliq Kodeksning qaysi moddasida soliqqa oid huquq-buzarlik tushunchasi ko‘rsatib o‘tilgan?

a) #Amaldagi Soliq kodeksining 210-moddasida
b) Amaldagi Soliq kodeksining 34-moddasida
c) Amaldagi Soliq kodeksining 35-moddasida
d) Amaldagi Soliq kodeksining 40-moddasida

6. Soliq Kodeksning qaysi moddasida nazorat-kassa texnikasini va hisob-kitob terminallarini qo‘llash tartibini buzish ko‘rsatib o‘tilgan?

a) #Amaldagi Soliq kodeksining 221-moddasida
b) Amaldagi Soliq kodeksining 64-moddasida
c) Amaldagi Soliq kodeksining 65-moddasida
d) Amaldagi Soliq kodeksining 66-moddasida

7. Soliq Kodeksning qaysi moddasida soliq majburiyatini bajarish tartibi va muddati ko‘rsatib o‘tilgan?

a) #Amaldagi Soliq kodeksining 86-moddasida
b) Amaldagi Soliq kodeksining 7-moddasida
c) Amaldagi Soliq kodeksining 8-moddasida
d) Amaldagi Soliq kodeksining 9-moddasida

8. Soliq Kodeksning qaysi moddasida soliq majburiyatining tugatilishi ko‘rsatib o‘tilgan?

a) #Amaldagi soliq kodeksining 87-moddasida
b) Amaldagi soliq kodeksining 7-moddasida
c) Amaldagi soliq kodeksining 12-moddasida
d) Amaldagi soliq kodeksining 13-moddasida

9. Soliq Kodeksning qaysi moddasida soliq to‘lovchilarning huquqlari ko‘rsatib o‘tilgan?

a) #Amaldagi soliq kodeksining 21-moddasida
b) Amaldagi soliq kodeksining 1-moddasida
c) Amaldagi soliq kodeksining 2-moddasida
d) Amaldagi soliq kodeksining 13-moddasida

10. Qaysi javobda soliq agentiga to‘g‘ri tarif berilgan.

a) #Soliq Kodeksga muvofiq zimmasiga soliqlarni hisoblab chiqarish, soliq to‘lovchidan ushlab qolish va byudjet tizimiga o‘tkazish majburiyati yuklatilgan shaxslar
b) Zimmasiga soliqlarni byudjet tizimiga o‘tkazish majburiyati yuklatilgan shaxslar
c) Soliq Kodeksga muvofiq zimmasiga soliqlarni hisoblab chiqarish majburiyati yuklatilmagan shaxslar
d) Byudjet Kodeksga muvofiq zimmasiga soliqlarni hisoblab chiqarish va byudjet tizimiga o‘tkazish majburiyati yuklatilgan shaxslar

11. Soliq organida hisobga qo‘yish tartibini buzganlik uchun javobgarlik Soliq kodeksining qaysi moddasida ko‘rsatilgan?

a) #Amaldagi soliq kodeksining 219-moddasida
b) Amaldagi soliq kodeksining 46-moddasida
c) Amaldagi soliq kodeksining 47-moddasida
d) Amaldagi soliq kodeksining 48-moddasida

12. Jismoniy shaxs soliqqa oid huquqbuzarliklar sodir etganlik uchun javobgarlikka necha yoshdan boshlab tortilishi mumkin?

a) #o‘n olti yoshdan boshlab
b) o‘n besh yoshdan boshlab
c) o‘n ikki yoshdan boshlab
d) o‘n uch yoshdan boshlab

13. Soliqqa oid huquqbuzarlik bo‘yicha moliyaviy sanksiyalar qaysi shaklda belgilanadi va qo‘llaniladi?

a) #Soliq Kodeksning 28 va 29-boblarida nazarda tutilgan miqdorlarda belgilanadi va pul undirish (jarimalar) tarzida
b) soliqqa oid xuquqbuzarlik uchun chora hisoblanib, ozodlikdan mahrum qilish tarzida

c) soliqqa oid xuquqbuzarlik uchun chora hisoblanib, ahloq tuzatish tarzida

d) soliqqa oid xuquqbuzarlik uchun chora hisoblanib, rahbar xodimlarni egallab turgan lavozimidan ozod etish tarzida

14. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining qaysi moddasida javobgarlikka tortishning umumiy shartlari ko‘rsatilgan.

a) #amaldagi soliq kodeksining 212-moddasida
b) amaldagi soliq kodeksining 37-moddasida
c) amaldagi soliq kodeksining 38-moddasida
d) amaldagi soliq kodeksining 39-moddasida

15. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining qaysi moddasida jismoniy shaxs to‘g‘risida asosiy tushunchalar ko‘rsatilgan?

a) #30-modda
b) 100-modda
c) 125 -modda
d) 150-modda

16. Soliq sohasidagi munosabatlarni tartibga solib turuvchi asosiy Qonuniy hujjatni ko‘rsating.

a) #O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi
b) O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi
c) O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy kodeksi
d) O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi

17. Soliq qarzini uzish to‘g‘risidagi talabnomaning shakli kim tomonidan tasdiqlanadi?

a) #O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan
b) O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis tomonidan
c) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan
d) O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik Palatasi tomonidan

18. Soliq kodeksining qaysi moddasida hisobvaraq-fakturalarni rasmiylashtirish tartibini buzganlik uchun javobgarlik ko‘rsatilgan?

a) #Amaldagi soliq kodeksining 225 moddasida
b) Amaldagi soliq kodeksining 40 moddasida

c) Amaldagi soliq kodeksining 41 moddasida
d) Amaldagi soliq kodeksining 42 moddasida

19. Soliq majburiyatini bajarish muddatlari to‘g‘ri ko‘rsatilgan javobni ko‘rsating.
a) # kalendar sana yoki vaqt davri (yil, chorak, oy, o‘n kunlik va kun) o‘tishi bilan
b) soliq tekshiruvi o‘tishi bilan
c) soliq monitoringi o‘tishi bilan
d) yil o‘tishi bilan

20. Soliq to‘lovchi soliq majburiyatini muddatidan oldin bajarishga haqlimi?
a) # muddatidan oldin bajarishga haqli
b) muddatidan oldin bajarishga haqli emas
c) muddatidan oldin bajarmaslikka haqli
d) muddatida bajarishga haqli

21. Soliq to‘lovchida soliq qarzi mavjud bo‘lgan taqdirda, ortiqcha to‘langan yoki ortiqcha undirilgan soliq summasi ushbu qarzni uzish hisobiga qanday ketma-ketlikda hisobga olinishi lozim?
a) #mazkur soliq turining penyasi bo‘yicha qarz hisobiga, boshqa soliqlar va ularning penyalari bo‘yicha qarzni uzish hisobiga, soliqqa oid huquqbuzarliklar uchun jarimalarni to‘lash hisobiga
b) boshqa soliqlar va ularning penyalari bo‘yicha qarzni uzish hisobiga, mazkur soliq turining penyasi bo‘yicha qarz hisobiga
c) mazkur soliq turining penyasi bo‘yicha qarz hisobiga,soliqqa oid huquqbuzarliklar uchun jarimalarni to‘lash hisobiga
d) soliqqa oid huquqbuzarliklar uchun jarimalarni to‘lash hisobiga, boshqa soliqlar va ularning penyalari bo‘yicha qarzni uzish hisobiga

22. Ortiqcha to‘langan soliq summasi soliq to‘lovchiga qaytarish mumkinmi?
a) #soliq to‘lovchining arizasiga ko‘ra soliq to‘lovchiga to‘liq yoki qisman
b) soliq to‘lovchining ko‘rsatmasiga ko‘ra soliq to‘lovchiga qisman

c) soliq to‘lovchining arizasiga ko‘ra soliq to‘lovchiga qaytarilishi mumkin emas

d) soliq to‘lovchiga qaytarilmaydi

23. Penya-bu...

a) #Soliq to‘lovchi soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida belgilangan soliqlarni to‘lash muddatini buzgan taqdirda to‘lashi lozim bo‘lgan pul summasidir.

b) Soliq to‘lovchi soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida belgilangan soliqlarni to‘lash muddatini buzmagan taqdirda to‘lashi lozim bo‘lgan pul summasidir.

c) Soliq to‘lovchi soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida belgilangan soliqlarni to‘lash muddatini buzgan taqdirda qaytarib olishi lozim bo‘lgan pul summasidir.

d) Soliq to‘lovchi soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida belgilangan soliqlarni to‘lash muddatini buzmagan taqdirda qaytarib berilishi lozim bo‘lgan pul summasidir.

24. Penyalarni hisoblash qaysi muddatdan boshlanadi va qaysi muddatga hisoblanadi?

a) #soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida belgilangan soliqni to‘lash kunidan keyingi kundan boshlab soliqni to‘lash bo‘yicha majburiyatni bajarish kechiktirilgan har bir kalendar kun uchun

b) soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida belgilangan soliqni to‘lash kunidan o‘n kun o‘tgandan keyin soliqni to‘lash bo‘yicha majburiyatni bajarish kechiktirilgan har bir kalendar kun uchun

c) soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida belgilangan soliqni to‘lash kunidan besh kun o‘tgandan keyin soliqni to‘lash bo‘yicha majburiyatni bajarish kechiktirilgan har bir kalendar yili uchun

d) soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida belgilangan soliqni to‘lash kunidan o‘ttiz kun o‘tgandan keyin soliqni to‘lash bo‘yicha majburiyatni bajarish kechiktirilgan har bir kuni uchun

25. Soliq qarzi bo‘yicha soliq to‘lovchilarning mol-mulkini xatlash qanday asosda amalga oshiriladi?

a) #sud qaroriga ko‘ra

b) soliq organi qaroriga ko‘ra

c) mansabdor shaxs qaroriga
d) xatlash mumkin emas

26. Soliq to‘lovchining soliq qarzi bo‘yicha uning mol-mulkini xatlash qaysi muddatlarda amalga oshiriladi?

a) #soliq to‘lovchiga soliq qarzini uzish to‘g‘risidagi talabnoma yuborilgan kundan boshlab o‘n besh kalendar kun ichida u tomonidan to‘liq bajarilmagan taqdirda

b) soliq to‘lovchiga soliq qarzini uzish to‘g‘risidagi talabnoma yuborilgan kundan boshlab bir yuz besh kalendar kun ichida u tomonidan to‘liq bajarilgan taqdirda

c) soliq to‘lovchiga soliq qarzini uzish to‘g‘risidagi talabnoma yuborilgan kundan boshlab o‘ttiz bir kalendar kun ichida u tomonidan to‘liq bajarilgan taqdirda

d) soliq to‘lovchiga soliq qarzini uzish to‘g‘risidagi talabnoma yuborilgandan keyin o‘n uch kalendar kun ichida u tomonidan to‘liq bajarilgan taqdirda

27. Soliq auditi tekshiruvi materiallarini kim tomonidan ko‘rib chiqiladi?

a) #soliq tekshiruvini o‘tkazgan soliq organining rahbari (rahbar o‘rinbosari) tomonidan

b) soliq tekshiruvini o‘tkazgan soliq organining inspektori tomonidan

c) soliq tekshiruvini o‘tkazgan soliq to`lovchining bosh hisobchisi tomonidan

d) soliq tekshiruvini o‘tkazgan bojxona organining rahbari (rahbar o‘rinbosari) tomonidan

28. Yangi soliq kodeksiga asosan soliq nazorati qanday shaklda amalga oshiradi?

a) #soliq tekshiruvlari va soliq monitoringi
b) kameral soliq tekshiruvi shaklida amalga oshiradi
c) sayyor soliq tekshiruvi shaklida amalga oshiradi
d) muqobil tekshiruvlar shaklida amalga oshiradi

29. Yangi soliq kodeksiga asosan soliq tekshiruvlarining turlarini ko‘rsating.

a) #kameral soliq tekshiruvi, sayyor soliq tekshiruvi, soliq auditi
b) qisqa muddatli soliq tekshiruvi, soliq auditi
c) rejadan tashqari soliq tekshiruvi, soliq auditi
d) qisqa muddatli tekshiruvi, kameral soliq tekshiruvi

30. Soliq tekshiruvlarini o‘tkazish maqsadi to‘g‘ri ko‘rsatilgan javobni ko‘rsating.

a) #Soliq tekshiruvlari soliq to‘lovchilar, yig‘imlarni to‘lovchilar va soliq agentlari tomonidan soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan nazorat qilish maqsadida o‘tkaziladi.
b) Soliq tekshiruvlari soliq to‘lovchilar tomonidan qonun hujjatlariga rioya etmasligi ustidan nazorat qilish maqsadida o‘tkaziladi.
c) Soliq tekshiruvlari yig‘imlarni to‘lovchilar va soliq agentlari tomonidan soliq va bojxona to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan nazorat qilish maqsadida o‘tkaziladi.
d) Soliq tekshiruvlari soliq agentlari tomonidan soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan nazorat qilish maqsadida o‘tkaziladi.

31. Kameral soliq tekshiruvi qay tartibda olib boriladi?

a) #soliq to‘lovchi (soliq agenti) tomonidan taqdim etilgan soliq hisobotini, moliyaviy hisobotni, shuningdek, soliq to‘lovchining faoliyati to‘g‘risida soliq organida mavjud bo‘lgan boshqa hujjatlar hamda ma’lumotlarni tahlil qilish asosida
b) soliq to‘lovchining huzuriga qisqa muddatli tekshiruvga borish orqali soliq to‘lovchi tomonidan belgilangan tartibda taqdim etilgan moliyaviy va soliq hisobotini, shuningdek, soliq to‘lovchining faoliyati to‘g‘risida davlat soliq xizmati organida mavjud boshqa hujjatlarni o‘rganish hamda soliq to‘lovchida mavjud ma’lumotlar bilan solishtirish asosida amalga oshiriladi
c) haqiqatda kelib tushgan naqd pul tushumini aniqlash maqsadida o‘tkaziladi
d) soliq to‘lovchining huzuriga bormasdan turib soliq to‘lovchi tomonidan elektron tarzda taqdim etilgan moliyaviy va soliq hisobotlarini arifmetik jihatdan to‘g‘riligini tekshirish maqsadida o‘tkaziladi

32. Sayyor soliq tekshiruvi qanday tekshiruv hisoblanadi?

a) #Soliq to‘lovchilarning soliqlar va yig‘imlarni hisoblab chiqarish hamda to‘lash sohasidagi ayrim majburiyatlarini, shuningdek, soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida belgilangan boshqa majburiyatlarini bajarilishini tekshirish

b) Soliq to‘lovchilarning hisoblab chiqarish hamda to‘lash sohasidagi ayrim majburiyatlarini bajarmasligini tekshirish

c) Soliq to‘lovchilarning bojxona to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida belgilangan boshqa majburiyatlarini bajarilishini tekshirish

d) Soliq to‘lovchilarning yig‘imlarni hisoblab chiqarish majburiyatlarini, shuningdek, soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida belgilangan boshqa majburiyatlarini bajarilishini tekshirish

33. Sayyor soliq tekshiruvini o‘tkazish muddati to‘g‘ri ko‘rsatilgan javobni tanlang.

a) #o‘n kundan ko‘p bo‘lmagan muddatda

b) o‘ttiz kundan ko‘p bo‘lmagan muddatda

c) bir kundan ko‘p bo‘lmagan muddatda

d) o‘n besh kundan ko‘p bo‘lmagan muddatda

34. Sayyor soliq tekshiruvini o‘tkazish muddatining boshlanishi to‘g‘ri ko‘rsatilgan javobni tanlang.

a) #Sayyor soliq tekshiruvini tayinlash to‘g‘risidagi buyruqda ko‘rsatilgan sana

b) Soliq to‘lovchiga sayyor soliq tekshiruvi dalolatnomasini topshirilgan kun

c) Sayyor soliq tekshiruvini boshlanishidan kamida o‘ttiz kalendar kun oldin

d) Sayyor soliq tekshiruvini tayinlash to‘g‘risidagi buyrug‘i bilan uni o‘tkazish dasturida ko‘rsatilgan sana

35. Sayyor soliq tekshiruvini o‘tkazish muddatining tugashi to‘g‘ri ko‘rsatilgan javobni tanlang.

a) #Soliq to‘lovchiga sayyor soliq tekshiruvi dalolatnomasini topshirilgan kun

b) Sayyor soliq tekshiruvi boshlanganidan besh kalendar kun o‘tgandan keyin

c) Sayyor soliq tekshiruvi boshlanganidan o‘ttiz kalendar kun o‘tgandan keyin

d) Sayyor soliq tekshiruvi dalolatnomasi tuzilgan kundan keyingi kun

36. Sayyor soliq tekshiruvi natijalariga ko‘ra soliq organlari tomonidan soliqlar va yig‘imlarni hisoblash amalga oshiriladimi?

a) # amalga oshirilmaydi

b) oxirgi yil uchun amalga oshiriladi

c) faqatgina soliqlar hisoblash amalga oshiriladi

d) faqatgina yig‘imlarni hisoblash amalga oshiriladi

37. Soliq organlari sayyor soliq tekshiruvlarini o‘tkazish chog‘ida qanday tadbirlarini o‘tkazishga haqli?

a) # profilaktika tadbirlarini va xronometraj kuzatuvlarini amalga oshirishga, nazorat-kassa texnikasi va to‘lov terminallari qo‘llanilishini tekshirishga va soliq nazoratining boshqa tadbirlarini

b) soliq auditi va xronometraj kuzatuvlarini

c) profilaktika tadbirlarini va kameral soliq tekshiruvini

d) soliq monitoringi va soliq nazoratining boshqa tadbirlarini

38. Soliq auditi tushunchasi to‘g‘ri ifodalangan javobni toping.

a) #Muayyan davr uchun soliqlar va yig‘imlarni hisoblab chiqarish hamda to‘lashning to‘g‘riligini tekshirish

b) Hisobot davri uchun yig‘imlarni hisoblab chiqarish to‘g‘riligini tekshirish

c) Soliq davri uchun soliqlarni hisoblab chiqarilishi to‘g‘riligini tekshirish

d) Muayyan davr uchun soliqlar, yig‘imlar va bojxona to‘lovlarini hisoblab chiqarish hamda to‘lashning to‘g‘riligini tekshirish

39. Soliq auditi qaysi toifadagi soliq to‘lovchilarga nisbatan o‘tkaziladi?

a) #soliq to‘lovchilarning (soliq agentlarining) yuqori darajadagi risk toifasiga mansub soliq to‘lovchiga (soliq agentiga) nisbatan

b) soliq to‘lovchilarning (soliq agentlarining) past darajadagi risk toifasiga mansub soliq to‘lovchiga (soliq agentiga) nisbatan

c) soliq to‘lovchilarning (soliq agentlarining) riskka yo‘l qo‘ymaydigan toifasiga mansub soliq to‘lovchiga (soliq agentiga) nisbatan

d) barcha soliq to‘lovchilarga (soliq agentlariga) nisbatan

40. Davlat soliq xizmati organi soliq auditi o‘tkazishning boshlanishi haqida soliq to‘lovchini qanday muddatda ogohlantirishi kerak?

a) #soliq auditi o‘tkazilishi boshlanishidan kamida o‘ttiz kalendar kun oldin

b) soliq auditi o‘tkazilishi boshlanishidan kamida o‘n uch kalendar kun oldin

c) soliq auditi o‘tkazilishi boshlanadigan kun

d) soliq auditi o‘tkazilishi boshlanishidan kamida uch oy oldin

41. Soliq auditini o‘tkazish muddati to‘g‘ri ko‘rsatilgan javobni ko‘rsating.

a) #o‘ttiz kun

b) o‘n kun

c) o‘n besh kun

d) yigirma kun

42. Soliq organi soliq to‘lovchini oldindan xabardor etmasdan soliq auditini boshlashga haqlimi?

a) #soliqlarni to‘lashdan bo‘yin tovlash belgilari mavjud bo‘lsa, soliq organi O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi bilan kelishgan holda haqli

b) soliqlarni to‘lashdan bo‘yin tovlash belgilari mavjud bo‘lsa, soliq organi O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasi bilan kelishgan holda haqli

c) soliqlarni to‘lashdan bo‘yin tovlash belgilari mavjud bo‘lmasa, soliq organi O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi bilan kelishgan holda haqli

d) haqli emas

43. Soliq auditini o‘tkazish muddati qaysi kundan boshlangan hisoblanadi?

a) #soliq to‘lovchiga (soliq agentiga) soliq auditini tayinlash to‘g‘risidagi buyruq topshirilgan kunda

b) soliq to‘lovchiga (soliq agentiga) soliq auditini tayinlash to‘g‘risidagi ariza topshirilgan kunda

c) soliq to‘lovchiga (soliq agentiga) soliq auditini tayinlash to‘g‘risidagi buyruq topshirilgan kundan o‘n kun o‘tib

d) soliq to‘lovchiga (soliq agentiga) soliq auditini tayinlash to‘g‘risidagi bayonnoma va qaror topshirilgan kunda

44. Soliq auditini o‘tkazish muddatini qaysi muddatgacha uzaytirish mumkin?

a) #ikki oygacha, alohida hollarda esa – uch oygacha

b) o‘n kungacha, alohida hollarda esa – o‘n besh kungacha

c) o‘n oygacha, alohida hollarda esa – o‘n ikki oygacha

d) ikki yilgacha, alohida hollarda esa – uch yilcha

45. Soliq auditining umumiy muddati qancha muddatdan oshishi mumkin emas?

a) #olti oydan

b) olti kundan

c) o‘n bir oydan

d) o‘n kundan

46. Soliq auditi tugaydigan kun to‘g‘ri ko‘rsatilgan javobni toping?

a) #o‘tkazilgan soliq auditi to‘g‘risida dalolatnoma tuzilgan (imzolangan) kunda

b) o‘tkazilgan soliq auditi to‘g‘risida buyruq imzolangan kunda

c) o‘tkazilgan soliq auditi to‘g‘risida dalolatnoma tuzilgan (imzolangan) kundan o‘n kundan keyin

d) o‘tkazilgan soliq auditi to‘g‘risida bayonnoma va qaror imzolangan kunda

47. Soliq tekshiruvini o‘tkazuvchi mansabdor shaxslar tekshirilayotgan shaxsning hududlari va binolarini, shuningdek, hujjatlar va buyumlarni ko‘zdan kechirishni amalga oshirishga haqlimi?

a) #Haqli

b) Haqli emas
c) Tekshiruv boshlanishidan oldin haqli
d) Tekshiruv tugaganidan keyin haqli

48. Soliq auditi natijalari qanday rasmiylashtiriladi?
a) # soliq auditi dalolatnomasi tuzilishi kerak
b) soliq auditi bayonnomasi tuzilishi kerak
c) soliq auditi qarori tuzilishi kerak
d) soliq auditi buyrug‘i tuzilishi kerak

49. Soliq auditi dalolatnomasi nechchi nusxada tuziladi?
a) #kamida uch nusxada
b) kamida besh nusxada
c) kamida o‘n nusxada
d) kamida bir nusxada

50. Tekshiruv natijasi bo‘yicha soliq organlarining vakolatli mansabdor shaxslari tomonidan tuziladigan hujjat bu-…….. deyiladi.
a) #dalolatnoma
b) xulosa
c) bayonnoma
d) talabnoma

51. Soliq to‘lovchi tomonidan soliq hisobotlarida aks ettirilishi lozim bo‘lgan ko‘rsatkichlar yoki ma’lumotlar bilan soliq hisobotida aks ettirilgan ko‘rsatkichlar yoki ma’lumotlar orasidagi farq yoki nomuvofiqliklar ……. deyiladi.
a) #soliq hisobotidagi tafovutlar
b) dalolatnomadagi tafovutlar
c) soliq tekshiruvidagi tafovutlar
d) soliq auditidagi tafovutlar

52. …… – soliq to‘lovchi tomonidan soliq hisobotida noto‘g‘ri ma’lumotlar yoki ko‘rsatkichlar aks ettirilishi.
a) #soliq hisobotidagi xatolar
b) soliq tekshiruvidagi xatolar

c) soliq auditidagi xatolar
d) bayonnomadagi xatolar

53. Kameral soliq tekshiruvi yakuni bilan taqdim etilgan soliq hisobotida tafovutlar va (yoki) xatolar aniqlanganda, soliq hisobotiga tuzatishlar kiritish zarurligi haqida ko‘rsatma mavjud bo‘lgan, soliq organi tomonidan soliq to‘lovchiga yuboriladigan hujjat bu …….. deb ataladi.

a) #talabnoma
b) dalolatnoma
c) xulosa
d) bayonnoma

54. Kameral soliq tekshiruvi doirasida amalga oshirilgan harakatlar, soliq tekshiruvini o‘tkazish uchun asos bo‘lgan holatlarning soliq tekshiruvida tasdig‘ini topganligi yoki qisman tasdig‘ini topganligi yoxud tasdig‘ini topmaganligi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan tekshiruvni o‘tkazgan mansabdor shaxs tomonidan tekshiruv natijasi bo‘yicha tuziladigan hujjat bu…….. deyiladi.

a) #xulosa
b) bildirishnoma
c) iltimosnoma
d) ariza

55. Soliq to‘lovchi tomonidan soliqlarni to‘lash bo‘yicha majburiyatlarning bajarilishi qanday ta’minlanadi?

a) #Soliq to‘lash majburiyatiga ega bo‘lgan soliq to‘lovchi uni to‘lashga doir to‘lov topshiriqnomasini xizmat ko‘rsatuvchi bankka, o‘zining bank hisobvarag‘ida pul mablag‘lari bor-yo‘qligidan qat’iy nazar, to‘lov muddatidan kechiktirmasdan taqdim etishi shart.

b) Soliq to‘lash majburiyatiga ega bo‘lgan soliq to‘lovchi uni to‘lashga doir to‘lov topshiriqnomasini xizmat ko‘rsatuvchi soliq organiga, o‘zining g‘azna hisobvarag‘ida pul mablag‘lari bor-yo‘qligidan qat’iy nazar, to‘lov muddatidan kechiktirmasdan taqdim etishi shart.

c) Soliq to‘lash majburiyatiga ega bo‘lgan soliq to‘lovchi uni to‘lashga doir to‘lov topshiriqnomasini xizmat ko‘rsatuvchi bankka,

o‘zining bank hisobvarag‘ida pul mablag‘lari bor-yo‘qligidan qat’iy nazar, belgilangan to‘lov muddatidan kechiktirib taqdim etishi shart.

d) Soliq to‘lash majburiyatiga ega bo‘lgan soliq to‘lovchi uni to‘lashga doir to‘lov topshiriqnomasini xizmat ko‘rsatuvchi bankka, o‘zining bank hisobvarag‘ida pul mablag‘lari bor bo‘lsagina, belgilangan to‘lov muddatidan kechiktirmasdan taqdim etishi shart.

56. Soliq tekshiruvining ishtirokchilari kimlar hisoblanadi?

a) #soliq tekshiruvini o‘tkazuvchi soliq organining mansabdor shaxsi, soliq to‘lovchi va uning vakillari

b) soliq to‘lovchi va uning vakillari

c) soliq tekshiruvini o‘tkazuvchi bojhona organining mansabdor shaxsi

d) soliq tekshiruvini o‘tkazuvchi moliya organining mansabdor shaxsi, soliq to‘lovchi va uning vakillari

57. Ekspertiza tayinlash to‘g‘risidagi qaror kim tomonidan qabul qilinadi?

a) #soliq organining rahbari (rahbar o‘rinbosari)

b) soliq organining bo`lim boshliqi

c) soliq to`lovchining rahbari (rahbar o‘rinbosari)

d) moliya organining rahbari (rahbar o‘rinbosari)

58. Soliq qarzini undirish uchun hisobvaraqlardan zarur pul mablag‘larini hisobdan chiqarish va byudjetga o‘tkazish qanday amalga oshiriladi?

a) #bankka inkasso topshiriqnomasini elektron shaklda yuborish yo‘li bilan

b) bankka ishonchnomani elektron shaklda yuborish yo‘li bilan

c) bankka shartnomani elektron shaklda yuborish yo‘li bilan

d) bankka hisob fakturani elektron shaklda yuborish yo‘li bilan

59. Soliq organi tomonidan qaysi muddatlarda inkasso topshiriqnomasi soliq to‘lovchining hisobvarag‘iga qo‘yiladi?

a) # soliqni to‘lash uchun belgilangan muddat tugagach uch ish kunidan kechiktirmay

b) soliqni to‘lash uchun belgilangan muddat tugagach o‘n bir ish kunidan kechiktirmay

c) soliqni to‘lash uchun belgilangan muddat tugagach o‘n uch ish kunidan kechiktirmay

d) soliqni to‘lash uchun belgilangan muddat tugagach bir ish kunidan kechiktirmay qo‘yiladi

60. Sayyor soliq tekshiruvini o‘tkazish uchun asosni toping.

a) #barchasi to`g‘ri

b) soliq riskini boshqarish tizimi orqali aniqlangan, soliq to‘g‘risidagi qonunchilikni buzish riski mavjudligi

c) ommaviy axborot vositalarida soliqqa va valyutaga oid huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ma’lumotlar e’lon qilinganda

d) o‘tkazilayotgan kameral soliq tekshiruvini xolisona amalga oshirish maqsadida qo‘shimcha ma’lumotlar olish zarurati yuzaga kelganda

61. Sayyor soliq tekshiruvini o‘tkazishda soliq to‘lovchilardan sayyor soliq tekshiruvi predmetiga aloqador bo‘lmagan hujjatlarni (axborotni) talab qilishga yo‘l qo‘yiladimi?

a) #yo‘l qo‘yilmaydi

b) yo‘l qo‘yiladi

c) ixtiyoriy

d) majburiy

62. Xronometraj ko‘zdan kechirish qanday maqsadda o‘tkaziladi?

a) #soliq to‘lovchilarning faoliyat turlari bo‘yicha haqiqiy ishlab chiqarish (ishlar, xizmatlar) hajmlarini, shuningdek, haqiqiy xarajatlarini aniqlash maqsadida

b) soliq to‘lovchilarning faoliyat turlari bo‘yicha haqiqatga yaqin ishlab chiqarish (ishlar, xizmatlar) hajmlarini, shuningdek, haqiqatga yaqin xarajatlarini aniqlash maqsadida

c) soliq to‘lovchilarning faoliyat turlari bo‘yicha haqiqiy sotib olish hajmlarini aniqlash maqsadida

d) soliq solish obyektlari va soliq solish bilan bog‘liq obyektlar to‘g‘risidagi axborotni aniqlashtirish maqsadida

63. Soliq Kodeksiga asosan soliq qarziga qanday ta’rif berilgan?

a) #Hisoblab chiqarilgan (hisoblangan) va belgilangan muddatlarda to‘lanmagan soliqlarning, shu jumladan ular bo‘yicha

bo‘nak va joriy to‘lovlarning summalari, shuningdek, Soliq Kodeksda belgilangan muddatda to‘lanmagan moliyaviy sanksiyalar va penyalar

b) Hisoblab chiqarilgan (hisoblangan) soliqlarning, ular bo‘yicha bo‘nak va joriy to‘lovlarning summalari, belgilangan muddatda to‘lanmagan moliyaviy sanksiyalar va penyalar

c) Hisoblab chiqarilgan (hisoblangan) va belgilangan muddatlarda to‘langan to‘lovlarning, shu jumladan ular bo‘yicha bo‘nak va joriy soliqlarning summalari, belgilangan muddatda to‘langan soliqlar va penyalar

d) To‘g‘ri javob keltirilmagan

64. Bank kafolati bo‘yicha majburiyat kafolat beruvchi tomonidan u bank kafolati bo‘yicha pul summasini to‘lash to‘g‘risida talabnoma olgan kundan e’tiboran necha kun ichida bajarilishi lozim?

a) #5 kun
b) 12 kun
c) 13 kun
d) 30 kun

65. Soliq to‘lovchi soliq to‘g‘risidagi qonunchilikda belgilangan soliqlarni to‘lash muddatini buzgan taqdirda to‘lashi lozim bo‘lgan pul summasi ...

a) #penyadir
b) jarimadir
c) kompensatsiyalar
d) ustamalar

66. Penya qachondan boshlab hisoblanishni boshlaydi?

a) #soliq to‘g‘risidagi qonunchilikda belgilangan soliqni to‘lash kunidan keyingi kundan

b) soliq to‘g‘risidagi qonunchilikda belgilangan soliqni to‘lash kunidan

c) hisobot taqdim etilgan kundan
d) to‘g‘ri javob yo‘q

67. To‘lanishi bo‘yicha majburiyat kafillik bilan ta’minlangan soliq belgilangan muddatda to‘lanmagan yoki to‘liq to‘lanmagan taqdirda, soliq organi kafilga pul summasini to‘lash bo‘yicha qanday hujjat yuboradi?

a) #talabnoma
b) ariza
c) xat
d) to‘g‘ri javob yo‘q

68. Soliq riski darajasilarini baholash natijalari 81 foizdan 100 foizgacha bo‘lganda soliq riski qanday baholanadi?

a) #yuqori xavf
b) o‘rta risk
c) past risk
d) xavf mavjud emas

69. Mol-mulk garovi soliq organi va garovga qo‘yuvchi o‘rtasida nima bilan rasmiylashtiriladi?

a) #shartnoma bilan
b) bitim bilan
c) kelishuv bilan
d) to‘g‘ri javob yo‘q

70. Soliq majburiyatining bajaralishini ta’minlash usullar to‘g‘ri ko‘rsatilgan javobni tanlang.

a) #barchasi to‘g‘ri
b) mol-mulk garovi,bank kafolati
c) penyalar hisobvaraqlar bo‘yicha operatsiyalarni to‘xtatilishi
d) soliq to‘lovchini mol-mulkini xatlash

71. Ortiqcha undirilgan soliq summasiga foizlar hisoblanishi uchun qanday shartga javob berilishi kerak?

a) #Fakt aniqlangan kudan 30 kun ichida murojaat qilinganda
b) Sudning qarori qonuniy kuchga kirishidan oldin
c) 1 kun ichida murojaat qilinganda
d) 1 yil ichida murojaat qilinganda

72. Ortiqcha undirilgan soliq summasi soliq to‘lovchining arizasi qabul qilingan kundan e’tiboran necha kun ichida qaytarib beriladi?

a) #15 kun
b) 10 kun
c) 5 kun
d) 30 kun

73. Ortiqcha undirilgan soliq summalarini hisobga olish yoki qaytarish to‘g‘risida soliq organiga ariza soliq to‘lovchi tomonidan qancha muddat ichida berilish mumkin?

a) #3 yil ichida
b) 2 yil ichida
c) 1 yil ichida
d) 10 yil ichida

74. Agar ortiqcha to‘langan soliq summasini soliq to‘lovchiga qaytarish belgilangan muddatda qaytarilmasa, soliq organi qaytarish muddati buzilgan har bir kalendar kun uchun necha foiz miqdorida qo‘shimcha foiz to‘laydi?

a) #Markaziy bank qayta moliyalashtirish stavkasi bo‘yicha
b) Markaziy bank qayta moliyalashtirish stavkasining 100 dan bir qismicha
c) 0,05 foiz miqdorida
d) 0,03 foiz miqdorida

75. Soliq organi ortiqcha to‘langan soliq summasini hisobga olishni yoki qaytarishni rad etish to‘g‘risidagi qabul qilingan qaror haqida soliq to‘lovchiga bunday qaror qabul qilingan kundan e’tiboran necha kun ichida xabar qilishi shart?

a) #3 kun
b) 13 kun
c) 1 kun
d) 4 kun

76. Ortiqcha to‘langan soliq summasi soliq to‘lovchiga uning yozma arizasiga binoan soliq organi tomonidan bunday ariza olingan kundan e’tiboran necha kun ichida qaytarilishi lozim?

a) #15 kun

b) 10 kun
c) 5 kun
d) 3 kun

77. Ortiqcha to‘langan soliq summasini soliq qarzini qoplash hisobiga hisobga olish to‘g‘risidagi qaror soliq organi tomonidan soliqning ortiqcha to‘langanligi fakti aniqlagan kundan e’tiboran necha kun ichida qabul qilinadi?

a) #10 kun
b) 1 kun
c) 12 kun
d) 11 kun

78. Ortiqcha to‘langan summani boshqa soliqlarga singishtirish (hisobga olish) qanday tartibda amalga oshiriladi?

a) #soliq to‘lovchining yozma arizasiga asosan
b) soliq to‘lovchi tomonidan mustaqil ravishda
c) bunday qoida nazarda tutilmagan
d) to‘g‘ri javob yo‘q

79. Ortiqcha to‘langan yoki ortiqcha undirilgan soliq summasi soliq to‘lovchining qarzi bo‘lganda, boshqa qarzlarga qanday ketma-ketlikda hisobga oladi (singishtiradi)?

a) #mazkur soliq penyasi, boshqa soliq va penyasi, jarimalar
b) jarimalar, soliq penyasi, boshqa soliq va penyasi
c) boshqa soliq va penyasi, jarimalar, mazkur soliq penyasi
d) boshqa soliq va penyasi,mazkur soliq penyasi va jarimalar

80. Tugatilayotgan yuridik shaxsning soliqlar bo‘yicha qarzi bo‘lmagan taqdirda, ortiqcha to‘langan yoki undan ortiqcha undirilgan soliqlar (penyalar, jarimalar) summasi shu yuridik shaxsga u ariza bergan kundan e’tiboran necha kundan kechiktirmay qaytarilishi lozim?

a) #15 kun
b) 1 kun
c) 10 kun
d) 30 kun

81. Soliqni to‘lash bo‘yicha kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash imkoniyatini berish to‘g‘risida qaror bekor qilingani to‘g‘risidagi xabarnoma vakolatli organ tomonidan qaror qabul qilingan kundan e’tiboran necha kun ichida manfaatdor shaxsga yuboriladi?

a) #5 kun
b) 6 kun
c) 15 kun
d) 30 kun

82. Qaysi hollarda soliqni to‘lash bo‘yicha kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lashning amal qilishi muddatidan oldin tugatilishi mumkin?

a) #barcha javob to‘g‘ri
b) soliqning to‘liq summasi belgilangan muddat o‘tgunga qadar to‘lansa
c) soliqning tegishli foizi summasi belgilangan muddat o‘tgunga qadar to‘lansa
d) soliqni to‘lash bo‘yicha kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash shartlari manfaatdor shaxs tomonidan buzilsa

83. Soliqni to‘lashni kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash imkoniyatini berish to‘g‘risidagi qarorda nimalar ko‘rsatilishi kerak?

a) #barcha javob to‘g‘ri
b) qarz summasi
c) kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash imkoniyati berilayotgan soliq
d) qarz summasi va hisoblangan foizlarni to‘lash tartibi hamda muddalari

84. Soliqni to‘lash bo‘yicha kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash imkoniyatini berish yoxud uni berishni rad etish to‘g‘risidagi qaror vakolatli organ tomonidan manfaatdor shaxsning arizasi olingan kundan e’tiboran necha kun ichida qabul qilinadi?

a) #30 kun
b) 5 kun
c) 11 kun
d) 20 kun

85. Ekspertiza tayinlash to‘g‘risidagi qaror soliq organining rahbari (rahbar o‘rinbosari) tomonidan kimning iltimosnomasi asosida qabul qilinadi?

a) #soliq tekshiruvini o‘tkazadigan soliq organi mansabdor shaxsining
b) soliq organi bo‘lim boshlig‘ining
c) soliq to‘lovchi rahbarining
d) ekspertning

86. Jismoniy shaxga qancha summaga soliqlarni to‘lashni kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash imkoniyati berilishi mumkin?

a) #mol-mulk qiymatidan oshmaydigan summaga
b) Jami soliq qarziga
c) 5 mln.so‘mgacha
d) To‘g‘ri javob yo‘q

87. Soliq auditi natijalari kim tomonidan rasmiylashtiriladi?

a) #tekshiruvni o‘tkazgan vakolatli mansabdor shaxslari tomonidan
b) tekshiruvda ishtirok etgan shaxslar tomonidan
c) tekshiruvga jalb qilingan shaxslar tomonidan
d) soliq organining rahbari tomonidan

88. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan qancha muddatga to‘lash muddatlarini o‘zgartirish imkoniyati berilishi mumkin?

a) #3 yilgacha
b) 1 yildan oshmagan
c) 2,5 yilgacha
d) 1,5 yilgacha

89. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qaysi soliqlar bo‘yicha kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash imkoniyatini berish mumkin?

a) #har qanday soliq bo‘yicha
b) Qqs, aksiz ,ijtimoiy soliq va foyda solig‘i
c) jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i, ijtimoiy soliq, to‘lov manbaida olinadigan foyda solig‘i

d) ijtimoiy soliq, to‘lov manbaida olinadigan foyda solig‘i

90. Soliq organlari tomonidan qancha muddatga to‘lash muddatlarini o‘zgartirish imkoniyatini berilishi mumkin?

a) #1 yildan oshmagan
b) 2 yilgacha
c) 3 yilgacha
d) 5 yilgacha

91. Mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan qancha muddatga to‘lash muddatlarini o‘zgartirish imkoniyati berilishi mumkin?

a) #2 yilgacha
b) 1 yildan oshmagan
c) 3 yilgacha
d) 5 yilgacha

92. Mahalliy davlat hokimiyati organlari qaysi soliqlarni to‘lash muddatlarini o‘zgartirish to‘g‘risida qarorlar qabul qilish vakolatiga ega?

a) #suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, mol-mulk solig‘i, yer solig‘i va aylanmadan olinadigan soliq
b) Qqs, aksiz , ijtimoiy soliq va foyda solig‘i
c) jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i, ijtimoiy soliq, to‘lov manbaida olinadigan foyda solig‘i
d) ijtimoiy soliq, qo‘shilgan qiymat solig‘i va foyda solig‘i

93. Kimlar soliqlarni to‘lash muddatlarini o‘zgartirish to‘g‘risida qaror qabul qilish vakolatiga ega?

a) #barcha javoblar to‘g‘ri
b) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi
c) O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi
d) O‘zbekiston Respublikasining bojxona organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari

94. Soliq to‘lash muddatini o‘zgartirish to‘g‘risida qaror belgilangan shartlarga amal qilmasdan qabul qilingan bo‘lsa, ...

a) #qabul qilingan qaror bekor qilinadi

b) qaror qabul qilgan shaxsga nisbatan xizmat tekshiruvi o‘tkaziladi

c) keyinchalik ushbu manfaatdor shaxs bo‘yicha soliq to‘lash muddati o‘zgartirilmaydi

d) barchasi to‘g‘ri

95. Qaysi holatda soliqni to‘lash muddati o‘zgartirilishi mumkin emas?

a) #manfaatdor shaxsga nisbatan bankrotlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atilgan bo‘lsa.

b) manfaatdor shaxs avval ham bunday imkoniyatdan foydalangan bo‘lsa

c) manfaatdor shaxs avval bunday imkoniyatdan foydalanmagan bo‘lsa

d) barchasi to‘g‘ri

96. Soliq to‘lash muddatining o‘zgartirilishi soliq to‘lash bo‘yicha mavjud majburiyatlarni bekor qiladimi?

a) #yo‘q, bekor qilmaydi

b) ha,bekor qiladi

c) to‘g‘ri javob yo‘q

d) bunday qoida mavjud emas

97. Soliq to‘lash muddatini o‘zgartirish shakllari to‘g‘ri ko‘rsatilgan javobni tanlang.

a) #Soliq to‘lashni kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash

b) Soliq to‘lashni qisman kechiktirish

c) Soliq to‘lashni kechiktirish yoki qisman to‘lash

d) Soliq to‘lashni kechiktirmaslik yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lamaslik

98. Soliq to‘lashning muddatini keyinroq muddatga ko‘chirish qanqay ataladi?

a) #soliqni to‘lash muddatini o‘zgartirsh

b) soliqni to‘lamaslik

c) soliqni bo‘lib to‘lash

d) to‘g‘ri javob yo‘q

99. Kimlar soliq qarzini undirilishi umidsiz qarz deb e’tirof etish va uni hisobdan chiqarish to‘g‘risida qaror qabul qilish vakolatiga ega?

a) #barcha javoblar to‘g‘ri

b) yuridik shaxs joylashgan yerdagi yoki jismoniy shaxsning yashash joyidagi soliq organlari

c) soliq to‘lovchi yoki soliq agenti hisobda turgan joydagi soliq organlari

d) bojxona organlari

100. Qanday holatlarda soliq to‘lovchining mol-mulki soliq qarzini qoplashga yetarli bo‘lmaganda, undirish imkoni bo‘lmay qolgan umidsiz soliq qarzi deb e’tirof etiladi?

a) #barcha javoblar to‘g‘ri

b) yuridik shaxs tugatilganda

c) yakka tartibdagi tadbirkor bankrot deb e’tirof etilganda

d) jismoniy shaxs vafot etganda yoki jismoniy shaxs vafot etgan deb e’lon qilinganda

101. Sud tomonidan bedarak yo‘qolgan deb e’tirof etilgan jismoniy shaxsning mol-mulkini boshqarish huquqiga ega bo‘lgan shaxs kim deb ataladi?

a) #vakolatli shaxs

b) vasiy

c) merosxo‘r

d) barcha javoblar noto‘g‘ri

102. Sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan jismoniy shaxsning soliq majburiyati shu muomalaga layoqatsiz shaxsning mol-mulki hisobidan kim tomonidan bajariladi?

a) #uning g‘asiysi tomonidan

b) uning vakolatli shaxsi tomonidan

c) uning merosxo‘ri tomonidan

d) barcha javoblar to‘g‘ri

103. Vafot etgan jismoniy shaxsning jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i va ijtimoiy soliqni to‘lash bo‘yicha qarzi qanday tartibda undiriladi?

a) #hech kimdan undirilmaydi, umidsiz qarz deb e’tirof etiladi
b) vafot etgan jismoniy shaxsning merosxo‘ri (merosxo‘rlari)
c) vafot etgan jismoniy shaxsning mol-mulki hisobidan
d) barcha javoblar noto‘g‘ri

104. Vafot etgan jismoniy shaxsning merosxo‘ri (merosxo‘rlari) mazkur jismoniy shaxsning soliqlar bo‘yicha qolgan qarzini meros qabul qilib olingan kundan e’tiboran qancha muddatda uzishi shart?

a) #1 yildan kechiktirmay
b) 6 oydan kechiktirmay
c) 9 oydan kechiktirmay
d) 5 yildan kechiktirmay

105. Soliq qarzi bo‘lgan jismoniy shaxs vafot etgan taqdirda, qancha muddat soliq organi jismoniy shaxsning merosxo‘rlarini soliq qarzi mavjudligi to‘g‘risida xabar qilishi shart?

a) #1 oy ichida
b) 15 kun ichida
c) 5 kun ichida
d) 25 kun ichida

106. Vafot etgan jismoniy shaxsning soliq qarzi undirilishi qachon umidsiz qarz deb e’tirof etiladi?

a) #merosxo‘r bo‘lmaganda yoki merosxo‘r (merosxo‘rlar) meros olish huquqidan voz kechganda
b) merosxo‘r to`lamaganda
c) merosxo‘r (merosxo‘rlar) meros olish huquqidan voz kechmaganda
d) barcha javoblar noto‘g‘ri

107. Agar ishonchli boshqaruvchi soliqlarni hisoblash va to‘lash bo‘yicha nazarda tutilgan majburiyatlarni bajarmagan yoki to‘liq hajmda bajarmagan bo‘lsa, ularni bajarish majburiyati kimga yuklatiladi?

a) #ishonchli boshqaruvni ta’sis etuvchiga (naf oluvchiga)
b) korxonaning xuquqiy vorisiga

c) korxona rahbariga
d) barcha javoblar to‘g‘ri

108. Soliq majburiyati bo‘yicha da’vo qilish muddati necha yil?
a) #3 yil
b) 4 yil
c) 2 yil
d) 10 yil

109. Jismoniy shaxsning soliq majburiyati qachon tugatiladi?
a) #Jismoniy shaxs vafot etganda
b) Jismoniy shaxsni vafot etgan deb e’lon qilish to‘g‘risida sud qarori qonuniy kuchga kirmaganda
c) Jismoniy shaxs bedarak yo‘qolganda
d) Jismoniy shaxs topilganda

110. Davlat soliq xizmati organi soliq auditi o‘tkazishning boshlanishi haqida soliq to`lovchini qanqay ogohlantiradi?
a) #soliq auditi o‘tkazilishi to‘g‘risida xabarnoma yuboradi
b) soliq auditi o‘tkazilishi to‘g‘risida bildirishnoma yuboradi
c) soliq auditi o‘tkazilishi to‘g‘risida ariza yuboradi
d) soliq auditi o‘tkazilishi to‘g‘risida talabnoma yuboradi

111. Soliq to‘lovchilar va soliq agentlari soliq hisobotini u taqdim etilgan yildan keyin qancha muddat saqlashi kerak?
a) #kamida 3 yil
b) kamida 2 yil
c) kamida 1 yil
d) kamida 10 yil

112. Soliq to‘g‘risidagi qonunchilik bilan soliq to‘lovchilar zimmasiga yuklatilgan soliqlarni va yig‘imlarni to‘g‘ri hisoblab chiqarish hamda o‘z vaqtida to‘lash majburiyati ularning .....
a) #soliq majburiyatidir.
b) vazifasidir.
c) huquqidir.
d) burchi va soliq majburiyatidir.

113. Agar soliq majburiyatini bajarish muddatining so‘nggi kuni dam olish (ishlanmaydigan) kuniga to‘g‘ri kelsa, muddatning tugashi qaysi kun hisoblanadi?

a) #dam olish kunidan keyingi birinchi ish kuni
b) o‘sha kuni
c) dam olish kunidan bir kun oldingi kun
d) to‘g‘ri javob yo‘q

114. Soliq majburiyati qaysi hollarda tugatiladi?

a) #soliq soliq to‘lovchi tomonidan to‘langanda
b) soliq soliq agenti tomonidan qaytarib berilganda
c) korxona boshqa korxona tarkibiga qo‘shilganda
d) soliq soliq to‘lovchi tomonidan qaytarilganda

115. Soliq qarzi nima?

a) #barchasi to‘g‘ri
b) hisoblab chiqarilgan (hisoblangan) va belgilangan muddatlarda to‘lanmagan soliqlar
c) belgilangan muddatlarda to‘lanmagan soliqlar bo‘yicha bo‘nak va joriy to‘lovlarning summalari
d) belgilangan muddatda to‘lanmagan moliyaviy sanksiyalar va penyalar

116. Soliq riski darajalarini baholash natijalari 30 foizdan 80 foizgacha bo‘lganda soliq riski qanday baholanadi?

a) #o‘rta risk
b) xavf mavjud emas
c) yuqori xavf
d) past risk

117. Tugatilayotgan yuridik shaxsning soliq majburiyati mazkur yuridik shaxsning pul mablag‘lari, shu jumladan uning mol-mulkini realizatsiya qilishdan olingan pul mablag‘lari hisobidan kim tomonidan bajariladi?

a) #yuridik shaxsning tugatuvchisi tomonidan
b) yuridik shaxsning ta’sischisi tomonidan
c) yuridik shaxsning rahbari tomonidan
d) yuridik shaxsning hisobchisi tomonidan

118. Qayta tashkil etilgan yuridik shaxsning soliq majburiyati kim tomonidan bajarilishi lozim?

a) #yuridik shaxsning huquqiy vorislari tomonidan
b) ta’sischisi tomonidan
c) yuridik shaxsning rahbari tomonidan
d) yuridik shaxsning hisobchisi tomonidan

119. Bir necha huquqiy vorislar mavjud bo‘lgan taqdirda, ulardan har birining qayta tashkil etilgan yuridik shaxsning soliq majburiyatini bajarishdagi ishtiroki ulushi nima bilan aniqlanadi?

a) #taqsimlash balansi bilan
b) topshirish-olish bayonnomasi bilan
c) ulushni taqsimlash dalolatomasi bilan
d) barchasi to‘g‘ri

120. Qayta tashkil etilgan yuridik shaxsda soliq qarzi bo‘lmagan taqdirda, ushbu yuridik shaxs tomonidan ortiqcha to‘langan yoki undan ortiqcha undirilgan soliq (penya, jarima) summasi uning vorisiga qancha muddatda qaytarilishi lozim?

a) #ariza bergan kundan e’tiboran bir oydan kechiktirmay.
b) ariza bergan kundan e’tiboran bir yildan kechiktirmay
c) ariza bergan kundan e’tiboran 15 kundan kechiktirmay
d) ariza bergan kundan e’tiboran 10 kundan kechiktirmay

121. Ishonchli boshqaruvchi qachondan e’tiboran ishonchli boshqarish shartnomasi bo‘yicha soliq majburiyatlarini bajaradi?

a) #ishonchli boshqaruv shartnomasi tuzilgan sanadan boshlab
b) ishonchli boshqaruv shartnomasi tuzilgan yildan boshlab
c) ishonchli boshqaruv shartnomasi tuzilgan soatdan boshlab
d) mol-mulkni ishonchli boshqaruvchiga topshirgan sanadan boshlab

122. Yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarning bankdagi hisobvaraqlari bo‘yicha operatsiyalarni to‘xtatib turish soliq organi tomonidan qaysi hollarda qo‘llaniladi?

a) #barchasi to‘g‘ri

b) moliyaviy va (yoki) soliq hisoboti bunday hisobotni taqdim etishning belgilangan muddati tugaganidan keyin o‘n kun ichida taqdim etilmaganda

c) kameral soliq tekshiruvi natijalari bo‘yicha talabnomasiga tushuntirishlar va (yoki) tuzatishlar belgilangan muddatda taqdim etilmaganda soliq tekshiruvini o‘tkazayotgan soliq organlarining mansabdor shaxslarini ko‘rsatilgan hududga yoki binoga (bundan turar joylar mustasno) kirishiga to‘sqinlik qilishda

d) soliq to‘lovchining (soliq agentining) o‘zi ko‘rsatgan manzilda yo‘qligida

123. Soliq organi qaroriga asosan banklar tomonidan soliq to‘lovchining (soliq agentining) qaysi hisobvaraqlari to‘xtatib turiladi?

a) #barcha hisobvaraqlari bo‘yicha operatsiyalari

b) valyuta hisobvaraqlari bo‘yicha operatsiyalari

c) asosiy hisobvaraqlari bo‘yicha operatsiyalari

d) ikkilamchi hisobvarag‘i operatsiyalari

124. Soliq to‘lovchining (soliq agentining) bankdagi hisobvaraqlari bo‘yicha operatsiyalarni to‘xtatib turishni bekor qilish to‘g‘risidagi qaror bankka qaysi usulda hamda qancha muddatda yuboriladi?

a) #elektron shaklda, qaror qabul qilingan kundan keyingi kundan kechiktirmay

b) pochta orqali, qaror qabul qilingan kundan kechiktirmay

c) elektron shaklda, qaror qabul qilingan kundan kechiktirmay

d) pochta orqali, qaror qabul qilingan kundan keyingi kundan kechiktirmay

125. Soliq organi tomonidan soliq to‘lovchining (soliq agentining) bankdagi hisobvaraqlari bo‘yicha operatsiyalarni to‘xtatib turish to‘g‘risidagi qarorni bekor qilish muddati yoki bunday qarorni bankka yuborish muddati buzilgan taqdirda qanday javobgarlik chorasi bor?

a) #pul mablag‘lari summasiga foizlar hisoblanadi

b) pul mablag‘lari summasiga penyalar hisoblanadi

c) pul mablag‘lari summasiga jarimalar hisoblanadi

d) pul mablag‘lari summasiga moliyaviy sanksiya qo‘llaniladi

126. Korxona hisobot taqdim etmagani uchun bank hisob-varaq bo‘yicha opereratsiyalari to‘xtatilgan. 04. 01. 23 hisobot taqdim etdi. Soliq organi bankka 08. 01. 23 da qaror yubordi. Korxona hisob raqamidagi 100 mln. so‘m mablag‘ini 5–7-yanvar kunlari ishlata olmadi? Soliq organi korxonaga qancha foiz to‘lashi kerak?

a) #123,3
b) 151,5
c) 153,4
d) 164,4

127. Soliq to‘lovchining (soliq agentining) bankdagi hisobvaraqlari bo‘yicha operatsiyalarni to‘xtatib turish to‘g‘risida soliq organi yoki sudning qarorini olganidan keyin banklar ushbu soliq to‘lovchi (soliq agenti) bo‘yicha qanday harakatlarni amalga oshirishga haqli emas?

a) #barchasi to‘g‘ri
b) yangi hisob-varaq ochishga
c) omonatlar ochishga
d) depozitlar ochishga

128. Soliq qarzi bo‘yicha soliq to‘lovchilarning mol-mulkini xatlash qachon soliq organining qarori asosida amalga oshiriladi?

a) #soliq to‘lovchi tomonidan soliq qarzi tan olinganda
b) soliq qarzi summasi 1 mld. so‘mdan oshganda
c) soliq to‘lovchi bilan soliq organi solishtirma dalolatnoma tuzganda
d) barcha javob noto‘g‘ri

129. Soliq to‘lovchining soliq qarzi bo‘yicha uning mol-mulkini xatlash soliq to‘lovchiga soliq qarzini uzish to‘g‘risidagi talabnoma yuborilgan kundan boshlab necha kun ichida to‘liq bajarilmaganda amalga oshiriladi?

a) #o‘n besh kalendar kun
b) o‘n kalendar kun
c) o‘n besh ish kun
d) o‘ttiz kalendar kun

130. Soliq to‘lovchining mol-mulkini xatlashda video tasvirga olish imkoniyati mavjud bo‘lmaganda qanday amalga oshiriladi?

a) #xolislar ishtirokida

b) ekspertlar ishtirokida
c) tarjimonlar ishtirokida
d) bank xodimi ishtirokida

131. Agar soliq to‘lovchida to‘lanmagan soliq qarzi mavjud bo‘lsa, soliq organi unga soliqlarni to‘lash muddati o‘tganidan keyin necha kundan kechiktirmay soliq qarzini uzish to‘g‘risida talabnoma yuboradi?
a) #3 kun
b) 10 kun
c) 15 kun
d) 5 kun

132. Soliq qarzini uzish to‘g‘risidagi talabnomaning shakli qaysi vakolatli organ tomonidan tasdiqlanadi?
a) #DSQ
b) Moliya vazirligi
c) Bojxona qo‘mitasi
d) Iqtisodiyot va moliya vazirligi

133. Soliq qarzini uzish to‘g‘risidagi talabnoma necha kun ichida bajarilmasa, soliq organi undiruvni soliq to‘lovchining mol-mulkiga qaratadi?
a) #60 kaledar kun
b) 10 kaledar kun
c) 15 kaledar kun
d) 30 kaledar kun

134. Agar soliq to‘lovchi soliq tekshiruvi to‘g‘risida bilgan paytdan e’tiboran o‘zining pul mablag‘larini yoki boshqa mulkini o‘zga shaxslarga bergan bo‘lsa,soliq to‘lovchining soliq qarzi ushbu shaxslardan undirilishi mumkinmi?
a) #ha, undirilishi mumkin
b) yo‘q, undirilishi mumkin emas
c) o‘zaro bog‘liq shaxslar tomonidan undiriladi
d) YaTTdan undirilishi mumkin

135. Soliq qarzi belgilangan muddatda to‘lanmagan yoki to‘liq to‘lanmagan taqdirda, soliq qarzini undirish – kimlarning bank hisobvaraqlari va bank kartalariga qaratilishi mumkin?

a) #yakka tartibdagi tadbirkorlar va yuridik shaxslarning
b) jismoniy shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarning
c) jismoniy shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar va yuridik shaxslarning
d) barcha javoblar to‘g‘ri

136. Soliq organining inkasso topshiriqnomasi soliq to‘lovchining hisobvarag‘iga soliqni to‘lash uchun belgilangan muddat tugagach necha kundan kechiktirmay qo‘yiladi?

a) #3 ish kunidan
b) 10 kalendar kundan
c) 5 ish kunidan
d) 1 ish kunidan

137. Soliq organining inkasso topshiriqnomasi bank tomonidan necha kundan kechiktirmay bajarilishi shart?

a) #olingan kundan keyingi bir operatsiya kunidan kechiktirmay
b) olingan kundan keyingi o`n operatsiya kunidan kechiktirmay
c) olingan kunidan kechiktirmay
d) olingan kundan keyingi uch operatsiya kunidan kechiktirmay

138. Masala. Hisobot natijasida korxonada 20. 01. 23 ga 50 mln. so‘m QQS dan qarzdorlik hosil bo‘ldi. Shu kun holatiga korxonaning foyda solig‘idan 25 mln. so‘m ortiqcha to‘lovi mavjud. Qarzdorlik 23. 01. 23 da to‘liq qoplandi. To‘lanmagan kun uchun korxona qancha penya to‘laydi?

a) #50,0
b) 115,3
c) 25,0
d) 15,0

139. Soliq organi majburiyatga ega shaxsning mol-mulki hisobidan soliq qarzini undirish to‘g‘risida qaror chiqarilgan kundan e’tiboran necha kun ichida majburiy ijro etuvchi organga yuboriladi?

a) #3 ish kuni

b) 1 ish kuni
c) 5 ish kuni
d) 13 ish kuni

140. Jismoniy shaxsning soliq qarzini undirish bo‘yicha ariza soliq organi tomonidan qanday holatda sudga beriladi?
a) #soliq qarzi umumiy summasi bir million so‘mdan oshsa
b) qarzdorlik o‘n million so‘mdan oshgan bo‘lsa
c) qarzdorlik ikki million so‘mdan oshgan bo‘lsa
d) soliq qarzini undirish bo‘yicha ariza soliq organi tomonidan sudga berilmaydi

141. Soliq nazoratini amalga oshirish maqsadida kimlar soliq organlarida hisobga qo‘yilishi lozim?
a) #yuridik va jismoniy shaxslar
b) yuridik shaxslar
c) jismoniy shaxslar
d) yuridik va jismoniy shaxslar, tadbirkorlar

142. Soliq kodeksi qaysi munosabatlarni tartibga soladi?
a) #soliqlar va yig‘imlarni belgilash, joriy etish va bekor qilishga, hisoblab chiqarish hamda to‘lashga doir munosabatlarni
b) hisoblab chiqarish hamda to‘lashga doir munosabatlarni
c) soliqlar va yig‘imlarni belgilash, joriy etish va bekor qilishga doir munosabatlarni
d) soliqlar va yig‘imlarni belgilash, bekor qilishga, hisoblab chiqarishga doir munosabatlarni

143. Soliq to‘g‘risidagi qonunchilik nimalardan iborat?
a) #Soliq Kodeksdan va qabul qilinishi kodeksda to‘g‘ridan-to‘g‘ri nazarda tutilgan boshqa normativ-huquqiy hujjatlardan
b) Normativ-huquqiy hujjatlardan
c) Soliq Kodeksidan
d) Soliq Kodeksidan va Soliq xizmati to‘g‘risidagi Qonundan

144. Soliq to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlaridagi barcha bartaraf etib bo‘lmaydigan qarama-qarshiliklar va noaniqliklar bo‘lsa, ... (jumlani davom ettiring)

a) #soliq to‘lovchining foydasiga talqin etiladi
b) soliq organining foydasiga talqin etiladi
c) sud qaroriga asosan hal etiladi
d) noaniqliklar mavjud emas

145. Huquqni suiste’mol qilish deb nimaga aytiladi?

a) #barchasi to‘g‘ri
b) soliq to‘lamaslik tarzidagi asossiz soliq nafi olish
c) o‘zi to‘laydigan soliqlarning summasini kamaytirishdan iborat bo‘lgan operatsiyalarni amalga oshirsa
d) o‘zi to‘laydigan soliqlarning summasini kamaytirishdan iborat bo‘lgan operatsiyalar ketma-ketligini amalga oshirsa

146. Huquqni suiste’mol qilishning, bitim qalbakiligining (ko‘zbo‘yamachilik uchun tuzilganligining) oqibatlarini qo‘llash kim tomonidan amalga oshiriladi?

a) #soliq organlari tomonidan, soliq to‘lovchi norozi bo‘lgan taqdirda esa, soliq organlarining da’vosi bo‘yicha sud tomonidan.
b) soliq organlari tomonidan
c) sud tomonidan
d) to‘g‘ri javob yo‘q

147. Soliq to‘lovchi tomonidan uning oldidagi o‘z majburiyatlarini bajarmagan shaxslar bilan tuzilgan bitimlar bo‘yicha qilingan xarajatlar (ko‘rilgan zararlar) .....

a) #soliq to‘lovchi bitim tuzayotganda lozim darajada ehtiyotkorlik qilmagan bo‘lsa, soliq solish maqsadida tan olinmaydi.
b) soliq to‘lovchi bitim tuzayotganda lozim darajada ehtiyotkorlik qilgan bo‘lsa, soliq solish maqsadida tan olinmaydi
c) chegiriladigan xarajatlar sifatida qaraladi
d) chegirilmaydigan xarajatlar sifatida qaraladi

148. Soliq munosabatlarining subyektlari kimlar?

a) #barchasi to‘g‘ri
b) soliq to‘lovchilar

c) soliq agentlari
d) vakolatli organlar

149. Agar jo‘natilgan elektron hujjat soliq to‘lovchi tomonidan o‘qib chiqilmasa, jo‘natilgandan so‘ng necha kundan keyin olingan deb hisoblanadi?
a) #3 kun
b) 4 kun
c) 5 kun
d) 10 kun

150. Soliq to‘lovchining shaxsiy kabineti mavjud bo‘lmasa, hujjatlar buyurtma xat bilan yuborilgandan so‘ng necha kundan keyin olingan deb hisoblanadi?
a) #5 kun
b) 4 kun
c) 1 kun
d) 10 kun

151. Kameral soliq tekshiruvi kim tomondan o`tkaziladi?
a) #soliq organi tomonidan
b) bojhona organi tomonidan
c) soliq to`lovchi tomonidan
d) tijorat banki tomonidan

152. Soliq to‘lovchilar to`liq va to`g‘ri ko`rsatilgan javobni toping?
a) #yuridik va jismoniy shaxslar, yuridik shaxslarning alohida bo‘linmalari, yuridik shaxs tashkil etmagan holdagi chet el tuzilmalari
b) jismoniy shaxslar
c) yuridik shaxs tashkil etmagan holdagi chet el tuzilmalari, jismoniy shaxslar
d) yuridik va jismoniy shaxslar, yuridik shaxs tashkil etmagan holdagi chet el tuzilmalari

153. Soliq to‘lovchilarning majburiyatlari to‘g‘ri ko‘rsatilgan javobni toping.
a) #belgilangan soliqlar va yig‘imlarni o‘z vaqtida hamda to‘liq hajmda hisoblab chiqarishi va to‘lashi

b) sayyor soliq tekshiruvi va soliq auditi materiallari bilan tanishish, shuningdek, ushbu tekshiruvlarning dalolatnomalarini olish

c) soliq siriga rioya etish va uni saqlash

d) soliq organlarida va boshqa vakolatli organlarda mavjud bo‘lgan ma’lumotlarni olish

154. Soliq kodeksga muvofiq zimmasiga soliqlarni hisoblab chiqarish, soliq to‘lovchidan ushlab qolish va byudjet tizimiga o‘tkazish majburiyati yuklatilgan shaxslar – .....

a) #soliq agentlari deb e’tirof etiladi

b) jismoniy shaxslar deb e’tirof etiladi

c) yuridik shaxslar deb e’tirof etiladi

d) hisobot taqdim etuvchilar deb e’tirof etiladi

155. Kimlar soliq to‘lovchining vakolatli vakili bo‘la olmaydi?

a) #barcha javoblar to‘g‘ri

b) Soliq, moliya organlarining mansabdor shaxslari

c) bojxona organlarining mansabdor shaxslari

d) boshqa davlat organlarining mansabdor shaxslari

156. Soliq qarzini to‘lash yoki soliq organlari tomonidan undirish chog‘ida to‘lash qanday ketma-ketlikda amalga oshiriladi?

a) #1)soliqlar summasi; 2) hisoblangan penyalar; 3) jarimalar

b) 1)soliqlar summasi; 2) jarimalar; 3) hisoblangan penyalar

c) 1)jarimalar; 2) soliqlar summasi; 3) hisoblangan penyalar

d) 1)hisoblangan penyalar; 2) soliqlar summasi; 3) jarimalar

157. Soliq qarzini uzish to‘g‘risidagi talabnoma olingandan so‘ng necha kun ichida soliq to‘lovchi e’tiroz bildirmasa, tan olingan soliq qarzi deb e’tirof etiladi?

a) #o‘n kalendar kun ichida

b) o‘n ish kun ichida

c) o‘n bir kalendar kun ichida

d) o‘n besh kalendar kun ichida

158. Soliq organlarining g‘ayriqonuniy hatti-harakatlari natijasida ortiqcha undirilgan soliq summasi nima deb ataladi?

a) #ortiqcha to‘langan soliq summasi
b) ortiqcha qaytarilgan soliq summasi
c) byudjetga kelib tushgan soliq (penya, jarima) summasi
d) soliq to‘lovchiga qaytarilgan summasi

159. Soliq to‘g‘risidagi qonunchilikda soliq belgilangan deb hisoblanishi uchun qanday shartga javob berishi kerak?

a) #soliqning barcha elementlari aniqlab qo‘yilgan taqdirdagina
b) yig‘im va to‘lov aniqlab qo‘yilgan taqdirdagina
c) Qonunda keltirilgan taqdirdagina
d) Soliq Kodeksda keltirilgan taqdirdagina

160. Qaysi organlar soliq to‘g‘risidagi qonunchilik buzilishlari, o‘zlari olib borayotgan soliq tekshiruvlari haqidagi o‘zida mavjud materiallar to‘g‘risida bir-birini xabardor qiladi?

a) #Soliq, bojxona organlari va boshqa vakolatli organlar, prokuratura organlari hamda tergov organlari
b) Soliq, bojxona organlari va boshqa vakolatli organlar
c) Bank, notarial idora va boshqa vakolatli organlar, prokuratura hamda MXX organlari
d) Vasiylik va homiylik organlari, qimmatli qog‘ozlarning markaziy depozitariysi, prokuratura organlari hamda tergov organlari

161. Soliq, bojxona organlari va boshqa vakolatli organlar, prokuratura organlari hamda tergov organlari soliq to‘g‘risidagi qonunchilik buzilishlari, o‘zlari olib borayotgan soliq tekshiruvlari haqidagi o‘zida mavjud materiallar to‘g‘risida bir-birini xabardor qilish tartibi mazkur organlar o‘rtasidagi qanday hujjat bilan belgilanadi?

a) #kelishuvlar
b) uchrashuvlar
c) so‘zlashuvlar
d) baxslashuvlar

162. Soliq to‘lovchi (soliq agenti) to‘g‘risida qanday tartibda olingan hujjatlar yoki boshqa axborot ushbu shaxsni soliqqa oid huquqbuzarlikni sodir etganlik uchun javobgarlikka tortishga asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin emas?

a) #qonunchilik talablarini buzgan holda olingan
b) qonunchilik talablarini buzmagan holda olingan
c) qonunchilik talablarini doirasida olingan
d) belgilangan talablarga binoan olingan

163. Qanday materiallar O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan belgilangan tartibda soliq to‘lovchi hisobda turgan joydagi soliq organida tekshiruv tugagan kundan keyingi ish kunidan kechiktirmay ro‘yxatdan o‘tkazilishi kerak?

a) #soliq nazorati materiallari
b) soliq tekshiruvi materiallari
c) soliq maslahati materiallari
d) soliq hisoboti materiallari

164. Soliq nazorati materiallari kim tomonidan belgilangan tartibda soliq to‘lovchi hisobda turgan joydagi soliq organida tekshiruv tugagan kundan keyingi ish kunidan kechiktirmay ro‘yxatdan o‘tkazilishi kerak?

a) #O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan
b) Bojxona organlari tomonidan
c) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan
d) O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan

165. Soliq nazorati materiallari O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan belgilangan tartibda tekshiruv tugagan kundan keyingi ish kunidan kechiktirmay qayerda ro‘yxatdan o‘tkazilishi kerak?

a) #soliq to‘lovchi hisobda turgan joydagi soliq organida
b) soliq to‘lovchi yashaydigan joydagi soliq organida
c) soliq to‘lovchi faoliyat olib boradigan joydagi soliq organida
d) soliq organida ro‘yxatdan o‘tkazilishi shart emas

166. Soliq nazorati materiallari O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan belgilangan tartibda soliq to‘lovchi hisobda

turgan joydagi soliq organida qanday muddatda ro‘yxatdan o‘tkazilishi kerak?

a) #tekshiruv tugagan kundan keyingi ish kunidan kechiktirmay
b) tekshiruv tugagan kundan keyingi kunidan kechiktirmay
c) tekshiruv tugagan kundan keyingi uch ish kunidan kechiktirmay
d) tekshiruv tugagan kundan keyingi o‘n ish kunidan kechiktirmay

167. Soliq organlari soliq nazoratini qanday shakllarda amalga oshiradi?

a) #soliq tekshiruvlari; soliq monitoringi
b) soliq tekshiruvlari; soliq maslahati
c) sayyor soliq tekshiruvi; soliq monitoringi
d) soliq auditi; soliq tekshiruvlari

168. Soliq nazoratining shakli to‘g‘ri ko‘rsatilgan javobni toping.

a) #soliq tekshiruvlari
b) sayyor soliq tekshiruvi
c) soliq auditi
d) kameral soliq tekshiruvi

169. Soliq nazoratining shakli to‘g‘ri ko‘rsatilgan javobni toping.

a) #soliq monitoringi
b) soliq maslahati
c) soliq hisoboti
d) soliq auditi

170. Soliq tekshiruvlari qanday maqsadda o‘tkaziladi?

a) #soliq to‘lovchilar, yig‘imlarni to‘lovchilar va soliq agentlari tomonidan soliq to‘g‘risidagi qonunchilikka rioya etilishi ustidan nazorat qilish maqsadida
b) yig‘imlarni to‘lovchilar va soliq agentlari tomonidan qonunchilikka rioya etilishi ustidan nazorat qilish maqsadida
c) soliq to‘lovchilar, yig‘imlarni to‘lovchilar tomonidan soliq to‘g‘risidagi qonunchilikka rioya etilishi ustidan maslahat berish maqsadida

d) soliq to‘lovchilar, yig‘imlarni to‘lovchilar va soliq agentlari tomonidan soliq hisobotini tuzishda qonunchilikka rioya etilishi ustidan kuzatuv o‘tkazish maqsadida

171. Soliq to‘lovchilar, yig‘imlarni to‘lovchilar va soliq agentlari tomonidan soliq to‘g‘risidagi qonunchilikka rioya etilishi ustidan nazorat qilish maqsadida nima o‘tkaziladi?

a) #soliq tekshiruvlari
b) soliq maslahati
c) soliq siyosati
d) soliq statistikasi

172. Soliq tekshiruvi qanday amalga oshiriladi?

a) #soliq to‘lovchi to‘g‘risida soliq organlarida mavjud bo‘lgan ma’lumotlarni o‘rganish va tahlil qilish asosida
b) soliq to‘lovchi to‘g‘risida bojxona organlarida mavjud bo‘lgan ma’lumotlarni o‘rganish va tahlil qilish asosida
c) soliq organlarida mavjud bo‘lgan ma’lumotlarni o‘rganish asosida
d) soliq to‘lovchi to‘g‘risida moliya organlarida mavjud bo‘lgan ma’lumotlarni o‘rganish va tahlil qilish asosida

173. Qanday tekshiruv soliq to‘lovchi to‘g‘risida soliq organlarida mavjud bo‘lgan ma’lumotlarni o‘rganish va tahlil qilish asosida amalga oshiriladi?

a) #soliq tekshiruvi
b) xizmat tekshiruvi
c) surishtiruv tekshiruvi
d) o‘zaro tekshiruv

174. Soliq organlari soliq tekshiruvlarining qanday turini o‘tkazadi?

a) #kameral soliq tekshiruvi
b) xizmat tekshiruvi
c) surishtiruv tekshiruvi
d) soliq monitoringi

175. Soliq organlari tomonidan o‘tkaziladigan soliq tekshiruvi to‘g‘ri ko‘rsatilgan qatorni toping?

a) #sayyor soliq tekshiruvi
b) surishtiruv tekshiruvi
c) soliq monitoringi
d) xizmat tekshiruvi

176. Soliq organlari tomonidan o‘tkaziladigan soliq tekshiruvlari to‘g‘ri ko‘rsatilgan qatorni toping?

a) #soliq auditi
b) soliq monitoringi
c) xizmat tekshiruvi
d) to‘g‘ri javob yo‘q

177. Kameral soliq tekshiruvi soliq nazoratining qaysi shakli tarkibiga kiradi?

a) #soliq tekshiruvlari
b) soliq monitoringi
c) sayyor soliq tekshiruvi
d) soliq auditi

178. Soliq tekshiruvining turlari to‘g‘ri ko‘rsatilgan qatorni toping.

a) #kameral soliq tekshiruvi; sayyor soliq tekshiruvi; soliq auditi
b) kameral soliq tekshiruvi; soliq tekshiruvi; ichki audit
c) soliq monitoringi; sayyor soliq tekshiruvi; soliq auditi
d) surishtiruv tekshiruvi; soliq monitoringi;xizmat tekshiruvi

179. Soliq to‘lovchi (soliq agenti) tomonidan taqdim etilgan soliq hisobotini, moliyaviy hisobotni, shuningdek, soliq to‘lovchining faoliyati to‘g‘risida soliq organida mavjud bo‘lgan boshqa hujjatlar hamda ma’lumotlarni tahlil qilish asosida soliq organi tomonidan o‘tkaziladigan tekshiruv – bu .....

a) #kameral soliq tekshiruvi
b) soliq tekshiruvi
c) ichki audit
d) soliq monitoringi

180. Kameral soliq tekshiruvi qanday hujjatlar hamda ma’lumotlarni tahlil qilish asosida soliq organi tomonidan o‘tkaziladi?

a) #soliq to‘lovchi (soliq agenti) tomonidan taqdim etilgan soliq hisobotini, moliyaviy hisobotni, shuningdek, soliq to‘lovchining faoliyati to‘g‘risida soliq organida mavjud bo‘lgan boshqa hujjatlar hamda ma’lumotlarni tahlil qilish asosida

b) soliq to‘lovchi (soliq agenti) tomonidan taqdim etilgan soliq hisobotini hamda ma’lumotlarni tahlil qilish asosida

c) soliq organi tomonidan taqdim etilgan soliq hisobotini, moliyaviy hisobotni, shuningdek, soliq to‘lovchining faoliyati to‘g‘risida moliya organida mavjud bo‘lgan boshqa hujjatlar hamda ma’lumotlarni tahlil qilish asosida

d) soliq to‘lovchi (soliq agenti) tomonidan taqdim etilgan soliq to‘lovchining faoliyati to‘g‘risida soliq organida mavjud bo‘lgan boshqa hujjatlar hamda ma’lumotlarni ko‘rib chiqish asosida

181. Kameral soliq tekshiruvi kim tomonidan o‘tkaziladi?

a) #soliq organi tomonidan

b) moliya organi tomonidan

c) bojxona organi tomonidan

d) soliq to‘lovchi tomonidan

181. Soliq organlari kameral soliq tekshiruvi o‘tkazilishi boshlanguniga qadar qanday tekshiruvni o‘tkazishi mumkin?

a) #tekshiruvdan oldingi tahlilni

b) tekshiruvdan oldingi kuzatuvni

c) tekshiruvdan oldingi taxlikani

d) tekshiruvdan oldingi surishtiruvni

182. Qaysi organ kameral soliq tekshiruvi o‘tkazilishi boshlanguniga qadar tekshiruvdan oldingi tahlilni o‘tkazishi mumkin?

a) #Soliq organlari

b) Moliya organlari

c) Bojxona organlari

d) Nazorat qiluvchi organlari

183. Tekshiruvdan oldingi tahlil qanday tahlil hisoblanadi?

a) #soliq to‘lovchining ishtirokisiz o‘tkaziladigan avtomatlashtirilgan tahlildir

b) soliq to‘lovchining ishtirokida o‘tkaziladigan avtomatlashtirilgan tahlildir

c) soliq to‘lovchining huzurida o‘tkaziladigan tahlildir

d) soliq to‘lovchining xolislar ishtirokida o‘tkaziladigan tahlildir

184. Taqdim etilgan soliq hisobotini va soliq to‘lovchining faoliyati to‘g‘risidagi boshqa axborotni soliq organlari tomonidan axborot tizimlaridan foydalangan holda, soliq to‘lovchining ishtirokisiz o‘tkaziladigan avtomatlashtirilgan tahlil qanday nomlanadi?

a) #tekshiruvdan oldingi tahlil

b) tekshiruvdan keyingi tahlil

c) tekshiruv vaqtidagi tahlil

d) tekshiruv tahlili

185. Tekshiruvdan oldingi tahlil qanday amalga oshiriladi?

a) #taqdim etilgan soliq hisobotini va soliq to‘lovchining faoliyati to‘g‘risidagi boshqa axborotni soliq organlari tomonidan axborot tizimlaridan foydalangan holda

b) soliq to‘lovchining faoliyati to‘g‘risidagi axborotni soliq organlari tomonidan axborot tizimlaridan foydalangan holda

c) moliya organlari tomonidan axborot tizimlaridan foydalangan holda

d) taqdim etilgan soliq hisobotini va soliq to‘lovchining faoliyati to‘g‘risidagi boshqa axborotni soliq to‘lovchi tomonidan axborot tizimlaridan foydalanmagan holda

186. Tekshiruvdan oldingi tahlil kimning buyrug‘i asosida amalga oshiriladi?

a) #soliq organi rahbarining (rahbar o‘rinbosarining) buyrug‘isiz

b) soliq organi rahbarining (rahbar o‘rinbosarining) buyrug‘i bilan

c) soliq organi rahbarining (rahbar o‘rinbosarining) iltimosnomasi bilan

d) soliq to‘lovchi rahbarining (rahbar o‘rinbosarining) buyrug‘i bilan

187. Agar tekshiruvdan oldingi tahlil chog‘ida soliq organi tomonidan taqdim etilgan soliq hisobotida soliq organida mavjud bo‘lgan ma’lumotlar bilan tafovutlar va (yoki) xatolar aniqlansa, soliq to‘lovchiga soliq to‘lovchining shaxsiy kabineti orqali soliq hisobotiga tegishli tuzatishlar kiritish to‘g‘risidagi qanday hujjat yuboriladi?

a) #xabarnoma
b) ma’lumotnoma
c) iltimosnoma
d) buyruq

188. Tekshiruvdan oldingi tahlil chog‘ida soliq to‘lovchining shaxsiy kabineti orqali soliq hisobotiga tegishli tuzatishlar kiritish to‘g‘risidagi xabarnoma qachon yuboriladi?

a) # soliq organida mavjud bo‘lgan ma’lumotlar bilan tafovutlar va (yoki) xatolar aniqlansa
b) soliq organida ma’lumotlar mavjud bo‘lmasa
c) bojxona organida mavjud bo‘lgan ma’lumotlar bilan tafovutlar va (yoki) xatolar aniqlanmasa
d) to‘g‘ri javob yo‘q

189. Soliq to‘lovchi tegishli tuzatishlar kiritish to‘g‘risidagi xabarnoma olingan kundan e’tiboran necha kunlik muddatda aniqlashtirilgan soliq hisobotini yoki aniqlangan tafovutlarning asosnomasini taqdim etishi shart?

a) #o‘n kunlik
b) o‘n besh kunlik
c) o‘n uch kunlik
d) bir kunlik

190. Soliq to‘lovchi tegishli tuzatishlar kiritish to‘g‘risidagi ..... olingan kundan e’tiboran o‘n kunlik muddatda aniqlashtirilgan soliq hisobotini yoki aniqlangan tafovutlarning asosnomasini taqdim etishi shart. Tushirib qoldirilgan so‘zlarni to‘ldiring.

a) #xabarnoma
b) ma’lumotnoma
c) topshiriqnoma
d) talabnoma

191. Soliq to‘lovchida kameral soliq tekshiruvini tayinlash uchun nima asos bo‘ladi?

a) #aniqlashtirilgan soliq hisobotini yoki aniqlangan tafovutlarning asosnomasini taqdim etmaslik

b) soliq hisobotini taqdim etmaslik

c) tafovutlarning asosnomasini taqdim etmaslik

d) aniqlashtirilgan soliq hisobotini yoki aniqlangan tafovutlarning asosnomasini taqdim etish

192. Tekshiruvdan oldingi tahlil qachon yakunlangan hisoblanadi?

a) #aniqlashtirilgan soliq hisoboti yoki aniqlangan tafovutlar asosnomasi soliq to‘lovchi tomonidan taqdim etilgan yoxud kameral soliq tekshiruvi tayinlagan sanadan e’tiboran

b) kameral soliq tekshiruvi o‘tkazilgan sanadan e’tiboran

c) aniqlashtirilgan soliq hisoboti yoki aniqlangan tafovutlar xabarnomasi soliq to‘lovchi tomonidan taqdim etilgan sanadan e’tiboran

d) aniqlashtirilgan soliq hisoboti yoki aniqlangan tafovutlar dalolatnomasi soliq to‘lovchi tomonidan taqdim etilgan sanadan e’tiboran

193. Kameral soliq tekshiruvi kimning buyrug‘i asosida o‘tkaziladi?

a) #soliq organi rahbarining (rahbari o‘rinbosarining) buyrug‘i asosida

b) soliq to‘lovchi rahbarining (rahbari o‘rinbosarining) buyrug‘i asosida

c) moliya organi rahbarining (rahbari o‘rinbosarining) buyrug‘i asosida

d) bojxona organi rahbarining (rahbari o‘rinbosarining) buyrug‘i asosida

194. Soliq organi rahbarining (rahbari o‘rinbosarining) buyrug‘i asosida qanday tekshiruv amalga oshiriladi?

a) #kameral soliq tekshiruvi

b) xizmat tekshiruvi

c) surishtiruv tekshiruvi

d) taqqoslama tekshiruv

195. Kameral soliq tekshiruvi buyrug‘ida qanday ma’lumotlar aks etishi kerak?

a) #barchasi to‘g‘ri
b) soliq to‘lovchining nomi va identifikatsiya raqami
c) tekshiruvchi shaxslarning familiyasi, ismi, otasining ismi va lavozimi
d) tekshiruvni o‘tkazish muddatlari, tekshirilayotgan davr

196. Kameral soliq tekshiruvi qaysi davrga nisbatan o‘tkazilishi mumkin?

a) #da’vo muddati o‘tmagan soliq davrlariga
b) da’vo muddati o‘tgan soliq davrlariga
c) da’vo muddati kelayotgan soliq davrlariga
d) da’vo muddati mavjud bo‘lmagan soliq davrlariga

197. Soliq riski darajalarini baholash natijalari qanday tartibda baholanadi?

a) #yuqoridan kamayish tartibida
b) kamayishdan yuqorilash tartibida
c) tenglik tartibida
d) o‘sib borish tartibida

198. Soliq riski darajasi qanday mezonlar asosida aniqlanadi?

a) #soliq riski mezonlari
b) soliq riskini oshirish
c) soliq riskini boshqarish
d) soliq riskini pastlatish

199. Soliq riski darajasi soliq riski mezonlari asosida qanday ballar beriladi?

a) #1 dan 100 gacha
b) 1 dan 99 gacha
c) 10 dan 100 gacha
d) 1 dan 50 gacha

200. Soliq riski darajasi mezonlari qanday axborot hisoblanadi?

a) #maxfiy
b) ochiq
c) shaffof

d) yopiq

201. Agar soliq to‘lovchi ..... Soliq Kodeksda nazarda tutilgan tartibda hisoblab chiqarilgan soliq summasi o‘zgartirilgan aniqlashtirilgan soliq hisobotini taqdim etsa, kameral soliq tekshiruvi taqdim etilgan aniqlashtirilgan soliq hisobotini hisobga olgan holda o‘tkaziladi. Jumlani to‘ldiring.

a) #kameral soliq tekshiruvi tugaguniga qadar
b) kameral soliq tekshiruvi boshlanguniga qadar
c) kameral soliq tekshiruvi o‘tkazilguniga qadar
d) kameral soliq tekshiruvi to‘xtatilguniga qadar

202. Agar o‘tkazilgan kameral soliq tekshiruvi yakuni bilan taqdim etilgan soliq hisobotida tafovutlar va (yoki) xatolar aniqlangan bo‘lsa, soliq organi soliq to‘lovchiga belgilangan tartibda qanday hujjatni yuboradi.

a) #soliq hisobotlariga tuzatishlar kiritish talabnomasini
b) soliq hisobotlariga tuzatishlar kiritish iltimosnomasini
c) soliq hisobotlariga tuzatishlar kiritish buyrug‘ini
d) soliq hisobotlariga tuzatishlar kiritish asosnomasini

203. Soliq hisobotiga tuzatishlar kiritish haqida qanday hujjat yuborilgan sana kameral soliq tekshiruvi tugatilgan sana hisoblanadi?

a) #talabnoma yuborilgan sana
b) buyruq yuborilgan sana
c) iltimosnoma yuborilgan sana
d) asosnoma yuborilgan sana

204. Qayday holda ham kameral soliq tekshiruvi yakunlangan hisoblanadi?

a) #o‘rganish va tahlil qilish yakunlariga ko‘ra tafovutlar va (yoki) xatolar aniqlanmagan bo‘lsa
b) o‘rganish va tahlil qilish yakunlariga ko‘ra tafovutlar va (yoki) xatolar aniqlangan bo‘lsa
c) o‘rganish va tahlil qilish boshlangunga qadar tafovutlar va (yoki) xatolar to‘lanib, qaytarib olingan bo‘lsa
d) o‘rganish va tahlil qilish yakunlariga ko‘ra soliq to‘lovchi faoliyatini to‘xtatgan bo‘lsa

205. Soliq to‘lovchi tuzatishlar kiritish to‘g‘risidagi talabnoma olingan kundan e’tiboran necha kun ichida tegishli soliqlar va yig‘imlar bo‘yicha aniqlashtirilgan soliq hisobotini yoxud tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etgan holda aniqlangan tafovutlarning asosnomasini taqdim etishi shart?

a) #besh kun ichida
b) o‘n besh kun ichida
c) o‘ttiz besh kun ichida
d) uch ish kuni ichida

206. Soliq to‘lovchi tuzatishlar kiritish to‘g‘risidagi talabnoma olingan kundan e’tiboran besh kun ichida tegishli soliqlar va yig‘imlar bo‘yicha aniqlashtirilgan soliq hisobotini yoxud tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etgan holda qanday hujjatni taqdim etishi shart?

a) #aniqlangan tafovutlarning asosnomasini
b) aniqlangan tafovutlarning talabnomasini
c) aniqlangan tafovutlarning dalolatnomasini
d) aniqlangan tafovutlarning dasturini

207. Soliq to‘lovchi soliq organining tegishli talabnomasida ko‘rsatilgan, aniqlangan tafovutlarning asosnomasi sifatida soliq maslahatchilari tashkilotining xulosasini taqdim etishga haqlimi?

a) #haqli
b) haqli emas
c) bunday qoida nazarda tutilmagan
d) o‘z xohishiga ko‘ra

208. Soliq to‘lovchining nomidan aniqlangan tafovutlarning asosnomasini qaysi tashkilot soliq to‘lovchi bilan tuzilgan shartnoma asosida mustaqil ravishda taqdim etishi mumkin?

a) #soliq maslahatchilari tashkiloti
b) soliq ko‘makchi tashkiloti
c) soliq servis tashkiloti
d) soliq audit tashkiloti

209. Aniqlangan tafovutlar bo‘yicha taqdim etilgan asosnomalariga to‘liq yoki qisman rozilik berilgan taqdirda, soliq organi qanday hujjatni soliq to‘lovchiga yuboradi?

a) #ilgari yuborilgan talabnoma bekor qilinganligi to‘g‘risidagi bildirish xatini yoxud soliq hisobotiga tuzatishlar kiritish to‘g‘risidagi aniqlashtirilgan talabnomani

b) ilgari yuborilgan talabnoma bekor qilinganligi to‘g‘risidagi arizani yoxud soliq hisobotiga tuzatishlar kiritish to‘g‘risidagi aniqlashtirilgan dalolatnomani

c) ilgari yuborilgan asosnoma bekor qilinganligi to‘g‘risidagi bildirish xatini yoxud soliq hisobotiga tuzatishlar kiritish to‘g‘risidagi aniqlashtirilgan iltimosnomani

d) ilgari yuborilgan talabnoma ijro qilinganligi to‘g‘risidagi bildirish xatini yoxud soliq hisobotiga tuzatishlar kiritish to‘g‘risidagi ijro varaqasini

210. Agar soliq to‘lovchi aniqlashtirilgan soliq hisobotini taqdim etmasa (shu jumladan aniqlashtirilgan talabnomadan keyin), yoxud aniqlangan tafovutlar bo‘yicha asosnomalarni taqdim etmasa, yoki u taqdim etgan asosnomalar yetarli emas deb topilsa, soliq organi soliq to‘lovchiga qanday tekshiruvni tayinlashga haqli?

a) #soliq auditini

b) soliq monitoringini

c) xizmat tekshiruvini

d) surishtiruv tekshiruvini

211. Soliq organi soliq to‘lovchiga kameral tekshiruvdan keyin qanday hollarda soliq auditini tayinlashga haqli?

a) #soliq to‘lovchi aniqlashtirilgan soliq hisobotini taqdim etmasa (shu jumladan aniqlashtirilgan talabnomadan keyin), yoxud aniqlangan tafovutlar bo‘yicha asosnomalarni taqdim etmasa, yoki u taqdim etgan asosnomalar yetarli emas deb topilsa

b) soliq to‘lovchi aniqlashtirilgan soliq hisobotini taqdim etsa (shu jumladan aniqlashtirilgan talabnomadan keyin), yoxud aniqlangan tafovutlar bo‘yicha asosnomalarni taqdim etsa, yoki u taqdim etgan asosnomalar yetarli deb topilsa

c) soliq to‘lovchi birlamchi soliq hisobotini taqdim etmasa (shu jumladan aniqlashtirilgan talabnomadan keyin), yoxud aniqlangan

tafovutlar bo‘yicha dalolatnomalarni taqdim etmasa, yoki u taqdim etgan dalolatnomalar etarli emas deb topilsa

d) soliq to‘lovchi aniqlashtirilgan soliq hisobotini taqdim etib, aniqlangan tafovutlar bo‘yicha bildirishnomalarni taqdim etmasa, yoki u taqdim etgan bildirishnomalar yetarli emas deb topilsa

212. Soliq to‘lovchida soliq (hisobot) davri uchun qanday nazorat o‘tkazilayotgan bo‘lsa, bunday davr uchun kameral soliq tekshiruvi o‘tkazilmaydi?

a) #soliq monitoringi
b) sayyor soliq tekshiruvi
c) soliq auditi
d) kameral soliq tekshiruvi

213. Agar soliq (hisobot) davri uchun soliq monitoringi o‘tkazilayotgan bo‘lsa, bunday davr uchun qanday tekshiruv o‘tkazilmaydi?

a) #kameral soliq tekshiruvi
b) xizmat tekshiruvi
c) sayyor soliq tekshiruvi
d) soliq maslahati

214. Soliq monitoringi muddatidan oldin tugatilganda,bunday davr uchun kameral soliq tekshiruvi o‘tkaziladimi?

a) #o‘kaziladi
b) o‘tkazilmaydi
c) to‘xtatib turiladi
d) bekor kilinadi

215. Qanday holatda kameral soliq tekshiruvi soliq organining buyrug‘isiz amalga oshiriladi?

a) #Qo‘shilgan qiymat solig‘i summasi o‘rnini qoplashga nisbatan
b) Soliqlarni to‘lashdan bo‘yin tovlash hollari mavjud bo‘lganda
c) Jinoyat riski bor soliq to‘lovchilarda
d) Barcha soliq to‘lovchilarda

216. Qo‘shilgan qiymat solig‘i summasi o‘rnini qoplashga nisbatan kameral soliq tekshiruvi soliq to‘lovchi tomonidan soliq davri uchun soliq hisoboti taqdim etish chog‘ida soliq organlari qo‘shilgan qiymat solig‘ining salbiy summasi o‘rnini qoplash (qaytarish) to‘g‘risida xabardor qilingan kundan e’tiboran nechi kun ichida soliq organining buyrug‘isiz amalga oshiriladi?

a) #o‘ttiz kun ichida
b) o‘n kun ichida
c) o‘n besh kun ichida
d) o‘ttiz ish kuni ichida

217. Qo‘shilgan qiymat solig‘i summasi o‘rnini qoplashga nisbatan kameral soliq tekshiruvi qanday tartibda amalga oshiriladi?

a) #O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda
b) O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan belgilangan tartibda
c) O‘zbekiston Respublikasi Oliy majlis tomonidan belgilangan tartibda
d) O‘zbekiston Respublikasi Davlat Bojxona qo‘mitasi tomonidan belgilangan tartibda

218. Qo‘shilgan qiymat solig‘i summasi o‘rnini qoplashga nisbatan kameral soliq tekshiruvi natijalariga ko‘ra soliq hisobotiga o‘zgartishlar kiritish haqidagi talabnoma yozib beriladimi?

a) #yozib berilmaydi
b) yozib beriladi
c) yozib qo‘yiladi
d) bunday qoida nazarda tutilmagan

219. Qo‘shilgan qiymat solig‘i summasini qoplashga nisbatan kameral soliq tekshiruvi natijalariga ko‘ra soliq organlari ushbu summani qoplash to‘g‘risidagi qaror yoxud ularni qoplashni rad etish (to‘liq yoki qisman) to‘g‘risida qanday hujjat qabul qiladi?

a) #asoslantirilgan qaror qabul qiladi
b) asoslantirilgan bayonnoma tuzadi
c) asoslantirilgan izoh kiritadi
d) asoslantirilgan buyruq chiqaradi

220. Kameral soliq tekshiruvi o‘tkazish to‘g‘risidagi nizom kim tomonidan tasdiqlanadi?

a) #O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan
b) O‘zbekiston Respublikasi Bojxona qo‘mitasi tomonidan
c) O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan
d) O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan

221. Soliq to‘lovchilarning soliqlar va yig‘imlarni hisoblab chiqarish hamda to‘lash sohasidagi ayrim majburiyatlarini, shuningdek, soliq to‘g‘risidagi qonunchilikda belgilangan boshqa majburiyatlarini bajarilishini tekshirish bu .....

a) #sayyor soliq tekshiruvidir
b) soliq auditidir
c) kameral soliq tekshiruvidir
d) soliq monitoringidir

222. Sayyor soliq tekshiruvi chog‘ida qanday hujjatlarning tahlili o‘tkaziladi?

a) #barcha javoblar to‘g‘ri
b) hisobga olish hujjatlarining
c) tovar-moddiy qimmatliklar va pul mablag‘lari harakatining
d) soliq to‘lovchining faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan boshqa axborotning

223. Sayyor soliq tekshiruvlarini o‘tkazish chog‘ida soliq organlari qanday nazorat tadbirlarini o‘tkazishga haqli?

a) #barcha javoblar to‘g‘ri
b) profilaktika tadbirlarini va xronometraj kuzatuvlarini amalga oshirishga
c) nazorat-kassa texnikasi va to‘lov terminallari qo‘llanilishini tekshirishga
d) soliq nazoratining boshqa tadbirlarini

224. Sayyor soliq tekshiruvi kimning buyrug‘i asosida o‘tkaziladi?

a) #soliq organi rahbarining (rahbari o‘rinbosarining)
b) rahbari o‘rinbosarining
c) soliq organi bo‘lim boshlig‘ining

d) sayyor soliq tekshiruvi buyruqsiz amalga oshiriladi

225. Buyruqda qanday ma’lumotlar ko‘rsatiladi?
a) #barcha javoblar to‘g‘ri
b) soliq to‘lovchining nomi
c) tekshiruvchi shaxslarning familiyasi, ismi, otasining ismi hamda lavozimi
d) tekshiruvlarni o‘tkazish muddatlari va maqsadi

226. Sayyor soliq tekshiruvi o‘tkazish muddatini toping.
a) #o‘n kundan ko‘p bo‘lmagan
b) bir kundan ko‘p bo‘lmagan
c) o‘n besh kundan ko‘p bo‘lmagan
d) o‘ttiz kundan ko‘p bo‘lmagan

227. Sayyor soliq tekshiruvi o‘tkazish muddati qachondan boshlanadi?
a) #buyruqda ko‘rsatilgan sanadan
b) buyruqni soliq to‘lovchiga topshirilgan sanadan
c) tekshirishlarni ro‘yxatga olish kitobini to‘ldirgan sanadan
d) tilxat olingan sanadan

228. Soliq to‘lovchiga sayyor soliq tekshiruvi muddatining tugashi qachon hisoblanadi?
a) #sayyor soliq tekshiruvi dalolatnomasini topshirilgan kun
b) buyruqni soliq to‘lovchiga topshirilgan sanadan 10 kundan keyin
c) tekshirishlarni ro‘yxatga olish kitobini to‘ldirgan sananing 10 kuni
d) tilxat olingan sanadan 10 kundan keyin

229. Sayyor soliq tekshiruvi o‘tkazish to‘g‘risidagi nizom kim tomondan tasdiqlanadi?
a) #O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan
b) O‘zbekiston Respublikasi Bojxona qo‘mitasi tomonidan
c) O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan
d) O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan

230. Soliq majburiyatlarini bajarmaslik yoki to‘liq bajarmaslik xavf darajasiga qarab soliq to‘lovchilarni muayyan toifalarga ajratish bu .....

a) #soliq to‘lovchilarni segmentlash
b) soliq riski darajasi mezonlari
c) soliq riski tahlili
d) soliq riskini baholash

231. ..... – soliq majburiyatlarini bajarmaslik yoki to‘liq bajarmaslik riskini baholash va keyinchalik soliq to‘lovchilarni (soliq agentlarini) xavf darajasiga qarab toifalarga ajratish imkonini beruvchi mezonlar majmui.

a) #soliq riski darajasi mezonlari
b) soliq to‘lovchilarni segmentlash
c) soliq riski tahlili
d) soliq riskini baholash

232. ..... – xavfning yuzaga kelish ehtimoliga va uning bo‘lishi mumkin bo‘lgan oqibatlariga bog‘liq tarzda aniqlanadigan xavfning holati.

a) #soliq riski darajasi
b) soliq riski darajasi mezonlari
c) soliq to‘lovchilarni segmentlash
d) soliq riski tahlili

233. ..... – byudjet tizimiga soliq va yig‘imlar to‘lanmasligi yoki to‘liq to‘lanmasligiga olib kelishi mumkin bo‘lgan, soliq to‘lovchi (soliq agenti) tomonidan soliq majburiyatlarini bajarmaslik yoki to‘liq bajarmaslik ehtimoli.

a) #soliq riski
b) soliq riskini baholash
c) soliq riskini boshqarish
d) soliq riski darajasi mezonlari

234. Riskning yuzaga kelishi ehtimolini va u yuzaga kelganda soliq to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlarining buzilishi oqibatlarini muntazam ravishda aniqlab borish bu – .....

a) #soliq riskini baholash

b) soliq riski darajasi mezonlari
c) soliq to‘lovchilarni segmentlash
d) soliq riski tahlili

235. ..... – xavfning oldini olish, bartaraf etish va ularni imkon qadar kamaytirish, ularning qo‘llanilish samaradorligini baholash, shuningdek, soliq to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari bajarilishi ustidan nazorat qilish bo‘yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalda bajarishni, soliq organlarida mavjud axborot uzluksiz yangilanishini, tahlil etilishini va qayta ko‘rib chiqilishini nazarda tutuvchi tizim.

a) #soliq riskini boshqarish
b) soliq to‘lovchilarni segmentlash
c) soliq riski tahlili
d) soliq riskini baholash

236. Aniqlanmagan, biroq uning yuzaga kelishi uchun sharoitlar mavjud bo‘lgan soliq riski nimani anglatadi?

a) #potensial soliq xavfni
b) soliq riskini boshqarishni
c) soliq to‘lovchilarni segmentlashni
d) soliq riski tahlilini

237. ..... – «Soliq riskini aniqlash, tahlil qilish va baholash» avtomatlashtirilgan dasturi orqali aniqlanadigan soliqqa oid huquqbuzarlik alomatlari.

a) #Aniqlangan soliq riski
b) potensial soliq riski
c) soliq riskini boshqarish
d) soliq to‘lovchilarni segmentlash

238. Soliq riskini tahlil qilish va natijalarini baholash qanday amalga oshiriladi?

a) #dasturiy mahsulotni qo‘llash orqali
b) dasturiy ta’minotni qo‘llash orqali
c) dasturiy to‘plamni qo‘llash orqali
d) dasturni qo‘llash orqali

239. Soliq riskini tahlil qilish maqsadida qanday ko‘rsatkichlardan foydalaniladi?

a) #barchasi to‘g‘ri

b) xarajatlar va daromadlar miqdori, ularning dinamikasi, soliq majburiyatlari o‘z vaqtida bajarilishi, joriy soliq davrida hisoblangan soliqlarning avvalgi soliq davrlarida hisoblangan soliqlar miqdoriga muvofiqligi (kamayishi, ko‘payishi)

c) davlat organlari va tashkilotlar tomonidan soliq organlariga taqdim etilgan ma’lumotlardagi ko‘rsatkichlarning soliq to‘lovchilarning soliq va moliyaviy hisobotlaridagi ko‘rsatkichlariga muvofiqligi

d) foydalanilgan soliq imtiyozlarining soliq to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlariga muvofiqligi

240. Soliq riski qaysi manbalardan olingan ma’lumotlar asosida tahlil qilinadi?

a) #barchasi to‘g‘ri

b) soliq to‘lovchilar tomonidan taqdim etilgan soliq va moliyaviy hisobotlar, shuningdek, soliq to‘lovchilarning shaxsiy kartochkalarida aks ettirilgan ma’lumotlar

c) ommaviy axborot vositalaridan olingan ma’lumotlar

d) o‘tkazilgan soliq tekshiruvlari materiallaridagi ma’lumotlar

241. Soliq riski qaysi manbalardan olingan ma’lumotlar asosida tahlil qilinadi?

a) #barchasi to‘g‘ri

b) sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan soliqqa oid huquqbuzarliklar bo‘yicha aniqlangan ma’lumotlar (hukm, qaror, ajrim, hal qiluv qarori va boshqa hujjatlar)

c) soliqqa oid huquqbuzarlik faktlari to‘g‘risida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari

d) statistika organlaridan olingan ma’lumotlar

242. Soliq to‘lovchilar soliq riski darajasiga qarab qanday xavfli toifalarga ajratiladi?

a) #past, o‘rta va yuqori

b) qisqa, o‘rta va uzun

c) past, o‘rta va baland

d) xavfsiz, xavfli va o‘ta xavfli

ILOVALAR

1-ilova



2022-yilda soliq to‘lovchilarning 97%i majburiyatlarini ixtiyoriy bajardi.

2022-yilda respublika miqyosida yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan soliq majburiyatlarining ixtiyoriy bajaralishi 97%ga yetdi.

- Bu borada eng yaxshi ko‘rsatkich yirik soliq to‘lovchilarga tegishli – 98%;
- Buxoro, Navoiy, Namangan hamda Toshkent viloyatlari – 96%;
- Qoraqalpog‘iston, Samarqand, Surxondaryo va Xorazm viloyatlari – 95%;
- Sirdaryo, Jizzax, Farg‘ona, Qashqadaryo viloyatlari – 94%;
- Andijon viloyati – 93%.
- Soliq turlari kesimida:
- Yyer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq – 99%;
- Aksiz, JShODS, foyda, mol-mulk va yer soliqlari – 97%;
- QQS, AOS, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq – 95%.

2-ilova



Yil	Yillik tushum (mlrd.so'm)	O'sishi (+;-)	O'sishi %
2021	127 970	20 418	16%
2022	148 388		

2022-yilda soliq tushumlari 16% ga o‘sdi.

Respublika bo‘yicha 2022-yilda soliq organlari tomonidan 148,4 trln so‘m tushumlar ta’minlandi. Bu 2021-yilga nisbatan (20,4 trln so‘m) 16% ko‘p.

Jumladan, soliq turlari kesimida:

- mol-mulk solig‘idan 4 trln so‘m undirilib, 2021-yilga nisbatan 1,6 trln so‘mga yoki 63 %;
- yyer solig‘idan 5,3 trln so‘m undirilib, 2021-yilga nisbatan 1,2 trln so‘mga yoki 30 %,
- AOSdan 2,5 trln so‘m undirilib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 863 mlrd so‘mga yoki 52 %;
- QQSdan 32,8 trln so‘m undirilib, 2021-yilga nisbatan 7,2 trln so‘mga yoki 28 %;
- JShODSdan 24,3 trln so‘m undirilib, 2021-yilga nisbatan 5,4 trln so‘mga yoki 28 % o‘sishga erishildi.



Soliq tushumlari hududlar kesimida:

- Toshkent shahrida 21,3 trln so‘m undirilib, 2021-yilga nisbatan 5,9 trln so‘m yoki 38% ga;
- Farg‘ona viloyatida 4,3 trln so‘m undirilib, 2021-yilga nisbatan 1,1 trln so‘m yoki 33% ga;
- Samarqand viloyatida 4,2 trln so‘m undirilib, 2021-yilga nisbatan 1,1 trln so‘m yoki 34% ga;
- Buxoro viloyatida 3,2 trln so‘m undirilib, 2021-yilga nisbatan 762 mlrd so‘m yoki 31% ga;
- Qoraqalpog‘iston Respublikasida 2,4 trln so‘m undirilib, 2021-yilga nisbatan 595 mlrd so‘m yoki 33% ga;
- Jizzax viloyatida 1,8 trln so‘m undirilib, 2021-yilga nisbatan 457 mlrd so‘m yoki 34% ga;
- Sirdaryo viloyatida 1,2 trln so‘m undirilib, 2021-yilga nisbatan 295 mlrd so‘m yoki 31% ga o‘sishga erishildi.



Ishlab chiqarish sohasi korxonalarining soliq qarzi – TOP-10.

Ishlab chiqarish sohasida 2022-yil uchun soliq qarzi (100 mln so‘mdan yuqori) mavjud bo‘lgan korxonalar soni 623 ta bo‘lib, ularning jami soliq qarzi 275,2 mlrd so‘mni tashkil etgan. Shundan 57,7 mlrd so‘mi, ya'ni 21 %i 10 ta korxona hisobiga to‘g‘ri keladi.

Hududlar kesimida korxonalarning soliq qarzdorligi ko‘rsatkichlari – TOP-3:

- Toshkent shahri – 33,9 mlrd so‘m;
- Toshkent viloyati – 32,7 mlrd so‘m;
- Andijon viloyati – 26 mlrd so‘m.

5-ilova



Soliq qarzi ko‘p bo‘lgan qurilish korxonalari – TOP-10.

2022-yilda 100 mln so‘mdan yuqori soliq qarzi mavjud qurilish korxonalari soni 574 ta. Ularning jami qarzdorligi 408,3 mlrd so‘m. Shundan 19,7 mlrd so‘mi, ya'ni 5 %i soliq qarzi eng ko‘p bo‘lgan 10 ta korxona hisobiga to‘g‘ri keladi.

Hududlar kesimida qurilish korxonalarining soliq qarzdorligi ko‘rsatkichlari – TOP-3:

- Toshkent shahri – 46,2 mlrd so‘m;
- Qashqadaryo viloyati – 27,2 mlrd so‘m;
- Toshkent viloyati – 25,8 mlrd so‘m.

6-ilova



2022-yilda QQS to‘lovchilar soni 174 mingdan oshdi. Bu o‘tgan yil boshiga nisbatan 15,8%ga ko‘p.

O‘sish ko‘rsatkichlari eng yuqori sohalar – TOP-3:

- transport – 46,3 % (1,7 mingta);
- axborot va aloqa xizmatlari – 36,2 % (0,7 mingta);
- xizmat ko‘rsatish – 32,9 % (4,1 mingta).
- O‘sish ko‘rsatkichlari eng past sohalar – TOP-3:
- qishloq xo‘jaligi – 5,4 % (2,3 mingta);
- qurilish – 14,9 % (2,7 mingta);
- sanoat – 16,6 % (3,4 mingta).

Hozirda QQS to‘lovchilarning yarmidan ortig‘i quyidagi sohalarda faoliyat yuritmoqda: savdo – 55 mingta:

- qishloq xo‘jaligi – 45,8 mingta.


Soliq Xizmati
QAYTARILGAN (QOPLAB BERILGAN) QQS SUMMASI
(2022-YIL YANVAR-DEKABR)
QQS QAYTARILISHI
19 311,7
SUMMA (MLRD SO'MDA)
12 367
ARIZA SONI
6 507
KORXONA SONI
QAYTARILGAN QQS DINAMIKASI (MLRD SO'MDA)
2020 9 096,8
2021 14 417,2
2022 19 311,7
o'sish sur'ati
34%
HUDUDLAR KESIMIDA QQS QAYTARILISHI
(MLRD SO'MDA)
- 2021-YIL MOS DAVRIGA NISBATAN
O'SISH / KAMAYISH SUR'ATI
NAVOIY 174,8 7%
JIZZAX 339,6 19%
TOSHKENT SH. 2 358,3 23%
SAMARQAND 953,8 68%
NAMANGAN 512,3 47%
QORAQALPOG'ISTON R. 242,7 68%
XORAZM 418,9 6%
ANDIJON 1 056,1 75%
BUXORO 598,0 106%
FARG'ONA 691,5 72%
QASHQADARYO 633,2 41%
TOSHKENT V. 976,5 46%
YIRIK SOLIQ TO'LOVCHILAR BO'YICHA HDSI
9 846,5 29%
SURXONDARYO 176,6 33%
SIRDARYO 333,0 14%
SOHALAR KESIMIDA QQS QAYTARILISHI
(MLRD SO'MDA)
2021-YIL MOS DAVRIGA NISBATAN
O'SISH / KAMAYISH SUR'ATI
19 311,7 MLRD SO'M
12 367 ARIZA
6 507 KORXONA
ISHLAB CHIQARUVCHILAR 10 807,0 34%
QISHLOQ XO'JALIGI 3 397,5 37%
TRANSPORT XIZMATI 1 429,2 36%
QURILISH 1 228,4 29%
SAVDO 1 147,8 24%
XIZMAT KO'RSATISH 1 059,7 34%
AXBOROT VA ALOQA 167,1 38%
VAKOLATXONALAR 68,1 48%
BOSHQALAR 7,0 57%
EKSPORT AMALGA OSHIRGAN SOLIQ TO'LOVCHILARGA QQS QAYTARILISHI
6 475,9
SUMMA (MLRD SO'M)
5 282
TA ARIZA
1 477
EKSPORTCHI

Davlat byudjetidan qaytarilgan QQS 19 trln so‘mdan oshdi.

2022-yilda jami 12 367 ta ariza bo‘yicha 6 507 ta tashkilotga 19 311,7 mlrd so‘m qaytarilgan.

Eng ko‘p qaytarilgan QQS hududlar kesimida:

- Yirik soliq to‘lovchilar bo‘yicha DSI – 9 846,5 mlrd so‘m (171 ta korxona);
- Toshkent sh. – 2 358,3 mlrd so‘m (774 ta korxona);
- Andijon – 1 056,1 mlrd so‘m (724 ta korxona);
- Toshkent v. – 967,5 mlrd so‘m (360 ta korxona);
- Samarqand – 953,8 mlrd so‘m (252 ta korxona).
- Eng ko‘p qaytarilgan QQS sohalar kesimida:
- Ishlab chiqarish – 10 807,0 mlrd so‘m (1 553 ta korxona);
- Qishloq xo‘jaligi – 3 397,5 mlrd so‘m (2 473 ta korxona);
- Transport – 1 429,2 mlrd so‘m (1 034 ta korxona);
- Qurilish – 1 228,4 mlrd so‘m (305 ta korxona);
- Savdo – 1 147,8 mlrd so‘m (818 ta korxona).

Qoplab berilgan QQS summasi 2021-yilga nisbatan 4,9 trln so‘m ko‘p.

8-ilova



2022-yilda soliq to‘lovchilar hisobotlarida 90,7 trln so‘mdan ortiq tafovutlar aniqlandi.

Soliq to‘lovchilarda 2022-yilda o‘tkazilgan tekshiruvdan oldingi tahlillar natijasida 90,7 trln so‘mlik tafovutlar aniqlandi.

Shundan, 76,7 trln so‘mlik tafovutlar yoki jami aniqlangan tafovutlarning 84,5%i bartaraf etilgan:

- 4,1 trln so‘m qo‘shimcha soliqlar hisoblangan;
- 72,6 trln so‘m tafovut bo‘yicha hisobotlardagi ko‘rsatkichlar tuzatilgan.

Tekshiruvdan oldingi tahlillar – xato va kamchiliklarini mustaqil ravishda – tekshirishlarsiz bartaraf etish imkonini beradi.

9-ilova



2022-yilda kameral tekshiruvi jami soliq to‘lovchilarning faqat 6,8 foizida o‘tkazilgan. 2022-yilda 38,9 mingta soliq to‘lovchiga nisbatan kameral soliq tekshiruvlari (https://t.me/soliqnews/8831) o‘tkazilgan. Bu respublika bo‘yicha faoliyat ko‘rsatayotgan tadbirkorlik subyektlarining (569,1 ming) 6,8 foizini tashkil etadi. Ushbu tekshiruvlar natijasida 8,8 trln so‘m qo‘shimcha soliq hisoblangan.Asosan quyidagi soliq turlari bo‘yicha qo‘shimcha soliq hisoblangan:

- QQS – 4,7 trln so‘m;
- foyda solig‘i – 1,5 trln so‘m;
- JShODS – 720 mlrd so‘m;
- aksiz solig‘i – 276 mlrd so‘m;
- yer solig‘i – 192 mlrd so‘m;
- AOS – 132,1 mlrd so‘m.

– Eng katta tafovut aniqlangan sohalar:ishlab chiqarish – 1,86 trln so‘m;

– umumiy ovqatlanish va savdo – 1,78 trln so‘m;qurilish – 1,3 trln so‘m;

– qishloq xo‘jaligi – 535,9 mlrd so‘m;transport – 321,5 mlrd so‘m.

10-ilova



Soliq xizmati organlari tomonidan 2022-yilda o‘tkazilgan soliq auditlari natijalari.

2022-yilda soliq xizmati organlari tomonidan soliqlarni to‘lamaslik riski yuqori bo‘lgan 1157 ta tadbirkorlik subyektida soliq auditi o‘tkazildi. Bu ushbu davrda faoliyat ko‘rsatgan jami soliq to‘lovchilarning (566 ming) 0,2 foizini tashkil etadi.

Aniqlangan soliq summasi:

- xavfni tahlil qilish dasturida – 1,2 trln so‘m;
- soliq auditlarida – 3,4 trln so‘m.

Aniqlangan summa sohalar kesimida:

- qurilish sohasida – 1,2 trln so‘m (34,2%);
- ishlab chiqarish sohasida – 1 trln so‘m (30%);
- savdo va umumiy ovqatlanish sohasida – 874,7 mlrd so‘m (26%);
- transport sohasida – 253,3 mlrd so‘m (7%);
- qishloq xo‘jaligi sohasida – 57,7 mlrd so‘m (2%);
- xizmat ko‘rsatish sohasida – 43,3 mlrd (1%).

O‘tkazilgan soliq auditlarida 433 ta soliq to‘lovchida 3,2 trln so‘mlik soliq bazasi yashirilgan:

– 296 ta subyektda 2,5 trln so‘mlik realizatsiya qilingan tovarlar summasi ko‘rsatilmagan;
– 99 ta subyektda 455,3 mlrd so‘mlik tovarlar inventarizatsiya paytida ombor yoki realizatsiya joyida mavjud bo‘lmagan;
– 38 ta subyektda 291,5 mlrd so‘mlik kirim qilinmagan tovarlar saqlangan va (yoki) realizatsiya qilingan.

Bugungi kunga, aniqlangan soliq summalaridan to‘lov muddati kelgan 2,1 trln so‘mning 1,2 trln so‘mi (56%) to‘lab berildi.

11-ilova



Davlat soliq xizmati organlarida murojaat yechimi ustuvor vazifa.

2022-yilda Soliq qo‘mitasi markaziy apparatida elektron hujjat aylanish tizimi orqali 69 188 ta murojaat ro‘yxatga olingan.

Shundan:

•elektron – 62 568 ta (90,4%);

•og‘zaki – 3 850 ta (5,6%);

•yozma – 2 770 ta (4%).

Ijtimoiy tarmoqlar orqali 10 573 ta murojaat yo‘llangan.

Call-markazi(1198) tomonidan jami 878 660 ta murojaat qabul qilingan.

– Hududlar kesimida:eng ko‘p Toshkent shahridan – 364 757 ta;

– eng kam Qoraqalpog‘iston Respublikasidan– 6 674 ta.

Soliq to‘lovchilar kesimida:

- yuridik shaxslar – 599 931 ta;
- jismoniy shaxslar – 257 258 ta;
- yakka tartibdagi tadbirkorlar– 19 879 ta;
- fermer va dehqon xo‘jaliklari – 1 592 ta.

12-ilova



2022-yilda soliq huquqbuzarliklari haqida 145 mingdan ortiq murojaat kelib tushgan.2022-yilda «Soliq» mobil ilovasining «Soliq hamkor» tizimi orqali Soliq huquqbuzarligi haqida 145 224 ta murojaat kelib tushgan. Shundan:

- 132 818 tasi xarid cheki bermaslik;
- 6 056 tasi to‘lovni plastik karta orqali qabul qilmaslik;
- 496 tasi plastik karta uchun xarid summasini oshirish;
- 5 854 tasi boshqa turdagi huquqbuzarlik holatlari bo‘yicha.

Murojaatlar asosida 71 957 ta sayyor soliq tekshiruvi o‘tkazilib, 98% holatda huquqbuzarlik tasdiqlangan. O‘tkazilgan sayyor soliq tekshiruvlari materiallari ko‘rib chiqilgan 63 331 ta tadbirkorlik subyektiga 268,4 mlrd so‘m miqdorida moliyaviy jarimalar qo‘llanilib, ularni 63 135 tasidan 226,5 mlrd so‘m jarima undirildi.

Natijada, 52 608 xolat bo‘yicha xabar bergan fuqarolarga (undirilgan jarima summasidan 20%) 35,3 mlrd so‘m mukofot to‘langan.

Murojaatlarning 67 885 tasi takroriy bo‘lganligi yoki shikoyat kelib tushgan tadbirkorlik subyektida tekshiruv davom etayotganligi sababli qaytarilgan.

13-ilova



2022-yilda Soliq qo‘mitasi tomonidan quyi soliq organlarining jami 557,4 mlrd so‘mlik 120 ta qarori soliq to‘lovchilar foydasiga bekor qilingan.

1.01.2023-yil holatiga Soliq qo‘mitasiga shikoyat berish tartibida jami 1 556,5 mlrd so‘mlik 512 ta soliq nizolariga oid shikoyat kelib tushgan. Ularning barchasini belgilangan tartibda ko‘rib chiqilgan. Shundan:

- soliq auditi bo‘yicha – 1 299,6 mlrd so‘mlik 299 ta;
- sayyor soliq tekshiruvi bo‘yicha – 256,9 mlrd so‘mlik 213 ta.

Natijada:

– 557,4 mlrd so‘mlik 120 ta shikoyat bo‘yicha (shundan, 37 tasi 468,2 mlrd so‘mlik qisman) soliq to‘lovchilarning shikoyati qanoatlantirilgan;

– 974,2 mlrd so‘mlik 369 ta shikoyat bo‘yicha davlat soliq xizmati organlari qarorlari o‘z kuchida qoldirilib, bu haqda belgilangan tartibda tushuntirishlar berilgan;

– 24,9 mlrd so‘mlik 23 ta shikoyat o‘rganilmoqda.

14-ilova



Kameral soliq tekshiruvlari bo‘yicha 934,5 mlrd so‘mlik qarorlar Soliq qo‘mitasi tomonidan soliq to‘lovchilar foydasiga bekor qilingan.

Soliq qo‘mitasi tomonidan 2022-yilda hududiy soliq organlarining kameral soliq tekshiruvlari natijalari bo‘yicha qabul qilingan qarorlari ustidan kelib tushgan shikoyatlarning 866 tasi (1 825,5 mlrd so‘m) ko‘rib chiqilgan.

Ko‘rib chiqilgan shikoyatlarning:

- 315 tasi (778,3 mlrd so‘m) to‘liq qanoatlantirilgan;
- 151 tasi (156,2 mlrd so‘m) qisman qanoatlantirilgan;
- 400 tasi (891 mlrd so‘m) qanoatlantirilmasdan qoldirilgan.

To‘liq va qisman bekor qilingan 934,5 mlrd so‘mlik hududiy soliq organlarining qarorlari quyidagi soliq turlariga to‘g‘ri keladi:

- mol-mulk solig‘i (397,8 mlrd so‘m);
- QQS (209,8 mlrd so‘m);
- aksiz solig‘i (141,5 mlrd so‘m);
- foyda solig‘i (118,9 mlrd so‘m);
- yer solig‘i (14,6 mlrd so‘m);
- boshqa soliq turlar (51,9 mlrd so‘m).

Hududlar kesimida qo‘shimcha hisoblangan va Soliq qo‘mitasi tomonidan qayta ko‘rib chiqish natijasida bekor qilingan yirik miqdordagi soliq summalari:

- Yirik soliq to‘lovchilar bo‘yicha HDSI – 689,9 mlrd so‘m;
- Toshkent sh. – 127,6 mlrd so‘m;
- Samarqand v. – 31,2 mlrd so‘m;
- Farg‘ona v. – 23,9 mlrd so‘m;
- Buxoro v. – 18,6 mlrd so‘m;
- Toshkent v. – 17,1 mlrd so‘m;
- Qashqadaryo v. – 10,3 mlrd so‘m.

15-ilova



Soliq xizmatiga ishga qabul qilish raqamlarda.

Soliq xizmati organlariga ishga qabul qilish faqat Davlat xizmatini rivojlantirish agentligining vacancy.argos.uz portali orqali ochiq mustaqil tanlov asosida amalga oshiriladi.

2022-yil davomida vakant lavozimlar bo‘yicha:

- berilgan e'lonlar – 1 145 ta
- kelib tushgan arizalar – 93 719 ta
- shundan malaka talablariga mos kelganlar – 48 879 ta
- test sinovidan o‘tganlar – 9 718 ta (bir o‘ringa 6 ta nomzod)
- ishga qabul qilinganlar – 1 549 ta

16-ilova



Davlat soliq xizmati organlarida 11 oyda 8,6 ming nafar xodim malaka oshirdi.

2022-yil yanvar-noyabr oylarida davlat soliq xizmati organlarining 8644 nafar xodimi kasb mahoratini oshirish kurslarida o‘qitildi.

Shundan:

- sayyor kurslarda 5881 nafar;
- Fiskal institutdagi o‘quv kurslarida 2025 nafar;
- masofaviy kurslarda 368 nafar;
- xalqaro ekspertlar ishtirokidagi seminarlarda 311 nafar;
- xorijiy mamlakatlardagi malaka oshirish kurslarida 59 nafar.

O‘quv jarayonlari Prezident huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi, soliq maslahatchilari, DSQ va Kadastr agentligi mutaxassislari, Fiskal institut va boshqa oliy ta’lim muassasalarining professor-o‘qituvchilari tomonidan olib boriladi. (yoki) test sinovidan muvaffaqiyatli o‘ta olmagan nomzodlar ishga qabul qilinmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi, yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 2023-yil 30-aprel kuni o‘tkazilgan O‘zbekiston Respublikasi referendumida umumxalq ovoz berish orqali qabul qilingan, https://lex.uz/docs/-6445145
2. O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. http://www.lex.uz (normativ-huquqiy baza).
3. O‘zbekiston Respublikasining «Davlat soliq xizmati to‘g‘risida»gi qonuni. 1997-yil, 29-avgust.
4. «2020-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida»gi 2019-yil 9-dekabrdagi O‘RQ–589-son Qonuni.
5. O‘zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksi: http://www.lex.uz (normativ-huquqiy baza).
6. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat Kodeksi: Ohttp://www.lex.uz (normativ-huquqiy baza).
7. O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi Kodeksi. http://www.lex.uz (normativ-huquqiy baza).
8. O‘zbekiston Respublikasining 2014-yil 14-may O‘RQ–371-sonli «Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida»gi qonuni.
9. «O‘zbekiston Respublikasining «2023-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘grisida»gi O‘RQ–813-son Qonuni, https://lex.uz/uz/docs/-6333240
10. «O‘zbekiston Respublikasining «Soliq va byudjet siyosatining 2023-yilga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida»gi O‘RQ–812-son Qonuni, https://lex.uz/uz/docs/-6333246
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-dekabrdagi «Respublika hududlarini toifalarga ajratish va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashning tabaqalashtirilgan tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF–287-son farmoni, https://lex.uz/uz/docs/-6333225
12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-dekabrdagi «O‘zbekiston Respublikasining «2023-yil uchun O‘zbekiston respublikasining davlat byudjeti to‘g‘risida»gi qonuni ijrosini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ–471-son Qarori, https://lex.uz/uz/docs/-6333357

13. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 7-yanvar «Soliq riskini boshqarish, soliq riski mavjud soliq to‘lovchilarni (soliq agentlarini) aniqlash va soliq tekshiruvlarini ta Soliq to‘lovchining shaxsiy kartochkasi il etish va o‘tkazish to‘g‘risida»gi 1-sonli Qarori.

14. «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF–4947-sonli farmoni.

15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 29-iyundagi «O‘zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to‘g‘risida»gi PF–5468-sonli farmoni.

16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-iyuldagi «Soliq ma’muriyatchiligini tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning yig‘iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF–5116-son farmoni.

17. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-iyuldagi «Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF–5490-son farmoni.

18. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 13-fevraldagi «Soliq qonunchiligini tubdan takomillashtirish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PF–5214-sonli Farmoyishi.

19. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevninig Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – T.: «O‘zbekiston» NMIU. – 2019. – 61 b.

20. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 26-dekabrdagi «O‘zbekiston Respublikasining 2019-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va davlat byudjeti parametrlari hamda 2020–2021-yillarga byudjet mo‘ljallari to‘g‘risida»gi PQ–4086-sonli Qarori.

21. 2017-yil 10-iyuldagi «Soliq ma’muriyatchiligini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PQ–4389-son Qarori.

22. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-dekabrdagi «O‘zbekiston Respublikasining 2018-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va davlat byudjeti parametlari to‘g‘risida»gi PQ–3454-sonli qarori.

23. Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 14-avgustdagi 489-son qarori bilan tasdiqlangan «Qo‘shilgan qiymat solig‘i summasi o‘rnini qoplash tartibi to‘g‘risida» gi nizom.

24. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Davlat soliq qo‘mitasi va Davlat bojxona qo‘mitasining 2016-yil 24-martdagi 20, 2016-14, 01-02/8-10-sonli qarori «Byudjet tizimi byudjetlari daromadlarining kassa ijrosi to‘g‘risida»gi yo‘riqnoma.

25. Berdiyeva U. Soliq ma’murchiligi. Darslik. «Nihol print», 2022. – 303 b.

26. Jo‘raev A., Berdiyeva U. Soliq ma’murchiligi. O‘quv qo‘llanma. «Nihol print», 2022. – 284 b.

27. Berdiyeva U. Soliq ma’murchiligi. Elektron darslik. – T. TMI 2021-y.

28. Vahobov A., Jo‘rayev A. Soliqlar va soliqqa tortish. Darslik. – T: «Iqtisod-moliya», 2019. – 408 b.

29. Жураев А., Гончаренко Л., Бердиева У. Налоговое администрирование. Учебник. «Iqtisod-moliya». TMI 2019-y. 680 b.

30. Jo‘rayev A.S., Amanov A.M., Shodiyev O.A. Yuridik shaxslarni soliqqa tortish. Darslik. – T.: «Iqtisod-moliya», 2020. – 360 b.

31. Jo‘rayev A.S., Safarov G‘.A., Meyliyev O.R. Soliqlar soliqqa tortish. (II-qism). Soliq nazariyasi. Darslik. – T.: «Nihol print» OK, 2021. – 260 b.

32. Гадоев Е.F. Налог на доходы физических лиц. Учебное пособие. – Т.: Норма, 2011. – 312 стр.

33. Н.А.Дорофеева и др «Налоговое администратирование» Учебное пособие, М: Вузовский учебник. 2011. – 248 стр.

34. Т.М.Ляпина «Налоговое администратирование» Учебное пособие, 2-издание М: издательство Юрайт. 2022. – 358 стр. Гончаренко Л.И. Налогообложение организаций. Учебник. – М.: КНОРУС, 2018. – 385 стр.

35. Калачева О.С. Получение налоговой культуры населения как способ борьбы с налоговыми правонарушениями в России // Вестник Волгоградского института бизнеса. 2016. Ноябрь № 4 (37). С. 34–37.

36. Аникиец С.Г. Налоговая культура российских граждан [Электронный ресурс]. Режим доступа: http://law. edu.ru/doc/document.asp?docID=1225484

37. Raximov A.M., Temirov D.N. O‘zbekistonda soliq sohasidagi huquqbuzarliklar sabablari va ularga imkon beruvchi shart-sharoitlar//» Xalqaro moliya va hisob» ilmiy elektron jurnali. 2017. Aprel. № 2

38. Jinbaek Park, Young Lee. Corporate income taxes, corporate debt, and household debt. Journal International Tax and Public Finance, Springer New York LLC, Volume 26, Issue 3, 15 June 2018, Pages 506–535, scopus.com. htpp://doi.org/ 10.1007/s10797-018-9513-4

39. Бондарь Елена Александровна, Волчкова Анна Александровна Ответственность за нарушение налогового законодательства в зарубежных странах: особенности организации системы налоговых расследований // Юридическая наука и практика: Вестник Нижегородской академии МВД России. 2019. № 3 (47). URL: https://cyberleninka.ru/article/n/otvetstvennost-za-narushenie-nalogovogo-zakonodatelstva-v-zarubezhnyh-stranah-osobennosti-organizatsii-systemy-nalogovyh

40. S. B. Pronin va M.S. Proninlarning qarashlari «Soliq qarzlarining sabablari» https://com-roseltorg.ru/uz/sberbank/prichiny-vozniknoveniya-zadolzhennosti- po-nalogam-i-sboram-onyatie

41. A.Tangriqulov, A. Xomma, Sh. Toshmatov, I. Norqo‘ziyev, N. Roziqov. Soliq qarzi va uni undirish. Yangi asr avlodi, 2010. – 51 b.

42. Alimardanov M. Yuridik shaxslarni soliqqa tortish. –T.: «Cho‘lpon» nomidagi NMIU, 2013. – 296 b.

43. Vahobov A., Jo‘rayev A. Soliqlar va soliqqa tortish. Darslik. –T: «Iqtisod-moliya», 2019. – 408 b.

44. Jo‘rayev A. Shirinov S., Soliq tushumlari hisobi va prognozi. Darslik. –T.: «Iqtisod-moliya», 2019. – 416 b.

45. Jo‘rayev A., Shirinov S. Soliq statistikasi va prognozi. O‘quv qo‘llanma. T: «Iqtisod-moliya», 2015. – 392 b.

46. Jo‘rayev A., Safarov G‘., Meyliev O. Soliq nazariyasi. O‘quv qo‘llanma. – T.: «Iqtisod-moliya», 2019. – 324 b.

47. Malikov T.S. Soliqlar va soliqqa tortishning dolzarb masalalari. – T.: Akademiya, 2002. – 204 b.

48. Panskov V.G., Knyazev V.G. Nalogi i nalogooblojenie: Uchebnik dlya vuzov. – M.: MTsFER, 2003. – 336 s.

49. Tarasova V.F., Vladika M.V., Saprikina T.V., Semikina L.N. Nalogi i nalogooblojenie. Uchebnik. – M.: KNORUS, 2012.

50. Finansi, nalogi i kredit. Pod obshch. red. I.D. Matskulyaka. – M.: RAGS,

51. Kiyasov Sh.U. Nalogooblojenie doxodov fizicheskix lits v Respublike Uzbekiston: tendensii i problemi razvitiya https://www.interfinance.uz/en/arxiv/263- 3-2020

52. Gimranova O. Nalogovoe stimulirovanie v Uzbekistone naetape uglubleniya ekonomicheskix reform. Moliya. 2015, № 5. – 71 s.

53. Jo‘rayev A. Davlat byudjeti daromadlarini tasniflash mezonlari Xalqaro ilmiy–amaliy konferensiya: 25 may 2004. – Toshkent 2004. – 246 b.

54. http://www.gov.uz – O‘zbekiston Respublikasi hukumat portali

55. http://www.lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi qonunlari bazasi sayti

56. http://www.mf.uz – O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi sayti

57. http://www.soliq.uz – O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi

58. http://www.norma.uz – «Norma hamkor» MChJ

59. http://www.nalog.ru – Rossiya Federatsiyasining Federal soliq xizmati sayti

MUNDARIJA

KIRISH	**3**
I BOB. SOLIQ MUNOSABATLARINI TARTIBGA SOLISH ASOSLARI	**5**
1-MAVZU. SOLIQ MUNOSABATLARINING TASHKIL ETILISHI	**5**
1. Soliq munosabatlari mohiyati va xususiyatlari	5
2. Soliq munosabatlarini tartibga solish asoslari	8
3. Soliq tizimini shakllantirishning nazariy va iqtisodiy asoslari	13
2-MAVZU. DAVLAT SOLIQ XIZMATI ORGANLARI VA SOLIQ TO‘LOVCHILAR O‘RTASIDAGI SOLIQQA OID MUNOSABATLAR	**18**
1. Soliq to‘lovchilarning huquqlari	18
2. Soliq organlarining huquqlari	22
II BOB. SOLIQ MAJBURIYATINI BAJARISH TARTIBI	**24**
3-MAVZU. SOLIQ TO‘LOVCHILARNING SOLIQ MAJBURIYATLARI	**24**
1. Soliq to‘lovchilarning, soliq organlarining hamda soliq angentlarining majburiyatlari	24
2. Soliq qarzlarining vujudga kelish sabablari	28
3. Soliqlarni undirish yuzasidan amalga oshiriladigan tadbirlar	36
4-MAVZU.ORTIQCHA TO‘LANGAN YOKI UNDIRILGAN SUMMALARNI HISOBGA OLISH, QAYTARISH	**45**
1. Soliqlar va yig‘imlarning ortiqcha to‘langan yoki undirilgan summalarni aniqlash	45
2. Soliqlar va yig‘imlarning ortiqcha to‘langan yoki undirilgan summalarini hisobga olish	46
3. Soliqlar va yig‘imlarning ortiqcha to‘langan yoki undirilgan summalarini qaytarish	54
4. Muddatida qaytarilmagan ortiqcha to‘langan yoki ortiqcha undirilgan soliq summasiga foiz hisoblash va to‘lab berish	60
III BOB. SOLIQ TO‘LOVCHILAR SOLIQ INTIZOMI NAZORATI	**65**
5-MAVZU. SOLIQ RISKINI BOSHQARISH, SOLIQ RISKI MAVJUD SOLIQ TO‘LOVCHILARNI ANIQLASH TARTIBI	**65**
1. Soliq riskini tahlil qilish tartibi	65

2. Soliq riski darajasini aniqlash mezonlari va soliq to‘lovchilarni toifalarga ajratish tartibi	69
3. Riskini tahlil qilish va soliq to‘lovchilarni segmentlash	74
6-MAVZU. SOLIQ TO‘LAMASLIK RISKI DARAJASI YUQORI SOLIQ TO‘LOVCHILAR SOLIQ INTIZOMI NAZORATI	**79**
1. Soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etish riski o‘rtacha bo‘lgan soliq to‘lovchilarda soliq tekshiruvini tashkil etish va o‘tkazish	79
2. O`rtacha darajadagi risk toifasiga mansub soliq to‘lovchilarda soliq tekshiruvida aniqlangan soliqqa oid huquqbuzarliklar bo‘yicha ish yuritish	83
3. Yuqori darajadagi riskka mansub soliq to‘lovchiga soliq auditini tayinlash va o‘tkazish tartibi	85
4. Yuqori darajadagi risk toifasiga mansub soliq to‘lovchilarda soliqqa oid huquqbuzarliklar to‘g‘risida ish yuritish	100
IV BOB. SOLIQ MUNOSABATLARIDA SOLIQ INTIZOMI	**105**
7-MAVZU. SOLIQQA OID HUQUQBUZARLIKLAR	**105**
1. Soliq huquqbuzarliklari tushunchasi va turlari	105
2. Soliqqa oid javobgarlikning iqtisodiy mazmuni va huquqiy tabiati	112
3. Soliq tizimiga qarshi yo‘naltirilgan soliq huquqbuzarliklari, soliq jinoyatlari va ma’muriy huquqbuzarliklarni farqlash	115
8-MAVZU. SOLIQ HUQUQBUZARLIKLARI VA ULARNI SODIR ETGANLIK UCHUN JAVOBGARLIK CHORALARI	**121**
1. Soliq huquqbuzarligini sodir etishda shaxsning aybini istisno qiladigan, ularning javobgarligini yengillashtiradigan va og‘irlashtiradigan holatlar va ozod qilish tartibi	121
2. Soliq huquqbuzarliklari va uni sodir etganlik uchun javobgarlik choralari	124
9-MAVZU. SOLIQLAR VA YIG‘IMLARNI TO‘LASHDAN BO‘YIN TOVLAGANLIK UCHUN JAVOBGARLIK	**133**
1. Soliqlar va yig‘imlarni to‘lashdan bo‘yin tovlaganlik uchun javobgarlik	133
2. Soliqqa oid huquqbuzarlik uchun ma’muriy va jinoiy javobgarlikka tortilishni istisno qiladigan holatlar	137
3. Javobgarlikka tortiladigan huquqbuzarlik subyektlariga belgilangan javobgarlik choralari	139
10-MAVZU. SOLIQQA OID HUQUQBUZARLIKLARNING OLDINI OLISH CHORALARI	**144**

1. Soliqqa oid huquqbuzarliklarning oldini olish choralari	144
2. Soliqqa oid huquqbuzarliklar aniqlangan holatlar haqida jismoniy shaxslar tomonidan soliq organlarini xabardor qilish	146
V BOB. SOLIQ MUNOSABATLARIDA SOLIQ RISKLARI	**151**
11-MAVZU. SOLIQ MUNOSABATLARIDA SOLIQ RISKI VA UNI BOSHQARISH	**151**
1. Soliq munosabatlarida soliq risklari	151
2. Soliq risklarini boshqarish	157
VI BOB. SOLIQ MUNOSABATLARIDA SOLIQ INTIZOMI MUAMMOLARINI BARTARAF ETISH YO‘LLARI	**165**
12-MAVZU. SOLIQ MADANIYATINI OSHIRISH MASALALARI	**165**
1. Soliq madaniyatini oshirish maqsadida soliq to‘lovchilar bilan ishlashni tashkil etish	165
2. Soliq madaniyatini shakllantirishda axborot-tushuntirish ishlarining ahamiyati	166
13-MAVZU. DAVLAT SOLIQ XIZMATI ORGANI XODIMLARINING XULQ-ATVORI, MUOMALA MADANIYATI	**175**
1. Davlat soliq xizmati organi xodimlarining xizmatdagi xulq-atvor qoidalari	175
2. Davlat soliq xizmati organlari xodimlarining soliq to‘lovchilar bilan muomala madaniyati	183
3. Davlat soliq xizmati organlarida manfaatlar to‘qnashuvi	187
4. Soliq xizmati organlari xodimlari o‘rtasida huquqbuzarlik profilaktikasi	190
14-MAVZU. SOLIQ NIZOSI USTIDAN YUQORI TURUVCHI SOLIQ ORGANIGA SHIKOYAT QILISH TARTIBI	**195**
1. Shikoyat qilish huquqi va tartibi	195
2. Soliq organlari mansabdor shaxslarining harakatlari (harakatsizligi) ustidan sudgacha shikoyat qilish	200
3. Shikoyatni ko‘rmasdan qoldirish tartibi	202
15-MAVZU. DAVLAT SOLIQ XIZMATI ORGANLARIDA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH	**204**
1. Soliq organlarida korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy tamoyillari	204
2. Soliq organlarida korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy yo‘nalishlari	211

VII BOB. SOLIQ MUNOSABATLARIDA SOLIQ INTIZOMI MUAMMOLARINI YECHISHDA ILG‘OR TAJRIBALARDAN FOYDALANISH	**217**
16-MAVZU.SOLIQ MUNOSABATLARIDA SOLIQ INTIZOMI MUAMMOLARI, ULARNI YECHISHDA ILG‘OR TAJRIBA VA METODLARNI AMALIYOTGA TATBIQ ETISH	**217**
1. Soliq munosabatlarida soliq intizomiga rioya qilishni tashkil etish	217
2. Soliq majburiyatini bajarish, soliq qarzdorliklarini kamaytirish bo‘yicha xorijiy mamlakatlar tajribasi	221
3. Xorijiy mamlakatlarda soliqqa oid huquqbuzarliklar va ularga qarshi qo‘llaniladigan chora-tadbirlar	224
GLOSSARIY	**228**
TESTLAR	**235**
ILOVALAR	**292**
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR	**311**

Berdiyeva U.A.

SOLIQ MUNOSABATLARIDA SOLIQ INTIZOMI MUAMMOLARI

DARSLIK

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan talabalar uchun darslik sifatida tavsiya etilgan.

Muharrir: ***D.Komilova***
Badiiy muharrir: ***M.Rasulova***
Kompyuterda sahifalovchi: ***A.Abdubannopov***

0033

№ 9532-2567-580e-d56a-3c09-8693-8936

Bosmaxona guvohnomasi № 263093
Bosishga ruxsat etildi: 22.04.2025. Bichimi 60x84 1/16.
Nashr bosma tabog‘i 20,0. Adadi 10. Buyurtma № 28.

“MAKON ZIYO NURI” MChJ nashriyotida
rizografiya usulida chop etildi.
Yashnabod tumani, Go‘zal MFY,
Sokin ko‘chasi., 10 berk, 20 b – uy.